N.B.NURALIYEVA, SH.SH.ZIYOYEV,
O.T.SHIRINOV, B.T.TURDIQULOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

DARSLIK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

N.B.Nuraliyeva,
Sh.Sh.Ziyoyev,
O.T.Shirinov,
B.T.Turdiqulova

UMUMIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Oliy ta‘lim universitetlari, Sirtqi ta‘lim shakli III-bosqich, bilim sohasi: 100000 –gumanitar, ta‘lim sohasi: 110000—pedagogika, barcha pedagogik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan

DARSLIK

“Ziyo nashr-matbaa” XK

Gulistont -2024

KBK 74.00+88.3ya73
UO'K 37.013:159.9(075.8)
N 87

Nuraliyeva, N.B. Umumiy pedagogika va psixologiya [Matn] : darslik / N.B. Nuraliyeva; Sh.Sh. Ziyoyev, O.T. Shirinov, B.T. Turdiqulova; muharrir A.X.Maxmudov. – Sirdaryo: Ziyo nashr-matbaa, 2024. – 384 b.

TUZUVCHILAR: **Nuraliyeva N.B** katta o‘qituvchi
Sh.Sh.Ziyoyev o’qituvchi
O.T.Shirinov p.f.b.f.d.(PhD),
B.T.Turdiqulova katta o‘qituvchi

TAQRIZCHILAR: **A.X.Maxmudovdan p.f.d.proffessor**
B.X. Raximov p.f.d.proffessor

Guliston Davlat universiteti O‘quv uslubiy Kengashining 2024 yil- “3”– iyuldagi “11” – sonli bayonnomasi, hamda universitet rektorining 2024 yil- “4”– iyuldagi “101” – sonli buyrug’i asosida tayyorlandi.

Nashr ruxsatnomasi 101-32 raqami asosida ro‘xatga olingan.

ISBN 978-9910-669-17-0

© “Ziyo nashr-matbaa” XK
© Guliston Davlat universiteti, 2024-yil.

Ushbu darslik bakalavriat sirtqi ta‘lim standartlariga kiritilgan “Umumiy pedagogika va psixologiya” fani, Oliy ta‘lim universitetlari, Sirtqi ta‘lim shakli III-bosqich, bilim sohasi: 100000– gumanitar, ta‘lim sohasi: 110000—pedagogika, barcha pedagogik ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan.

Ushbu darslikda o‘quv dasturi asosida berilgan mavzularning nazariy ahamiyati, hamda amaliy mashg‘ulot tartiblari, mustaqil ishlarning bajarish shakllari ko‘rsatib o‘tilgan. Darslikda yoshlarni o‘z o‘zini, o‘zgalarni bilish, turli vaziyatlar va guruhlardagi muloqot qilish sirlari, ta‘lim tarbiyaning turlari, qonun qoidalari, fanni qo‘llashda zamonaviy texnologiyalari, innovatsiyon metodlari, mustaqil fikrlash omillari, psixik jarayonlar, ularning qoidalari, bola ruhiyati va boshqa tushunchalarni bilgan holda, boshqarish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bilan tanishadilar. Darslikda har bir bob uchun reja, qisqacha uning mazmuni mustahkamlash uchun savollar va adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

Данный учебник включен в стандарты бакалавриата заочной формы обучения по предмету «Общая педагогика и психология» высших учебных заведений, форма заочной формы обучения III ступени, область знаний: 100000 -гуманитарные науки, область образования: 110000 - педагогика, вся педагогическая подготовка для студентов образования.

В этом учебнике показана теоретическая значимость тем, данных на основе учебной программы, а также практические процедуры обучения и формы самостоятельной работы. В учебнике молодые люди узнают о себе и других, секретах общения в разных ситуациях и группах, видах образования, правовом регулировании, современных технологиях в применении науки, инновационных методах, факторах самостоятельного мышления, психических процессах, познании своих правила, детская психология и другие понятия, знакомятся с информацией об менеджменте. В учебнике дан план каждой главы, краткий перечень вопросов для закрепления ее содержания, список литературы.

This textbook is included in the standards of undergraduate correspondence courses in the subject “General Pedagogy and Psychology” of higher educational institutions, form of correspondence courses of the third stage, field of knowledge: 100,000 - humanities, field of education: 110,000 - pedagogy, all pedagogical training for education students

This textbook shows the theoretical significance of topics given on the basis of the curriculum, as well as practical learning procedures and forms of independent work. In the textbook, young people learn about themselves and others, the secrets of communication in different situations and groups, types of education, legal regulation, modern technologies in the application of science, innovative methods, independent thinking factors, mental processes, knowledge of their own rules, child psychology and other concepts, get information about management. The textbook gives a plan for each chapter, a short list of questions to consolidate its content, a list of references.

“Yangi O‘zbekistonning asosiy ustuni — bilim, ta‘lim va tarbiya bo‘ladi”

Shavkat MIRZIYOYEV

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi islohotlarni chuqurlashtirish uchun fuqarolarning, ayniqsa ziyolilarning ma‘naviy salohiyati, iqtisodiy o‘zgarishlarini to‘g‘ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni boshqara olishlari hamda XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera olishlari uchun o‘quv maskanlarida sifatli kadrlarni yetkazib berish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Fanning vazifasi sifatida pedagogika va psixologiya fanlarining predmeti, maqsadi, vazifalarini aniqlash hamda uning rivojlanish tarixini o‘rganish; talabalarni zamonaviy ta‘lim-tarbiya tizimlari, xususan, O‘zbekistonning uzluksiz ta‘lim tizimi hamda milliy g‘oya va milliy mafkurani xalqimiz ongiga singdirish masalasi; pedagogika va o‘qitish jarayonlari, ta‘lim mazmuni va tarbiya nazariyasi hamda ta‘lim va tarbiyaning metodlarini o‘rganish;- pedagogikaning tabiiy ijtimoiy asoslari va pedagogik faoliyat hamda uni tashkil etish jihatlarini aniqlash; talabalarni ta‘lim-tarbiyaning birligi, pedagog shaxsi va uning ijtimoiy burchi bilan tanishtirish; psixologik tushunchalar, kategoriyalar, qonuniyatlar, psixik jarayonlar va ularning toifalanishini o‘rganish; psixik jarayonlarning fiziologik asoslari ochib beriladi; shaxs va faoliyat hamda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va aniqlash; iqtisod yo‘nalishida taxsil olayotgan talabalarga zarur bo‘lgan keng va ijodiy tafakkurning psixologik asoslarini tushuntirish va ularni rivojlantirish hamda iqtisodiy fikralash malakalarini tarkib toptirish; talabalarning kelgusi ish faoliyatlarida ishbilarmonlik muloqoti to‘g‘risida

tushunchalarga ega qilish va ularda zarur qunikmalarni xosil qildirish.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar: “Umumiy pedagogika va psixologiya” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr; o‘z ixtisosini o‘zlashtirish paytida mazkur fanning nazariy asoslarini, amaliyotda o‘qitish va ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo‘llash, ma‘lum vaziyatlarda ulardan to‘g‘ri foydalana olish, ta‘lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Sharq va G‘arbning ilg‘or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish bo‘yicha malakalariga ega bo‘lishi kerak amaliyotda o‘qitish va ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning metod va vositalarini qo‘llash, pedagogik vaziyatlar, ta‘lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olish, o‘quvchilar va o‘qituvchilar jamoasini birlashtirish etaplarini bilish; zamonaviy ta‘lim texnologiyasi kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy-tadqiqot topshiriqlarini bajarishni bilishi va qo‘llay olishi kerak.

I.BO‘LIM. NAZARIY MASHGULOT MAVZULARI

I-bob. PEDAGOGIKA PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI, ILMIY – TADQIQOT METODLARI

Pedagogika fanini pretmeti va vazifalari

Bugungi kunda taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning bilim darajasini jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma’naviy jihatdan barkamol qilib voyaga etkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa avvalo pedagogika fanini, ta’lim tarbiya tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

Insonlar paydo bo‘libdiki, ta‘lim tarbiya bilan shug‘ullanib keladi, barkamolikka intiladi. Qadimshunos olimlarning ta‘kidlashicha, minglab yillar avval insonlar madaniy meros namunalarini yaratganlar. Sharq mamlakatlari Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston, Eron, Turkiya, va boshqa joylarda ham madaniy me’yoriy yodgorlikda turli sa‘nat va muxandislik inshootlarida uchratish mumkin.

Hozirgi kunda saqlanib qolgan eng eski pedagogik ta‘limot qadimgi Yunoniston davlatlari: Sparta va Attikada amalga oshirilgan. Pedagogika tushunchasi ham o‘sha zamonlarda qo‘llanila boshlagan.

Avvalo pedagogika “pais ageines” ya‘ni bola yetaklash degan ma‘noni bildiradi. [1]

[1] B.X.XODJAYEV. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.

O‘sha davrda quldorlar bolalarini qo‘riqlab, himoya qilib, yuradigan insonlarni shunday atashgan. Keyinchalik ta‘lim tarbiyani takomillashib borishi natijasida, ta‘lim tarbiya bilan shug‘ullanuvchi insonlarnI pedagogklar deb atashgan. Pedagogika ta‘lim tarbiya haqidagi ta‘limotlarni organadigan soha bo‘lib falsafani tarkibida shakllanib bordi.

Pedagogikaning pretmeti sifatida ta‘lim tarbiya jarayoni va unda amalga oshirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik ko‘rgan kishilarning faoliyati tuhsuniladi. Har bir bola muayyan layoqat va qobiliyat bilan tugiladi. Bu qobiliyat va layoqat oilada ota onalar, jamiyatda tarbiyachi ustozlar va jamoatchilik ta‘siri asosida shakllanadi. Pedagogika dastlab yoshlarga ta'lim va tarbiya berish haqidagi ta'limot sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, sekin-asta bu sohadagi izlanishlar doirasi kengaya bordi. Hozirgi kunda pedagogika barkamol shaxsni shakllantirish qonuniyatlari to‘g'risidagi fan sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari, ta'lim davlat standartlari, ta'lim-tarbiyaning usullari, uni tashkil etish shakllari va qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi. Yaqin vaqtgacha falsafaning bir tarmog'i hisoblangan pedagogikaning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslari yaratilib, pedagogika fanlar majmui paydo bo‘ldi. Bizningcha, pedagogika turkumiga kiruvchi fanlar majmuini 4 ta yirik guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Barcha pedagogikaga oid fanlarga asos bo‘lgan pedagogika tarixi va nazariyasi guruhiga pedagogika tarixi, didaktika va umumiy pedagogika kiradi.

PEDAGOGIKA FANINING PRETMETI
O’qitish, ta’lim tarbiyaning qonuniyatlarini o’rganadi
Ta’lim mazmuni metodlari, vositalari bilan qurollantiradi
Fanning metodologik asoslarini bilishni o’rganadi
Shaxs rivojlanishini o’ziga xos qonuniyatlarini o’rganadi
Ta’lim tarbiya to’g’risidagi g’oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirish sohalari, usul va yo’llari, vositalarini o’rganadi.
O’rganiladigan tushunchalar
BILIM
TA’LIM
TARBIYA
MA’LUMOT
KO’NIKMA
MALAKA
O’QITISH
RIVOJLANISH
SHAXS
O’RGANILADIGAN ASOSIY G’OYALAR
INSONIY FAZILATLAR
KOMIL INSON
AXLOQIY SIFATLAR
BARKAMOL SHAXS
VATAN RAVNAQI
ODOB AXLOQ
O’ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH

Pedagogikaning <u>maqsadi</u>: yoshlarda, bo‘lajak mutaxasissislarni komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy, axloqiy – amaliy o‘quv, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, har tomonlama etuk, komil insonlarni tarbiyalash, ularda har bir sohaga mos ilm, bilim, ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir



Pedagogika fanining ob’ekti asosan maktab o’quvchilaridir, **predmeti esa** o’quvchilarga berilayotgan ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir.

Pedagogika ta’lim-tarbiya maqsadini jamiyat talabalariga va o’quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o’rganib borishni taqozo etadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o’rtasidagi bog’lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta’lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo’llarini ko’rsatib beradi.

Umumiy pedagogika – uzluksiz ta'lim jarayonining har bir bosqichidagi pedagogik jarayonning o‘ziga xosligini asoslab beruvchi – oila pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi va kattalar pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, harbiy pedagogika, menejment pedagogikasi, iqtisodiy pedagogikasi, tibbiyot pedagogikasi va boshqa tarmoqlarga bo‘lingan. Undan tashqari,sezgi organlarining biron bir turi ishlamaydigan kishilarga bilim berishning o‘ziga xos tomonlarini o‘rganuvchi maxsus pedagogika guruhiga – surdopedagogika, tiflopedagogika va olifrenopedagogikalar kiradi. Butun pedagogik jarayonni amalga oshirish yo‘l-yo‘ruqlarini ko‘rsatib beruvchi metodika (uslubiyat)ni ham, o‘z navbatida – maktabgacha ta'lim metodikasi, umumta'lim metodikasi, kasb-hunar ta'limi metodikasi, oliy ta'lim metodikasi va malaka oshirish tizimi metodikasi va boshqa tarmoqlardan iborat. Bu pedagogik fanlar o‘zaro uzviy bog'liq bo‘lib, biri-birini taqazo etadi, biri-birini to‘ldiradi.



"Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun, "Oila" risolasida, — farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat qilish lozim — deb yozadi birinchi o'zbek professori

ABDURAUF FITRAT

Pedagogikaning metodologik asoslari

Fanning metodologik asoslari har bir davrning o‘ziga xos muommolariga qaratilgan. Metodologiya o‘z navbatida, qadryatlarning o‘zgarishi qonuniyatlarga bog‘liq holda, rivojlanmasligi mumkin emas. Dastlab yangi metodlarni izlab topish jarayoni davom etmoqda, mavjud bo‘lgan metodlarni tubdan takomillashtirish ilmiy bilish mantiqini loyihalash, tadqiqotlar samarasini oshiradigan metodologiyaga e’tibor qaratilgan.

Metodologiya *– (yunoncha-metodlar haqida ta‘limot) ijodiy jarayon sifatida ilmiy bilish yo‘llari va vositalarining, ilmiy tadqiqot qonuniyatlarining, ularni taqqoslash va tizimlashtirish zamirida yuzaga kelgan. Demak, metodologiya ilmiy bilish faoliyatining mohiyatini yo‘llari va vositalarining nazariy muammolarini, shuningdek, ijtimoiy jarayon sifatida ilmiy tadqiqot qonuniyatlarini o‘rganadi.*[2]

Pedagogika – boshqa rivojlangan fanlar qatori o‘zining alohida predmetiga, nazariy printsiplariga ega va alohida tadqiqot metodalarini biluvga tortilgan ob’ektiv voqelikning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlrini xisobga olgan xolda qo‘llaydi.

Metodologiyaga e’tiborning kuchayishi, kun tartibida turganligining ob’ektiv omillari mavjud: mamlakatimizda insonparvar demokratik huquqiy davlat zaminida adolatli fuqarolik jamiyati qurilmoqda va ta‘lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga mos holda tubdan yangilandi. Bu yangi modelning muvaffaqqiyati ko‘p jihatdan pedagogik tadqiqotlar natijasiga, umuman,pedagogika fanining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir.

[2] M.X.Toxtaxodjayeva Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik . 2010. - 400 b.

Dastlab pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati, ularning mantiqi, metodologik tavsifi bilan bog‘liq quyidagi masalalar aniqlashtirilmog‘i lozim:

- pedagogikaning nazariy tadqiqotlari samarasini oshirish;
- pedagogik tajribani o‘rganish va natijalaridan foydalanish;
- pedagogik tajriba-sinov, uning mohiyati, metodikasini oydinlashtirish;
- fan yutuqlarini ta‘lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etish muammolari;
- tarbiyaga yaxlitlikda yondashish, bunda mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati;
- pedagogika fanini milliy va umuminsoniy tajribalar asosida rivojlantirishning metodologik jixatlari va x.k.

Anu shu savollar doirasidan ma‘lum bo‘ladiki, mavjud bilimlar bilan yashash, zamonaviy talab va ehtiyojlarga befarq qarash, mumkin emas. Bunday sharoitda tabiiyki, “tayanch” nuqta amaliyot bo‘lishi lozim, ya‘ni zamonaviy o‘zbek ta‘limi holati – haqiqiy haqiqat mezoni hisoblanadi. Amaliyot ta‘siri ostida nazariya ilmiy kashfiyotlarning asosiy omiliga aylanadi. Faqat keng va har tomonlama tashkil etilgan amaliyotgina faoliyatning kamchiligini va etilmaganligini hamda ayni vaqtda pedagogik voqalikni bilishga xizmat qiladi.

Pedagogika tarbiya haqidagi fandir. Afsuski, bu izoh bugungi kun talabiga to‘liq javob bera olmaydi, qator xollarda chalkashlikka olib keladi, fanning ta‘sir doirasini toraytiradi. Shunday ekan, pedagogikani ta‘lim va tarbiya haqidgi fan sifatida talqin etish to‘g‘ri buladi. Bu o‘z navbatida shaxsni maqsadga mos holda shakllantirishning ikki qanotida

anglatadi. Shu sabadan birmuncha aniq ta‘rif quyidagicha bo‘lishi mumkin: pedagogika – bu shaxsni maqsadli shakllantirish haqidagi fandir.

Ma‘lumki, shaxsni shakllantirishda irsiyat, muxit, pedagoglarning maqsadli aoliyati, insonning xususiy faoliyati va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi omillar katta imkoniyatlarga ega. Taklif qilinyotgan ta‘rif fanning qator afzalliklarini sanaladi: birinchidan, pedagogik faoliyat o‘rni shaxsni rivojlantirish va tiklash omillari (irsiyat, muhit va b.) orasida belgilab boradi; ikkinchidan, pedagogik jarayon sifatida ta‘lim va tarbiya ahamiyatini muvozanatlashtiradi; uchinchidan, “tarbiya” atamasi qaysi ma‘noda (tor yoki keng) ishlatilishini ko‘rsatish zaruratidan soqit qiladi.

Pedagogika fani predmeti aniqlash, uning boshqa fanlar bilan aloqasi va o‘zaro ta‘sir doirasini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bu muammo hozircha umumiy tarzda yoritilgan bo‘lib, aslida kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ham mazmun jihatdan, ham mantiqiy bog‘lanishlar jihatdan uning tavsifnomasi ishlab chiqilishi lozim.

Har bir fanning rivojlanish doirasini tadqiqotlarni tabaqallashtirish va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligining xilma-xilligiga bog‘liq holda muhokama qilinishi lozim.

Pedagogik paradigma ilmiy faoliyat modeli sifatida bir tomondan ta‘limda fanlararo tadqiqotlarning nufuzi oshayotganligini, pedagogika fanining integrativ funktsiyasi kuchayayotganligini ko‘rsatsa, boshqa tomondan ta‘lim-tarbiya qonuniyatlarini o‘z predmeti sifatida qabul qilishi yagona fan sifatida pedagogikaning nazariy mavqeini oshirish va maqomini aniqlashtirish vazifasini ilgari surdi.

Mavjud adabiyotlar tahlili asosida pedagogika metodologiyasini quyidagicha ifodalash mumkin: ***Pedagogik metodologiya o‘zida pedagogik nazariya asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishning yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, bu bilimlar tizimini qo‘lga kiritish bo‘yicha faoliyat tizimini mujassamlashtiradi.***

Bu ta‘rifda ilmiy bilishning ikki jihati: bilimlar tizimi va ilmiy-tadqiqiy faoliyat qamrab olingan. Yoki ikki faoliyat turi – metodologik tadqiqot va metodologik ta‘minot hisobga olinyapti. Agar birinchisining vazifasi pedagogika fanlari rivojining qonuniyatlari va yo‘nalishlarini, pedagogik tadqiqotlarning sifat va samaradorligini oshirish printsiplarini, ularning tushunchalari tarkibini aniqlashtirsa, ikkinchisi – metodologik bilimlardan tadqiqot dasturlarini asoslashda va sifatini baholashda foydalanishni anglatadi.

Pedagoggika fanining asosiy tushunchalari

Pedagogika fani ta‘lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o‘zgarishini o‘rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qisimlarini va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta‘lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, ta‘lim mazmuni va tarbiyaning kelgusidagi istiqbollari, yo‘llari va usullarini qo‘rsatib boradi. Pedagogika fanida bir-biri bilan bog‘langan asosiy tushunchalar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlarini sharhlaymiz:

Tarbiya – o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va ma‘suliyatni,

jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug‘ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda, kasb-hunar kollejida, oliy ta‘lim muassasasida va jamoatchilik ta‘sirida shakllanib boradigan jarayondir.

Bilim inson tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarni o‘zlashtirish natijasidir. Bilimni hayotda ko‘p samara beradigan qilib qo‘llay olish uchun bilim bilan birga ko‘nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsda kerak bo‘lsa, ko‘nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyoni o‘zlashtirishda zarur.

Ko‘nikma – malakaning tarkibiy qismi bo‘lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va o‘quvchi – o‘quvchilarda ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig‘indisidir.

Malaka – o‘quvchilarning bilim egallash va mehnat jarayonidagi harakatini (yoki harakatlar majmuasini) muayyan sharoitda maqsadga muvofiq shakllantirish va shu orqali o‘qishda va mehnat faoliyatida ijobiy natijalarga erishib, ongli bajarishga tayyor bo‘lishdir. Umuman, iqtidor va ko‘nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga** aylanadi.

Shaxs – jamiyat a‘zosi sifatida, o‘z – o‘zining anglashi va tafakkur faoliyatining ob’ektivligi, muloqotda hamda kamolotga etishida nasl (irsiyat) biologik, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta‘lim-tarbiya va nihoyat o‘zining faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Shaxs shakllanishi – inson bioijtimoiy mavjud bo‘lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma‘lum bir bosqichida shaxsga aylanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot -Tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta‘sir etish, ya‘ni shaxsning shakllanish jarayoni. Shaxsning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiya etakchi o‘rinni egallaydi.

Pedagogik tamoyil (printsiplar) – o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o‘quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o‘rtasidagi zaruriy bog‘liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

Shaxsning har tomonlama kamolga etishi – ma‘lum bir tarixiy shart-sharoitlardagi individ qobiliyati va iqtidori, uning bioijtimoiy mohiyatlarini tashkil qiladigan hamma kuchlarni to‘liq rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik muhit -ta‘lim –tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo (o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar orasidagi) munosabatlar majmui.

Ijtimoiy muhit – kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui. Ijtimoiy tafakkur, turmush tarzi va shaxslararo, guruhlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o‘zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitish.

O‘z-o‘zini anglash – shaxsning o‘ziga va o‘z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olish.

Ta‘lim-tarbiyaning insoniyligi – pedagogik jarayonni, ya‘ni ta‘lim-tarbiya beruvchi bilan o‘quvchi orasidagi pedagogik munosabatlar oqimini o‘ta insoniy (o‘zaro izzat-hurmat va muhabbat) ruhida amalga oshirish.

Tizim – so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘laklardan hosil bo‘lgan, birikish ma‘nosini anglatadi. Ya‘ni yaxlit, butunlikda faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro bog‘liq elementlarning yig‘indisidir.

Pedagogika tarixi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi va tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etib, pedagogik g‘oyalarning salbiy pedagogik g‘oyalarga qarshi kurashi tarixini, xukmron tabaqalarning demokratiyaga qarshi siyosatini ochib tashlaydi, ilg‘or pedagogik g‘oyalar, hur fikrlar, ta‘lim qonuniyatlarining ayrim olingan tarixiy davrdagi rivojlanish tamoyillarini tahlil qiladi, muhim umumiy xulosalar chiqaradi va bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o‘rtaga tashlaydi.

Tarixiylik tamoyili har qanday fan rivojlanishning zarur tamoyili hisoblanadi. Zero, o‘tmishni hozirgi davr bilan qiyoslash faqat xozirgi xodisalarning asosiy rivojlanish bosqichlarini yaxshi kuzatib borishga yoki o‘tmishning bebaho tajribasi hamda erishilgan yutuqlardan foydalanishga yordam berib qolmay, shu bilan birga, bu sohada xatolarga yo‘l qo‘yishdan saqlaydi va kelajakka yo‘naltirilgan amaliy takliflar, maqsadli izlanishlarni amalga oshirishga ko‘p darajada asos bo‘ladi. Jamiyat hayotini qayta qurish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni, shuningdek, hamma fuqarolarni tarbiyalashni kuchaytirishni talab etadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

«**Pedagogika**» fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog‘liqdir.

«Falsafa» fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya‘ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiy masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning ahloqiy vo terbiya masalalari bilan bevosita bog‘liqdir. Ularni xal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go‘zallikni xis qila olish, tushunishga o‘rganish vositalari va yo‘llarini belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiyligini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo‘nalishga ega ekanligini ta‘kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma‘lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo‘lgan ob’ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o‘rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o‘rganadigan boshqa fanlardan farqli o‘laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug‘ullanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog‘liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o‘ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek, sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma‘lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta‘limning ba‘zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini yaratadi hamda ta‘lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko‘pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o‘sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtlarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo‘lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o‘zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo‘lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog‘liqlikda ekanligini ko‘rsatadi.

Albatta ta‘lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlar bilan birga

milliy o‘ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomondan ta‘lim nazariyasini, ta‘lim - tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Evropa orqali o‘zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyidagi tushunchalarda xususiy milliylikdan ko‘ra, umuminsoniylik jihatlarining ko‘pligi ko‘zga tashlanib turadi.

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari

Pedagogika fani o‘z mazmunini boyitishda yangilashda mavjud bo‘lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to‘g‘ri qo‘llansa, ta‘lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog pedagogik jarayonda o‘z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chikqan holda ularning psixologiyasini chuqur o‘rganishda bir qator metodlarni qo‘llashi mumkin. Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta‘sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Adabiyotlarni o‘rganish metodi.
2. Pedagogik kuzatish metodi.
3. Suhbat metodi (yakka tartibda, guruh bilan).
4. Pedagogik so‘rash metodi.
5. Test sinovlari metodi.
6. Ta‘lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.

7.Eksperement-tajriba-sinov metodi.

8. Statistika ma‘lumotlarini taxlil qilish metodi.

9. Matematika va kibernetika metodi.

10. Modellashtirish metodi.

Adabiyotlarni o‘rganish metodi -Tadqiqot mavzusi bo‘yicha pedagogika psixologiya, madaniyat, iqtisod, siyosatga doir adabiyotlar va dissertatsiyalar o‘rganishda qo‘llaniladi.

Pedagogik kuzatish – odatda tabiiy kuzatish orqali o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o‘zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta‘limiy-tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish yo‘llarini belgilash uchun qo‘llaniladi. Bu metod tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko‘zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob’ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Suhbat metodi – so‘rashning bir turi bo‘lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko‘rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo‘lish vaqtida og‘zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo‘llaniladi.

Suhbat metodi -Ta‘lim muassasasi o‘qituvchilari va o‘quvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo‘llaniladi. Suhbat metodidan farq qilib intervyu olish metodi savollarni oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo‘li bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so‘rash

nazariyasi va praktikasi intervyu tashkil etishning ko‘p metodlari mavjud:

a) guruhlar bilan; b) intensiv; v) sinash va h.k.

Pedagogik so‘rash metodi -Tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So‘rashda savollarning mantiqiy o‘ylangan sistemasi, ularning aniq ifodalanishi nazarda tutiladi.

Test sinovlari metodi – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig‘ib olish metodidir. Test sinovlarini(anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to‘ldirilgan anketalar soniga bog‘liq bo‘ladi. Odatda test savollarining ma‘lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Ta‘lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi – bunda o‘quvchilarning umumiy miqdori, uning o‘sishi yoki kamayish sabablari tavsifi, o‘quvchilarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish darajasiga, yoki kursidan qolishning oldini olish, Rag‘batlantirish va jazolash choralari turlariga, ta‘lim muassasasining moddiy bazasiga e’tibor beriladi.

Eksperiment-tajriba-sinov metodi – ushbu tajriba asosan ta‘lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqi jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Statistika ma‘lumotlarini tahlil qilish metodi – ta‘lim-tarbiyaga doir ma‘lumotlarni statistik umumlashtirish va solishtirish ko‘zda tutiladigan tadqiqot metodi.

Matematika va kibernetika metodlari – o‘qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari

yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta‘lim va uni mashina orqali boshqarish kabilardir.

Milliy pedagogikaning nazariy-metodologik asoslari. Milliy pedagogika fani taraqqiyotini zamon talablari darajasiga etkazish uchun: a) o‘zbek xalq pedagogikasi; b) pedagogika tarixi; v) zamonaviy pedagogika fani kabi uch yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot olib borilishi kerak. Bunda pedagogika fani oldida turgan muammolarni echishga eng zamonaviy yondashuvlar amalga oshirilishiga imkon yaratilishi zarur. Pedagogikaning muayyan millatga xos ruhiy-intellektual xususiyatlarni saqlab qolish va taraqqiy ettirish hamda xalqdagi umuminsoniy universal jihatlarni qaror topdirishga xizmat qiladigan fan ekanidan kelib chiqib, uning bugungi ravnaqida universallik bilan o‘ziga xoslik dialektikasiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Agar o‘zbek pedagogika fani taraqqiyotiga shu tarzda yondashilsa, pedagogika fanigina rivojlanib qolmay, uning amaliyoti ravnaqiga ham erishiladi. Shu tariqa, globallashayotgan dunyoda ham ruhiy, ham intellektual jihatdan o‘ziga munosib o‘rin topa oladigan avlod shakllantirilishiga erishiladi.

Xalq pedagogikasi yo‘nalishidagi ilmiy ishlarda o‘zbek xalqi asrlar mobaynida o‘z turmushida qo‘llab kelgan pedagogik amaliyotga doir hodisalar tekshiriladi. Xalq pedagogikasiga xos talablar nazariy g‘oyalar tarzida emas, balki millatning turmush yo‘sini, e’tiqodiy yo‘nalishi, udum va amallari shaklida namoyon bo‘ladi. Xalq pedagogikasi borasidagi ilmiy izlanishlarda pedagogik amaliyotdagi u yoki bu talablarning kelib chiqish va yoyilish sabablari, uzoq davrlar mobaynida saqlanib qolganligi, millatning ruhiy qiyofasi va turmush yo‘sinini tayin etishdagi o‘rni kabi masalalar tekshiriladi.

O‘zbek xalq pedagogikasining areal (mintaqaviy) mohiyati, xalq pedagogikasidagi hududga bog‘liq jihatlarning namoyon bo‘lish tarzi va genezisi tekshiriladi. Shunda yaxlit o‘zbek millati mintaqalarida xalq pedagogikasi sohasidagi areal o‘ziga xosliklarning ildizi va namoyon bo‘lish tarzi aniqlanadi.

Xalq pedagogikasining o‘zbek xalqining e’tiqod yo‘sinidan kelib chiqadigan xususiyatlari, pedagogik amaliyotning milliy ong hamda xalq ommasining dunyoqarashiga bog‘liq yo‘sinda turli bosqichlarga bo‘linishining omillari ilmiy tadqiq etiladi. Ming yillar davomida xalqning e’tiqod yo‘sini va dunyoqarashida ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar uning pedagogik amaliyotiga ham ta‘sir ko‘rsatganligi o‘rganiladi. Shu aspektda yondashilsa, o‘zbek xalqining pedagogik amaliyoti 1) islomgacha bo‘lgan davrdagi xalq pedagogikasi; 2) islom ta‘siridagi xalq pedagogikasi; 3) jahoniy ta‘sirlar davri xalq pedagogikasi singari uch katta bosqichni bosib o‘tganligi ayon bo‘ladi.

Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar xalq pedagogikasining tarli davrlardagi taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlarini tekshiradi. Bu hol zamonaviy pedagogika fanining milliy o‘ziga xos yo‘sinda rivojlanishiga ilmiy-etnik asos bo‘ladi. Chunki pedagogika barcha ilmiy qadriyatlar orasida eng ko‘p darajada milliy xususiyatga ega bo‘ladigan hodisadir. Chunki xalq pedagogikasi millatga xos jihatlarni reproduktsiya qilish, ya‘ni qayta ishlab chiqarishning eng samarali yo‘lidir.

Xalq pedagogikasining a) udumlar; b) odatlar; v) o‘yinlar; g) ta‘qiqlar; d) folklor asarlari; e) amallar kabi hodisalarda namoyon bo‘lishi alohida tadqiq etiladi. Shuningdek, xalq pedagogikasi va xalq og‘zaki badiiy ijodi tushunchalari bitta hodisa emasligiga e’tibor qaratiladi.

Pedagogika tarixi ham milliy, ham ochun ilmiy pedagogikasi bosib o‘tgan yo‘lning xarakterli jihatlarini tadqiq etishga qaratiladi. Bunda oldingi evrotsentrik yondashuvdan qutulib, o‘zbek pedagogika fani bosib o‘tgan yo‘l, bu pedagogikaning mohiyatini tashkil etgan unsurlar, undagi o‘zgarishlar va buning omillari milliy asosda tadqiq etilishi ko‘zda tutiladi.

Insoniyat va millat tarixiga ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar almashinuvidan iborat jarayon sifatida yondashish noto‘g‘ri ekanligiga asoslanib, milliy pedagogika ilmi o‘zbek millati bilan birga turli ichki va tashqi omillar asosida o‘sib kelganligi xalq va mamlakat tarixiga oid materiallarga tayangan holda tekshiriladi. Bunda o‘tmishga quruq mahliyolik yo‘lidan borilmay, mavjud osori atiqalarning pedagogik jihatlarini ilmiy asosda ko‘rsatib berishga intilinadi. Milliy pedagogika ilmining uzoq tarixi:

a) islomgacha bo‘lgan davrdagi pedagogika;

b) islom ta‘siridagi pedagogika;

v) jahoniy ta‘sirlar davri o‘zbek pedagogikasi singari ulkan uch bosqichga ajratilib tekshirilishi ko‘zda tutiladi. Agar tadqiqotlar natijasida bu katta bosqichlarni ichki davrlarga ajratishga imkon beradigan argumentlarga ega bo‘linsa, ichki davrlashtirish ham amalga oshiriladi.

Milliy pedagogikaning islomgacha bo‘lgan davri tekshirilganda, bobolarimiz Allohni tan olishlaridan oldin amal qilib kelgan ilmiy pedagogik tamoyillarni aniqlashga, bular ta‘lim jarayonida qanday namoyon bo‘lganligini aniqlashga e’tibor qaratiladi. Bular turli toshbitiklar va “Avesto”, “Oltin yoruq”, “Kodeksus qumanus” kabi asarlarda bayon etilgan pedagogik aqidalar tadqiqini o‘z ichiga olishi

mumkin. Bunda hali halol va harom, savob va gunoh tushunchalari mas’uliyatini tuymagan bobolarimizning pedagogik qarashlari, o‘qitish va tarbiyalash tizimi hamda yo‘sini qanday bo‘lganligi tekshiriladi.

O‘zbek pedagogikasining islom ta‘siridagi davri tadqiq etilganda, pedagogika tarixidagi bu davrda shu vaqtga qadar obzor shaklida umumiy tarzda aytib kelinganidan bir necha baravar boy va mukammal ta‘lim-tarbiya tizimi mavjud bo‘lib, uzoq yillar mobaynida faoliyat ko‘rsatganligi, jahonni gohida ilmi bilan hayratga solgan, goho harbiy va intellektual quvvati bilan tiz cho‘ktirgan barkamol shaxslarni shakllantirish imkoniga ega bo‘lgani va buning pedagogik omillari har tomonlama tadqiq etiladi.

Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni olib borishda o‘sha davrdagi ta‘lim muassasalari faoliyati arab va fors tillarida yo‘lga qo‘yilganligidan kelib chiqib, fors va arab tilidan xabardor, eski qo‘lyozmalarni o‘qiy oladigan o‘zbek tadqiqotchilarini bu ishga jalb etishga e’tibor qaratiladi. Ehtiyojga qarab, bu xil tadqiqotchilarga ayrim imtiyozlar berilishi ko‘zda tutiladi.

O‘zbek pedagogikasi tarixini tadqiq etish yo‘nalishidagi ilmiy ishlar dunyo pedagogikasi tarixini o‘rganishni aslo inkor etmaydi. Ayni vaqtda, o‘zbek pedagogikasi tarixining dunyo pedagogikasi tarixi soyasida qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik ko‘zda tutiladi. Pedagogika tarixiga doir shu vaqtga qadar yaratilgan ilmiy ishlarda Kunchiqish, ayniqsa, islom mamlakatlari pedagogikasi mutlaqo nazardan qochirilar, tilga olish lozim bo‘lganda ham sxolastik va qoloq pedagogik tizim sifatida qayd etilardi. Bunday qarashlarning adolatdan emasligini ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib berishga harakat qilinadi.

Zamonaviy pedagogika fani

Dunyo tajribasida ta‘lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasi kabi ikki qismdan iborat deb qarab kelinadigan zamonaviy pedagogika fani ham sof milliy asosda ishlab chiqilishi lozim. Shundagina u ishlamaydigan fanniy aqidalardan iborat bo‘lib qolmay, amaliyotga ta‘sir ko‘rsata oladigan bo‘ladi. Milliy mentalitetimizda tarbiya birlamchi mavqeda ekani hamda har bir odam o‘z hayotida bilim olishidan oldin tarbiya olishidan kelib chiqib, tarbiya nazariyasini pedagogika fanining birinchi qismi, ta‘lim nazariyasini esa, ikkinchi qismi tarzida tekshirish va ularga xos qonuniyatlarni milliy asoslarga tayangan holda tamomila yangidan ishlab chiqish zarur bo‘ladi.

Bunda rus va kunbotish mamlakatlarida ishlab chiqilgan tayyor to‘xtamlarni takrorlab qolmay, milliy tarbiya va ta‘limga xos qonuniyatlar va pedagogik kategoriyalarni tayin etish yo‘lidan borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu hol dunyo pedagogikasi tajribalarini inkor etmagan holda milliy tarbiya va ta‘limga xos qonuniyatlarni topish zaruratini anglatadi. Bunda tarbiya, ta‘lim, ma‘rifat (obrazovanie), ma‘rifatlilik (obrazovannost) kabi tushunchalar ochun pedagogikasi ilmida bo‘lgani kabi farqlanishi lozimligi ko‘zda tutilishi kerak bo‘ladi.

Bugungi pedagogika o‘quvchilarga ta‘limiy haqiqatni bildirishga asoslangan minglab yillik an’anaviy yo‘nalishni bir qadar isloh qilib, axborot to‘foni ichidagi sertashvish va o‘zgaruvchan global dunyoda yashay oladigan, tinimsiz paydo bo‘lib turadigan hayotiy muammolarni mustaqil ravishda echa biladigan shaxslarni shakllantirishga xizmat qildirilishi ko‘zda tutiladi. Bugungi pedagogika uchun bilim emas, o‘quvchi shaxsi bosh qadriyatga aylanadi. Endigi o‘quvchi o‘qitilmaydi,

shu bois pedagogik amaliyot ham olamga o‘quv predmeti nuqtai nazaridan qarashdan qutulishi kerak bo‘ladi. Hozirgi pedagogika ilmi o‘quvchini o‘qish jarayonida mustaqil izlanadigan, har bir masala yuzasidan o‘z fikrini bildirishga urinadigan holatda tarbiyalashga erishish yo‘llarini tadqiq etishga qaratiladi. Shunda ta‘limning barcha sohalariga interfaol usullarni joriy etish yo‘llarini ishlab chiqishga kirishiladi. Bunda interfaol o‘qish va o‘qitish usullarining hayotiy va falsafiy asoslarini tayin etishga e’tibor qaratilishi joiz bo‘ladi. Shuningdek, “Pedagogik texnologiya”, to‘g‘rirog‘i “Texnologik pedagogika” tushunchasining ilmiy asoslanishiga e’tibor qaratiladi. Bu kechimda masalaning faqat tashqi jihatiga mahliyo bo‘lmay, uning asl mohiyatiga ochish, undan so‘ngina bu tushunchalarni amalda qo‘llashning ilmiy asoslarini topishga birlamchi e’tibor qaratilishi joiz bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogika ilmi o‘quvchini ta‘lim jarayonining sub’ekti, ya‘ni ijrochisi deb qaraydi va o‘zining butun kuchini uning sub’ektlik vazifasini samaraliroq o‘tashi uchun kerakli didaktik sharoitni yaratib berishga qaratadi. Bunda ta‘lim jarayonini o‘quvchini izlanadigan qilish, mashg‘ulotlarni olamni bilishga qiziqtiradigan tarzda uyushtirish, uni kerakli jihozlar bilan ta‘minlash yo‘lida izlanishlar olib borilishi ko‘zda tutiladi. Zamonaviy pedagogika fani, birinchi navbatda, o‘qituvchilarda ta‘lim jarayonini yangicha tashkil etish mumkinligiga ishonch uyg‘otib, unda o‘quvchini o‘z hamkoriga aylantirish istagini shakllantirishga yo‘naltirilishi ko‘zda tutiladi.

Bizni o‘rab turgan olam g‘oyat turfa, juda ham rangin, o‘ta murakkab va serjilva. U shu qadar ranginki, buni tasavvur etishga xayolot qulochi kaltalik qiladi. Daraxtning birgina bargidagi mukammallik, ranginlik kishi

aqlini shoshiradi. Shunchalar turfayu chigal olamning sirlarini bilishga, uning taraqqiyot yo‘lini izohlashga odamzod dadil kirishadi. Aytish kerakki, muayyan darajada, dunyo sirini kashf etishga inson erishadi ham. Ammo odamning o‘zi shu qadar murakkab va ranginki, uning oldida olam turfaligi hech gap bo‘lmay qoladi. Olamdagi barcha jonliyu jonsiz mavjudot bir joyga yig‘ilib yillab uringanda ham bittagina odamning bir onlik ruhiy holatiyu, zudlik taxayyulini to‘liq bila olmaydi. Buni ham qo‘ya turing: odam o‘zini o‘zi ham bilolmaydi. Har bir odam umrbod o‘zini izlab, o‘zini topmoqchi bo‘lib yashaydi. Butun hayoti o‘zini tanib olishga sarflanadi. Lekin, ko‘pincha, o‘zini topolmay o‘tib ketadi.

Odamlar nega bunchalar murakkab, ayni vaqtida, u ne boisdan mukarram? Uning murakkabu mukarramligining sababi qaerda? Bular hammani hamisha o‘ylantirgan, lekin bir xil qat’iy javob aytish mumkin bo‘lmagan savollardir.

Olamdagi sanoqsiz narsalarning aksariyatida vujud boru jon yo‘q, ba‘zilarida jon boru jasad yo‘q, bir qator yaratiqlarda vujud ham, jon ham, boru ruh yo‘q. Odamzodda esa vujud ham, jon ham, ruh ham borki, bu uning mukarramligi, azizligi boisdir.

Odamning mavjudligini tashkil etgan shu uch birlikka monand ravishda unda jismoniy, nafsoniy va ruhoniy sifatlar ham Yaratgan tomonidan paydo qilingan. Ma‘naviyat nafsoniy mayllarni jilovlab ruhoniy jihatlarni rivojlantirish majmui demakdir. Chegara bilmas olam, ta‘rifga sig‘mas darajada siru sinoatga, go‘zlalligu tarovatga ega dunyo vujud, jon va ruh egasi bo‘lmish Odam uchun yaratilgan.

Alloh o‘zining hadsiz ulug‘ligi, qudrati, go‘zalligini namoyish etish, muayyan bir ko‘zgu vositasida tamosha qilib huzurlanish maqsadida

Insonni yaratgan. Olamdagi sanoqsiz yaratiqlar orasida faqat odamgina Yaratuvchining o‘ziga xos bo‘lgan sifatlar bilan ziynatlangan. Chunki Parvardigor odam timsolida o‘zini ko‘rmoq istagan. “Yuragingga chekingil, yuragingda Alloh bor”,– degan Yassaviy hikmati g‘oyat real mazmunga ega. Binobarin, yaratilishidan baland martabada turishi ko‘zda tutilgan insonning tabiati, qalbi, tuyg‘ulari, tafakkuri shunday shakllantirilishi joizki, hayotdagi barcha go‘zalligu, ezgulikdan shodlanadigan va har qanday qabohatu illatdan ozorlanadigan hamda ozor beruvchiga qo‘li, tili yoki dili bilan qarshilik qila oladigan bo‘lsin.

Jismoniy va ruhoniy sifatlar omuxtaligidan iborat inson o‘z-o‘zidan mukarramu mo‘’tabar bo‘lib qolmaydi. U yuksak ma‘naviy fazilatlar egasi bo‘la olsagina, o‘zidagi nafs xurujini, lazzatlarga bo‘lgan moyillik kabi ojizlarni enga bilsagina azizlik rutbasiga ko‘tariladi. Odamni mukarram inson martabasiga ko‘tarish uning ma‘naviyatini yuksaltirish demakdir.

Jamiyatning ustivor ma‘naviy qadriyatlari qanchalik umuminsoniy bo‘lsa, shunchalik umrboqiylik kasb etadi. Aksincha, tayaniladigan ma‘naviy qadriyatlar o‘tkinchi asoslarga qurilgan bo‘lsa, bu jamiyat ma‘naviyati juda qisqa fursatda tanazzulga yuz tutadi. Har bir alohida insonning ham, butun insoniyatning ham qanday xulqiy sifatlarga, faoliyat tarziga, tafakkur yo‘nalishiga ega bo‘lishi tayaniladigan ma‘naviy sifatlar silsilasiga bog‘liqdir. Qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar ma‘naviy sifatlar tarkibidagi evrilishlar butun jamiyatning o‘zgarishiga olib keladi, uning mohiyatini yangilaydi.

Har qanday jamiyat o‘z a‘zolariga muayyan ma‘naviy ideallar asosida yondashadi hamda fuqarolarning hatti-harakatlari, qarashlari, intilishlari va yashash tarzlarining ana shu ideallarga muvofiq kelishini istaydi.

Chunki jamiyatning qandayligi o‘sha ideallarning xarakteriga va ularga odamlarning qay darajada amal qilayotganligiga bog‘liqdir.

Shuning uchun ham har qanday yangilanayotgan jamiyatda bo‘lganidek yurtimiz – O‘zbekistonda ham ma‘naviy ideallarni izlash jarayoni g‘oyat intensiv bormoqda. Ma‘naviyat bizning vatanimiz ahli uchun ham shunchaki axloqiy normalarga rioya qilish tarzi emas, balki hayot-mamot masalasiga aylandi. Amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan barcha o‘zgarishlaru islohotlar barkamol ma‘naviyat sohiblari bo‘lmish kishilarning ko‘ngil mulkiga aylangandagina kutilgan samarani berishi mumkinligi ko‘pchilik tomonidan anglab olindi. Shu bois ma‘naviyat faqat tarbiya, axloq, ijod sohasi xodimlari tomonidangina emas, balki siyosiy arboblar tomonidan ham jiddiy tadqiq etilmoqda.

Olam hodisalariga munosabatda islom falsafasiga tayanilgandagina ularni to‘g‘ri izohlash mumkinligini hayot ko‘rsatmoqda. Islomiy falsafa jamiyat taraqqiyotini sotsial tabaqalar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, kurashlar ta‘minlaydi deydigan va bir odamni boshqasiga, bir tabaqani ikkinchisiga yov qiladigan marksistik qarashlar hukmronligiga barham beradi. Marksizm-leninizm odamni o‘zgartirish, yaxshilash, olijanobroq qilish uchun jamiyatni o‘zgartirish kerak deb hisoblaydi. Bu bilan jamiyat a‘zolarini boshi-keti yo‘q talotumlarga, g‘avg‘olarga etaklaydi. Islomiy falsafa esa jamiyatni o‘zgartirish, kishilarning farovon hayotini ta‘minlash uchun insonning o‘zini o‘zgartirish lozim deb biladi. Olamni yaxshilash odamni yaxshilashdan boshlanishi kerak deb hisoblaydi. Jamiyat uning a‘zolari kamoloti natijasida va fuqarolarning barkamolligi darajasida takomillashadi deb o‘rgatadi. Kalom falsafasida inson omili yuksak rutbada turadi. U o‘z xulqining ham, o‘zi yashayotgan jamiyat

ma‘naviyatining ham ijodkori va ayni shu sababli ham o‘zining, ham zamondoshlarining ma‘naviy sifatlari uchun javobgar. Markscha qarashlarga ko‘ra inson ijtimoiy munosabatlarga qilingan ixtiyoriy ilova edi xolos. Shu bois u mas’uliyatdan xoli, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgar emas. Chunki unig faoliyati o‘z ixtiyori bilan emas, ijtimoiy munosabatlar xarakteri bilan belgilanardi.

Ma‘naviyatning qandayligi faqat muayyan shaxsning o‘zigagina emas, balki u yashayotgan jamiyat taraqqiyotiga ham hal qiluvchi ta‘sir ko‘rsatar ekan uni shakllantirishni o‘z holiga tashlab bo‘lmaydi. Har bir odamda Yaratgan tomonidan berilgan xulqiy sifatlar bilan birgalikda, tarbiya yordamida tarkib toptiriladigan ma‘naviy fazilatlar ham bo‘ladiki, jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari ana shu fazilatlarning imkon qadar ezgu, iloji boricha ko‘p va chorasi bo‘lganicha, mustahkam qilib shakllantirilishi yo‘lida faoliyat ko‘rsatishi kerak.

Tarbiya bilan shunday yuksak natijalarga erishish mumkin bo‘lganidek, tarbiyaga loqaydlik, beparvolik o‘sha darajadagi ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham unutmaslik kerak.

Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a‘zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

“**Individ**” nima? Bola ma‘lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individium” so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas»,

«alohida shaxs», «yagona» ma‘nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Individual yondashuv o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo‘lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta‘lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta‘riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma‘naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta‘sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o‘zi nima?

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab

jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta‘limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta‘sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta‘sir etadi.

Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a‘zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta‘siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta‘sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta‘sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta‘lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog‘liq bo‘lgan holat va hodisalar o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘quvchi jamiyatga «Kirishadi» va u bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Ular ma‘lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko‘rsatma) orttiradilar, ya‘ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadian murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me’yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o‘rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a‘zosi bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta‘sir etadi. Bu ta‘sir ta‘lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g‘oyalar, ijtimoiy muhit ta‘sir ko‘rsatadi.

Odamlar ijtimiy me’yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o‘rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba‘zan aksi ham bo‘ladi: to‘liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba‘zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko‘rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko‘p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o‘qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g‘oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, uzluksiz ta‘limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta‘limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta‘lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma‘naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

II-bob. PEDAGOGIKA TARIXI

Pedagogika tarixi fan sifatida

Pedagogika tarixi ta‘lim tarbiya sohasida o‘ziga xos ta‘lim maskani desak adashmagan bo‘lamiz. Uning tarbiyaviy g‘oyalari har bir tarixiy davr va taraqqiyot davomida ijtimoiy siyosiy jarayonlar mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan holda tomir otdi. Pedagogika tarixi fan sifatida shakllanib borish taraqqiyoti turli davrlarga bo‘linadi.

Pedagogika tarixi fani pretmeti. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim va tarbiyaning jaxon xalqlari pedagogik tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘langan holda, rivojlanish sifatini oshirishdan iborat.

Pedagogika tarixi fanining maqsadi. Qadimgi o‘rta Osiyo hududida hamda, dunyo tarixini boshqa mintaqalarida fikrlar taraqqiyotini, Sharq mutafakkirlari va ma‘rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta‘lim tarbiya nazariyasiga qo‘shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy maktab va milliy pedagogikani rivojlantirish hamda ta‘lim tarbiyaning paydo bo‘lishi va rivojlanishdan iborat.

Pedagogika tarixi fanining ilmiy nazariy, ijtimoiy amaliy vazifalari quyidagilardan iborat:

ta‘lim tarbiya qonuniyatlarini umuminsoniy va milliy, ijtimoiy hodisa sifatida, shuningdek, jamiyatning o‘zgaruvchan extiyojlari bilan bog‘liq holda o‘rganish:

ta‘lim tarbiyaning maqsadi, mazmuni shakllarini jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog‘liq holda yoritish:

o‘tmishda pedagogika ilmi va ta‘lim tarbiya sohasida ortirilgan ijobiy tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga tadbiq etish usullarini ko‘rsatish:

Pedagogika tarixi ham mustaqil fan sifatida o‘ziga xos ilmiy tadqiqot metodlari va manbalariga egadir. Pedagogika tarixi sohasidagi izlanishlarda quyidagi tadqiqot metodlari qo‘llaniladi: arxeologik va tarixiy yodgorliklarini, xalq og‘zaki ijodi materiallarini, buyuk mutafakkirlarning ta‘limiy badiiy va pedagogik tarixiy asarlarini, turli davrlarda yaratilgan qo‘lyozmalar va nashr etilgan asarlarini, matbuot materiallarini, o‘quv rejalari, dasturlari, darslik, darsliklaridagi manbalarini, asarlarini o‘rganish shuningdek, pedagogika nazariyasida qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan ham foydalanish mumkin. Pedagogika tarixini rivojlanish bosqichlari:

1. ***Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta‘lim tarbiya va pedagogik fikrlar:***
2. ***Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta‘lim tarbiya va pedagogik fikrlar:***
3. ***VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha O‘rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar:***
4. ***Sharq Uyg‘onish davrida pedagogic fikrlarning rivojlanishi:***

5. ***XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnaxrda ta‘lim va tarbiya:***
6. ***XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnaxrda pedagogik fikrlar rivoji:***
7. ***XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji:***
8. ***XIX asrning 2 –yarmida –XX asr boshida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar:***
9. ***1917-1991 yillarda O‘zbekistonda ta‘lim va pedagogik fikrlar rivoji:***
10. ***Mustaqil O‘zbekiston ta‘lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji:***
11. ***Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi:***
12. ***XIX asrning 2-yarmi –XX asrda jaxon pedagogika fanining rivoji:***
13. ***Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta‘lim tizimi va pedagogika fani rivoji:***

Dastlab Zardushtilik dinining chuqur ildiz otishi va muqaddas kitob “Avesto”ning Markaziy Osiyo, Eronga yoyilishi bilan boshlanadi.

VI-VII asrlar Markaziy Osiyoda Islom dinining tarqalib borishi bilan harakterlanadi.

VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda Madaniyat, ilm fan beqiyos rivojlanib bordi. Ayniqsa aniq fanlarga qiziqish keskin darajada ortib boraverdi. O‘sha davrlarda buyuk olim, pedagoglar, Al Xorazmiy, Al

Kindiy, Zakariya ar Roziya, Al Beruniy, Al Farg‘oniy, Ibn Sino, Az Zamaxshariy, singari qomusiy olimlar dunyoga kelishdi.

XV-XVI asrlarga kelib xalqlar Qozizoda Rumiy, Ulug‘bek. Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Abulg‘oziy Bahodirxon singari buyuk olim va allomalarni voyaga yetgazdi. Shunday qilib o‘tmishdagi olim va mutafakkirlarning buyuk asarlarini, qoldirgan madani meroslarini, ma‘naviy yodgorliklarini o‘rganish pedagogika tarixi faninin shakllanib borishiga asos bo‘ladi. Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonun va qoidalariga tayangan holda turli pedagogik nazariyalrni, ta‘lim tarbiyaning mazmun va metodlarini o‘rganish haqida bahs yuritib boriladi. O‘tmishdagi pedagogik fikrlar hamda, ilg‘or tajribalardan bugungi kunda samarali foydalanib kelinmoqda. Pedagogika tarixi fanini o‘rganish o‘qituvchilarning pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki ularning pedagogik mahoratini munosib egallashga yordam beradi. Qadimgi tarixiy yodgorliklarda inson tarbiyasi to‘g‘risidagi qarashlar bir necha davrlarni o‘z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, Sog‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya Zarafshon kabi joylarda turli qabila va elatlar yashashgan. Bular hozirgi o‘zbek xalqini ildizi hisoblangan, sak massagetlar, sog‘dlar, Xorazmiylar, baxtarlar edi, keyinchalik ular bir bilan birgalikda birlashishib yagona bir hududlarni tashkil etishgan. Bu taraqqiyot davri eramizdan avvalgi IX-VI asrlarda paydo bo‘lishgan. Ahmoniylar, keyinchalik, eramizdan avvalgi III asr o‘rtalarida tarkip topgan Yunon Baqtriya davlati eramizning I asrida Kushonlar, V asrda Eftalilar, songra Sososniylar va nihoyat Turk xoqonligi davrlarini o‘z ichiga oladi. Bizni

madaniy pedagogik manbalarimizni o‘rganish asosan uch bosqichda o‘zlashtiriladi.

1.Arxeologik topilmalar

2.Xalq og‘zaki ijodi namunalari

3.Buyuk adib va allomalarning ijodiy meroslari

“Avesto” Eng qadimgi davrlarning madaniy yozma yodgorligi

Zardushtilik dinining muqaddas kitobi Avesto hisoblangan. Eramizdan avvalgi ming yillikda eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan juda koplab afsona va rivoyatlar aytilgan bo‘lib bularning barchasi muqaddas kitob Avestoga kiritilgan. Avestoning o‘zi Zardusht tomonidan yozilgan. Yozma ma‘lumotlarga qaraganda Avesto eramizdan avval VII asrning oxiri va boshlarida yaratilgan, bo‘lib to‘liq kitob shaklda eramizdan avval I asrga tayyorlangan. Ushbu kitobda inson shaxsining marifiy, ma‘naviy, takomiliga oid fikrlar ifodalangan, Shuning uchun Avesto kitobini buyuk bir pedagogik asar desa bo‘ladi. Avesto kotobi 1200 bob, 12 ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Zardusht bu sariq to‘n egasi degan ma‘noni bildiradi. Bu kitob bizgacha 2 nusxada yetib kelgan.

Demak Avesto Zardushtilik dinini muqaddas kitobi bo‘lib, uning ilk sahifalari Zardusht tomonidan bitilgan Amudaryo sohillarida yaratilgan, keyinchalik Janubiy Eron dinining otashparast ulomalari tomonidan to‘ldirilgan. Zardusht 77 yoshida o‘zining dushmani, kopxudolik tarafdori Bratarvaxsh tomonidan o‘ldiriladi. Uning ta‘limoti Islom ta‘minoti tarqalguncha boshqa o‘lkalarda asosiy din sifatida saqlanib qoladi. Grek olimiPliniy Avestoni 2 million baytdan iborat degan fikrlarni bildirib o‘tadi. Avestoda tibbyot to‘risidagi fikrlar ilgari suriladi.

1.Tashrex –(anatomiya) va mizon yani filalogiya

2.Bemorlikni oldini olish yo‘llari

3.Kasalliklar haqida ma‘lumot

4.Bemorlarni davolash yo‘llari

5.Tabiblar axloqi va tibbiyotga oid qoidalar haqida fikr yuritganlar. Avesto kitobida shuningdek ekologik masalalar hamda tozalik, atrof muxit haqida ham fikrlar bildirib o‘tilgan

Ushbu kitobda judayam kop g‘oyalar fikrlar, o‘gitlar bor bo‘lgani uchun nozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Avesto kitobining asosiy g‘oyasi ezgulik va yomonlik, ziyo va zulmat, hayot va o‘lim o‘rtasida kurashlar bilan bog‘liq. Kitobda yozilishicha dunodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda va barcha yomonliklarni Hozir ham kimki o‘zini olohiy kuchqo‘lidagi qo‘g‘irchoq hisoblamasa o‘ziga maqbul biron kasbni tanlab olsa, g‘ayratli bo‘lsa, adolatsizliklarga qarshi kurasha oladigan inson bo‘lib yetishishi shart. Avesto kitobida o‘sha davrda keng tarqalgan ko‘chmanchilik qoralanib, dexqonchilik ezgulik, rag‘batlantirilgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkunki hozirgi kunda ham, har bir inson bir tup mevali daraxt, gul, sabzavot, eksin, o‘ziga bo‘lmasa ham hech bo‘lmasa farzandiga yoki beva bechoralarga nasib etadiku, savob bo‘ladi degan maqsadda aytilgan.

Avesto kitobida asosan to‘rt element suv, olov, tuproq, havo kabi unsurlar g‘oyat ulug‘langan. Bu to‘rt unsurni asrab avalay kerakligini va extiyot bo‘lish kerakligi ham nazarda tutilgan. Hozirgi kunda ham bu to‘rt unsur o‘z ifodasini saqlab qolgan. Xalqimiz tomonidan bu to‘rt unsurni asrab avaylash kerakligini, undan oqilona foydalanish lozimligi ta‘kidlanib kelinadi.

«Avesto» O‘rta Osiyo, birinchi navbatda, O‘zbekistonning o‘tmish tarixi, shuningdek, ajdodlarimizning e’tiqodi, urf-odatlari haqidagi eng qadimgi yozma manba sifatida o‘rganiladi.





SHARQ UYG‘ONISH DAVRI

Arab xalifaligida 9 asrda vujudga kelgan. Uyg‘onish davri xalifalikning Bag‘dod, Damashq, Halab shaharlarida boshlanib, barcha boshqa halqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishga zamin tayyorlagan. xalifalik emirilishi jarayonida tashkil topgan mustaqil davlatlardagi madaniy rivojlanish xalifalik davridagi madaniy rivojlanishning davomi edi.

Xalifa Horun Ar-Rashid davrida (786-833 y.y.) va uning o‘g‘li al-Ma‘mun davrida Bag‘dodda “Bayt–ul-Hikma” (“Donishmandlik uyi”) (hozir Akademiya ma‘nosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm sohiblarining ilmiy markaziga aylanadi. Uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan. Akademiya 813-833 yillarda yanada rivojlangan. Akademiya qoshida rasadhona ham bo‘lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog‘doddagi mazkur ilm markazi, o‘z navbatida Sharq va G‘arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma‘naviy hayotning rivojlanishiga ta‘sir etgan. Bu o‘rinda xalifa al-Ma‘munning ilm-fan ravnaqida ko‘rsatgan homiyligini alohida ta‘kidlash joiz.

Zero, xalifa Al-Ma‘mun ilm fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi bo‘lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to‘plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida AlXorazmiy, Al-Xuttaliy, Al-Javhariy, Al-Farg‘oniy, Al-Marazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo‘lgan. Al-Ma‘mun xalifalik tahtiga o‘tirgach u olimlarning barchasini Bag‘dodga chaqirib oladi va “Bayt-ul-hikma” -donishmandlik uyi (“Ma‘mun akademiyasi”)da arab olimlari bilan hamkorlikda ilm-fan ravnaq topadi.

Shuningdek, qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniyati bo‘lsin, Uyg‘onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga asos bo‘lib hizmat qildi.

Agar arablar Markaziy Osiyoni bosib olib, bu erda ilgari mavjud bo‘lgan fan va madaniyat o‘choqlarini yo‘qotgan bo‘lsalar, ko‘p o‘tmay qadimiy ilmiy an’ana asta-sekin tiklanib, natijada ilm-fanning etuk siymolari etishib chiqa boshlaydi. Bularning barchasining bir-biriga qo‘shiluvi natijasida Sharqda bir butun madaniyat tarkib topadi va rivojlana boshlaydi.

Yaqin va o‘rta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkazorti va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta‘sir etdi. Yaqin va o‘rta Sharq mamlakatlarida madaniy yuksalishga olib kelgan asosiy sabab-feodal munosabatlarning yangi bosqichi bo‘ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida arab xalifaligiga bo‘ysungan mamlakatlarning ho‘jalik-iqtisodiy

aloqalarining kuchayishi va buning oqibatida turli madaniyatlar-Hind, Movarounnahr, Eron, arab, Misr, grek-yunon-rim madaniyatlarining yaqindan o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta‘sir etib borishi katta rol o‘ynadi. Haqiqatdan ham bu davrda iqtisodiyot taraqqiy etdi, qishloq ho‘jaligi, hunarmandchilik rivojlandi.

Bu davrda qishloq ho‘jaligida foydalaniladigan er maydonlari kengaydi, ko‘plab sug‘oriladigan erlar ochildi, sug‘orish inshootlari tiklandi, yangilari qurildi, pahta, zig‘ir, kanop eqilib, ularning tolasidan mato to‘qildi. Movarounnahrda, hususan, Xorazm,
Urganch, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro to‘qimachilik mahsulotlari, ayniqsa Samarqand va Buxoro shoyisi dunyoga mashhur bo‘lgan.

Qishloq ho‘jaligi va hunarmandchilik, sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo‘l ochdi. Natijada Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Hindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko‘lami ortib bordi.

Pireney yarim orolining arablar tomonidan bosib olinishi insoniyat tarihining yangi sahifalarini ochib berdi. Bu jarayonning, ayniqsa, Ovro‘pa uchun ahamiyati beqiyos bo‘ldi. Sharq faqatgina Ovro‘po madaniyatining rivojiga ta‘sir etibgina qolmay, balki umuman, Ovro‘polik odamning psihologiyasi, tafakkuri, harakteri, hayot tarzini tarihiy jarayonni tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu esa o‘z navbatida matematika, falsafa, astronomiya, tabiiyot, tibbiyot, hulq-odob, turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta‘sir etdi.

X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar–Tohiriylar, Somoniylar, Qorahoniylar, G‘aznaviylar,

Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo‘lishida xalifalikning emirilishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi.

Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar, albatta madaniy hayotga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o‘sha davrning madaniy markazlari sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o‘rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi. Ammo hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo‘lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy halq bolalari ham kelib o‘qiganligi manbalarda keltiriladi.

O‘sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo‘lgan. Kitob do‘konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy muloqot, munozaralar o‘tkazganlar. Abu Ali Ibn Sino kitob do‘konlaridan birida Forobiyning Aristotel “Metafizika”siga yozgan sharhlarini sotib olganligini tarjimai holida hikoya qiladi.

Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo‘lgan.

Amir kutubxonasini o‘sha davrdagi Sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Somoniylar davrida Rudakiy, Firdavsiy, Al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino kabi mutafakkirlar ijod etganlar. X asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Qorahoniylar davlatida ham ba‘zi honlar o‘z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu

kutubxonalarda arab va hatto G‘arbiy Evropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til shakllanib bordi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy kabi olimlar jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan asarlarini yaratdilar. XI asr boshida G‘aznaviylar davlati, keyinroq Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlati tashkil topdi. G‘aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlandi. Mahmud G‘aznaviy o‘z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to‘playdi, olimlarni ilmiy ishga taklif etadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyning mashhur “Hindiston” asarini shu erda yaratgan edi.

Saljuqiylar davrida Alp-Arslon Muhammad hokimiyatni boshqarganda uning vaziri Nizom Ul-Mulk o‘z davrining mashhur siyosiy arbobi va eng ma‘rifatparvar kishilaridan bo‘lgan.

Saljuqiylar hokimiyati harbiylashgan bo‘lib, bu hokimyatning ichki va tashqi siyosatini Nizom ul-Mulk boshqarar edi. U g‘aznaviylar ish uslubiga bir oz o‘zgartirishlar kiritib, hokimiyatni boshqarish uslubini ishlab chiqadi va o‘zining “Siyosatnoma” asarini yaratadi (1091-1092 y.y.). Bu asarda davlatni boshqarish tamoyillari-printsiplari bayon etiladi. Nizom ul-Mulk maorifni rivojlantirishda katta hizmat qiladi. 1067 yilda Bag‘dodda o‘zining shahsiy jamg‘armasiga o‘sha davrning eng mashhur o‘quv yurti- “Nizomiya” madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so‘fiylarga katta e’tibor berib, g‘amho‘rlik qiladi. Uning katta hizmatlaridan yana biri taqvimni isloh qilgani. U 1074 yili o‘rta Sharq mamlakatlari uchun kalendar-taqvim tuzadiki, bu taqvim hozirgacha eng takomillashgan kalendarlardan biri hisoblanadi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma‘mun II o‘z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan “Bayt-ul-

Hikma”-Donishmandlar uyi tarihda “Ma‘mun akademiyasi” deb nom qoldirgan. Bu akademiyaning rivoj topishida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, tarihchi Miskavayh, riyoziyotchi Abu Nasr Ibn Iroq, faylasuf Abu Sahl Al-Masihiy, tabib Abulhayr hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan shug‘ullanganlar. Lekin toj-taht uchun kurash natijasida bu ilm dargohi o‘z faoliyatini to‘htatib, olimlar tarqab ketadi.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma‘naviy ko‘tarilish Sharq Renessansi – Uyg‘onish davrining boshlanishga olib keldi.

Movarounnahrda ilm-fan va ma‘rifat sohasida o‘z hizmatlari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarih, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o‘z ilmiy merosida ta‘limiyahloqiy asarlar yaratishga ham katta e’tibor berib, bu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar insonning ham aqliy, ham ahloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, Sharq uyg‘onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta‘limtarbiyada inson takomilining hususiy va umumiy metodlari haqida o‘lmas ta‘limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

Muhammad Ibn Muso Al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari

Qomusiy olimlar o‘z ilmiy merosida insonning aqliy, ahloqiy, jismoniy va estetik takomili masalalariga katta e’tibor berganlar. Masalan,

Muhammad Al-Xorazmiy (783-850) insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda ilm-fanning muhim ahamiyatiga ega ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o‘rin egallaydi.

Ayniqsa, u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog uslubiyotchi olim sifatida tarihda qolgan. Xorazmiy o‘z davrigacha bo‘lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Bobil), Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o‘rgandi va o‘zi hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi.

Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o‘zining ulkan Hissasini qo‘shdi. “Al-kitob al-muhtasar fi-Hisob al-jabr va-l muqobala” asarida (“Aljabr va –l muqobala Hisobi Haqida qisqacha kitob”) sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar va ularni echish yo‘llarini bayon etadi. Bu asar uch qismdan iboratdir. Birinchisi algebraik qism. Uning ohirida savdo muomalasiga oid kichik bir bo‘lim kiritiladi; ikkinchsi, geometrik qism-algebraik usul qo‘llab o‘lchashlar Haqida; uchinchi qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni “Vasiyatlar kitobi” deb ataydi.

Muhammad Al-Xorazmiy matematika fanida abstraktsiya tushunchasini kengaytiradi. Induktsiya yo‘li bilan umumiy echish usullarini hal etadi, deduktsiya yo‘li bilan umumiy usullar yordamida hususiy masalalarni echadi. “Aljabr va-lmuqobala” asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib, o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirdi hamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi.

Mutafakkir ushbu tenglamalarni echish uchun “Al-jabr” va “Al-muqobala” (“Tiklash” va “Qiyoslash”) amallarini kiritdi. Bu amallarninng mohiyati tenglama hadlarining ishorasini o‘zgartirgan holda ularni bir tomondan ikkinchi tomonga o‘tkazish va yig‘ishdan iboratdir. “Al-jabr” keyinchalik matematika fanining aloHida bo‘limiga aylandi va “Algebra” deb ataladigan bo‘ldi. Mazkur amallar yordamida har qanday tenglamani kononlik shakliga, ya‘ni asosiy tiplardan biriga keltirib, keyin echiladi. Bu usul fan olamida muhim ahamiyatga ega edi. Shu asar tufayli “Al-Xorazmiy” nomi lotincha transkriptsiyada “Algoritmi” shaklini oldi, keyin “Algoritmus” va nihoyat hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi “Algoritm” (“Algorifm”) ga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo‘llarini ham berdi. Meros taqsim qilish, vasiyatnomalarni tuzish hamda mol taqsim etish uchun zarur bo‘lgan hisoblarni ta‘lif etdi.

Muhammad Al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “Hind arifmetikasi Haqida kitob” (“Hisob al-Hind”)dir. Asar o‘nlik tizim raqamlari (1,2.3,4,5,6.7,8,9)ga bag‘ishlangan. Mutafakkir hindlarning falakiyot va matematikaga oid “Sindihin” nomli qo‘llanmasini o‘qib, uning yanglish va qiyin tomonlarini qayta tikladi, uning mundarijasiga yangi boblarni qo‘shdi va bu asarni “Qisqargan Sindihin” (“Algorizmi Hind Hisobi Haqida”) deb atadi. Mazkur asar faqat Sharqdagina emas, Evropada ham qo‘llanma sifatida shuhrat taratdi. U Hindistonda kashf etilgan raqamlarni soddalashtirdi va birinchi marta arab tilida bayon etdi. Ungacha ancha qo‘pol sanoq usullaridan foydalanib kelingan. O‘nlik tizimining kashf etilishi fan olamida sanoq tizimida inqilobiy o‘zgarish deb ta‘riflanadi. Evropaga 1,2.3,4,5,6,7,8,9 raqamlaridan foydalanish va

nol yordamida eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko‘rsatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan.

Muhammad Al-Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo‘lgan qo‘shish, ayirish, bo‘lish hamda ko‘paytirish qoidalarini yaratgan. Shuningdek, turli “Jins”dagi sonlarni ko‘paytirish algoritmini ham bergan. Masalan, minut va sekundlarni bir-biriga ko‘paytirish uchun, avvalo bir hil shaklga keltirish, ya‘ni, sekund yoki minutga aylantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatgan. Mahsus bobda kasr va ildizdan chiqarish amallarining mohiyatini bayon etgan.

Muhammad Al-Xorazmiy o‘zining falakiyotga doir ishlarida hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, “Xorazmiy ziji” nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi. Muhammad Al-Xorazmiy ham ko‘rgazmali-tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Muhammad Al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. U birinchilardan bo‘lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi (samoviy ob’ektlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarning algoritm metodida echishni ishlab chiqdi). U matematik g‘oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo‘lishini asosladi. Masalan, yer ishlari, binolar qurish, kanallar ochish shunday paydo bo‘lgan, deydi. U birinchi marta insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi. Alloma ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi.

Abu Nasr Forobiyning ta‘limiy-axloqiyb qarashlari. O‘rta asr ijtimoiy – falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq

bo‘lib, uning inson kamoloti haqidagi ta‘imoti ta‘lim – tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur Yunon faydasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni yirik mutafakkir – «Muallimiy soniy» - «Ikkinchi muallim» deb ataydilar. Abu Nasr Forobiy (to‘liq nomi Abu Nasr Muhammad Ibn Muhammad Ibn Uzaliq Ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260-yil (milodiy 873- yil)da Shosh – Toshkentga yaqin Forob (O‘tror) degan joyda harbiy hizmatchi oilasida tug‘ilgan. Forobda boshlang‘ich ta‘limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqanda ta‘lim olganligi haqida ma‘lumotlar bor. Lekin arab xalifaligining yirik madaniy markazi Bag‘dodga xalifalikning turli tomonlaridan kelgan olimlar yig‘ilganligi, uning yirik ilmiy markazga aylanganligi tuyfayli Forobiy ham ilm olish istagida Bag‘dodga jo‘naydi. Bag‘dodda Forobiy o‘rta asr fanini, turli fan sohalarini o‘rganadi. Masalan, unga Yunon tilida Abu Bashar Matta (Matta Ibn Yunus), tibbiyot va mantiqdan Yuxanna Ibn haylon (Jilon) ta‘lim bergan. Umuman, Forobiy Bag‘doda matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, tabiiyot, huquq, tilshunoslik, poetika bilan shug‘ullandi, turli tillarni o‘rgandi. Ba‘zi manbalarda Forobiy 70 dan oshiq tilni bilganligi haqida gapiriladi.Abu nasr Forobiy qomusiy olim hisoblanadi. Tadqiqotchilar uning 160 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligini qayd etadilar. Forobiy tahminan 941 yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug‘ullanadi. 943-967 yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950 yillarida Misrda ham bo‘lgan. So‘ng yana Damashqga qaytib, shu erda 950 yilda vafot etgan. Damashqdagi «Bob as – sag‘ir» qabristoniga dafn qilingan. Rivoyatlarga ko‘ra Abu Nasrning hikmat

falsafani o‘qishiga bir kishi sabab bo‘lgan ekan. O‘sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu erda tura tursin, keyin olib ketaman deb qo‘yib ketgani sabab bo‘lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko‘zi tushib, ularning Abu Nasrning ko‘ngliga ma‘qul bo‘lib qoladi va o‘qishga kirishadi natijada etuk faylusufga aylanadi. Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o‘rta asr davri ilm – fani taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o‘zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli – saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo‘lishi kerak deydi.

Qomusiy olim Abu RayHon Muhammad Ibn Ahmad al-Beruniy X asrning ikkinchi yarmi va XI asrning boshlarida, g‘oyat murakkab tarihiy davrda yashadi va ijod etdi. Abu RayHon Beruniy 362 yil 3-zul Hijjada (milodiy 973 yil 4-sentyabr) Xorazmning Qiyod (Kot) shahrida dunyoga keldi. Berun yoki birun so‘zi «tashqari» degan ma‘noni anglatadi.

XIII asr boshlarida Xorazmda bo‘lgan mashhur sayohatchi va geograf Yoqut Hamaviyning aytishicha, Vatanidan tashqariga ketgan har bir kishini Xorazmiyliklar «Beruniy» laqabi bilan ataganlar. Keyinchalik bu laqab shu an’anaga ko‘ra uning nomiga qo‘shilib qolgan bo‘lsa ehtimol. Chunonchi, olimni shahsan bilgan mashhur tarihchi Abul Fazil Bayhaqiy unga nisbatan «Beruniy laqabini qo‘llamay, faqat «Abu Rayhon» deb ataydi. «Abu Rayhon» esa «Marhamatli», «Mahmatli», «Rahmdil» ma‘nolarini bildiradi», - degan fikrlarni aytadilar.

Abu Rayhon Beruniy boshlang‘ich ta‘limni olgach, o‘sha davrda fan – madaniyat taraqqiy etgan Xorazmning peshqadam olimlaridan saboq oladi. Beruniy Horzam tili bilan birga sug‘diy, forsiy, suryoniy, Yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham o‘rgangan. U Yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarih, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi.

Beruniy yirik olim Abu Nasr Ibn Iroqdan Evklid geometriyasi, Ptolemeyning astronomik ta‘limotlaridan dars olgan. Bundan tashqari o‘zidan oldin o‘tgan matematik, munajjim va geografiya olimi Muhammad Xorazmiy, geografiya olimi Abul Abbos, Ahmad Farg‘oniy (IX asr), Marvaziy (IX asr), Javhariy (IX asr), faylasuf va tabiatshunos Abu Nasr Forobiy, Abul Vafo Juzjoniy (940-998), seyistonlik Abu Said As-Sijiy (951-1024), Abu Muhammad Hamid Ho‘jandiy va boshqalarning asarlarini mustaqil o‘rganadi. Abu Rayhon Beruniy ezgu tilakka etishga to‘sqinlik qiluvchi ziqnalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, manmanlik, takkaburlik kabi nuqsonlarni qorlaydi, boylikka ruju quyish va ta‘magirlik, g‘azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi.

Mutafakkir ilgari surgan ahloqiy hislatlardan yana biri adolatdir. U jamiyatda adolat o‘rnatish, uni yovuzliklardan halos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo‘lishi kerak, deydi.

Beruniy kundalik turmush masalalariga ham katta e’tibor bergan. Har bir ahloqan barkamol inson o‘zining turmush tarzini ham uyg‘un, go‘zal eta oladi. uyg‘unlik, go‘zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy hislatlardan muhimi – ozodlik, tarbiyalilik bo‘lsa, insonga eng yaqin narsa

uning tabiati, ruhi deydi. Shuning uchun inson o‘z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko‘rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go‘zalligi, turmush tarzidagi go‘zallikning uyg‘un bo‘lishini talab etgan. Bunga inson kiyadigan kiyimidan tortib, kundalik turmushidagi yurishturushi, so‘zi, qalbi, qilgan ishi - Hammasining go‘zal bo‘lishi ta‘kidlangan. Har bir shahsda sharm-hayo, ozodalik, nafis did, iffat, latofat, shirinsuhanlikning tarkib topishi turmushning yanada go‘zal bo‘lishiga olib keladi.

Abu Ali Ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida kichik amaldor oilasida tug‘iladi. Uning to‘la ismi Abu Ali Al-Husayn Ibn Abdulloh Ibn Al-Hasan Ibn Ali Ibn Sinodir. Abu Ali uning kuniyasidir. Oti Husan, otasining ismi Abdulloh edi. Keyinroq uning oilasi Buxoroga ko‘chib o‘tgach, u boshlang‘ich maktabda o‘qiy boshlaydi. Ibn Sinoning mutolasi zo‘r, mehnatsevar edi. Undagi tug‘ma qobiliyat, o‘tkir zehn, kuchli hotira o‘zaro birikib ketgan edi. Ibn Sinoning otasi Abdulloh hamda uning do‘stlari bilimdon kishilar bo‘lib, ularning ilmiy munozaralari o‘tadigan oilaviy muhit yosh Ibn Sinoga ham ta‘sir etadi. Shu bilan birga uning bolalik va o‘smirlik yillari o‘tgan Buxoro shahri somoniylar davrining yirik madaniy markazi bo‘lib hisoblanar edi. Buxoroda ko‘plab maktab, madrasa, kasalhona va nodir kitoblar saqlanadigan kutubxona bo‘lgan. Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh Ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U ustozlaridan Hind Hisobi, fanidan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va boshqa fanlardan ta‘lim oladi. Shundan so‘ng Ibn Sino o‘zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug‘ullana boshlaydi. U

ayniqsa tib ilmini chuqur egallab oladi, bu sohada unga ta‘lim bergan kishi Buxorolik Abu Mansur Kamariy bo‘ldi. Ibn Sino so‘ngra falsafani o‘rganishga kirishadi. Ayniqsa, Aristotel falsafasini, uning «Metafizika» asari mohiyatini buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning yozgan sharhi tufayli to‘liq o‘zlashtirib oladi.

IX asr ohiri–X asr boshlariga kelib, o‘lkada siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkablashdi. Shu tufayli Ibn Sino Xorazmga – Urganchga ko‘chib o‘tadi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma‘mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug‘ullana boshlaydi. Xorazmda o‘zining yirik asarlari – «Tib qonunlari», «Ash-Shifo» kitoblari ustida ish olib boradi.

Mahmud G‘aznaviy 1017-yilda Xorazmni o‘ziga qaram qilib olgach, nufuzli olimlarni ham o‘z saroyiga chaqirib ola boshlaydi. Ibn Sino Mahmud G‘aznaviy saroyiga bormay, boshqa yurtlarga ketishga majbur bo‘ladi. Gurganjda, Rayda, keyin esa hamadonda va umrining so‘nggi yillari Isfahonda yashaydi. Ibn Sino 1037-yilda vafot etdi. Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o‘z davridagi fanlarning hammasi bilan muvaffaqiyatli shug‘ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. **Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan .**

Shundan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psihologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematika, 1 tasi muzikaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo‘lgan ilmiy yozishmalarga bag‘ishlangan. Allomadan keyingi avlodlar uning ilmiy asarlari boy meros bo‘lib qoldi.

Abu Ali Ibn Sinoning «Al-Qonun», «Hayy Ibn Yaqzon», «Risolat at - tayr», «Risolat fil-ishq» («Ishq haqida risola»), «Risolat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Kitob fi ma‘no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma‘nosi Haqida»), «Risolat fi - daf al – g‘am min al mivt» («O‘limdan keladigan g‘amni daf qilish Haqida risola»), «Risolat al-qadr», «An-Najot», «Ash Shifo», «Donishnoma», «Kitob ash - ishorat» va at tanbihot asarlari shular jumlasidandir.

Ma‘lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o‘zining ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda ifodalagan, mahsus risolalarda talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o‘ringa tibbiyot fanlarini qo‘yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya‘ni nazariy va amaliy guruhlarga bo‘ladi. Nazariy guruh kishilarni o‘zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo‘llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o‘rgatadi deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o‘rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Abu Ali Ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma‘rifatni egallashga da‘vat etadi. Chunki ilm-fan insonga hizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga etkazishi kerak. Bu maqsadga etishish uchun inson qiyinchiliklardan qo‘rqmasligi zarur, deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo‘rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo‘rqog‘idir» .

Zero, ma‘rifatli kishi jasur, o‘limdan ham qo‘rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo‘ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni etuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qushadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini ta‘kidlaydi.

U haqiqatni bilish uchun bilimga ega bo‘lish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson o‘z bilimining haqiqiyligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning ta‘lim metodlari haqidagi ta‘limoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shahsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan g‘oya yotadi. Ibn Sino bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash zaraurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga o‘qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o‘qitishga qarshi bo‘lgan. Bolani maktabda jamoa bo‘lib o‘qishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar o‘quvchi birga o‘qisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o‘qishning yahshilanishiga yordam beradi. Talabaga bilim berish o‘qituvchining ma‘suliyatli burchidir. Shunga ko‘ra Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berishi;
- ta‘limda turli metod va shakllardan foydalanishi;

talabalning hotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shahsiy hususiyatlarini bilishi; fanga qiziqtira olishi;

- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi; bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishishi zarur, deydi olim.

Ibn Sino ta‘limotida bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og‘zaki ifodami, bilimlarni tushuntirishmi, turli ko‘rinishdagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo‘lgan.

Yusuf Xos HojIbning «Qutadg‘u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so‘zlab, ularning jamiyat hayotidagi o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta‘riflaydi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy haqida bizgacha juda oz ma‘lumot yetib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma‘lum bo‘lgan “Odob as-solihin” asarining o‘ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy 1740 yilda Qoshg‘arda kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilgan va 1843 yilda u shu yerda vafot etgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning “Odob as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”), “Zubdat al-masoyil” (“Masalalarning

qaymog‘i”), “Dur al-muzoxir” (“Ko‘makdoshlarning durdonasi”) hamda “Tazkirai xojagon” (“Xojalar tazkirasi”) nomli asarlari yetib kelgan.

Sharqning buyuk allomalari - Yusuf Xos Hojib, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Sa‘diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuksak ahloqiylikni shakllantirishga oid yirik asarlar, hikmatlar yaratganlar. SHu bilan birga hulq-odob tarbiyasiga oid “Axloqi Muhsiniy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Nosiriy”, “Qobusnoma” kabi asarlar yaratilgan.

O‘zida shaxs va uning tarbiyasini yo‘lga qo‘yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an’anasi mavjud bo‘lgan davrda Muhammad Sodiq g‘oshg‘ariy tomonidan turkiy tilda “Odob as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”), “Zubdat as-masoyil” (“Masalalarning qaymog‘i”) nomli asarlar yaratildi. “Odob as-solihin” asari 5 marta, 1889 hamda 1901 yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892 hamda 1986 yillarda Istambul shahrida qayta nashr etilgan.

Pedagogika tarixini rivojlanishi

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida shaharva qishloqlarda xo‘jalik hayotning jo‘nalishi bilan shubxasiz mo‘g‘ullar istilosi va bosqini davrida kuchli zarbaga uchrab, fan, adabiyot, ma‘rifat, madaniyat ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlandi. So‘fiya ta‘limotining ma‘naviy hayotga ta‘siri. So‘fiylar inson ma‘naviy ruxiy Komillikka erishish yo‘llarida to‘rt bosqichda o‘tishi kerak.

1-shariyat:

2-tariqat:

3-ma‘rifat

4-haqiqat

Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etib va uning fan, madaniyat va ma‘rifat rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san’ati va uning davlat boshqarish uslubi va farzandlariga, yoshlarga ta‘lim tarbiya haqidagi tuzuklarini yozib qoldirgan. Bu asar Temur tuzuklari deb nomlangan. Bu asarda davlatni boshqarish yo‘llari, amirlar, vazirlar, askarlar, mulozimlarini va farzandlarini ta‘lim tarbiya va boshqarish san’ati haqida qoidalar ko‘rsatib o‘tilgan.

“Temur tuzuklari” asaridan 12 ta nasihati:

1. Mening birinchi tuzugim, har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim

2.O‘n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim.

3.Har ishda faollik kengash va maslahat bilan g‘animlarimni yengdim.

4.Davlat ishlarimni saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim.

5.Amirlarim va sipohiylarimni martaba va unvonlar, oltin-kumushlar bilan hushnud etdim va rag‘batlantirdim.

6.Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi etdim.

7.Ta‘lim tarqatuvchilar, ulamolar, mashoiqlar, oqilu donolar, muhandislar, tarixchilarni izzat-ikrom ko‘rsatib xurmatini joyiga qo‘dim.

8.Har boshlagan ishimni o‘ylab, fikrlab va ohirigacha bajarishga urindim.

9.Har bir egallagan davlatimda kattalarni hurmat qildim, kichiklarni farzand o‘rnida ko‘rdim, bilimli ziyoli kishilarga alohida etibor bilan qaradim.

10.Kimki menga do‘st bo‘lsa qadirladim, siyladim. Yomonlik qilganlarni o‘z yomonliklariga topshirdim.

11.Do‘stu-dushmanlarni unutmadim. Farzandu- qarindoshlar, yori birodarlar, qo‘ni qoshnilarimni unutmadim

12.Do‘stu-dushmanga qaramay Vatanimga aqli ziyolarni yig‘dim, qo‘li gul hunarmandlarni yig‘ib, o‘z tuzuklarim asosida mustahkamladim deya asrida ta‘kidlab o‘tilgan.

Ulug‘bek davrida maktab islohoti. Ulug‘bek Mavarounnahr shaharlari xususan Samarqand va Buxoroni ilm u ma‘rifat dargohida aylantirishga intiladi.Uning farmoni bilan 1417 yilda Buxoroda 1417 -1420-yillarda Samarqanda va 1433-yilda G‘ijdivonda madrasalar qad kotaradi. Buxoro madrasaning darvozasiga Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir degan kalima o‘yib yozib qo‘yiladi. Alloma o‘z davlatida ta‘lim sohasida jiddiy islohatlarni tashkil etadi.U madrasalarni davlat ta‘minotiga o‘tkazdi,mudarris (o‘qituvchi)larga oylik ish haqi belgilagan, shogird talabalarga stipendiya ajratgan.Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek madrasa o‘quv rejasiga quydagi fanlar; arab tili, adabiyot, Qur’on, Hadis, ritorika, mantiq, falsafa, fikh qonunchilik, metafizika, matematika,astronomiya,tibbiyot, geografiya, tarix kabi fanlarni kiritadi.Mutafakkir tomnidan barpo etilgan hamda o‘zi bevosita ta‘lim bergan madrasalarda o‘qish quydagi bosqichlardan iborat bo‘lgan. 1.Anda kichik o‘qish muddati 2 yil; 2.Aust o‘rta o‘qish muddati 3yil. 3. A‘lo oliy o‘qish muddati 3yil. Bunday yo‘ndashuvda, bugungi kun nuqtaiy

nazaridan aytganda, bakalavriat va magistratura ko‘zga tashlanadi. Ayni vaqtda ular o‘rta asr Yevropa universitetlari uchun ham xos bo‘lgan.

Zahriddin Muhammad Boburning Pedagogik Fikrlari. Bobur 1526-yilning 21-aprelida Dehli hukmdori Ibrohim Lo‘diy qo‘shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g‘alaba natijasi Bobur Shimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27-aprelda Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o‘qildi. Shu tariqa, yangi saltanat Boburiylar saltanatiga asos solinadi. Bobur podshoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatiga bo‘gan mayda mustaqil rojalarni (hukmdorlarni) ham qilich, ham siyosat yo‘li bilan birlashtiradi va 1530 yilgacha markazlashgan yirik saltanatini barpo etadi.Bu saltanat 332-yil (1526-1858-yillar), ya‘ni Hindistonni Buyuk Britaniya to‘liq bosib olgunga qadar hukm surdi. Bobur xayotiy esdaliklar yozish maktabini Boburnoma , asari orkali boshlab berdi. Muxtasar, Mubayyin, Volidiya, Xatti Boburiy, kabi asarlari ta‘lim –tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning ijodiga mansub bo‘lgan Xatti Boburiy, uzoq yillar davomida maktablarda, madrasalarda savod o”gatish kitob sifatiga foydalanadi. Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir,basdakor, ayni payda mashur tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlangan asar ‘Boburnoma‘ dir. Alisher Navoiyning yozishicha, faqat inson Allohning ilmi hikmatiga oshno qilingan ‘Qilding ani orifi ul ma‘rifat’ , faqat odamga ma‘rifat ganji ishonib topshirilgan. Navoiy Qur’on oyatlariga ishora etib, inson ulug‘ligini bunday ta‘rif etadi. Karramno-keldi manoqib anga; ‘Ahsani taqvim’-munosib anga.

Alisher Navoiy insonga va birinchi navbatda hayotdagi kirdikoriga qarab baho bergan. Inson jamiyatga naf keltirishiga, foydali ishlari bilan

qadrli.Boshqalarga ziyaon etkazadaigan, jamiyat tengligi va osoyishtaligini buzadigan siyrati suratiga to‘g‘ri kelmaydigan kimsalar chin inson emas. U jamiyatining har bir a‘zosidan-shohmi, gadomi-inson nomiga munosib bo‘lishlikni talab etadi. Navoiyning fikricha, yaxshilikning, odamiylikning mezoni–bu xalq g‘am tashvishi bilan yashashdir.

Odamiy ersang, demagil odamiy

Oniki, yo‘q xalq g‘amini g‘am Alisher Navoiy qanoat to‘g‘risida. Qanoat buloqdur- suvi olgan bilan kurimaydi; xazinadir –naqdisi sochgan bilan kamaymaydi, ekinzordir-urug‘i izzat va shavkat mevasi beradi; daraxtdir-shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi etkazadi. Kimki, qanoatga odatlansa, shoh va gadoy bordi-keldisidan ozod bo‘ladi. Qanoat qo‘rg‘ondir, u erga kirsang nafs yomonligidan qutularsan,tog‘likdir–u yerga chiqsang dushmanlar va do‘stga qaramlikdan xalos bo‘larsan; tubanlashishdir-natijasi yuksaklik; zoriqishlik-foydasi ehtiyoysiz urug‘ining mevasi farovonlik Alisher Navoiy “Sabr” to‘risida. Sabr achchiqdir –ammo foyda beruvchi, qattiqdir ammo zararni daf etuvchi Sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir. U o‘rtoqdir-suhbat zerikarli, ammo oxiri estakka elyuvchi. Ulovdir- yurishi taxir, ammo manzilga eltuvchi; tuyadir-qadami og‘ir,lekinbekatga tushuruvchi. Achchiq so‘zli nasixatchiday tabiat undan olinadi, lekin zaminda maqsand hosil bo‘ladi. Badxo‘r dori beruvchi tibibday kasal undan qiynaladi, ammo so‘gida sog‘lik yuz beradi.

Abdurahmon Jomiy [1414-1492] ning pedagogik qarashlari. Jomiy uchta lirik devon,etti dosdondan iborat ‘Haft avrang‘ Etti taxt, ta‘lim-tarbiyaga oid “Bahoriston” asarlari bilan jahon madaniyati tarqqiyotida

munosib o‘ringa ega bo‘ldi. Jomiyning Lujjat ul-asror “Sirlar dengizi”, 1475, “Ashiat Ul-lamoat” “Yiltillagan nur”, 1476 diniy-falsafiy qasidasi Ibn Sinoga bag‘ishlagan. Dostonlarida xalq ommasining eng yaxshi orzu-umidlarini kuylagan. 7 dostondan iborat “Haft avrang” Etti taxt yoki “Katta ayiq”, 1480-87 dagi “Silsilat uz-zahab” “Oltin zanjir” 1472, “Tuhfat ui-ahror” Nuroniylar tuhfasi, 1481-82, “Sibhat ul-abror” “Taqvodorlar tasbehi”,1482-83 dostonlarida yuksak xulq-atvor mezonlarini targ‘ib qilgan, kishilarni ma‘rifatga, yurtparvarlikka, to‘g‘rilik, insof va iymonga chaqirgan. Abdurahmon Jomiyning ta‘limiy-axloqiy qarashlari Sa‘diyning Guliston asari uslubida yozilgan “Bahoriston” asari va “Xaft avrang” ga kirgan “Tuhfatul axror” hamda “Silsilatuz zahab” “Oltin zanjir” va boshqa dostonlari ifodalangan. G‘arb Uyg‘onish davrida ta‘lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.1776-1841,Iogann Fridix Germaniyada tug‘ildi. Disterveg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, yomon o‘qituvchi esa haqiqatni topishga o‘rgatadi.

Turkistonda jadidchilik xarakati, Abdulla Avloniyning Turkiy Guliston yoxud axloq asari va unung ta‘limiy, tarbiyaviy ahamiyati. Turkistondagi jadid so‘zi arabcha yangi usul, yangilik, demakdir. Maktablarni yuzaga kelishi mashur qrm tatar arbobi **Ismoilbek Gaspirali** nomi bilan bevosita bog‘liqdir.1851,yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg‘or demokratk g‘oyalari musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtirish yo‘lida qizg‘in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o‘z navbatda jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Jadid maktablarining ommaviy tuz olishiga asosiy sabab I.Gaspirali tomonidan 1883-yildan nashr eta boshlagan Tarjimon gazitasi bo‘ldi.Shu bilan birga

Ismoilbek Gaspirali o‘zi tashkil maktab uchun bir qator darsliklar va darsliklar ham yaratdi.Uning yangi usuldagi maktab hayotga bag‘ishlangan asarlari jumlasiga Hujai Subyona, Qirsat turki, Rahbari muallimin, kabi darslik va darsliklarini kiritsa bo‘ladi. Gaspiralining ushbu asarlari o‘quv jarayonini tashkil etish, darsliklarga qo‘yiladigan talablar, musulmon o‘quv adabiyotda qo‘llaniladigan didaktk va metodik ko‘rsatmalar bilan jadid maktablari tariqqiyotga ulkan hissa qo‘shdi.

1899-yil Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori yang usul maktabini ochdilar.1903-yilda, umuman, Turkistonda 102-ta boshlang‘ich va 2 o‘rta jadid maktabi bore di. Bulardan 6tasi Buxoro amirligida va 8tasi Xiva xonligi hududida edi.Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkildagi ma‘rifatparvarlik xizmatlari. XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi o‘lab [usuli jadid] maktablari ochildi. Uni bitrganlar orasidan Turkiston manaviy-marafiy dunyosini millliy uyg‘onishga kuchli ijobiy tasir qiladigan zabardas namoyandalar etshib chikdi. Ularning birinchi, Turkiston jadidlarning otasi-Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19 yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida ruhoning oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbutxo‘ja Solixo‘ja og‘li Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo‘lib, onasi esa, asli xorazmlik bo‘lgan. Otasi 1898-yil vafot etgach, u tog‘asi, qozi Muhammad Siddiq tarbiyasida bo‘lib, undan arab, forsiy tillarini chuqur o‘rganadi. Behbudiy dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tehsil olgan. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911- yida Padarkush nomli drama yozdi. U bu asarida o‘ining sevimli mavzusi-barchani ilm-marifatli

bo‘lishga cha-qirish, ilmsizlik balosini daf qilish g‘oyasini qalamga olgan. Munavvar qori Abdurashidxonov Vatan va millat fidoysi, chorizm va sho‘ra ko‘rinishlarini ayovsiz fosh qiluvchi arbob, tolmas, jadidchilik harakatning yirik namoyondasidir. Turon jadidlar jamiyatni tashkil etdi, O‘zi takidlaganidek; Chor hukimatini to‘qotish jadidlarining tlagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo‘lishni tashirin emas. Munavvar qori ochgan yangi usul Namuna maktabida bir necha yuz bola o‘qigan. Bu maktabda tayyorgarligini ancha bo‘lgan istododni yoshlar o‘qituvchilik qilishgan. Munavvar qorining o‘zi esa jadid maktablari uchun yangi tovush usuli savtya usulida darsliklar- Adibi avval Birinchi adib, 1907 alifbosi va Adibi soniy Ikkinchi adib,1907, Er yuzi Jug‘rofiya, Havoyijon diniya 1907 kitoblarini yozib chop ettirgan. Bular o‘lkadagi jadid maktablari uchun asosiy darslik sifatida bir necha bor qayta nashr etigan. Abduqodir Shakuruy (1875-1943) Samarqand shahri yaqinidagi Rajabamin qishlog‘ida 1901 yida yangi usulda maktabni tashkil qiladi. Yangi usuidagi bu maktabda arifmetka, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o‘qitlardi. Shukuriy o‘zi ochgan yangi usuldagi maktabida arab tilining qoidalari va harflarni o‘qitishga jiddiy etbor bergan holda, o‘uvchilarni so‘z bo‘g‘inlari bilan tanishtirar va shu bo‘g‘inlari asosida bolalar uchun tushunarli sodda so‘zlarni tuzardi. Shukuriy 1907-yida bolalarning yosh xususiyatiga muvofiq tarzda axloq, odob va turmush qoidalaridan dastlabki malumot berish maqsadida Jomel-hikoyat Hikoyalar to‘plami nomli ikkinchi kitobini tuzadi. Bu kitob boshlang‘ich maktabning II,III sinflar uchun terma kitobdir. Kitobdan 48-ta kichik-kichik odob-axloq mavzusidagi hikoyalar va 15-ta sheriy asarlar o‘rin olgan. Uning uchinchi o‘qish kitobi. Zubdatul deb ataladi. XIX

asrning ikkinchi yarmida Rossiyada ijtimoiy pedagogoika. Oliy ta‘limning shakllanishi va kadrlar tayyorlash muammolari. Turkiston o‘lkasida ta‘lim siyosat 1917-1924 yy. 1917-yilgi fevral voqealari va oktyabr davlat to‘ntarishidan so‘ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida-ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalaridan keskino‘zgarish yuz berdi. Milliy ziyolilar va arboblarining faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilar, ijod ahli bo‘lmish Munavvar Qori, Mahmudxo‘ji Behbudiy, Sadriddin Ayniq, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G‘ozi Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo‘sag‘asida tug‘ilgan iste’dodli yoshlar Mashriq Yunus Elbek, Naim Said, Rafiq Mo‘min, Mahmud Xodiev Botu, Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorifsoxalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo‘naltirilgan ijodiy bilan shug‘ullandilar. Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab chiqayotgan Hurriyat gazetasi sahifalarida yangi usuldagi maktablarninig keng tarmoqlarini yaratish zarurligi hakidagi fikrni ilgari surdilar. “Anjumani maorifi” jamiyatining mablag‘lariga “Rushdiya” maktabi ochildi, unda bepul o‘qitilar edi. Hoji Muin Shukrullo Tarbiyat maktabini ochdi. 1918-yilning yozida Samarqandda Musulmon o‘qituvchilari uchun pedagogik kurslar ochdi. O‘sha yilning kuzda Toshkentda Toshkent uezdining tub erli aholisi uchun maktab o‘ituvchilari kurslari ochildi. 1918-yil 9-aprelda Munavvar qori uyida to‘langan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununing musulmon bo‘limini ham O‘rus bo‘limi kabi uch bosqichdan iborat bo‘lishi belgilanadi; yuqori bosqich-dorilmaullimin o‘qituvchilar kursi, keyinroq oliy o‘quv yurti]o‘rta bosqish-boshlang‘ich maktablarini o‘z ichiga olar edi. 1918-yil 2-iyun

kuni sobiq seminariya binosida dorilfununing o‘zbeklar uchun maxsus o‘qituvchilar tayyorlovchi bo‘limi-Dorilmuallimin ochildi.

XX asrning 20 yillar boshida Samarqandda Abdulqodir Shakuriy (1875-1943) mudirlik qilgan maktab, 1922 yilda Farg‘ona shaxrida Xusanxon Niyoziy boshchiligida ochilgan ikkinchi boshqich maktab, qator boshqa maktablar shular jumlasidandir. Milliy jadid maktablari uchun darsliklar, o‘qish kitoblarini ziyolilarimiz asr boshidan yozib foydalanib keldilar. 1917-yildan maktablar sonining o‘sishi, maorif ijtimoiy darajasining ko‘tarilishi darsliklarga talabni oshirdi.

Pedagog olim, davlat arbobi Abdulla Avloniy 1917-yilda Turkiy guliston yoxud axloq asarini qayta nashr qilindi hamda, “Maktab gulistoniy” o‘qish kitobini, ikki jildlik “Adabiyot yoxud milliy sherlar” kitoblarni chop ettirdi.

1924-1945 yillarda ta‘lim va pedagogika fan qayta tuzila boshladi. Aynan mana shu yillarda respublika budjetini 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Shu yillar maboynida ta‘lim keng rivojlana boshlandi. 1960-61 o‘quv yilida O‘zbekiston oliy maktablarida 100 minga nafar talaba ta‘lim olgan bo‘lsa, 1970-71 o‘quv yilida ularning soni 230 minga etdi. Oliy o‘quv yurtlari soni 1940 yildagi 30 tadan 1970 yilda 38 taga ko‘paydi.

L.N.Tolstoy (1825-1910) ning pedagogik faoliyati 1848 yildan boshlanadi. "Yasnaya Polyana"da dehqon bolalarini o’qitadi. Bu faoliyat to’xtashlar bilan umrining oxirigacha davom etadi. "Yasnaya polyana" jurnalini chiqaradi. 1872 yil "Azbuka", 1875 yil "Novaya Azbuka", va 4ta "O’qish kitobi"ni nashr ettiradi.

Tolstoy o’z pedagogik tizimida "Erkin tarbiya" nazariyasini olg’a suradi. Bu bola shaxsini hurmat qilishga asoslangan. Uning maktabida

o’qish, yozish, din darsi, tarix, arifmetika, tabiat fanlari o’qitilgan. Qat'iy o’quv reja, dastur, darslik bo’lmagan. Uy vazifasi berilmagan.

O’qitishning metodlari ta'lim printsiplariga oid qarashlari ham ahamiyatlidir.

Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi 1592-1670. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. Yan Amos Komenskiy 1592 yil 25-marta Chexoslavakiyaning Moraviyada Chex qarindoshlari jamosiga taaluqli oilada yug‘ildi.Komenskiynlar oilasi Moraviyada Koman qishlog‘ida ko‘chib kelishgan, shuning uchun ham ularni bu yerda Komanchilar oilasi deb atalgan. Komenskiy 1627 yida chex tilida Chex didaktikasi asrini yozishga kirishdi. Komenskiy Leshnoda maktab ochib o‘qiyuvchilik qildi.1632-38-yillarda bu asarni qayta ishlab lotin tilida tarjima qiladi va uni Buyuk didaktika deb ayaydi. Komenskiy 1631- yilda Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi 1633 yilda Fizika 1632- yilda Astranomiya, 1632- yilda Onalar kabi asarlarini taratdi. Komenskiy Shvesiyada borib maktab islohati o‘tkazishga kirishdi va maktablarda lotin tili o‘qitish metodikasini ishlab chiqdi. 1648-yida Komenskiy Leshnoga qaytib Shvesiya hukimatini topshirig‘ga asosan Lotin tilining muqaddimas, Latizim zali, Tillarining eng yaxshi metodi kabi asarlarini nashr qildi. 1660-yilda Komenskiy Vengiriyaga boradi va maktablar ochdi. U o‘qitish jaroyonini bolalariga bilimga qizqish uyg‘otish uchun Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi asari asosida 8 ta o‘quv pyesasini yozdi va ulardan O‘yin maktab kitobini tuzdi.1654-yil Komenskiy Hislar vositasi bilan idora qilingan narsalarning suratlari nomi asarini yozdi. Bu asar Yevopaning ayrim mamlakatlarida XIX asarning ikkinchi yarimgacha darslik sifatida foydalanadi. Uning fikrichia tarbiyaning uch vazifasi bor.

1. O‘zini va tevarak atrofidagi olami billishi aqliy tarbiya.

2.O‘z-o‘zini boshqarish axloqiy tarbiya

3.Xudoni tanish dinniy tarbiya

Komenskiy maktabning aniq tabiatidan olmoq kerak, tabiatni ham o‘z harakatlarida namoyan qilayotgan jarayonlarini kuzatishga asoslanib bilish lozim,deb ta‘lim beradi. Ta‘lim-taribiya Bolaning tabiiy qobilyatlariga moslansa, yengil va osonroq o‘qitish mumkin.

1.O‘qitishni o‘z vaqtida, ya‘ni kishining fikri boshqa narsalarga bo‘linmasdan turib boshlash kerak.

2.Bolaning aqli o‘itish uchun yetarli darajada tayyorlangan bo‘lishi lozim.

3.O‘qitishda umumiydan xususiyga qarab borishi lozim.

4.Osonroq narsalarni o‘ragatishda qiyinroq narsalarni o‘rgatishga o‘tish kerak.

5.O‘rganiladigan material ko‘plik qilib, bolani qiynab qo‘ymasin.

6.Hamma narsani sekin-asta o‘rgata borish lozim.

7.Bolaning yoshiga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni unga majburan o‘rgatmaslik kerak.

8.Hamma narsa tashqi sezgi organlari orqali etilishi zarur.

9.O‘qitish har doim bir usulda olib borish kerak. G‘odaklikda jismoniy jihatdan o‘sadi va sezgi organlari rivojlanadi.

III-bob. TARBIYA NAZARIYASI

Tarbiya jarayonining mohiyati.

Tarbiya nazariyasi—pedagogika fanining bir kismi bulib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini urganadi. Hayotga yangicha siyosiy va iktisodiy nuktai nazardan yondashish usib kelayotgan esh avlod tarbiyasi bi- lan boglik jarayonni ham kaytadan ko‘rib chiqishni takozo etmokda. O‘zbekiston Respublikasining davlat mustakilligiga erishuvi ta‘lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma‘lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshka bulimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta‘lim nazariyasi, maktabshunoslik bilak o‘zviy boglangandir.

Tarbiya jarayonining moxiyati shu jarayon uchun harakterli bulgan va muayyan qonun iyatlarda namoyon buladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Hozirgi zamon pedagognkasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta‘sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning anik bir maqsadga karatilgan, bir-biri bilan hamkorlikda kiladigan munosabatlari va o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishi ekanligi aloxida ta‘kidlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun oila, davlat oldidagi mas’uliyatini anglab etadigan har tomonlama etuk shaxsni shakllantiruvchi, intellektual va ilmiy ko‘chlarni tarakkiy ettirishdek yuksak madaniyatlarni belgilab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim va madaniyatni rivojlantirish hamda islox qilish, intellektual va ma‘naviy ko‘chlarni mustaxkamlash muxim ahamiyatga molikligi qayd etib utildi. Bugungi ko‘nda shunchaki bilim egasi bulgak insonni emas, balki ijodkor, o‘z iste’dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon insonni tarbiyalash zamon takozosidir.

Tarbiya jarayonida kishining turli kobiliyatlari rivojlanadi, goyaviy, axlokiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy karashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy ko‘ch-ko‘vvatlari mustaxkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust xolda emas, balki faol ravishda o‘zlashtiradi: bu o‘zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi katta ahamiyatga ega buladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko‘rsatmasalar tajriba va bilimni o‘zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulgaygani sari bu faollik tobora ko‘prok mustakil xususiyatlarga ega

bulib boradi; tarbiyalanuvchilar o‘zlarida dunyokarashni tarkib toptirishga, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan xodisalarni tushunishga hamda idpok etilgan narsalarga tankidiy munosabatda bo‘lihga ko‘nika boradilar,

Hamma davrlarning ilg‘or kishilari tarbiyaga yuqori baxo berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Zavkiy, Furkat, Avaz Utar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu

tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish **tarbiya usullari** deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda ***tarbiya vositalari*** tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqkoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi.

Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. SHuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki

boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularni indivudual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir.Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qo‘llanmalar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘kituvchida ko‘p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas’uliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli

obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo‘ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo‘lsa, «Kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak.

Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o‘zida aks ettiradigan o‘nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ishontirish, mashq, rag‘batlantirish va tanbeh berishga bo‘linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi uo‘zida yo‘nalganlikni, o‘ziga xoslikni, qo‘llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko‘proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o‘zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S. Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o‘rgatish va mashq metodlari, rag‘batlantirish, to‘sqinlik qiluvchi, boshqarish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta’sir etishi natijalariga ko‘ra metodlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Axloqiy me’yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g‘oyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta’sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

O‘quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta’sirga turlicha munosabatda bo‘ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o‘rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo‘llanganiga bog‘liq. Tarbiya metodlarini to‘g‘ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalash faolligini oshirishga yordam beradi. Masalan, o‘qituvchi birinchi sinf o‘quvchilari bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarni ular uchun yangi bo‘lgan mehnat faoliyatini o‘rgatishda o‘quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo‘lishi muhimligini, ularga o‘quvchilarning qat’iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to‘g‘ri kirib kelishga, ularni o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o‘quvchilarini yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari,

o‘quv ishi natijalari rag‘batlantirib borishni taqozo etadi. Ko‘rinib turibdiki, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o‘qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o‘zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya qoidalari

Tarbiya qoidasi — pedagog ta‘lim va tarbiya jarayonini yaxshirok tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlangich xolat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari o‘qituvchi, tarbiyachilarga yul-yo‘rik ko‘rsatuvchi qoidalar xisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari Sharq va Markaziy Osiyo faylasuf — donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiya qoidalari mustaqil harakterga ega bo‘lib, tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini va qonun iyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga rioya qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi.

Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga ko‘yiladigan talablar shu qoidalarda o‘z ifodasini topadi.

Tarbiyaning moxiyati, mazmuni, qoidalari mamlakatimizda yangicha iqtisodiy munosabat sharoitlarining o‘zgarganligi sababli kengayib bormoqda.

Tarbiyaviy jarayonni yaxshilash, uni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun deyarli barcha qoidalarni, usullarni, goyalarni

kaytadan ko‘rib chiqishimiz, bola shaxsiga e’tiborni karatishimiz, yillar davomida tuplangan ijobiy tajribadan unumli foydalanishimiz zarur.

Tarbiya qoidalariga ko‘yidagilarni kiritish mumkin: tarbiyaning ma‘lum maqsadga karatilganligi, tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan boglikligi qoidasi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy kadriyatlarning ustivorligi qoidasi, tarbiyada o‘quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini xisobga olish qoidasi, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta‘sirlarning bir- ligi va o‘zluksizligi qoidasi va boshqalar.

1.Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi qoidasi

Tarbiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma‘naviy rivojlangan aqliy va axlokiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko‘ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari va usullari shu maqsadga erishishni ko‘zda tutadi.

Umumiy ta‘lim maktabining asosiy vazifasi — shaxsning aqliy, axloqiy, his-tuyg‘uli va jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish, imkoni boricha qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Shuningdek, o‘quvchilarda milliy gurur va milliy axloq-odobni shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Tarbiyaviy ish ma‘lum maqsadni ko‘zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko‘pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o‘quvchnlar jamoasining aqliy va axlokiy usishini ta‘minlaydi.

Maqsadga intilish va maqsad bir xil narsa emas. Yaxshi bir maqsad izxor kilingan bulsa-da, ammo bu maqsadni amalga oshirish uchun xech

qanday ish kilinmagan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun maqsadni amalga oshirish uchun harakat qilish lozim.

Shaxsning shakllanish manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyaning umumiy maqsadlari bilan boglashni, uni rejali tarzda va kat’iy sur’atda amalga oshirishga harakat qilishni talab etadi.

Ma‘lumki, O‘zbekiston o‘tish jarayonini boshdan kechirmoqda. Inqilobiy o‘zgarishlar ketayotgan xozirgi sharoitda yoshlarni jamiyatimiz g‘oyalarining ko‘chiga ishontirish, yangi jamiyatni barpo etishda o‘z xissalarini ko‘chishga ijtimoiy-foydali mexnatda bevosita ishtirok etishga rag‘batlantirish juda muhim- dir.

Tarbiyaning ma‘lum maqsadga kiritnlganlik qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko‘ra bilishga yordam beradi. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o‘ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga buysundirilgan bo‘lsa, uning g‘oyaviy-siyosiy darajasini ko‘taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofik keladi, ularning tarbiyaviy ta‘siri yuqori buladi.

2.Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi

Umumiy ta‘lim maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o‘z ishining ustasi bulgan o‘qituvchiga muxtoj.

O‘qituvchining bilim saviyasi, ma‘naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi taraqqiyotga eltuvchi etakchi omillardan biridir. O‘qituvchi yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, muomalasi bilan o‘quvchi kalbiga kirishi, uni ezgulik sari yo‘naltirishi kerak.

Maktabda ruxiy xizmatdan foydalanib bolalar kayfiyatini, qiziqishini, intilishini va kobiliyatlarini aniqlash ta‘lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishga imkon beradi.

Yoshlarni insoniy fazilatlar ruxida tarbiyalashda mukaddas kitob Qur’oni Karim, Xadisi sharifdan foydalanish juda muxim. Maxmud Qoshgariyning «Devonu lug‘atit turk», Yusuf Xos XojIbning «Ko‘tadgu bilig», Axmad Yugnakiyning «Xiba- tul xakoyik», Kaykovusning «Qobusnoma», Axmad Yassaviyning «Xikmatlari», Sa‘diy Sheroziyning «Guliston va Buston», Abduraxmon Jomiyning «Baxoriston», Alisher Navoiyning shox asarlari, xikmatlari muxim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, maktabda o‘quvchilarga gumanitar-ijtimoiy: fanlardan ta‘lim berishda tarbiyaga ko‘proq e’tiborni qaratmok lozim. Ayniqsa hozirgi sharoitda O‘zbekiston tarixi, adabietini o‘qitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bo‘lgan milliy ma‘naviyatga, milliy rux, urf-odat va, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga aloxida urg‘u berish zarur.

O‘qituvchi o‘quvchi qalbiga yo‘l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axloqi, madaniyati, rostguylik va shirinsuxanligi bilan namuna bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida haqiqiy do‘stona munosabat qaror topadi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigitning betakror va o‘ziga xosligini xurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini xisobga olish lozim.

Yaxshi o‘qituvchi o‘quvchilarning so‘zini diqqat bilan tinglaydi, ularga dalda beradi, tinchlantiradi, to‘g‘ri baho qo‘yadi, hammani teng ko‘radi, bolalarni sevadi.

Tarbiyani demokratiyalash — bu tarbiyani ma‘muriy extiyoj va qiziqishlardan yuqori qo‘yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini

o‘zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir.

Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘qituvchilar o‘rtasida xurmat tuyg‘ularini shakllantirish, bolalar fikriga e’tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lih lozim. Maktab osoyishtalik, insonga mehr-muhabbat- beshigi bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi o‘quvchiga, avvalgidek, tarbiya ob’ekti emas, xuddi o‘zi kabi sub’ekt deb karashi darkor. Ya‘ni o‘quvchiga faqat mening buyrugimni bajaruvchi emas, balki mening o‘zim bilan teng huquqli, birga ishlovchi, hamkorlik qiluvchi deb qarashi lozim.

Bola butun qalbini darsga bagishlasa, uni og‘ir axvolga solib ko‘rgan bo‘lamiz, u faqat o‘quvchigina emas, avvalo, rang barang qiziqishlar, extiyojlar, intilishlarga ega bo‘lgan insondir.

Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyati va mazmunini qayta tafakkur etishni ko‘zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o‘zligini anglash huquqini ta‘minlaydi.

3.Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi qoidasi

O‘quvchilarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarni egallashga bulgan talablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarini shakllantirish juda muximdir.

O‘zbek xalqining madaniy merosini urganishda va rivojlantirishda milliy o‘ziga xosligi, ma‘naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an’analariga suyangan xolda ish ko‘rilishi maqsadga muvofik. Kishilik jamiyatiga muxabbat, tabiat muxofazasi, madaniy yodgorliklarni saqlash ishlariga jalb qilish lozim.

Ma‘naviy qadriyatlar va g‘oyalar har xil millat o‘quvchilarini birlashtiradi, o‘quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi.

Xalq pedagogikasini bola tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga to‘la tadbiq etilmaganligi, buyuk allomalarning pedagogik qarashlari, sharqona urf-odatlar, boy an’analari haetga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay ko‘surlarning yuzaga kelishiga sabab bulgan.

Xalqimizning ko‘p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy gurur tuygusini karor toptirish mumkin emas.

O‘zbek xalqi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar eshlar tarbiyasida muxim vosita bulib xizmat kiladi. Ismoil-al Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf-Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Sa‘diy Sheroziy, Axmad Yassaviy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Abduraxmon nomiy, Alisher Navoiy va boshka buyuk mutafakkirlarning asarlari orkali o‘quvchilar go‘zal axlok, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafkat, sixat-salomatlik, ota-onani xurmat qilish koi- dalari haqida keng tasavvurga ega buladilar. Insoniylik o‘z tarkibiga insonning eng yaxshi axlokiy xususiyatlarini, ya‘ni odamlar urtasida o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish, dustlik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarini qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go‘zal fazilatlarni karor toptirishga ahamiyat berganlar.

4.Tarbiyada izchillik, tizimlilik — tarbiyaviy ta‘sirlarning uygunligi va uzluksizligi qoidasi.

Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning pedagogik harakatning pirovard natijasiga yunaltirilganlik darajasini belgilab beradi.

Bunda pedagogik maqsad va vazifalar, uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi shart.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumning ishi va o‘zluksiz bulsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin, tarbiyaning barcha tomonlari hamoxang bulsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarini shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlashsin.

Tarbiya ishida izchillik juda muximdir. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so‘ngra o‘zining bu talabini unutib ko‘rsa yoki o‘zi bu talabga hilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga juda yomon ta‘sir kiladi. O‘qituvchi subutli; o‘z lafziga sobiq bulmogi kerak. Masalan: «Ertaga .kundaliklaringizni tekshiraman», «Oyoq kiyimlaringizni moylanganligini ko‘raman» deb va‘da berdingizmi, ijrosini unutmang. Pedaror biror tarbiyaviy tadbir uyushtirishni bolalarga va‘da qilib, sal orada va‘dasini esdan chiqarib ko‘rsa, o‘quvchilar bunday o‘qituvchiga ishonmay qo‘yadilar. Har bir pedagogning ishi bilan so‘zi bir bo‘lishi lozim.

Bolalarga birdaniga juda ko‘p talab va qoidalarni takdim qilish mumkin emas. Bolalarga tarbiya va ta‘lim berishda uzluksizlik va tizimlilikka rioya qilish kerak.

Hamma tarbiyachilar o‘quvchiga bo‘lgan munosabatlarida bir-birlariga zid harakatda bulmasliklari, bir xil yagona talab qo‘yishlari lozim. Tarbiyaviy ishda bunday izchilikka rioya etish juda ham muhimdir.

O‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishda izchillikka rioya qilish, muomalani-avvalgicha davom ettirish va bir xil talab ko‘yish muvaffaqiyat qozonishning eng muxim shartlaridan biridir. Afsuski,

amalda ba‘zan oila maktabning talablarini ko‘llab-ko‘vvatlamaydigina emas, balki o‘quvchiga teskari ta‘sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar orasida ham talabalarning bir xilligi hamisha ta‘minlanavermaydi. Tarbiya uzoq muddatli, bulib, unda ota-ona, o‘qituvchi, jamoatchilik va boshqalar qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo‘lishiga rioya etish, o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini, tarbiya usullari va shakllarini o‘z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiya ishida tarbiyani amalga oshiradigan barcha buginlarning (oila va maktab, o‘quvchilar va eshlar tashkilotlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning) hamjixat va bamaslaxat ish ko‘rishini ko‘zda tutadi. Chunki tarbiyaviy ta‘sirdagi tizimlilik fakat eshlarni emas, balki axolining barcha katlamini qamrab olishi kerak. Axoli qatlamlarini tarbiya tizimiga jalb qilishdagi rang-barang shakl va usullari ijtimoiy-iktisodiy ham pedagogik jixatdan, nafaqat tub axoli, balki Respublikada istiqomat qilayotgan boshqa millatlar va elatlarning etnopedagogikasi pozitsiyasi jixatdan ham ta‘minlanishi kerak.

Tarbiya usullari haqida tushuncha

Bola o‘qishni, tarbiya olishni istaydi, ulgayib jamiyat haetida faol ishtirok etishni xoxlaydi. Pedagog uni kay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga bola o‘zini o‘zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim. O‘quvchilar yaqin kishilarining (ota-onasi, o‘qituvchilari, tarbiyachilarining) munosabatlarini yaxshi bilsa, bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik ta‘sir o‘tkazishga ochin

va moyil bo‘ladi. O‘qituvchi—do‘st, murabbiy, yo‘l boshlovchi bo‘lgandagina o‘quvchilar o‘zlarining ichki olamlarini ochib ko‘rsatadilar.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya— tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoklama jarayon. Tarbiyachilar — bilim va tarbiyaga ega bulgan kishilar, tarbiyalanuvchilar — bilim va tajriba urganuvchi eshlardir. Ammo tarbiyala- nuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko‘rsatmasalar, tajriba va bilim urgana olmaydilar.

Demak, tarbiya usuli — tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyat va o‘zaro ta‘sir ko‘rsatish usullaridir. Ilmiy adabietlarda tarbiya usullarini tarbiya metodlari deb ham ishlatiladi.

«**Metod**» so‘zi grekchadan olingan bulib, yo‘l, usul ma‘nosini bildiradi.

Ta‘lim usullari singari tarbiya usullari ham aloxida kismlarga bulinadi. Masalan: o‘qituvchi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyushtirmokda. Bolalarga ish bulib berishdan avval u

lattani qanday qilib xullash, partalarni va polni artish haqida gapirib, ko‘rsatib beradi. O‘qituvchining so‘zi bu erda uslub hisoblanadi. Usul va uslub bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan holda pedagogik jarayon moxiyatiga ko‘ra bir-biriga utib turishi mumkin.

O‘qituvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofik tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan: sinf majlisi, yigilishlar, ertalabki lineyka, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofik yo‘l bilan xal qilishni tashkil etish uchun ishlatiladi (ko‘rsatmali ko‘llanmalar, kitoblar, radio, televidenie). Bundan tashqari o‘quvchilar jalb kilingan faoliyat turlari- kinofilmlar, san’at asarlari, o‘quvchining jonli so‘zi, bolalar uyini, sport, badiiy xavaskorlik tugaraklari va boshka faoliyat turlari tarbiya vositalari bo‘lishi mumkin.

Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o‘qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab ko‘tubxonasi tarbiya vositasi bo‘lishi uchun o‘qituvchi va ko‘tubxonachi yozuvchilar bilak uchrashuv, o‘qilgan kitoblarni muhokamasini uyushtirishlari lozim.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan moxirona foydalanishga boglik.

Tarbiyachilar ta‘sir etishning bola shaxsiyatiga mos usulini, eng makbul usulni tanlab olishlari, uning shaxsini o‘zgartirish uchun kerakli sharoit yaratishlari darkor.

Tarbiya usullari har bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga aloxida munosabatda bo‘lihni nazarda tutadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o‘qituvchi yakka o‘quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yulida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat harak- terini xisobga olgan holda ta‘sir etish shakllari majmuasiga tarbiya metodi deyiladi.

Tarbiya goyatda murakkab jarayon bulib, har davrning ijtimoiy-siyosiy xaetini o‘zida aks ettiradi. Uning usullari, vosita va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, o‘zini oklagan urf-odatlar an’anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o‘z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyokarashi tarbiya vositalari buladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan o‘zilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasi o‘zbekona axlok, odob va tarbiyaning barcha kirralarini o‘zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalaniladi, bu usul, vositalar nixoyatda rang-barang bulib, ko‘p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik kiladi. Chunki bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o‘z ta‘sirini utkazgan.

Xalq pedagogikasida qo‘llanilgan juda xilma-xil tarbiya usullarini ko‘yidagi tarzda umumlashtirish mumkin.

1. Tushuntirish (urgatish, odatlantirish, mashk qildirish).

2. Namuna (maslaxat berish, o‘zr surash, yaxshiliklar haqida so‘zlash, urnak bo‘lih).

3. Nasixat berish, o‘git (undash, ko‘ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma‘ko‘llash, raxmat aytish, duo qilish, ok yul tilash va xrkazolar).

4. Qoralash va jazo (ta‘kiklash, ta‘na, gina, tanbex berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, ko‘rkitish, nafratlanish, ont-kasam ichirish, urish, kaltaklash va xokazolar). Agar sinchiqlab karalsa, yukorida keltirilgan turt xil usul umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Olden bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va xodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna vositasini utaydi, ya‘ni yoshlarning mustakil ko‘zatuvchanligiga e’tibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasixati, o‘giti orkali parsa va xodisalarning moxiyatiga etadigan bo‘lihadi. Bordiyu bunda ham bolalar tushunishmasa yoki tushunishni istashmasa, unda koralash va jazo usullaridan foydalanishga to‘g‘ri kelgan. Lyokin bu sunggi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi koralash va jazoni sunggi chora, anikrogi kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta‘sirlar muayyan vositalar orkali amalga oshi- rilgan. Mexmon ko‘tish, mexmonga borish, turli mehnat jarayonlari, xasharlar, turli gurunglar (choyxona, tuy marosimlari) sayillar, turli nishonlashlar (tugilgan kunni nishonlash, qizlar bazmi, yigitlar bazmi), musobaqalar, turli marosim va boshkalar o‘ziga xos tarbiya vositasi vazifasini bajargan.

O‘quvchi eshlarni tarbiyalashda milliy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Bular o‘z navbatida, yangicha tarbiyaning o‘zgacha muvofik uslub va shakllarini taqozo etadi.

Inson kalbiga bugun ekilgan yaxshilikka urundi oradan o‘n yillar o‘tgach unib chiqadi, buni ilmiy asoslab oldindan ko‘ra bilish kerak,

Tarbiya usullarini o‘rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko‘nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish

uchun ularni shartli ravishda bir necha guruxga bo‘lib olamiz: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar; faoliyat jarayonida ijtimoiy xula va tajribalarni shakllantirish usullari; o‘z-o‘zini tarbiyalash usullari hamda rag‘batlantirish usullari va jazolash usullari.

1.Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar. Bu o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tikodni, ma‘naviy va siyosiy-goyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, xislari va irodasiga ta‘sir ko‘rsatish usullari kiradi.

O‘quv usullarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o‘quvchilar ongiga qanday talablar qo‘yayotgani etkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko‘maklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi. O‘quvchilarda siyosiy onglilik va, ijtimoiy faollik, ya‘ni davlatni ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim. Tushuntirish—ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko‘p ishlatiladigan usuldir. Tushuntirishning vazifasi o‘quvchilarni yuksak madaniyatli, milliy g‘ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat. Tushuntirishda o‘quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o‘z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan boglanganligi borasida ma‘lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrogi, gerbi, madxiyasi, konstitutsiyasiga sadoqat ruxida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o‘quvchilarga bayron, gerb, madxiya, konstitutsiya moxnyati tushuntiriladi.

Suhbat va hikoya. O‘quvchi shaxsini goyaviy va axlokiy shakllantirishda o‘qituvchining jonli so‘zi eng ta‘sirli usul xisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazko‘r sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axlokiy ishonch uygotishning Suhbat mazmuniga bulgan munosabatlarini va Suhbatdan ko‘tilaetgan natijani xisobga olish lozim.

Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: etik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axlok myozonlari, o‘zini to‘tish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go‘zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go‘zalligi), siesiy mavzularda (davlatning ichki va tashki siesati, dunyo vokealari), ta‘lim va bilishga oid mavzularda (koinot, xayvonot dunyosi). Suhbat davomida o‘quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uygotish, o‘quvchilarni fikrlashga majbur kiluvchi savollar berish juda muximdir. Bu borada baxs-munozaralarning ahamiyati katta.

Hikoya. O‘quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan toliq, hikoyalarni kiziqib ting- laydilar. Ularga axloq myozonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiet, san’at haqida Hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiet, radio, televidenie, gazeta va jurnallardagi ma-kolalar ham kimmatli material buladi. Suhbat ham, Hikoya ham o‘quvchilarning eshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so‘zlar orkali o‘zbek tilida o‘tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, Suhbat va Hikoya mavzusini o‘quvchilarning o‘zlari tanlasin, bunda Suhbatning zavki — shundan ta‘minla nadi, o‘quvchilar mavzuga befark karamaydilar.

Namuna. O‘quvchilar o‘z atroflaridagi kishilarda hamma yaxshi axlokiy sifatlarni ko‘rishlari va namuna olishlari nixoyatda muximdir.

O‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi, ayniksa eshlarga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining darsda va xaetda o‘zini qanday to‘tishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o‘z vazifalarini qanday bajarishini ko‘zatib yuradilar.

O‘quvchilar o‘zlariga yakin kishilarning xulq-atvoriga taklid kiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi .sifatlarning, ba‘zan esa emok sifatlarning

ham tarkib topishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi va ota-onalar har qanday xolatda ham o‘zlarini tuta bilishlari kerak. Ular qaerda bo‘lihmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so‘zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo‘lmasligi kerak.

Ilg‘or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan yorkin ma‘lumotlar, adabiy asarlardagi, kinofilmlardagi va spektakllardagi kaxramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga ko‘chli ta‘sir kiladi.

Maktablarda ishlab chiqarnsh ilg‘orlari bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘z otalari va onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffakiyatlari bilak faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan Ota-bobolarimiz o‘z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug kishilardan ibrat olishga da‘vat qilib kelganlar. Masalan: «Qush uyasida ko‘rganini kiladi». Juda oddiy jungina xulosa. Shu oddiy ibora ostida kanta fikrlar jamlanib etganligini hamisha ham faxmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq, uyingda tartibli bo‘l, aks xolda bolang ko‘chada tartibsiz buladi. Bola oldida birovlarning g‘iybatnni qilma, bolang g‘iybatchi buladi, demokchn.

Bunta uxshash fikrlarni ko‘plab keltirish mumkin.

2.Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirish usullari

Bola rivojlanishning, o‘zligini belgilashining asosiy omili — bu faoliyatdir. Faoliyat nuktai nazaridan yondashish qoidasi maktab hayotining hamma jabxalarida ta‘lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi.

Faoliyat o‘quvchnlarni bilimlarni mustakil egallashga undaydi, ularni kaysi ixtisosga moyilliklarini aniklashga, ijodiy faoliyat tajribasini, xnssiy kadriyat munosabatlarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi.

O‘quvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasidagi foydali mehnat bilak shugullanishlariga erishish lazim. Bunday mehnat ko‘pchilik, jamoa bulib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Mashq va o‘rgatish usullari: Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofik ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axlok myozonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustaxkamlanib boradi.

O‘qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini ko‘zatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular bilan muntazam mulokotlari tufayli taklid qilish, tarbiya orkali nosil kiladi. Oxir-okibatda odat extiyojga aylanadi.

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko‘nikma, odat, yangi bilimlar xosil kilinadi, o‘quvchining akliy kobiliyati rivojla- nadi, axlokiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya — poydevorsiz binoga uxshaydi, odat esa muntazam mashk orkali mustaxkamlanadi.

O‘rgatish—ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil kilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yigindisidir. O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim.

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud: faoliyatda mashk qilish; ko‘n tartibi mashklari, maxsus mashklar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o‘zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga karatilgandir. Ko‘n tartibi mashklari maktabda, oqlada o‘rnatiladigan ko‘n tartibiga amal qilish, shu bilan bogliq o‘z istak va harakatlarni boshkarish, ish va bush vaktdan to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashklar madaniy xulq, malaka va ko‘nikmalarni xosil kiladi va mustaxkamlaydi.

Topshiriq. O‘quvchilarning mehnat topshiriklarini jamoa bulib bajarishlari ularda ijtimoiy tajribalarini shakllantirishda aloxida ahamiyatga egadir. Mehnat qilish bolani harakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muxim usullaridan biridir. Talab — bu o‘quvchining turli vazifalarni bajarishi; ijtimoiy xulq-atvor myozonlarini ifodalashi; u yoki bu faoliyatda katnashib bajarilishi zarur bulgan anik bir va- zifa sifatida namoyon bo‘lishi; turli ko‘rsatma sifatida namoen bo‘lishi, u yoki bu harakatda rag‘batlantiruvchi yoki uni tuxtatuvchi bo‘lishi; okilona harakatlarga undovchi bo‘lishi mumkin.

3.O‘z-o‘zini tarbiyalash usullari

O‘qu’vchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya‘ni o‘z ustida ongli, batartib ishlashga extiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb xisoblasa buladi. O‘quvchilarni, ayniqsa, urta va katta yoshdagilarni o‘z bilim va malakalarini mustakil oshi- rishlariga qo‘llash kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi idora qilish organlari faoliyatida katnashishlari, ularning ijtimoiy faollik mavkeini shakllantirishning ta‘sirchan vositasidir. O‘quvchilar ukishda, tarbiyada,

dam olishda o‘z-o‘zini tarbiyalash usullaridan foydalanadilar, o‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustakillikka undaydi.

Maktabda o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, ishi pedagogik jamoa bu ishga ma‘naviy tayyor bulsagina, o‘qituvchilar va o‘quvchilar urtasida o‘zaro chuko‘r xurmat, xayrixoxlik, ishonch bo‘lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o‘zini o‘zi idora qilish tashkilotlari o‘z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida xisobot berib turishi, so‘z bilan ish birligi saklanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag‘batlantirilishi e’tiborda bo‘lishi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash sifatlari bola bunta tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustakillik ko‘rsata boshlagan vaktda paydo buladi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda (axlokiy, jismoniy, missiy-irodaviy va intellektual) maslaxat va ko‘rsatmalar berilishi lozim. Bunda o‘quvchilarni o‘zlariga, xatti-harakatlariga tankidiy ruxda munosabatda bo‘lishga urgatish juda muximdir. O‘quvchilar muayyan vaktga belgilangan vazifalarni bajarish uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo‘yadilar.

Shundan keyin vaqti-vaqti bilan o‘zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini bajarilishi haqida xisobot beradilar. Bu esa ularning o‘z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas’uliyatlarini xis etishlariga yordam beradi.

O‘z-o‘zini **tahlil qilish.** O‘z shaxsini, fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida uylashga urgatadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va, aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda ko‘ndaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baxolash. O‘quvchining kobiliyatini o‘z ko‘chi bilak yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baxolash kiyin, lyokin o‘quvchini bunta etarli tayyorlash mumkin. Shu bois o‘quvchi prodali bo‘lishi, o‘z burchini tushunishi, taxsil va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo‘lishi, ya‘ni taxsil va tarbiyalanishni xoxlashi, o‘zini urtoklarining, yanin kishilarining ko‘zi bilak ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga in- tilishi lozim.

O‘z-o‘zini baxolash o‘quvchi uchun o‘zining imkoniyatlarini xisob-kitob qilish, baxolash, o‘ziga chetdan turib xolisona baxo berish, o‘zidan konikish xosil qilishda yordam beradi.

4.Rag‘batlantirish va jazolash usullari

O‘quvchi bolalarning har biri usib, ulgayib, kamol topib borayotganidan xursand bulayotganini syozishi kerak. Fakat shundagina bola o‘zining olma siljib borayotganini ko‘ra biladi, o‘z ko‘chiga ishonadi. Uni xurmat qilishadi, unga ishonishadi, unga chulok solishadi, u jamoaga kerak, u o‘qituvchisini kiziktiradi. Bunta erishish uchun rag‘batlantirish usulidan foydalanish lozim. Chunki rag‘batlantirish bolaga ishonishga, unda bulgar ijobiy kobiliyat va fazilatlarning ko‘chini e’tirof etishga asoslangan. Rag‘batlantirish o‘quvchining ko‘nglini ko‘taradi, unga ko‘vonch keltiradi, o‘quvchini yanada yaxshirok bo‘lihga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag‘batlanti- rishning ko‘yidagi turlari ko‘llanadi:

1. O‘quvchining ko‘chi etadigan, mas’uliyatli topshirik berish orkali bolaga ishonch bildirish; bunda o‘quvchi o‘z kadr-kimmati bilan faxrlanadi;
2. Maktash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);

3. Esdalik sovgasi berish (kitob, ruchka, o‘quv asbobi va boshi alar);

4. Maqtov yorligi berish;

5. Stipendiya bilan takdirlash;

6. Xurmat taxtasiga fotosuratini ko‘yish;

7. Qo‘llab-ko‘vvatlash;

8. Mas’uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;

9. Safda birinchi urinda turish;

10. Musobakalarda bayron ko‘tarish;

11.Gazetada, radioda e’lon va x. k. Har qanday rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan xolda ko‘llanishi lozim. Ya‘ni, rag‘batlantirish haqiqiy xizmatga muvofik bo‘lishi, ketma-ket bulmasligi, xaddan oshirib maktash, boshka o‘quvchilarga taqqoslab ularni kamsitishga yul ko‘ymaslik, rag‘batlantirishga bulgan talabchanlikni bushashtirmaslik va xokazo.

Jazolash — bu tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baxo berishdir.

Jazo ham o‘quvchining va butun sinf manfaati uchun ko‘llanadigan oxirgi tarbiya usuli. Jazo choralarini ko‘llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani ko‘rkitish, gazablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o‘quvchi ko‘rkkanidan yolgon gapirishga urganadi, ikkiyuzlamachi bulib koladi.

Maktablarda kallash mumkin bulgan jazo choralariga ko‘yidagilar kiradi:

Tanbex berish — eng engil jazo chorasidir. O‘qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbex beradi, buni ko‘ndaligiga yozib ko‘yish mumkin.

Ogoxlantirish — noma‘ko‘l xatti-harakatlarning oldini olish uchun ko‘llaniladi.

Xayfsan berish — agar tanbex va ogoxlantirish ko‘tilgan natijani bermasa, o‘quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o‘quvchining aybi kay darajada va uning intizomini qanday sharoitda buzganini e’tiborga olib unga xayfsan e’lon,qilish mumkin.

Uyaltirish. Odamning eng kozik syozgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-xayodir. Odatda, odamda izzat-nafs, odamiylik kancha ko‘chli bulsa, avvalo o‘zini xurmat kilsa, unda or-nomus,shunchalik ko‘chli buladi. Bolalarni tarbiyalashda shu xislarin extietkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin xadeb uyaltiraverish va kizartiraverish yaramaydi. Bundan okilona va o‘z urnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo yaxshi o’ylab ko‘llanishi lozim, kizh ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka harakterli ya‘ni bitta bulsin, o‘quvchilarning aybiga mos, muvofik bulsin, tez-tez ko‘llanilmasin, jazolanuvchi ongida jazoni xakkoniy ekanligi anik bulsin va ular o‘z ayblarini sezsinlar. Jamoada muhokama qilish va kollektiv tomondan qo‘llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta‘sir kuchi yana oshadi. Barcha xollarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruxiy azob-ukubatlarga solmasligi, uni taxkirlamasligi, sha‘nini buzmasligi kerak.

Xulosa qilib shuki aytish mumkinki, yukorida ta‘riflab berilgan tarbiyaning umumiy usullari o‘quvchilarga pedagogik ta‘sir ko‘rsatish sohalarining hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fanida amaliyoti har doim riaojlaiib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiyaning muvaffakiyatli ko‘llanishiga, bu vosita mazkur sinf jamoasining tarbiya tizimidan kanchalik urin olganiga, ko‘llanilaetgan tarbiya vositalari va usullari ko‘yilgan tarbiya vazifalari va maqsadlariga kanchalik javob berishiga bog‘likdir.

IV-bob. TA‘LIM NAZARIYASI

Didaktika haqida umumiy tushuncha

Didaktika ta‘lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismidir. Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, «Didayko»— o‘qitish, Didaskol — o‘rgatuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan.

Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan, deb hisoblanadi. Didaktika nomi ostida fanni nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A.Komenskiy tomonidan ishlab chiqilgan. 1657-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati» deb tushuntirdi. “Didaktika” atamasi ilk bor nemis pedagogi Volfgang Ratkening “Didaktika yoki ta’lim san’ati” (1613-yil) deb nomlangan ma’ruzasida qo‘llanilgan. Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marta chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» (1657-yil) asarida ochib berilgan. Didaktikada ta’limni tashkil etishning umumiy masalalari, o‘qitish jarayonining mohiyati, ta’limning mazmuni, o‘qitish qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritilad

«Didaktika»ning so‘zma-so‘z tarjimasi ta‘lim nazariyasini anglatadi. Ta‘lim nazariyasi ta‘lim jarayonining tushunchasi va moxiyatini, ta‘lim qoidalarini, uslublari hamda tashkiliy formalarini o‘z ichiga oladi. Didaktika o‘z oldiga o‘qitishning o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarini bilib olish vazifasini qo‘yadi. Ga‘limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Demak, didaktika pedagotikaning «Nimaga o‘qitish», «Nimani o‘qitish va «Qanday o‘qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa, o‘z navbatida, ayrim o‘quv fanlariga oid usullar bilan juda mustaxkam bog‘lanadi. Shu usullar ma‘lumotiga tayanib, o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini echib boradi va ayni vaqtda har bir o‘quv fanini o‘qitish usullari uchun umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

1 Didaktikaning ob’yekti - o‘sib kelayotgan avlodga ijtimoiy tajribalarni, milliy va umuminsoniy madaniyatni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyatning asosiu turi hisoblangan ta ’lim berishdir. Didaktikaning predmeti sifatida o‘rgatish (o‘qituvchi faoliyati) va o‘rganish (o‘quvchilarning bilish faoliyati), ularning o‘zaro harakati aks etadi.

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik. Ta’limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi. Bularning barchasi o‘qituvchining ta’limiy, tarbiyaviy,

rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o‘quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shaklantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati o‘quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o‘quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O‘quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi. Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o‘zaro bog‘ liqlikda joylashadi. Didaktika o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aniq bir predmetni o‘qtishning o‘ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

Muayyan fanga xos bo‘lgan tushunchalarda insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida to‘plangan bilimlar aks etadi. Didaktikaning asosiy kategoriyalari quyidagilardan iborat: o‘rgatish, o‘rganish, o‘qitish, ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, maqsad, mazmun, tashkil etish, shakl, metod, vosita, natija.

O‘rgatish - o‘qitish maqsadini amalga oshirish bo‘yicha pedagogning tartiblangan faoliyati.

O‘rganish - anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o‘zgaradi.

O‘qitish - qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan pedagog bilan o‘quvchilarning tartiblangan o‘zaro harakati.

Ta’lim - o‘qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko‘nikma, malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi.

Bilim - ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘ oyalari yig‘ indisi;

Ko‘nikma - egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo‘llash usullarini egallash.

Malaka - avtomatlashgan, biror bir usul bilan bexato bajarish, ko‘nikmaning takomillashgan darajasi.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish layoqati.

Maqsad - o‘qitishning nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida qay yo‘sinda safarbar etilishi.

Mazmun - o‘qitish jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan ilmiy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari tizimi.

Tashkil etish - qo‘yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon.

Shakl - o‘quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig‘i, mazmuni uchun qobiq.

Metod - o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li.

Vosita - o‘quv jarayonining predmetli qo‘llab-quvvatlanishi, yangi materialni o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan ob’ yekt.

Natija - o‘quv jarayonining so‘nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Zamonaviy ta’lim paradigmalari.

Paradigma (grekcha, paradeigma) so‘zining o‘zi keng ma’noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o‘ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi

Bilish—ta‘lim jarayonining metodologik asosidir

Bilish jarayoni kabi ta‘lim jarayonida ham o‘quvchi bilmaslikdan bilishga, noto‘g‘ri va noaniq bilishdan tobora to‘liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko‘rish ham bo‘ladi.

Muayyan fan va xodisalar ob’ektiv dunyoni bilish jarayonidan o‘rganiladi va ularning tashqi, ichki moxiyatini o‘zlashtirish jarayonida omillar aniqlanadi. Mushoxada, tasavvur va abstrakt tafakkurga asoslanib faktlar umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqarish natijasida nazariyalar, qonunlar va kategoriyalar yaratiladi.

Bilish ikki pallaga — nazariya va amaliyotga bo‘linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariya har xil shakllarda ifodalanadi:aksioma, teorema, koqo‘ya, formula, grafik raqam va boshqa. Nazariyada g‘oya shakllanadi.

Amaliyot bilimlarning xaqiqiyligini ko‘rsatuvchi myozondir. Kuzatish, tajriba, o‘zgartirish, yaratish — bular amaliyot shakllariga kiradi.

Amaliyot ijtimoiy hayot va tabiatning murakkab jarayonlarini bilib olishda inson uchun asosiy qurol bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, oyni kuzatish jarayonini olaylik. Jonli mushoxada va abstrakt tafakkur yordamida biz oyga apparatlarni yuboramiz, ilmiy apparatlar yordamida olingan materiallarni laboratoriyalarda tekshirish amaliyotga kiradi.

Ilmiy bilishning vazifasi xodisalarning moxiyatini, ularning rivojlanish qonunlarini ochishdangina emas, balki biron-bir qonunning qay tariqa namoyon bo‘lish sabablarini ham ko‘rsatib berishdan iborat.

Ilmiy omil ilmiy bilishning elementi bo‘lib kuzatish, tajriba asosida birga kiritiladi, omilga asoslanmagan bilimning ilmiy qiymati, amaliy faoliyat uchun ahamiyati ham bo‘lmaydi. Shuning uchun ilmiy bilimning, fanning asosiy maqsadi omillar asosida yotgan umumiy bog‘lanishlarni, qonuniyatlarni topish, ularning moxiyatini bilishdadir.

O‘rta Osiyoning buyuk mutaffakkirlari bilishda omillarni o‘rganishga katta e’tibor berganlar.

Abu Nasr Forobiy (873 — 950) bilimning elementli bo‘lgan omillarini o‘rganishga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, bilimning asosini mavjud narsa va xodisalarni inkor ettiradigan omillar tashkil etadi. Ibn Sino (980 —1037) kasallikni vujudga keltiruvchi ob’ektiv omillarni o‘rganish asosida kasalliklarni turlarga ajratdi va davolash usullarini ishlab chiqdi.

Beruniy (973 — 1048) tabiat xodisalari sirlarini o‘rganishda tajriba, empirik kuzatish va ular asosida olingan faktlarga asoslandi. Bilish

syozishdan boshlanadi. Syozish tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va xodisalarning syozgi organlarimizga ta‘sir etuvchi ayrim sifatlarining ongimizda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator, I. P. Pavlov ta‘kidlab aytganidek, narsalarning ayrim sifatlarini idrok qiladi: biz sovuq, iliqlik, sho‘r, oq, qora, achchiq, chuchuk va xokazolarni ko‘rib, eshitish, xid bilish, ta‘m-maza bilish, teri, muskul-harakat va organik syozgi organlarining faoliyati orqali bilib olamiz.

Syozgilar—odam xaqidagi barcha bilimlarimizning manbaidir. Ammo ilmiy asosda bilishda, masalan, olimning bilishi bilan o‘quvchining bilish faoliyati o‘rtasida umumiylik bo‘lsa ham lyokin, ular bir-biridan farq qiladi. Olimlar olamni bilib olib, ilgari fanta ma‘lum bo‘lmagan yangi xaqiqatlarni kashf etadilar, yangi qonuniyatlarni 'aniqlaydilar va shu tariqa fanning ilgarilab ketishiga imkon yaratadilar.O‘quvchilar esa ta‘lim jarayonida olamni bila borib, o‘zlari uchun ilgari noma‘lum bo‘lgan, biron fan kashf etgan va odamlarning ijtimoiy-tarixiy amal iyotida tekshirib ko‘rilgan yangi bir narsani bilib oladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni olimlar tomonidan yaratilgan bu qonunni bilishga to‘g‘ri, engillashtirilgan, vaqt jixatidan qisqa yo‘ldan olib boradi.

O‘qitish natijalari bilim sifatida, o‘quvchining rivojlanish darajasida o‘z aksini topadi.

TA‘LIM JARAYONI

Ta‘lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma‘noni anglatadi. Ya‘ni bu: o‘quvchilarda bilim, malaka va ko‘nikmalarni xosil qilish; ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarni shakllantirish; o‘quvchilarning muayyan darajada o‘qimishli, madaniyatli,

tarbiyali chin inson bo‘lishiga erishish; ularning qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat.

Ta‘lim—insoniyat tajribasining ma‘lum tomonlarini, ya‘ni o‘quvchilar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydigan faoliyatdir.

Ta‘lim jarayonining mazmunini bilim, ko‘nikma va malakalar tashkil qiladi.

Demak, o‘quvchilar o‘qish orqali bilim bilan qurollanadilar.

Bunda bilimning o‘zi kifoya qilmaydi. Uni hayotda ko‘p unum beradigan qilib qo‘llay bilish lozim. Buning uchun esa o‘qituvchida ko‘nikma va malaka xosil qilish lozim.

Ko‘nikma — mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig‘indisidir. Iqtidor va ko‘nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Bilim asosida ko‘nikma, malaka xosil bo‘ladi. Bilim baxsda kerak bo‘lsa, ko‘nikma mehnatda, dunyoni o‘zlashtirishda zarur. Shu jixatdan o‘quv yurtlarida, maktablarda o‘quvchilar o‘rtasida baxslar, bellashuvlar, o‘tkir zexnlilar mushoirasi, quvnoqlar va zukkolar bellashuvini tashkil etish foydalidir.

Ta‘lim jarayoni o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, ikki tomonlama harakterga egadir. O‘qituvchining faoliyati tufayli ta‘lim puxta o‘ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida. olib boriladigan jarayonga aylanib, ko‘tilgan natijalarni beradi.

Bola maktabgacha tarbiya yoshidayok o‘quv ishi bilan shug‘ullana boshlaydi. U sonlar, harflar bilan, matnli o‘qish jarayoni bilan tanishadi, sodir bo‘layotgan tabiiy hodisalarning muxim xususiyatlarini ota-onasi va

tarbiyachilari yordamida bilib oladi, Hikoya va ertaklar tinglaydi hamda ularni boshqalarga aytib berishni o‘rganadi.

Ammo maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati hamon o‘yin bo‘lib qoladi, shuning uchun ham uning fikrlash faoliyatida xis qilib bilish ko‘proq ahamiyatga egadir.

Ta‘limning boshlang‘ich davrida o‘qituvchi analiz-sintyozdan ko‘proq foydalanadi. Analiz narsa va xodisalarni tarkibiy qismlarga ajratishdir. Sintez jarayonida o‘quvchilar o‘rganilgan narsalar va xodisalarning ayrim qismlarini, elementlarini bir butun qilib birlashtiradilar. Sintez, analiz, taqqoslash, induktsiya kabi usullar orqali o‘quvchilar o‘zlarida tushuncha xosil qilish imkoniga ega bo‘lishadi.

Ta‘lim jarayonining ikki tomonlama xususiyati

O‘qitish jarayoni ikki faoliyat — o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchinnng faoliyati o‘quv materiallarini bayon qilishdan, o‘quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko‘nikmalarini tekshirish, o‘quv ishlariga moyilligini uyg‘otish, rag‘batlantirish, bilim darajalarini xolis baxolashdan iboratdir.

O‘qituvchnning faoliyati ta‘lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o‘qitadi, ta‘lim beradi. O‘quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, chunki u o‘qituvchi bergan bilimni o‘qib, tushunib oladi.

O‘qitish jarayonining ikkinchi tomoni o‘quvchining faoliyati bo‘lib, u o‘quv fani materiallarini o‘zlashtirishdan iborat. O‘qitish bilishdan farqli o‘laroq muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta‘limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar,ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Ilmiy bilimlarni egallash—muayyan fanlar

o‘rtasidagi bog‘lanishlarni idrok qilish, ularni izoxlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. Bular asosida o‘quvchilarda ko‘zatuvchanlik, tafakkur, xotira kabi bilish qobiliyatlari o‘sib boradi, ularda e’tiqod tarbiyalanadi.

Bunday o‘qish jarayonida insoniyat erishgan barcha bilimlarni o‘rganish kerak, degan xulosa aslo kelib chiqmaydi. Ta‘lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muximlari — asosi o‘rganiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga etaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotda, ishlab chiqarishda qo‘llay bilishga o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘z fanini qanchalik sodda usulda bayon qilmasnn, u chuqur ilmiy bo‘lishi lozim.

Muallim bilimlarni o‘rgatar ekan o‘sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini urga nadi, knyinchiliklarinn ko‘radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi. Ijodiy ishlovchi o‘qituvchi materialni o‘zida ham, uni o‘qitish usullarida ham yangi jixatlarnn ochadi. Xuddi ana shunday ish jarayonida pedagogning o‘ziga xos usuli shakllanadi.

Ta‘lim jarayonida bilish faoliyatining bosqichlari

O‘qituvchn maktab o‘quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni hayotda qo‘llay olishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy xodisa bo‘lmay, o‘quv jarayonining mantiqi shuni taqozo etadi. O‘quvchilarning o‘qituvchi sabog‘ini o‘zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustaxkamlash hamda ularni amalda qo‘llash bosqichlaridan iborat bo‘ladi.

Bilimlarni o‘zlashtirish voqe’likdagi narsa va xodisalarni syozish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilimlarni o‘zlashtirishda bu bosqichlarning ahamiyatn nixoyatda kattadir.

Idrok—borliqni odam ongida aks etishidir (biz daraxtni, odamni, xayvon va boshqalarnn idrok qilamnz).

Idrok o‘quvchilarnnng bilimlari, amaliy tajribasi darajasiga qarab muayyan maqsadnn ko‘zlovchi jarayon bo‘lmog‘i kerak. O‘qituvchi idrokni yoki bevosita kuzatishni yo‘lga qo‘yayotganida kuzatish manbalarini sinchiqlab tanlaydi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich — bilimlarni tushunish va umumlashtirishdir. ***Tushunchalarning xosil bo‘lish jarayonida induktsiya va deduktsiya kabi fikrlash masalalari katta o‘rin tutadi. Induktsiya — xususiy xollardan umumiy qoidaga boradigan, deduktsiya esa — umumiydan xususiyra boradigan fikr yuritish yo‘lidir.***

O‘quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich—bilimlarni mustaxkamlash va qo‘llashdir.

Mustahkamlashning mohiyati ingi materialni idrok qilish vaqtida xosil bo‘lgan muvaqqat bog‘lanishlarni puxtalashdir. Mazko‘r jarayonda bo‘sh va beqaror bog‘lanishlar mustaxkamlanib boradi.

O‘quvchilar faolligini oshirish uchun materialni dastlabki mustaxkamlash vaqtida materialga oid savollar qo‘yish bilangina kifoyalanmaslik kerak. Buning uchun o‘quvchining kitob va darsliklar bilan mustaqil ishlashdan, turli xil mashqlar, ama- liy mashg‘ulotlarni bajarish, ko‘rsatmali qurollar, kompyuterlar ustida ishlashlaridan ham foydalanish mumkin. Materialning keyingi mustaxkamlanishi uy vazifalarini bajarish jarayonida davom etadi. Materialning har bir keyingi darsda takrorlanib borishi, mavzu yoki bo‘limning oxirida umumlashtiruvchi takrorlash o‘tkazilishi hamda o‘quv yilining oxiridagi takrorlash mustaxkamlashning zaruriy elementidir.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o‘zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo‘llashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to‘ldirib boriladi, ularni amalda qo‘llanish ko‘nikmasi xosil qilinadi. Amaliy vazifalarni xal qilish vaqtida bilimlarga extiyoj paydo bo‘ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun, turtki beradi.

Ta‘lim qonuniyatlari va qoidalari

Ma‘lumki, qonuniyat — bu barqaror, zaruriy, u yoki bu xodisalar va jarayonlar o‘rtasidagi mutanosiblik va muxim aloqa. Ijtimoiy extiyojlar va sharoitlar o‘quv jarayonining harakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o‘qitish jamiyat talablarini e’tiborga olmasa, u xolda uni, albatta, qayta qurish, takomillashtirish kerak.

Demak, ta‘lim berish, tarbiyalash va o‘quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur.

Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni, va o‘qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o‘zaro bog‘lanishda qo‘llash ko‘nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta‘sirli o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi. O‘qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning onglilik, puxtalik, ta‘sirchanlik qoidalarini harakterlaydi.

Ta‘limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog‘langan bo‘lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatnint iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlash kabilar asosida intensivlash o‘z aksini topishi kerak.

Ta‘lim qoidalari—o‘qituvchining faoliyatini va o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi, tegishli ko‘nikma va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va yo‘l-yo‘riqlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda ta‘lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya‘ni o‘qituvchi va o‘quvchi tomonidan o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Shunga ko‘ra ta‘lim qoidalari o‘qitishning eng muxim masalalarini nazariy va amaliy jixatdan to‘g‘ri xal qilishning asosiy negizi xisoblanadi.

Ta‘lim qoidalari deb *umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o‘qish va o‘qitish jarayonlarining yo‘nalishi, o‘quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o‘zlashtirilishi, bilim va malakalar xosil qilishning asosiy qonun va qoidalarining yig‘indisiga aytiladi.*

So‘nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik; adabiyotlarda didaktik qoidalar turlicha guruxlashtirilmoqda. Ana shularga asoslangan xolda quyidagicha ta‘lim qoidalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

1. Ta‘limning ilmiy bo‘lish qoidasi.

2. Ta‘limning tizimi va izchil bo‘lishi qoidasi.

3. Ta‘limning tarbiyalovchilik harakteri.

4. Ta‘limda nazariyaning amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishi qoidasi.

5. Ta‘limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi.

6. Ta‘limda ko‘rsatmalilik qoidasi.

7. Ta‘lim jarayonida har qaysi o‘quvchiga xos xususiyatlarni xisobga olish qoidasi.

8. Ta‘limda ilmiy bilim va ko‘nikma, malakalarni puxta, mustaxkam o‘zlashtirish qoidasi.

9. Ta‘limning o‘quvchiga mos bo‘lishi qoidasi.

10. Ta‘lim va tarbiyaning birligi qoidasi.

1. Ta‘limning ilmiy bo‘lish qoidasi

Ilmiy bilimlar — voqelikning xaqqoniy in’ikosidir.

Tevarak-atrofni o‘rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va xodisalarning ichki muxim xossalarini va o‘zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilimlargina ilmiy xisoblanadi.

Ta‘limning ilmiyligi qoidasi o‘quvchining o‘quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o‘zlashtirishi uchun to‘g‘ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

Nazariy qoidalarni tushunish — materialni ilmiy asosda izoxlab berishning muxim belgisi bo‘lib, u o‘quvchining fikrlash faoliyati xususiyatlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlar ilmiyligicha qolib, voqelikni har xil darajada aks ettirishi mumkin. Ilmiy izox ta‘limning hamma bosqichlarida, har bir sinfda ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri — nazariy ma‘lumotlar tizimini shu ma‘lumotlarda tevarak-atrofdagi dunyoni qanchalik chuqur aks etganligi nuqtai nazaridan bilib olishdir.

Ilmiylik qoidasi barcha yosh guruxlardagi va turli o‘quv yurtlaridagi o‘quvchilarga o‘rganish uchun ilmiy jixatdan ishonarli, amalda sinab ko‘rilgan ma‘lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqod tarkib topadi. Tafakkur rivojlanadi.

Ta‘limning ilmiy bo‘lish qoidasi ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasiga muvofiq keladigan ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishni ta‘minlashga qaratilgan.

Didaktikaning ilmiylik qoidasi maktab ta‘limining mazmunigagina aloqador bo‘lib qolmay, o‘qitish usullariga ham aloqadordir. U ta‘lim jarayonida fan-texnika yutuqlaridan foydalana oladigan o‘qitish usullarini takomillashtirishni ham talab qiladi.

2.Ta‘limning tizimli va izchil bo‘lishi qoidasi

Ijtimoiy taraqqiyotning har bir davridagi maktabning tarixiy tajribasi ta‘lim vazifasini ma‘lum bir tizimsiz bajarib bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

O‘quv materialini tushuntirish tizimi o‘quv materiala aniq bayon qilingan g‘oyalarga, o‘qituvchi bu g‘oyalarning qaysilarini tushuntirmoqchi ekanligiga, bolalar yoshi, ularning bilimlarni o‘zlashtirishga qanchalik imkoniyat berishini, o‘qituvchining yaxshi bilish-bilmasligiga, shu yosh va shu saviyadagi bolalarga xos fikrlash faoliyatining xususiyatlariga, darsdagi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni odamda qanday tushunilishiga bog‘liqdir.

Hozirgi zamon didaktikasi o‘qitishda xususiydan umumiyga qarab borishni talab qiluvchi klassik qoidaga o‘zgartirishlar kiritdi. Ko‘p xollarda boshlang‘ich sinflardayoq umumiy xolatlardan yana xususiy xolatlarga borish mumkinligi isbotlandi, shu munosabat bilan anchagina vaqt tejaladi va yutqizilmaydi, aksincha, o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish ishida yutuqlarga erishiladi.

Dars mazmunining muqobil tuzilishini tanlash, o‘qitishdagi didaktikaning tizimlilik qoidasinn xisobga olishni talab qiladi.

Ta‘limda izchillikka rioya qilib o‘qitish lozim, toki bugun o‘rtanilgan bilimlar kecha o‘rganilganlarni mustaxkamlasin, ertaga o‘rganiladiganlarga zamin hozirlasin.

Ya‘ni o‘tilayotgan fan yoki bayon qilinayotgan yangi materialning o‘quvchilarning oldingi o‘zlashtirgan ilmiy bilimlari, ko‘nikma va malakalari bilan izchil va o‘zviy bog‘lanishi, shu bilan bir vaqtda o‘qitilayotgan o‘quv materiallarini o‘zlashtirish orqali kelajakda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga,' shuningdek navbatdagi ta‘lim bosqichiga zamin yaratilishi nazarda tutiladi.

Ta‘limning tizimli bo‘lishi qoidasn bayon qilinayotgan o‘quv materiallarini mustaxkamlash va ilgari o‘tilgan materiallarni to‘ldirishga xizmat qilishini; o‘quvchilarning o‘zluksiz va tizimli suratda mustaqil ish olib borishlarini; o‘quv- chilarning o‘zlashtirgan bilim va xosil bo‘lgan ko‘nikma, malakalarini xisobga olib borishni ham o‘z ichiga oladi.

Tizimlilik va izchillik qoidalari o‘zaro bog‘liq bo‘lgan aloxida o‘quv fanlarini hamda ko‘ndalik o‘quv materiallarini mantiqiy jixatdan bir-biriga mustaxkam bog‘liq xolda va muayyan bir tartibda o‘qitish hamda ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni tizimli ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirib olishlarini ta‘minlaydi.

3. Ta‘lim va tarbiyaning birligi qoidasi

Maktab o‘quvchilariga ta‘lim berish, tarbiyalash va ularning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ta‘lim tizimida ta‘lim va tarbiyaning birligi qoidasi asosiy va etakchi qoidalardan biri xisoblanadi. U didaktik qonunlarning o‘qish va o‘qitish borasidagi tub moxiyatini ifodalaydi. Binobarin, o‘quv fanlarining har biri, hatto, ayrim mavzu va mavzuchalari ham, shubxasiz, tarbiyalovchilik harakteriga ega.

Ta‘lim jarayonida o‘tilayotgan katta va kichiq mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to‘g‘ri belgilash va uni ta‘lim bilan birga, bir butunlikda amalga oshirishni ta‘minlash juda muxim va xal qiluvchi ahamiyatga ega.

Demak, bir butun ta‘lim jarayonida ikki o‘zaro bog‘liqlik: hayotni bilish va unga bo‘lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni ajralib turadi.

Maktabda beriladigan ta‘lim bilan tarbiya o‘rtasidagi pedagogik jarayonning butunligini ta‘min etuvchi o‘zviy birlik hamisha mavjud.

Maktab ta‘limida o‘quvchilar tabiiy fanlarni — matematika, ximiya, biologiya, astronomiya va boshqa fanlarni o‘zlashtirish orqali ilmiy e’tiqodlari shakllana boradi. Ular dunyoni o‘rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar, xaqiqatga ishonch bilan, yolg‘on narsalarga nafrat bilan qaray oladigan bo‘ladilar. Ular ustidan xaqoniy xukm chiqaradigan aqlli, idrokli, imonli inson bo‘lib etishadilar.

4. Ta‘limda nazariyaning amaliyot bilan bog‘lab o‘qitish qoidasi

Didaktikada ta‘limni turmush bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘lab olib borish eng asosiy va etakchi qoidadir. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati extiyojlari asosida paydo bo‘lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va xaet bilan bog‘langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularning mazmunini o‘zlashtirib olishgina emas, balki bilimlarni amalda qo‘llay bilish ham kerak.

Bu qoida ta‘limning ilmiy qoidasi bilan mustaxkam bog‘langandir. O‘quvchilar ilm bilan qurollanar ekan, ilmni nazariy jixatdan o‘rganar ekan, ilmning amaliy extiyoj tufayli paydo bo‘lganini, ishlab chiqarish kuchlarini qanday taraqqiy etayotgani, texnika va iqtisod sohasidagi yangiliklar ilmni tobora rivojlantira borishini, ilm esa, o‘z navbatida,

ishlab chiqarishni takomillashtirishga va hayotni yaxshilashga yordam berishini bilib boradilar. Binobarin, barkamol inson tarbiyasining maqsad va vazifalari ham, ta‘limning mazmuni ham, o‘qitish usullari, ta‘limni tashkil etish shakllari ham nazariya bilan amaliyotning birligiga asoslanadi.

Ta‘lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasining izchillik bilan amalga oshirilishi oqibatidagina o‘quvchilar o‘quv materialining tub moxiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy asosda atroflicha to‘g‘ri, chuqur tushunib oladilar va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo‘lgan maxorat, ko‘nikma va malakalar xosil qiladilar.

O‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonida boshlanadi. Keyinchalik u laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olgan bilimlarining ishonarli ekanligini tekshiradilar, mustaxkamlaydilar va chuqurlashtiradilar. Bilimlarni amalda qo‘llanish malakalarini xosil qiladilar

5. Ta‘limda onglilik, faollik va mustaqillik qoidasi

O‘qitishning onglilik qoidasi o‘quvchilar yanti materialni idrok qilishda ta‘riflar, teoremalar, adabiyotdan she’r yodlash va xokazolarning ifodalanishinigina emas, balki ular ning hayotiy xodisalar, jarayonlar bilan bog‘lik bo‘lgan mazmunini ham tushunishlarini talab etadi. Aks xolda bilimlarda yuzakichilik avj oladi, bunda material quruq yodlab olingan bo‘ladi. O‘quvchilar uni qayta aytib bera oladilar, lyokin uning moxiyatini tushunmaydilar va amaliy faoliyatlarida qo‘llay olmaydilar.

Bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish o‘quvchilarda bu bilimlarga nisbatan ma‘lum munosabat xosil qilishni, emotsional kechinmalar uyg‘otishni ham o‘z ichiga oladi. O‘quvchining bilimlarni o‘zlashtirishga faol munosabatda bo‘lishi uning bilish faoliyatini aktivlashtirishga yordam beradi.

O‘qitish jarayonida onglilik va faollik qoidasi o‘quvchilarda tafakkur va nutqni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tafakkur turli usullar bilan xosil qilinadi. Tafakkurni shakllantirish usullaridan biri mustaqil xal qilish, muammoli vazifalar qo‘yishdir.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilar faolligi, dastavval, ularning aqliy faoliyati — tafakkur qilish faoliyatidir. Shunga ko‘ra, ta‘limni ongli o‘zlashtirish qoidasi, bir tomondan, o‘quvchilarning mustaqil, faol fikr qilishlarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, aynan shu jarayon davomida o‘quvchilarning mustaqillik va faolliklarini hamda mantiqiy fikr qilish faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni nazarda tutadi.

Onglilik va faollik qoidasi o‘quvchilarni mehnat va o‘qishda ijodiy faoliyat usullariga o‘rgatishni talab etadi. Qayta qurish davrining maktab va xalq ta‘limi oldiga ko‘rgan talablari ham shu maqsadlarga qaratilgan.

6. Ta‘limda ko‘rsatmalilik qoidasi

Ta‘limning ko‘rsatmalilik qoidasi didaktik qoidalarning biri bo‘lib, u o‘qitish jarayonining sifatini orttiradi, o‘quvchilarnnng bilim olishlarini osonlashtnradi. O‘qitishning ko‘rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan narsa va xodisalarni bevosita idrok qilishga bog‘liq muayyan hissiy-amaliy tajriba bo‘lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongli suratda o‘zlashtiradilar. Bu qoida o‘qitish jarayonida ko‘rish,

eshitish, xid bilish, ta‘m — maza bilish teri, muskul — harakat kabi syozgi organlarining bir yo‘la ob’ekt ustida safarbar qilinishini talab etadi.

Ko‘rsatmalilik qoidasi ta‘limning etakchi qonun-qoidalarini va talablarini amalga oshirishda vositachilik qiladi. Chunonchi:

1.Bayon qilinayotgan temaning mazmuniga mos keladigan materiallardan unumli va to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning o‘tilayotgan materialni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini ta‘minlaydi. Dars qiziqarli o‘tadi.

2. Ta‘limda qo‘llanilayotgan ko‘rsatmali qurollar o‘quvchilarning qay darajada yaqqol va aniq, obrazli idrok qilishini ta‘minlasa va ko‘zatayotgan ob’ektga mumkin qadar ko‘proq syozgi organlari safarbar qilinsa, o‘quv materiallari shunchalik tyoz, qulay va oson o‘zlashtiriladi, o‘zoq vaqt esda saqlab qolish hamda qayta esga tushirish mumkin bo‘ladi, oqibatda o‘quv materiallarining puxta o‘zlashtirilishi ta‘minla- nadi.

3. Ko‘rsatmali materiallar orqali o‘quvchilar ob’ektiv borliqdagi narsa, voqealar bilan, ularning xususiyati, belgilari bilan tanishadilar. Mavxum xodisalarning aniq obrazlar orqali idrok qilinishi natijasida o‘quvchilarning man- tiqiy fikr qilish qobiliyatlari rivojlanadi. O‘quvchilarning ayniqsa sxema, jadval, diagramma kabi materiallar ustida ish olib borishlari va material xususiyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari aloxida ahamiyatga egadir.

4. O‘quv materiallarining ko‘rsatmali bo‘lishi o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni tajribada, ishlab chiqarish amaliyotida qo‘llana olishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar bilan ham qurollantiradi.

Ta‘limda ko‘rsatmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlariga ham e’tibor berish kerak.

Birinchidan, ishlatiladigan ko‘rsatmali qurollar u yoki bu sinf o‘quvchilarining yoshi va o‘ziga xos harakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarligi — saviyasiga mos keladigan bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, foydalanadigan ko‘rsatmali qurollar o‘tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo‘lishini xisobga olmoq, demak, uning to‘g‘ri tanlanishiga e’tibor bermoq lozim.

Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko‘rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo‘lgan ta‘lim usullari to‘g‘ri tanlangan bo‘lishi lozim. Ayni paytda maktablarimizda qo‘llanilayotgan materiallarni quyidagicha guruxlarga ajratish mumkin:.

1) Buyum va narsalarni asli, tabiiy xolicha ko‘rsatuvchi materiallar: o‘simliklar. va ularning tarkibi, xayvonlar, ma‘danlar, gerbariylar, kollektsiyalar, ashyolar, asboblar va mashinalar modelini, shuningdek, ximiyaviy reaktsiyalar, elektr razryadlari xosil qilishni sinf yoki laboratoriya sharoitida namoyish qilish va boshqalar;

2) Grafik-ko‘rsamali qurollar: chizmalar, .diagramma, sxemalar va, shuningdek, grafik vositasi bilan qo‘llanmalar;

3) Tasviriy-ko‘rsatmali qurollar: rasm, fotosurat, diafilmlar, diapozitivlar, ovozsiz kinofilmlar;

4) Eshittirish bo‘yicha ko‘rsatmalilik, gramplastinkalar, magnit lentasiga yozib olingan badiiy o‘qish namunalari, chet el tillaridagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffo‘z qilishga oid materialar.

Ta‘limning ko‘rsatmali bo‘lishi hozirgi zamon maktablari oldida turgan eng muxim masalalardan biri bo‘lib kelgan va hozir ham undan yanada samarali foydalanish borasida katta ishlar olib borilmoqda.

7. **Ta‘limning o‘quvchilarga mos bo‘lishi qoidasi**

Ta‘limning o‘quvchilarga mos bo‘lishi qoidasi deganda o‘quv materiallarining mazmuni, uning hajmi, harakteri, u yoki bu sinf o‘quvchilarining jismoniy rivoji, umumiy tayyorgarligi saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo‘lishi tushuniladi.

Moslik qoidasida ta‘limning ikki tomovi e’tiborda tutiladi:

1) Ma‘lum sinf uchun belgilangan o‘quv materiallarining harakteri, mazmuni va hajmi shu sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi;

2) Har bir sinf uchun belgilangan bilim hajmi shu sinf o‘quvchilarining saviyasiga mos bo‘lishi lozim.

O‘tiladigan materialning xaddan tashqari engil bo‘lishi bolalarning qiziqishini so‘ndirganidek, ularning bilimda olma qarab borishlarini ham ta‘minlay olmaydi. Aksincha, o‘tilajak materiallar bolalar saviyasiga nisbatan og‘ir, tushunish qiyin bo‘lsa, qo‘yilgan misol va masalalarni echish, xal qilishga o‘quvchilarning qurbi etmasa, ularda o‘z ko‘chiga ishonmaslik kayfiyati tug‘iladi.

Ta‘limning sodda bo‘lishi u yoki bu o‘quv materialini ortiqcha ko‘ch sarflamay tushunib olinishidir. O‘quvchilar yaxshi tushungan, o‘zlashtirgan bilimlarini yangi tushunchilar (murakkab) bilan aniq va ravshan qilib bog‘lay olishlari natijasida sodda vazifalarni (misol va masalalar) bajara borib, murakkab materiallarni o‘zlashtirish, murakkab bo‘lgan masalalarni ham echishga — xal qilishga hozirlanib boradilar.

Moslik qoidasi yana bir qator talablarga amal qilishni taqozo kiladi. Ayniqsa darsda berilayotgan bilimlarni o‘quvchilar puxta o‘qib olishlariga imkoniyat yaratish uchun puxta va mustaxkam rejaga amal qilinishi, bayon qilinayotgan materiallardan lo‘nda xulosalar chiqarish; materiallarning ishonchli bo‘lishi uchun omil, misol va dalillar keltirish — ko‘rsatma qurollaridan foydalanish bayon qilinayotgan materiallarni turmush bilan, o‘quvchilarning shaxsiy tajribalari bilan bog‘lab olib borish talab qilinadi. Shuningdek, o‘qitish usullari o‘quv materialining harakteriga mos xolda to‘g‘ri tanlangan bo‘lmog‘i lozim.

8. Ta‘limda bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta va mustaxkam o‘zlashtirish qoidasi

Ta‘limning puxta o‘zlashtirish qoidasi muxim didaktik talab va qoidalarni, ya‘ni o‘quvchilar tomonidan tizimli va ongli o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustaxkam, esda saqlab qolish hamda o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o‘z turmush faoliyatlarida qo‘llay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirib olishning mustaxkamligiga avvalo hamma o‘qitish qoidalari tushunarlilik, tizimlilik va izchillik, nazariya bilan amaliyotning bog‘liqligi, ko‘rsatmalilik, o‘quvchilarning ong- liligi va faolligi qoidalarini amalga oshirish bilan erishiladi. Puxta o‘zlashtirishning muvaffaqiyati ko‘p jixatdan takrorlash va mashq qildirishga ham bog‘liqdir.

Takrorlashning ahamiyati shundaki, takrorlash jarayonida faqat oldindan o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarigina esga tushirilmay, balki shu o‘quv materiallariga bog‘liq bo‘lgan yangi-yangi ma‘lumotlar ham

beriladi, o‘zlashtirilgan bilimlarning noaniq, tuman bo‘lib qolgan tomonlari oydinlashtiriladi va to‘ldiriladi.

Takrorlash, xotirada qayta tiklashni bir necha yo‘l bilan olib borish mumkin. Har bir darsda avvalgi dars materiali bilan yangi material o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish maqsadida ko‘ndalik takrorlash o‘tkaziladi. Mavzu yoki bo‘lim yuzasidan o‘rganilgan materialni tizimlashtirish, chuqurlashtirish va mustaxkamlash maqsadida o‘quv yilining oxirida asosiy masalalar bo‘yicha yalpi takrorlanadi.

9. Ta‘limda o‘quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olish qoidasi

Ta‘lim-tarbiya jarayonining hamma tomonlari umumsinf o‘quvchilari jamoasiga xos xususiyatlarga amal qilgan xolda yo‘lga qo‘yiladi. Biroq, har bir o‘quvchi o‘ziga xos jismoniy, ahloqiy, ruxiy va boshqa xususiyatlarga egaki, bu uning o‘quv faoliyatiga katta ta‘sir etadi. Shu jixatdan ta‘lim jarayonida umumsinf o‘quvchilarini, hamda shu sinfdagi har qaysi o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda ish ko‘rish muxim didaktik ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlarini, ularning rivojlanish jixatlarini o‘rganish hozirgi vaqtda shunchaki xoxish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o‘quv jarayonini muqobillashtirish, uni boyitish aqlga sig‘maydi.

Sinf o‘quvchilari jamoasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar, avvalo, ma‘lum sinf o‘quvchilarining jismoniy, aqliy va ruxiy rivojida namoyon bo‘ladi. Ta‘limning muvaffaqiyatln bo‘lishida o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini kuzatish va o‘rganish hamda shu xususiyatga mos muomala qilish xal qiluvchi o‘rin egallaydi.

Darsda har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘la xisobga olish juda qiyin va har doim ham buning iloji bo‘lavermaydi. Pedagog o‘quvchilarni darsdagi va amaliy mashg‘ulotlar jarayonidagi ishini, uy vazifalarini bajarishini ko‘zatadi, ularning bilimi, yozma ishlari, yasagan ko‘rgazma materiallarini tekshiradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o‘rtoqlari va boshqalarga bo‘lgan munosabati, xulqi, irodaviy sifatlarini o‘rganadi, ular bilan Suhbat qiladi. Kuzatish jarayonida u o‘quvchining ko‘chli va ojiz tomonlarini, uning qiziqishlari, tafakkuri, nutqi, xotirasi, xayoliga mos bo‘lgan xususiyatlarni bilib oladi, o‘quvchilarnnng hayotiy va mehnat qobiliyatini o‘rganadi. Bush o‘zlashtiruvchi dasturning ma‘lum bir bo‘limi yoki fan bo‘yicha orqada qolish sabablarini aniqlaydi. O‘qituvchi ularni bilib olgandan keyin birinchi navbatda yomon xolatlarning ta‘siriga bardosh berish choralarini ko‘radi.

Ta‘lim usullari

Hozirgi ko‘nda maktab ta‘limi sistemasida o‘qitish usullarining boy xazinasi to‘plangan. Biz ta‘limda to‘g‘ri usul tanlar ekanmiz, ko‘zlangan natijaga komil ishonch va qisqa yo‘l bilan erisha olamiz. Ta‘lim-tarbiya sohasidagi masalalarning to‘xtovsiz murakkablashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi, umumiy o‘rta ta‘lim vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish o‘qitish usullarini muttasil yangilab turishni, xalq pedagogikasi, ayniqsa milliy sharq xalqlari pedagogikasidan ijodiy foydalanishni talab qilmoqda.

O‘qitishning didaktik usullari va ularni o‘rini bilan yangilab borish o‘qituvchilar oldiga esh avlodni kamol toptirishdek muxnm vazifani qo‘yadn.

Keng ma‘noda qo‘llanadigan «Usul» o‘qitishning o‘z oldiga ko‘rgan maqsadlariga erishish, ma‘lum ob’ektni o‘zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlarini anglatadi.

O‘qitish usuli deganda, ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning ko‘tilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari tushuniladi.

O‘qitish usullari ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining qanday bo‘lishini, o‘qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

Boshqacha qilib aytganda, o‘qitish usullari har ikkala faoliyatning, ya‘ni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda o‘quvchilar tomonidan o‘sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko‘nikma va malaka larni o‘zlashtirish faoliyatida qo‘llaniladigan yo‘llarni o‘z ichiga oladi. Demak, o‘qitish usuli har ikkala tomonning aktiv faoliyati birligini ta‘minlashga qaratilgandir. Biroq, har ikkala faoliyat hamisha bir xil va bir yo‘nalishda bo‘laver- maydi. Dars jarayonida o‘tiladigan materialning harakteriga qarab, o‘qituvchi va o‘quvchinnng faoliyati turlicha yo‘nalishda bo‘lishi mumkin.

Ta‘lim jarayonidagi ma‘lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo‘lishi yangi-yangi usullarni keltirib chiqaradi.

Maktab ta‘limi sistemasida o‘qitish bilan bir qatorda «uslub» «vosita» terminlari ham ishlatiladi.

Uslub—ma‘lum o‘quv materiallarini o‘tishda qo‘llanilayotgan asosiy o‘qitish usuli bilan birga ikkinchi bor o‘qitish: usulining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko‘rishdir.

Chunonchi, ma‘lum bir mavzuni maktab ma‘ro‘zasi bilan bayon qila turib, yo‘l-yo‘lakay o‘quvchilar bilan savol-javob yuritilsa yoki ko‘rsatma materiallardan foydalanib, izox, berib o‘tilsa, asosiy usulning yo‘nalishini o‘zgartiradi va u shu usulga nisbatan uslub bo‘lib qoladi. Chunki xususiy uslubiyotlarning o‘ziga xos usuli va uslublari bor.

Biroq, ayrim fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan xususiy usullar umumiy o‘qitish usullari bilan mustaxkam bog‘liqdir.

Vosita—ma‘lum ukitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo‘lgan yordamchi o‘quv materiallari; asbob, qurol, apparat va boshqa shu kabilardan foydalanishdir.

Chunonchi, dars jarayonida tabiiy yoki tasviriy ko‘rgazma materiallar (sxema, diagramma, surat va boshqa) laboratoriya yoki namoyish qilish mashg‘ulotlarida qo‘llaniladngan qurol va asboblar, o‘quv kino usko‘nalari, proektsion fonar, mikros- kop va boshqa apparatlar, shuningdek mavzuga oid boshqa o‘quv materiallaridan keltiriladigan dalillar (ma‘lumotlar, isbotlar, ta‘rif, qoida, formula va boshqalarning ishlatilishidir.

Demak, ta‘lim jarayonida o‘quv materiallarining harakteriga qarab tanlangan o‘qitish usullari u yoki bu uslub va vositalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi mumkin. Biroq qaysi o‘qitish usuli, uslub va vositalardan foydalanish zarurligi hammadan oldin u yoki bu o‘quv fanlarining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liqdir.

Masalan, fizika, ximiya, biologiya kabi fanlarni laboratoriya mashg‘ulotisiz o‘qitish va o‘zlashtirish mumkin bo‘lmaganidek, matematika, ona tili grammatikasini mashq qilmay, misol va masalalar ishlatmay turib, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

O‘quvchiga berilish lozim bo‘lgan ilmiy bilimlar ko‘lami o‘qitish usullari va shakllarining doirasini kengaytirish zarurligini taqozo etmoqda.

O‘qitishning hikoya, Suhbat, ma‘ro‘za, illyustratsiya turlari, namoyish qilinadigan asbob-usko‘nalar va priborlarni ko‘rsatish, mashqlarni, mehnat topshiriqlarini, laboratoriyada o‘tkaziladigan tajribalarni bajarish, bilishga yordam beradigan o‘yinlarni, xalq nedagogikasi materiallaridan foydalanish usullari va uslubi, o‘quv munozaralari, o‘quv faoliyatida rag‘batlantirish va tanbex, o‘quv materiallarini muammoli bayon qilish, muammoli Suhbatlar, tadqiqot tajribalarini qo‘llash, analogik, induktiv va deduktiv mulohazalardan foydalanish, kitob ustida ishlash, o‘rgatuvchi mashinalardan mustaqil foydalanish kabi usullarini qo‘llash, og‘zaki so‘rash, yozma ishlar, kontrol laboratoriya ishlari, avtomatlashtirilgan qurilmalar yordamida dasturlashtirilgan nazorat usullaridan foydalanish va xokazolar o‘qituvchilar uchun juda ham tushunarlidir.

Xalq pedagogikasi durdonalarini to‘plash, ulardan unumli foydalanishning usullarini yaratish borasida pedagogika fank ilg‘or va peshqadam o‘qituvchilarning ish tajribalariga, oliy ilmgoxlarning pedagog olimlariga tayanib ish ko‘radi.

Ta‘lim tizimida o‘quvchilarga bilim berishning eng qulay imkoniyatlarga asoslangan xolda o‘qitish usullarini quyidagi turlarga bo‘lamiz.

1. O‘qitishning og‘zaki usullari.
2. O‘qitishning ko‘rgazmali usullari.
3. O‘qitishning amaliy usullari.
4. O‘qitishning muammoli — izlanish va reproduktiv usuli.
5. O‘qitishning induktiv va deduktiv usullari.

6. Mustaqil ish usullari.

7. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini rag‘batlantirish va asoslash usuli.

8. O‘qitishda nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish usuli.

9. Kitob bilan ishlash usuli.

O‘qitishning og‘zaki usullari

Og‘zaki bayon qilish usulida har ikkala faoliyatning, ya‘ni, bir tomondan, o‘qituvchining o‘quv materiallarini moxirlik bilan og‘zaki bayon qilib berishi va ikkinchi tomondan, bayon qilinayotgan materiallarni o‘quvchilar diqqat bilan tinglab, ongli va mustaxkam o‘zlashtirishlari birligiga amal qilinadi.

Demak, o‘quv materiallarini og‘zaki bayon qilish usuli maktab ta‘lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan usul bo‘lib, u deyarli hamma sinflarda o‘quv fanlari bo‘yicha qo‘llaniladi.

Hikoya. Bu usul maktab ta‘limining hamma bosqichlarida qo‘llaniladi. Boshlang‘ich sinflarda bu ancha qisqa va aniq bo‘ladi. Sinflarning o‘rta guruxiga kelib hikoya ancha kattaroq xajmda va davomli bo‘ladi. Yuqori sinflarda hajmi anchagina katta o‘quv materialini ajratilgan vaqt ichida bayon qilib ulgurish uchun ko‘proq hikoyadan foydalaniladi. Lekin bu erda hikoya ma‘ro‘zadagi kabi butun darsni band qilmaydi. hikoya yako‘nlangach, u Suhbat va tushuntirishlar bilan to‘ldiriladi.

Nutq madaniyatini o‘stirishda hikoyaning o‘qitish va fikrlarni bayon qilish usuli sifatidagi imkoniyatlari boshqa og‘zaki usullarga nisbatan (Suhbat va ma‘ro‘zalarni ham qo‘shganda) ayniqsa yuqoridir. Boshqacha qilib aytganda, hikoya qilish—o‘qituvchi tomonidan yangi o‘tilayotgan

mavzuga oid omil, xodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo‘lib, obrazli tasvirlash yo‘li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir. By usul yuqori sinflarda gumanitar fanlarni o‘qitishda, shuningdek tarjimai xol harakteridagi materiallarni bayon qilishda, obrazlarga ta‘rif berishda, tabiat xodisalari va ijtimoiy hayotdagi voqealarni tasvirlashda qo‘l keladi.

O‘quv materiallarini tushuntirish—o‘qituvchi tomonidan o‘tilayotgan temaning (narsa, xodisa va voqealarning) mazmunini harakterlaydigan tushuncha, qonun va qoidalarni uqtirishdir. Bu usul matematika, fizika, ximiya, ona tili, rus tili va shunga o‘xshash fanlarni o‘qitishda ko‘proq qo‘l keladi.

O‘quv ma‘ro‘zasi.O‘qitishning og‘zaki usullaridan biri bo‘lgan o‘quv ma‘ro‘zasi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish uchun mo‘ljallanadi. Bu o‘quv materiala Hikoyadagiga nisbatan xajmining kattaligi, mantiliy tuzilishi, obrazlari, isbot va umumlashtirishlarning anchagina murakkabligi bilan farqlanadi. Agar Hikoya darsning yoki mashg‘ulotning bir qisminigina egallasa, ma‘ro‘za odatda, ularni to‘la qamrab oladi.

Ma‘ro‘za asosan, o‘rta umumiy ta‘lim maktabining yuqori sinflarida, xunar-texnika bilim yurtida, shuningdek, texniko‘m va oliy o‘quv yurtlarida o‘qiladi.

Maktab ma‘ruzasi — o‘tilayotgan mavzuning xaqiqiy ilmiy moxiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo‘li bilan bir soatlik mashg‘ulot davomida bilimlarni izchillik bilan bayon etishdir.

Maktab ma‘ruzasi o‘rta umumiy ta‘lim maktablarining X—X1 sinflarida qo‘llaniladi. Belgilangan mavzuning mazmuniga ko‘ra asosiy

muammolarni yoki mavzuning asosiy yo‘nalishini ifodalovchi tugallangan—yaxlit tushunchalar bayon qilib beriladi.

Sinfda muammoli vaziyatni vujudga keltirish maqsadida, o‘quvchilarning fikr qilish faoliyatini faollashtiridga qaratilgan savollar berish, mavzuga oid ko‘rgazma materiallarni namoyish qilish, ma‘ro‘za oxirida o‘tilgan mavzu yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish kabi usullardan foydalaniladi. Bular maktab ma‘ro‘zasini oliy o‘quv yurtlari ma‘ro‘zasidan farq qiladigan tomonlaridir.

O‘quvchilar darsga etarli darajada tayyorlangan bo‘lsalar,o‘qituvchi rahbarligida muammoli savollarga javoblarni o‘zlari axtarib topadigan Suhbatlar o‘tkazish nixoyatda maqsadga muvofiqdir. Bunday Suhbatlar evristik—izlanish, axtarib topish harakterida bo‘ladi.

O‘qitish jarayonida o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yako‘nlovchi Suhbatlar ham qo‘llaniladi.

O‘qitishning tarbiyalovchi harakterini ko‘chaytirish maqsadida dunyoqarash va e’tiqodni tarkib toptirishga qaratilgan Suhbatlar ham qo‘llaniladi. «Odobnoma» darsining tashkil topishi munosabati bilan o‘quv jarayonida etik Suhbatlardan foydalanishning imkoniyatlari ancha kengaydi.

Laboratoriya ishlari va amaliy ishlarni o‘tkazish davomida o‘quvchilarnnng qo‘yilgan tajriba—amaliy vazifalarni echish usullari to‘g‘risidagi fikrlarini aniqlash, mavjud qiyinchiliklarni, asboblar, qurilmalar, unumli mehnat ob’ektlari bilan bo‘ladigan harakatlar va operatsiyalarnnng xususiyatlarini qanchalik tushunganliklarini bilishga qaratilgan ko‘rsatuv—usuliy Suhbatlar ham qo‘llaniladi.

Suhbat butun sinf bilan, o‘quvchilarning ayrim guruxlari bilan, o‘quv fanining yangi masalalarini o‘rganish maqsadida ham, bilimlarni mustaxkamlash uchun ham, shuningdek, asosiy tushunchalarni, g‘oyalarni qanchalik o‘zlashtirganligini tekshirish uchun ham o‘tkazilishi mumkin. Suhbatnn o‘quvchilar fikr yuritishga ancha mustaqillik ko‘rsatadigan, muammoli masalalar muhokamaga tashlangan u yoki bu mavzular bo‘yicha o‘z fikrini aytishi mumkin bo‘lgan yuqori sinflarda tashkil qilish ayniqsa foydalidir.

O‘qitishning bu qimmatli uslubini maqbul tanlash, qanday qilib ta‘minlash va qanday vaziyatlarda ulardan oqilona foydalanish mumkin?

1. **Ayrim fanlarni** (tabiiy-jo‘g‘rofik, tibbiyot, fizika) yoki ma‘lum fanlarning ayrim mavzularini o‘tishda o‘quvchilarning o‘z hayotlarida uchratgan voqea-xodisalar yuzasidan savollar berish orqali o‘quvchilarni mustaqil fikr qilishlarinn xulosa chiqarish va yangi-yangi ta‘riflar chiqarish yo‘li bilan olib borish.

Chunonchn, «Bosim» temasini o‘tishda o‘qituvchi, «Nima uchun chang‘ichi qalin qor yuzasida uchib ketayotganda cho‘kib ketmaydi? Nima uchun o‘tkir pichoq keskir bo‘ladi?» kabi o‘ylantiruvchi so‘roqlar orqali o‘quvchilarni mavzuning mazmunini ochishga tomon olib borishi mumkin.

2. **O‘quvchilarning ilgari** o‘zlashtirgan bilimlarini qayta esga tushirishga va shu orqali yangi materiallarni anglab olishlariga, yangi qonun, qoida va ta‘riflar chiqarishni ta‘minlashga qaratilgan so‘roqlar orqali olib borish.

Masalan, V sinfda o‘zbek tilidan o‘quvchilarnnng ot, sifat, son xaqida o‘zlashtirgan bilimlari asosida olmosh temasini bayon qilmay turib, ot,

sifat, son o‘rnida kelgan so‘zlarni o‘z ichiga olgan matndan so‘roqlar orqali olmoshni toptirish va ta‘riflab berishlarini talab qilish mumkin.

Bu har ikki evristik izlanish o‘quvchilardan ongli mustaqil va faol fikrlashni talab qiladi.

Suhbat usuli bilan ish ko‘rganda mashg‘ulotni tashkil qilish va uni olib borishda o‘qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak:

1.O‘qituvchining Suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o‘quvchilarining hammasiga taalluqli bo‘lib, so‘roq o‘rtaga tashlanishi kerak.

2. O‘quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.

3. Sinfning hamma o‘quvchilari javob berayotgan o‘quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to‘ldirishi, to‘zatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta‘minlash lozim.

4. O‘quvchilarning javobi qay darajada to‘g‘ri-noto‘g‘ri bo‘lishidan qat’i nazar, o‘qituvchi tomonidan izoxlanishi, yako‘nlanishi va baxolanishi zarur.

Shunday qilib, zamonaviy umumta‘lim maktablarida qo‘llanilayotgan ta‘lim usullaridan og‘zaki usulning asosiy turlarini ta‘riflab berdik. O‘qituvchining vazifasi bu to‘plangan usullarni faqat egallabgina qolmasdan aniq vaziyatda ularning har biridan oqilona foydalanish, o‘sha vaziyat uchun' aynan mos tomonlarini o‘ylab topish, ularni boshqa usullar bilan moxirona qo‘sha olishdan iboratdir.

O‘qitishning ko‘rgazmali usullari

O‘qitish jarayonida ko‘rgazmalilik usulidan foydalanishning muximligi o‘qituvchining o‘rganilayotgan narsa va xodisalarni hissiy idrok etishga, ularni ko‘zatib mushoxada qilishga o‘quvchini undash,

mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga ishonch xosil qilishga, nixoyat, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishga o‘rgata bilishi bilan izoxlanadi.

O‘quvchilar syozib idrok etish mumkin bo‘lgan narsalarni syozgilar vositasi bilan, ya‘ni ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘z bilan ko‘rib, eshitish mumkin bo‘lgan narsalarni quloq bilan eshitib, sidi bor narsalarni xidlab ko‘rib, ta‘mini se- zish,mumkin bo‘lgan narsalarni tatib ko‘rib bilib oladilar.

Ta‘limda ko‘rgazmalilik usuli namoyish etish, illyustratsiya va eksko‘rsiya tariqasida yulib boriladi.

Ta‘lim jarayonida namoyish etish usulidan foydalanish asosiy materiallarning harakteriga — mazmuni, shakli va xajmiga bog‘liqdir. Maktablarimizda qo‘llaniladigan ko‘rgazmali materiallar harakter e’tibori bilan ikki turda bu- ladi:

1. Aslicha ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan buyum va narsalar: o‘simliklar va ularning tarkibi, xayvonlar, ma‘danlar, kollektsiyalar, asbob va mashinalar, modellar sa xokazo.

2. Tasviriy-ko‘rgazmali materiallar. Tasviriy-ko‘rgazmali materiallar ham mazmuni va tuzilish shakliga qarab ikki turga bo‘linadi:

a) buyum, narsa, xodisa va voqealarning tasvirini ifodalovchi materiallar — rasm, surat fotosurat, diafilm, kino- fil’mlar va xokazo;

b) buyum, narsa, xodisa va voqealarning biror shartli belgisi orqali ifodalangan simvolik va sxematik tasviriy materiallar—jo‘g‘rofiya va tarix kartalari, chizmalar, jadvallar, diagrammalar va xokazo.

Tasviriy-ko‘rgazmali materiallarning har ikkala turi illyustratsiya materiallari deb ham yuritiladi.

Ko‘rgazmali materiallarning turliligi ularning har xil qo‘llanishini talab qiladi.

Masalan, 1. Buyum va narsalarni tabiiy xolma ko‘rsatishni ikki usulda namoyish qilish mumkin:

a) o‘tilayotgan temaga oid badiiy ko‘rgazma materiallari o‘qituvchi bayon qilayotgan o‘quv materiala bilan bir vaqtda (faqat o‘qituvchi tomonidangina) ko‘rsatilishi mumkin;

b) tabiiy-ko‘rgazmali materiallarning soni etarli bo‘lsa, ular har qaysi o‘quvchiga tarqatib berilishi mumkin.

2. Tasviriy ko‘rgazma materiallarning har ikkala turini ham ikki xil usulda olib borish mumkin.

a) ko‘rgazma materialni o‘qituvchi namoyish qiladi;

b) ko‘rgazma materiallar o‘quvchilarga tarkatiladi.

Ta‘lim jarayonida tasviriy-illyustratsiya materiallaridan foydalanish keng qo‘llaniladi. Undan unumli foydalanish uchun quyidagi qoidaga rioya qilmoq zapyp: o‘quvchilarga mashg‘ulot oldidan namoyish jarayonidan ko‘zlangan maqsad qisqacha tushuntiriladi; ko‘rgazmali materiallar o‘qituvchi bayonining ma‘lum paytida ko‘rsatiladi va yoki tarqatiladi; namoyish jarayoni o‘qituvchi tomonidan izoxlab beriladi.

Tabiiy fanlar — biologiya, fizika, ximiya fanlari bo‘yicha fizikaviy va ximiyaviy xodisalarni tajriba qilib ko‘rsatish aloxida tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda ayniqsa, tajribaning muvaffaqiyatli chiqishinn ta‘minlash muximdir,

Ekskursiya usuli

Mavzuning mazmuniga bog‘liq bo‘lgan narsa, xodisa va voqealarni hamma vaqt sinf sharoitida namoyish qilish mumkin emas. Shuning uchun

ham o‘tilayotgan mavzuning harakteriga qarab, ekskо‘rsiya usulidan ham foydalaniladi. Ekskо‘rsiya usuli sinf sharoitida — dars jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish usulidan tubdan farq qiladi.

Ekskо‘rsiya ta‘lim va tarbiya ishlarinnng shunday turidirki, bu usul bilan o‘rganilayotgan narsa va xodisalarni tabiiy sharoitda (zavod, fabrika, kolxoz-sovxozlar, tabiatni kuzatishga) yoki maxsus muassasalarga (mo‘zey, ko‘rgazma va xokazo~- larga) tashkiliy ravishda boriladi.

Ekskо‘rsiya davomida o‘quvchilar turlicha - savollar to‘zishi va shuning asosida suhbat o‘tkazilishi, ob’ekt ustida tegishli xulosalar chiqarilmog‘i lozim. Ekskо‘rsiya oxirida, albatta, yako‘nlovchi dars o‘tkaziladi va unda o‘quvchilar tomonidan tay- yorlangan materialdan foydalaniladi. O‘quvchilar ekskо‘rsiya davomida olgan taassurotlari haqida o‘zaro fikrlashadilar. O‘qituvchi mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, xulosa chiqaradi va mashg‘ulotni yako‘nlaydi.

O‘qitishning amaliy usullari

O‘qitishning amaliy usullari doirasi juda keng. Ular yozma mashq (masalalar echish, chizmalar tayyorlash va boshqalar); tajriba laboratoriya harakteridagi mashqlar (frental tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyotlar, o‘qitishning texnika vositalari, o‘rgatuvchi mashinalar va boshqalar bilan ishlash); mehnat topshiriqlarini bajarish usullarini o‘z ichira oladi.

Amaliy usullarga yozma mashqlar kiradi. Ularni bajarishda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda bevosita qo‘llashga o‘rgatiladi.

Mashq qildirishda ilmiy bilim va ma‘lum bir ish-hapakatni o‘zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida rejali suratda tashkil etilgan takrorlash nazarda tutiladi.

Mashq qildirishda har qaysi o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Ona tili bo‘yicha grammatik tahlil, matematikadan misol va masalalar ishlatish, tabiiyotdan o‘simliklarni turlarga ajratish va boshqalar.

Yuqori sinflarda matematika, fizika, ximiya fanlari bo‘yicha o‘ziga xos mashqlar texnikaga oid topshiriqlar vositasida olib boriladi. Mashq uchun berilgan topshiriqlar, albatta, ilgari o‘zlashtirilgan qoida va qonunlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarning o‘zlashtirgan ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirishda:

1) mashq uchun berilgan topshiriqning maqsadi o‘quvchilarga aniq tushuntirilgan bo‘lishi;

2) mashq ustida sinf o‘quvchilar jamoasi va hap qaysi o‘quvchining shaxsiy intilishi, qiziqishini hisobga olish;

3) topshiriq butun sinf o‘quvchilarining aktiv faoliyatini ta‘minlaydigan bo‘lishi va mashqni, albatta, belgilangan vaqt ichida bajarish talab qilinishi kerak.

Mashq, qildirish usuliga o‘quvchilarning yozma, ijodiy mashqlari aloxida o‘rin egallaydi. Yozma, ijodiy mashqlar asosan ona tili va adabiyot, tarix va jo‘g‘rofiya fanlarida ham qo‘llanishi mumkin. O‘quvchilarning yozma ijodiy mashqlari insho, va‘z, referatlar yozish ustida ham qo‘llaniladi. Inshoning dastlabki kichiq va ixcham shakli boshlang‘ich sinflardayoq qo‘llanadi.

O‘quvchilarning yana bir yozma ijodiy ishlari turli mavzularda ma‘ro‘zalar yozishdir. Ma‘ro‘za temasi ma‘lum bir muammo va masalaning xal etilishiga karatilgan bulib, o‘quvchilar shu mavzuga oid

mustaqil o‘qib o‘rgangan materiallar yuzasidan o‘z nuqtai nazarlarini ifodalaydilar va shu qarashlarini misol va dalillar bilan isbot qiladilar.

Grafik ishlar ham o‘quvchilarning yozma ishlari jumlasiga kiradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirgan yoki o‘zlashtirayotgan bilimlarini ongli va mustaxkam esda saqlab qolishlariga, tegishli ko‘nikma, malakalar xosil qilishlariga yordam beradi.

O‘quvchilarning yozma grafik ishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: rasm solish, jo‘g‘rofiya va tarix fanlari bo‘yicha murakkab bo‘lmagan haritalar chizish, chizma va sxemalar ishlash, jadval, diagramma, grafiklar, plakat, albom, stendlar ishlash va xokazo.

Mashqlar davomida o‘quvchilar yo‘l ko‘rgan orfografik, arifmetik va grafik xatolarni aniqlash, ayniqsa o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalariga singib ketishi mumkin bo‘lgan xatolarning darxol oldini olish lozim. Shunga ko‘ra mashq uchun berilgan topshiriklarni sinchiqlab tekshirish, yo‘l qo‘yilgan xatolarning sababini aniqlash, o‘quvchilarni xatolar ustida qayta ishlatish lozim.

Laboratoriya mashq ishlari

Laboratoriya mashqlari har tomonlama tajribalar, laboratoriya ishlari, amaliyotlar, o‘qitishning texnik vositalari va maktab o‘quv qurollari turidagi boshqa asbob-usko‘nalar bilan mashg‘ulotlar tarzida o‘tkaziladi.

Laboratoriya usuli o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga atrofini o‘rab olgan ob’ektiv borliqdagi narsa va xodisalar, ularning shakli, xajmi, tarkibi, tuzilishi, o‘zgarish va rivojlanish qonuniyatlari xaqida yangi-yangi bilimlar berish, o‘zlashtirilayotgan ilmiy bilimlarni mustaxkamlash hamda tegishli ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda muxim ahamiyatga ega.

Laboratoriya mashg‘uloti odatda maxsus jixozlangan xonada hamda tegishli apparat, asbob-usko‘nalar: mikroskop, lupa, kolba, o‘lchov asboblari va boshqa qurollar bilan ta‘minlangan oddiy sinf xonalarida,maktabning tajriba er uchastkalarida olib boriladi.

Laboratoriya usuli asosan IX—XI sinflarda fizika, ximiya, biologiya va informatika kabi fanlarni o‘rganishda qo‘llaniladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish natijasida o‘quvchilarning tevarak-atrofdagi narsa va xodisalarni mustaqil kuzatishga bo‘lgan qiziqishlari ko‘chayadi, mustaqillik, faollik va tashabbuskorliklari ortadi. Amaliy ish tajribalari ko‘nikma, malakalari xosil qilinadi. Mehnat madaniyati rivojlanadi.

Laboratoriya usulining boshqa o‘qitish usullaridan farqi shundaki, bu usul bilan ish ko‘rilganda har qaysi o‘quvchi (yakka xolda yoki o‘quvchilar guruxi) nimanidir mustaqil, shaxsan tajriba qilib ko‘radi. Dars boshdan-oyok o‘qituvchi rahbarligi ostida o‘quvchilarning mustaqil tajriba o‘tkazishlariga qaratilgan bo‘ladi. Laboratoriya usuli mashg‘ulotning harakteriga qarab turlicha tashkil qilinadi:

1.O‘quvchilar bilan yoppasiga olib boriladigan mashg‘ulotlar.

2.Sinf o‘quvchilarining har qaysisi bilan aloxida-aloxida olib boriladigan tajriba mashg‘ulotlari.

Yoppasiga olib boriladigan tajribalar, fizika, ximiya, biologiya fanlari bo‘yicha o‘tkaziladi. Bunday tajribalar odatda, yangi mavzudan olden o‘tkazilib, yangi mavzuga tajriba asosida kirish xizmatini o‘taydi, ular keyingi nazariy umumlashtirishlar chiqarish, yangi xulosalar qoidalar, ajrimlar xosil qilish va xokazolarni tajriba ma‘lumotlari bilan ta‘minlaydi. Bu tajribalar hamma o‘quvchilar bilan bir vaqtda, o‘qituvchining umumiy

rahbarligi ostida o‘tkazilishi tufayli ham yoppasiga o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar deb ataladi.

Amaliy mashg‘ulotlar

O‘quvchilarga o‘qituvchilar tomonidan ta‘sir ko‘rsatishning pedagogik usullari va uslublarining butun tizimini amalga oshirmay turib o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin emas.

O‘rta va yuqori sinflarda ham o‘qituvchi mashg‘ulot oldidan tushuntirish o‘tkazadi. Bu tushuntirishlar butun mashg‘ulot jarayonida davom ettiriladi.

Masalan, o‘qituvchi dars oldidan mashg‘ulotning maqsadi, vazifasi, ishlatadigan materialning harakteri, qo‘llaniladigan asbob va usko‘nalarning xususiyati, texnologik jarayon, ish davomida uchrashi mumkin bo‘lgan ba‘zi bir qiyinchiliklar, texnika xavfsizligiga oid masalalar yuzasidan tushuncha beradi.

O‘quvchilarning amaliy tajriba mashgg‘lotlarida mehnat ta‘limi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Amaliy tajriba mashg‘ulotlari maktab jonli burchagi va tajriba er uchastkasida olib boriladi. Maktab tajriba er uchastkasida olib boriladigan ishlar o‘quvchilar brigadalari orqali amalga oshiriladi. Har kaysi o‘quvchilar brigadasi ko‘pincha har xil topshiriklarni bajaradilar. Ba‘zi brigadadagi har qaysi quvchi aloxida-aloxida topshiriqni bajarishi mumkin.

O‘qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari

O‘qitishning reproduktiv va muammoli-izlanish usullari eng avvalo,

o‘quvchilarning yangi tushuncha, xodisa va qonunlarni bilishdagi ijodiy faolliklari,darajasini baxolash asosida qismlarga ajratiladi.

Reproduktiv usullar birinchi navbatda, o‘quvchilarning o‘quv materialini mustaxkamroq eslab qolishlarini ta‘minlash, bilishga doir faoliyatni bevosita boshqarish, kamchiliklarni tyoz aniqlash uchun amaliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladi. Reproduktiv usullar ayniksa, o‘quv materialining mamuni asosan axborot harakterida bul- sa, amaliy harakatlarning usullarini ta‘riflasa, o‘quvchi-larning bilimlarni mustakil qidirib ola bilishlari uchun juda yangi xisoblansa, vaziyatlarni xal qilish uchun tayyor bilimlar yuk bulsa samarali qo‘llanadi.

Tafakkurning reproduktivlik harakteri o‘qituvchi yoki boshqa manba orqali xabar kilinadigan o‘quv axborotlarini faol idrok qilinishi va eslab qolinishini nazarda tutadi. Bu usullarni o‘ziga xos moddiy asosi bulib xisoblanadigan uki- tishning og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy usullaridan foydalanmay qo‘llash mumkin emas.

Hikoya usuli reproduktiv to‘zilganda o‘qituvchi omillarni,- dalillarni, tushunchalarning ta‘rifini tayyor xolda beradi, e’tiborni ayniqsa mustaxkam o‘zlashtirib olinishi zarur bo‘lgan asosiy tomonlarga karatadi. ~Ma‘ro‘za ham xuddi shunday tarzda to‘ziladi: o‘qituvchi muayyan ilmiy ma‘lumotlarni bayon qiladi, doskaga tegishli yozuvlarni bitadi, tinglovchilar esa ularni qisqacha yozib oladilar.

Reproduktiv harakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida o‘quvchilar namunaga ko‘ra ilgari yoki yaqindagina o‘zlashtirilgan bilimlarni qo‘llaydilar. Reproduktiv matnlar amaliy

koʻnikma va malakalarni namuna buyicha bir necha bor takrorlash orqali mustaxkamlashga ayniqsa samarali taʻsir koʻrsatadi.

Muammoli vaziyat yaratish usullari

Muammoli taʻlim deyilganda oʻquv materialini oʻquvchilar ongida ilmiy izlanishga oʻxshash bilish vazifalari va muammolari paydo boʻladigan qilib oʻrganish tushuniladi. Oʻquvchining fikrlash faoliyatida mantiqiy toʻgʻri, ilmiy xulosalarni izlash va oʻzlashtirishga ragʻbatlantiradigan muammoli vaziyatlar vujudga keladi. Paydo bulayotgan muammoni xal qilish uchun, u oʻrganiladigan qoidalarni toʻgʻri tushunib olishga intiladi.

Har qanday taʻlim oʻquvchi uchun muammolidir, chunki taʻlim oʻquvchinn unga hozirgacha nomaʻlum boʻlgan narsa bilan tanishtiradi: oʻquvchi yangi materialni oʻzlashtirishi, oʻqituvchi va maktabning hamma talablarini bajarishi kerak, albatta.

Oʻquvchilarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar yaratish ularda har narsani bilishga xavas, faxm-farosatlilik, mustaqillik, oʻqishga qiziqish va ijod qilishga intilish kabi shaxsiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Nazariy va eksperimental (sinab koʻrish — tajriba oʻtkazish) vazifalarning boʻlishi oʻqitishni oʻzidan-oʻzi muammoli qilib qoʻymaydi. Ishning moxiyati oʻqituvchi bu vazifalarga muammolik harakterini qanchalik bera olishidadir. Vazifa quyidagi talablarni qondira oladigan boʻlsagina shu masalaning tub moxiyati bilish muammosiga aylanishi mumkin:

1. Oʻquvchilar uchun bilim qiyinchiligiga ega, yaʻni oʻrganilayotgan muammo ustida fikr yuritish.

2. O‘quvchilarda bilishga,qiziqish uyg‘otish. 3. Tahlil jarayonida o‘quvchilarning avvalgi tajribasi va bilimiga suyanish.

Ta‘lim jarayonida muammoli vaziyatni vujudga keltirish, undan foydalanish usullarini yaratish, ta‘lim tizimining har bir. Bosqichida o‘rganiladigan fanlarga xosdir. Muammoli vaziyat fanning mazmuni, o‘ziga xos harakter xususiyatlari, uni urganish usullarini xisobga olgan xolda yaratiladi.

Sir emaski, bir xil yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy va aqliy xususiyatlariga ko‘ra tushunish, fikrlash, ish bajarish qobiliyatlari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Buni ayniqsa, muammoli xolatni yaratish uchun o‘quvchilarni ruxiy jixatdan puxta tayyorlashda xisobga olmoq zarur.

O‘qitishning induktiv va deduktiv usullari

Darslarga tayyorlanish jarayonida o‘qitishning induktiv, deduktiv kabi usullarini tanlash zaruriyati ham tug‘iladi. Keyingi yillarda .deduktiv o‘qitishga talab va e’tibor ko‘chaydn. Tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib faqat umummehnat harakteridagi tajribalar orqaligina muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Induktiv yoki deduktiv usullarni qo‘llash o‘rganilayotgan mavzu mazmunini ochishning ma‘lum mantiqini—xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o‘tish- ni tanlashni anglatadi.

Induktiv usullar texnik qurilmalarni o‘rganishda va amaliy topshiriqlarni bajarihda keng ko‘llaniladi. Matematika va fizikaga dobr ko‘pgina masalalar, ayniqsa o‘qituvchi o‘quvchilarni ayrim umumiyroq formulalarni mustaqil egallashlariga olib kelish zarur deb xisoblagan xollarda, induktiv usul vositasida echiladi.

Deduktiv uslub o‘quv materialini tyozroq o‘ishga yordam beradi, tafakkurni birmuncha faolroq rivojlantiradi. Nazariy materialni o‘rganishda, anchagina umumiy xolatlardan ayrim oqibatlarni aniqlashni talab qiluvchi masalalarni echishda deduktiv usulni qo‘llash ayniqsa foydalidir.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni rag‘batlantirish va tanbex berish usullari

O‘quv faoliyatini rag‘batlantirish deb kishining aktiv faoliyatga bo‘lgan tashqi mayliga aytiladi. Shuning uchun ham rag‘batlantirish—o‘qituvchi faoliyatining omili xisoblanadi. Ammo rag‘batlantirish kishining faoliyatga bo‘lgan ichki mayliga ta‘sir qilgandagina real maqsad sari undaydigan ko‘chga aylanadi. Buning ustiga yana bunday ichki undash faqat tashqi rag‘batlantirishlar ta‘siridagina emas, balki o‘quvchilarning o‘z-o‘zining ta‘sirida ham, uning oldingi tajribasi, extiyojlari va xokazolar,ta‘sirida ham yuzaga keladi.

O‘qishga qiziqishni rag‘batlantirish turlaridan biri—o‘qishda ma‘lum qiyinchilik syozayotgan o‘quvchilarga muvaffaqiyatli vaziyatlarni yaratishdir. Chunki muvaffaqiyat quvonchini boshdan kechirmay, o‘qishdagi qiyinchiliklarni bartaraf kilmay turib yaxshi natijalarga erishib bo‘lmaydi.

Muvaffaqiyatga erishish vaziyatini o‘quvchining oraliq harakatlarini rag‘batlantirish, ya‘ni uni yangi zo‘r berishlarga maxsus undash yo‘li bilan ham tashkil qilish mumkin. Muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratishda u yoki bu topshiriklarni bajarish jarayonida qulay ma‘naviy-ruxiy muhitni ta‘minlash muxim o‘rin egallaydi. O‘qish vaqtidagi qulay mikroiqlim

ishonchsizlik, qo‘rqish xissiyotini kamaytiradi. Bunday xavotirlik xolati o‘rnini o‘ziga nisbatan ishonch tuyg‘usi egallaydi.

Rag‘batlantirish va tanbex berish usullari o‘ziga xos xususiyatlarga egadir.Masalan, baxo bilan rag‘batlantirish,maxsus tanlangan topshiriqlar berish yo‘li bilan o‘qishdagi muvaffakiyat vaziyatini yaratish, tajriba va laboratoriya ishla- rini tayyorlashda qatnashish, ekranlarni jixozlashlari orqali rag‘batlantirish; bilimlarni jamoatchilik tomonidan ko‘rish yako‘nlariga qarab rag‘batlantirish .va xokazo.

O‘qishga doir tanbexlar: dars paytidagi og‘zaki tanbex berishlar, baxosini pasaytirib qo‘yish, ish daftariga yozishlar, xatolarini ko‘rsatish va boshqa usullar orqali qo‘llaniladi.

O‘qish hamda jazolashning boshqa turlarini qo‘llash o‘qitish usulida istisno xol, chunki bu usul eng oxirgi ilojsiz chora xisoblanadi.

Maktabda bolaga tan jazosi berish, o‘zlashtirolmagani uchun uni xaqorat qilish, shaxsiga tegish, yomon iboralar bilan so‘kish aslo mumkin emas.

O‘qitishda nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish usullari

O‘qitish tizimida nazoratning zarurligi, eng avvalo, butun o‘quv yurtlari tizimining samarali ishlayotganligi xaqida axborot olishga o‘ulgan ijtimoiy extiyojdan kelib chiqadi. Nazorat ta‘lim jarayonining ajralmas qismlaridan biri sanaladi. Chunki nazorat qilish tufayli o‘qitishdagi o‘zaro muloqot, o‘qitishning borishini jadal boshqarish va kamchiliklarni o‘z vaqtida to‘zatish, yangi darsga anik vazifalar qo‘yish imkonini beruvchi aloqa amalga oshiriladi.,

Nixoyat, nazorat maktabdagi o‘qitish jarayoniga xos bo‘lgan ta‘limii, tarbiyaviy rivojlantirishdek bir qator asosii vazifalarni bajaradi.

Nazoratning ta‘limiy ta‘siri o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni o‘z o‘rtoqlarining javobini tinglashga jalb qilishi, to‘zatish va qo‘shimchalar qilishni taklif etishi orqali ta‘minlanadi. Shu tufayli ham so‘rash jarayonida barcha o‘quvchilar o‘rganib, o‘zlashtirib olgan bilimlarini tizimga solishadi, takrorlashadi va mustaxkamlashadi.

Nazoratni turlarga bo‘lishning xususiyati shundaki, nazoratning keyin keluvchi har bir turida ham oldingi turidagi belgilar namoyon bo‘ladi. Shuning uchun nazoratning ogzaki, yozma va laboratoriya turlari hamda ularga muvofiq keluvchi usullar qo‘llaniladi.

Og‘zaki nazorat—yakka va guruxiy so‘rash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Aloxida so‘rashda o‘qituvchi ma‘lum vaqt davrida o‘quvchilar tushuncha, qonun, nazariya hamda dalillarni qay darajada egallaganliklarini aniqlaydi. Aloxida so‘rashda ma‘lum masalalarni, operatsiyalarni xal qilish ko‘nikmasi, texnik vositalardan foydalana bilishlari tekshiriladi.

O‘qish jarayonida matematika, ona tili, fizika va boshqa fanlar buyicha diktant, bayon va insholar o‘tkazish yo‘li bilan o‘quvchilar bilimini yozma nazorat qilib borish amalga oshiriladi.

Yozma ishlar turli davomiylikka ega. Ayrim xollarda ular darsning faqat kichiq qisminigina tashkil etadi, ilgari o‘rganilgan mavzuning ayrim bo‘limlari bunicha qisqa muddatli yozma nazorat ishlari, boshqa xollarda butun darsni egallaydigan davomli nazoratli ishlar bo‘ladi. O‘quv vaqtini tejash uchun nazorat ishlarining har ikkala turini biriktirish va ilgari o‘rganilgan muxim masalalarni o‘zlashtirishning qisqa muddatli tekshirilishini qo‘llashni kengaytirish lozim.

Yozma nazorat ishlarini o‘tkazishda, baxolarning to‘liq ob’ektivligini ta‘minlash bilan birga bo‘sh o‘zlashtiruvchilarni ilg‘orlar safiga tortish, topshiriqni uddalashlariga ishonch xosil qilish maqsadida ularga masalalarning javoblarini, qo‘shimcha rasmlar va xokazolar berish kerak.

O‘z-o‘zini nazorat qilish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini muxim elementlaridan biridir. O‘quvchilarda o‘zini-o‘zi nazorat qila olish maxoratini shakllantirmoq lozim.

Masalan, o‘quvchilarga uy vazifalarini bajarayotganda o‘z-o‘zini tekshirishning quyidagi usullarini tavsiya qilsa bo‘ladi: darslik matnini o‘qib chiqqandan sung uning muxim joylarini ifodalovchi qisqa rejasini mustaqil to‘zish, rejadan foydalanib, matnning asosiy ma‘nosini gapirib berish, kitobda shu mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob berish uchun tayyorgarlik ko‘rish. Bunday ish usulini yuqori sinflarda ham qo‘llash mumkin.

Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish uslublarini o‘zaro moxirona biriktirish barcha o‘quv fanlari bo‘yicha ta‘lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta‘limni tashkil etish shakllari

Ya. A. Komenskiyning ta‘limni tashkil qilish xaqidagi qarashlari bir kator jiddiy karshiliklarga uchragan bo‘lsa ham garb mamlakatlariga juda tyoz tarqaldi va ta‘limni tashiil qilishning birdan-bir shakli deb e’tirof etildi.

Sinf—dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Mar- kaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tadbiq bo‘lmadi. Ularda oktyabr to‘ntarishiga qadar o‘rta asr maktablariga xos ta‘lim tizimi davom etib keldi.

Bir o‘qish xonasida 6 yoshdan 15—16 yoshgacha bo‘lgan bolalar guruxi bilan bir vaqtda mashg‘ulot olib borilardi. Shuningdek, bir o‘qish xonasidagi (20—30) o‘quvchining bilim darajasi ham turlicha bo‘lar edi.

Sinf—yoshi va bilimi jixatdan bir xil bo‘lgan ma‘lum miqdordagi o‘quvchilar guruxidir.

Dars deb bevosita o‘qituvchining rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruxi bilan olib boriladigan ta‘lim mashg‘ulotiga aytiladi.

Dars o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shaklidir. Dars o‘quv ishlarining markaziy qismidir.

Maktablarimiz bosib o‘tgan tarixiy davr ichida ta‘limni tashkil qilish shakllari o‘zgardi, rivojlandi. Hozir maktablarimizda qo‘llanilayotgan sinf — dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda'olib boriladi:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko‘ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruxiga ega bo‘ladi.

2. Dars mashg‘uloti asosan 45 minutga mo‘ljallangan bo‘lib, qat’iy jadval orqali olib boriladi.

3. Dars bevosita o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o‘tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta‘lim tizimining bir kismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyush- tiriladi.

Ayni paytda, maktablarimizda ta‘limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda.

1. Sinf—dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar.

Sinf—dars shaklida olib boriladigan mashg‘ulot o‘qituvchining ko‘ndalik o‘quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishini, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan xisobga olib borishni, o‘quvchilarni mustakil ishlashga urgatishni o‘z ichiga oladi.

Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg‘ulotlar sinf sharoitidan tashkarida, o‘quv ustaxonasi, tajriba er uchastkalari va kolxoz-sovxoz ekin maydonlarida ishlash, ekskо‘rsiyalar utkazish yuli bilan olib boriladi.

Hozirgi zamon didaktikasi ko‘p yillar davomida tuplangan ukitish qoidalari, fan yutuklari va ilg‘or tajribalar asosida boyib bormokda deyishga asos bor. Ammo o‘quv jarayonining hamma kismlarini ukitishni tashkil qilishning mazmuni, usullari, vositalari va shakllari bilan munosabatlari yaxshi ochib berilmagan. Bularning hammasi didaktik qoidalardan amalda foydalanishni kiyinlashtiradi. Maktab oldida turgan yangi vazifalar va extiyojlar o‘quvchilarga beriladigan ta‘lim va tarbiya sifatini oshirish, uni yanada rivojlantirish va yukori boskichga ko‘tarishni talab kiladi.

O‘qituvchi o‘zining aniq sharoitlari va imkoniyatlariga eng ko‘p mos keladigan o‘quv jarayonini ongli ravishda tanlab olishi foydadan xoli emas. Bu ish darsning muxim tomonlarini tanlashdagi tavakkalchilikka, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish jarayonini boshkarishga qandaydir tasodifiy endashishga yul ko‘ymaydi.

Darsga qo‘yiladigan talablar

Dars yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘qitishni tashkil etishning o‘zgarmas shakli emas. O‘quv amaliyoti va pedagogik tafakkur doimo uni takomillashtirish yo‘llarini izlaydi. Bu sohada turli xil ko‘rik-tanlovlar, jumxuriyat miqyosida o‘tkazilayotgan pedagogik o‘qishlarda o‘rtaga qo‘yilayotgan ilg‘or o‘qituvchilarning fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir.

Turli-tuman fikr va mulohazalarni xisobga olgan xolda dars quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

1.Har bir dars ma‘lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmog‘i lozim.

2.Har bir dars mustaxkam g‘oyaviy-siyosiy yunalishga ega
bo‘lmog‘i lozim.

3.Har bir dars turmush bilan, amaliyot bilan bog‘langan
blmog‘i lozim. o‘

4.Har bir dars xilma-xil usul, uslub va vositalardan
unumli foydalangan xolda olib borilmog‘i lozim.

5.Darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab, undan unumli foydalanmoq lozim.

6.Har bir dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning faolligi birligini ta‘minlamog‘i lozim.

7.Darsda o‘quv materiallarining mazmuniga oid ko‘rsatmali qurollar, texnika vositalari va kompyuterlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoq lozim.

8.Dars mashg‘ulotini butun sinf bilan yoppasiga olib borish bilan har qaysi o‘quvchining individual xususiyatlari, ularning mustaqilligini oshirish xisobga olinadi.

9.Har bir darsda mavzuning harakteridan kelib chiqib, xalqimizning boy pedagogik merosiga murojaat qilish va un- dan foydalanmok imkoniyatini izlamok lozim.

Snf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishi

Bir soatlik darsga mo‘ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talablarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg‘ulot turi dars turlari deb yuritiladi.

Ta‘lim tizimida eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

2. O‘tilgan materiallarni mustaxkamlash darsi.

3. O‘ko‘vchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini tekshirish va baxolash darsi.

4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.

5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasini

Har bir dars turining ma‘lum tuzilishi va xususiyatlari bor, bu narsa o‘qituvchining o‘quv materialini to‘g‘ri va samarali tushuntirishiga, mustaxkam esda qoldirishga, takrorlashga va uning o‘zlashtirilishini nazorat qilib borishiga yordam beradi.

Ma‘lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda ikkinchi, xatto uchinchi bir dars turining elementlari bo‘lishi mumkin. Masalan, maktablarimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha to‘ziladi:

a) yangi bilimlarni bayon qilish;

b) yangi bilimlarni mustaxkamlash;

v) yangi bilimlar ustida mashq qilish;

g) yangi bilimlarga bog‘liq xolda uy vazifalari topshirish.

Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimni bayon qilish bilan birga uni mustaxkamlash (ikkinchi bir dars turi elementi savol-javob o‘tkazish), yangi bilimlar ustida mashq, o‘tkazish (uchinchi bir dars turi elementi masala va misollar echdi- ish, grammatik tahlil, grafik ishlar olib borish), uyga vazifa (boshka bir dars elementi tushuntirish, yo‘l-yo‘riqlar ko‘r- satish va xokazo) kabi boshka elementlarning bo‘lishi ham mumkin. Shunta karamay, darsdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarga yangi bilim berishga karatilgan bulsa, butun didaktik usullar shunta buysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma‘lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir dars elementlari asosiy dars turidan urin olishi .va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil, qilishi mumkin.

Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning kismlarini anglatadi.

Biroq, dars turlari tuzilishidagi har qanday kism didaktik usul, dars tuzilishi bo‘lavermaydi. U o‘qitish usuli bilan bog‘langandagina dars tuzilishini tashkil qila oladi. Ya‘ni dars tuzilishining o‘zgarishi bilanoq dars olib borish usuli ham o‘zgaradi. Demak, darsning shu kismiga kelib, darsning shakli ham, usuli ham o‘zgaradi, yangilanadi. Bu bilak darsning yangi bosqichi boshlanadi.

Dars tuzilishini biridan ikkinchisiga o‘tishi va shu orkali darsning shakli hamda usullarining o‘zgarishi dars bosnichi deb yuritiladi.

Masalan, aralash dars turining tuzilishi:

1) uy vazifalarini surash, tekshirib koʻrish;

2) yangi materiallarni bayon qilish;

3) yangi materiallarni mustakkamlash;

4) uy vazifalari topshirishni oʻz ichiga oladi.

Bunda: a) uy vazifalarini koʻrish Suhbat (savol-javob), misol va masalalar ishlatish yuli bilan olib borilishi mumkin. Bu dars tuzilishining 1- qismi, darsning birinchi bosqichi;

b) yangi materiallarni bayon qilish jarayonida oʻqituvchi tushuntirish, Hikoya qilish, maktab maʻroʻzasi, Suhbat kabi usullardan foydalanishi mumkin. Bu — dars tuzilishining ikkinchi kismi, darsning ikkinchi boskichi;

v) yangi materiallarni mustaxkamlash jarayonida Suhbat, mashk kildirish, kitob bilan ishlash usullaridan foydalanish mumkin. Bu dars tuzilishining uchinchi qismi, darsning uchinchi bosqichi;

g) uy vazifalarini topshirish jarayonida tushuntirish.

Suhbat usulidan foydalanish mumkin. Bu dars tuzilishini turtinchi kismi, darsning turtinchi boskichidir.

Yuqorida koʻrib utilgan dars turlarining hammasi oʻz tuzilishiga ega boʻlganidek, maʻlum boskichlarga ham ajraladi.

Boshlangich sinflarda koʻpincha aralash dars, mustaxkamlash va bilim, koʻnikma, malakalarni tekshirish kabi dars turlari qoʻllaniladi. Yuqori sinflarda esa koʻpincha yangi bilimlarni bayon qilish, takroriy-umumlashtiruvchi dars turlari koʻllaniladi.

Takroriy-umumlashtiruvchi dars, odatda, dasturning maʻlum bir kismi yoki yirik mavzu oʻtib boʻlganidan ishlatiladi. Bunda utilgan materiallarni

takrorlash bayta esga tushirish va mustaxkamlash maqsadida utilgan materiallarni qamrab olgan va bir-biriga boglik bulgan savollar oroshali umumlashtirish nazarda tutiladi.

Odatda, takroriy-umumlashtiruvchi darsni o‘tishda, o‘quvchilarning tayyorlanishlari uchun savot berilishi, mashg‘ulotdan oldingi material yuzasidan savollar berib ko‘yilishi, foydalanish lozim bulgan adabiyotlarning ruyxati berilgan bo‘lishi lozim.

Yuqori sinflarda ba‘zan o‘quv materiallarining ma‘lum kismi yoki yirik mavzuni boshlash oldidan kirish darslari ham olib borilishi mumkin. Bunday darslar, odatda, gumanitar, fanlar buyicha o‘tkaziladi. Bunda, albatta, o‘quvchilarning mustaqil ish olib borishlari nazarda tutiladi. Adabiyot darslarida ko‘pincha o‘quvchilardan o‘quv dasturida belgilangan yirik badiiy asarni o‘qib chiqishlari, mavzuga oid saxna asarlari, kinofilmlarni ko‘rgan bo‘lihlari talab kilinadi.

Ta‘limning mazmuni haqida tushuncha

Maktabda ta‘limning mazmuni deganda o‘quvchilar o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida egallaydigan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar tushuniladi. Maktabda ta‘limning mazmuni bevosita uning maqsadidan kelib chiqadi. Maktabda o‘rganiladigan har bir fan insoniyat ijtimoiy–tarixiy tajribasining bir tomoni, qismidir. Ta‘lim mazmuni deganda, o‘quvchilarning o‘qish jarayonida egallay olishi lozim bo‘lgan hamda tizimiga solingan bilim, malaka va ko‘nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi.

Ta‘limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzumining xususiyatlari;

Davlatning xalq ta‘limi va muayyan turdagi o‘quv yurti oldiga qo‘yadigan maqsad hamda vazifalari;

O‘qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o‘quvchilarning imkoniyatlarini e’tiborga oluvchi didaktik talablar. Maktabda beriladigan ta‘limning mazmuni tarixiy hamda sinfiy xususiyatga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta‘limning mazmuni, hajmi o‘sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, pedagogika tarixida «Maktabda beriladigan ma‘lumotning mazmunini bola hoxishiga bo‘ysindirish» ga qaratilgan nazariya keng yoyildi. Mazkur nazariyaning ko‘zga ko‘ringan vakili Amerikalik faylasuf-pedagog Jon Dyuidir uning qarashicha, maktab azaldan mavjud bo‘lgan tabiiy layoqatlarni, qiziqish va odatlarni rivojlantirishga xizmat qilmog‘i lozim. Shunday ekan, maktablarda hamma o‘quvchilar uchun umumiy bo‘lgan o‘quv rejasi va dasturlarning bo‘lishi ham shart emas, balki alohida-alohida shaxslar layoqatiga moslangan ma‘lumotlar berilishi lozim.

Davlat ta’lim standarti

Hozirgi zamon maktablarida ta‘limning mazmuni umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lgan imonli, e’tiqodli yoshlarni tarbiyalab etishtirishdan iboratdir.

Shunga asosan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi

187-son qaroriga Umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’lim standarti ishlab hiqilgan.

Umumiy o’rta ta’limning Davlat ta’lim standarti quyidagi qismlaridan iborat:

1-bob. Asosiy qoidalar

1. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti (keyingi o’rinlarda davlat ta’lim standarti deb ataladi) davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy printsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta’lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta’lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Davlat ta’lim standartini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

2-bob. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartining maqsad va vazifalari

Davlat ta’lim standartining maqsadi — umumiy o’rta ta’lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg’or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Davlat ta’lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o’rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o’quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o’rta ta’lim muassasalarining o’quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

ta’lim va uning pirovard natijalari, o’quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo’yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

3-bob. Umumiy o’rta ta’lim davlat ta’lim standartining asosiy printsiplari

Davlat ta’lim standarti quyidagi asosiy printsiplarga asoslanadi:

o’quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o’rta ta’lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta’lim standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o’rta ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o’rta ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o’rta ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o’quvchilarda fanlarni o’rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ta’minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

4-bob. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlari

Davlat ta’lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. **umumiy o’rta ta’limning tayanch o’quv rejasi;**
2. **umumiy o’rta ta’limning o’quv dasturi;**
3. **umumiy o’rta ta’limning malaka talablari;**
4. **baholash tizimi.**

Umumiy o’rta ta’limning tayanch o’quv rejasi (keyingi o’rinlarda — tayanch o’quv reja deb ataladi) umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitiladigan o’quv fanlari nomi, o’quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo’yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o’quv reja umumiy o’rta ta’lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o’quv reja umumta’lim fanlari bo’yicha belgilangan ta’lim mazmunini o’quvchiga etkazish uchun ajratilgan o’quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi etarli bo’lgan umumiy o’rta ta’lim muassasalarida Qoraqalpog’iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh

boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o’rta ta’lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o’quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma’lum bir fanlarni chuqurlashtirib o’qitish maqsadida 15%gacha o’zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o’rta ta’limning o’quv dasturi (keyingi o’rinlarda — o’quv dasturi deb ataladi) tayanch o’quv rejaga muvofiq o’quv fanlarining sinflar va mavzular bo’yicha hajmi, mazmuni, o’rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetentsiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi. O’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o’rta ta’limning malaka talablari umumta’lim fanlari bo’yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o’quv yuklamalari hajmiga hamda ta’lim sifatiga qo’yiladigan talablardan iborat bo’lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o’rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko’nikma — o’rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo’llay olish;

malaka — o’rganilgan bilim va shakllangan ko’nikmalarni notanish vaziyatlarda qo’llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetentsiya — mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo’llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi — davlat ta’lim standarti bo’yicha umumiy o’rta ta’limning malaka talablarini o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishi

darajasini hamda umumiy o’rta ta’lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

5-bob. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartini joriy etish tartibi

O’zbekiston Respublikasida davlat ta’lim standartini joriy etish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat ta’lim standartini joriy etish, shu jumladan umumta’lim fanlari bo’yicha ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan minimal talablarni, umumiy o’rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo’yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajriba-sinov ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

Davlat ta’lim standartiga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish belgilangan tartibda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilish

Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat ta’lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta’lim sifatini ta’minlashdan iborat.

Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilish ustidan nazorat O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan quyidagi ko’rinishlarda amalga oshiriladi:

davlat ta’lim standarti talablari asosida barcha umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’quvchilar egallashi lozim bo’lgan malaka talablariga baho berish;

tayanch o’quv reja va o’quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish;

umumiy o’rta ta’lim muassasasida davlat ta’lim standartlari talablari bajarilishi va ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni, foydalanilgan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining natijaviyligini tahlil qilish.

Darslik o‘quv jarayoning zarur qismidir. Ko‘p vaqtlardan beri u o‘qitishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Darslik–o‘quvchilarning ikkinchi «Muallimi». Chunki u, avvalo, o‘quvchi uchun zarur qo‘llanmadir. Har bir o‘quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir. Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o‘quv fanlari yuzasidan darsliklari ham tuziladi. Masalalar va mashqlar to‘plami, xrestomatiyalar, atlaslar, lug‘at kitoblari v.x.k. lar shular jumlasidandir.

O‘quvchilar darslik va darsliklari bilan ham darsda, ham uy sharoitlarida mustaqil ish olib boradilar. Darslik materiali katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. U bilan ishlash o‘quvchilarning aqliy tarbiyasiga, ulardagi ilmiy dunyoqarashning, axloq-odobning shakllanishiga, tafakkuri va nutqining, ishdagi mustaqilligining rivojlanishiga yordam beradi. Maktab islohati va xalq ta‘limini qayta kurish darslik yaratuvchilari oldiga bir qator talablar qo‘yadi:

Har qaysi o‘quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga hamda shu sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan darajada bo‘lishi kerak. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g‘oyaviy yo‘nalishi tizimli va izchil bo‘lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo‘lishi, ular to‘g‘ri tahlil, aniq ta‘rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi hamda shu orqali o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta‘kidlashi lozim. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Darslikda bayon qilinayotgan materialning xarakteriga bog‘liq holda tegishli qoida va ta‘riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo‘lishi, ba‘zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.

Umumiy o’rta ta’lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o’rta ta’lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlat-jamoatchilik nazorati — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq ta’limi boshqaruvi

organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Umumiy o’rta ta’lim muassasasi o’quvchilarining bilimi sifatini nazorat qilishning reyting tizimi tartibi O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat ta’lim standarti talablarining bajarilmaganligi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq umumiy o’rta ta’lim muassasasi rahbariyatiga yuklanadi.

Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo’yicha malaka talablari

I-bob. Umumiy qoidalar

1-§. Qo’llanish sohasi

1. Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari bo’yicha malaka talablari (keyingi o’rinlarda — Malaka talablari deb ataladi) umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarining negizi hisoblanadi va standartlashtirishning umumta’lim fanlarini o’rganishning bosqichlarini, o’quv fanlari bo’yicha ta’lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilaydi.

2. Malaka talablari ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari hamda umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim faoliyati bilan shug’ullanuvchi yuridik shaxslar tomonidan qo’llanilishi majburiydir.

3. Malaka talablari asosida ta’lim muassasasining turi va xususiyatlarini inobatga olgan holda o’quv dasturlari, davlat attestatsiyasi uchun umumta’lim fanlari bo’yicha nazorat-baholash ko’rsatkichlari

ishlab chiqiladi va vakolatli vazirliklar, idoralar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

2-§. Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida umumta’lim fanlarini o’rganish bosqichlari

4. O’zbekiston Respublikasi umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida davlat ta’lim standartlariga asoslangan holda umumta’lim fanlarini o’rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Tayanch kompetensiyalar

- **Kommunikativ kompetentsiya** — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o’zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
- **Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi** — mediamanbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, edia madaniyatga ega bo’lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.
- **O’zini o’zi rivojlantirish kompetentsiyasi** — doimiy ravishda o’z-o’zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o’qib-o’rganish, kognitivlik ko’nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, nazarda tutadi.
- **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi** — jamiyatda bo’layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o’zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo’lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

➨ **Milliy va umummadaniy kompetentsiya** — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo’lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog’lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

➨ **Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo’lish hamda foydalanish kompetentsiyasi** — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o’qiy olish, inson mehnatini engillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetentsiyalar umumta’lim fanlari orqali o’quvchilarda shakllantiriladi.

Bundan tashqari, maktablarda yoshlarga ilmiy bilimlar berilmasdan ularga turmushda zarur bo‘lgan xalq hunarmandchiligi, tabobat asoslari, odob-axloq yo‘nalishlaridagi fanlarni ko‘proq o‘qitish talab etilmoqda. Maktablarda “Odobnoma”, “Islom tarixi va madaniyati” ni o‘qitilishi joriy etilgan.

Xalq ta‘limidagi bunday jumboqlarning ijobiy echimi, jamiyatga, o‘quv–tarbiya ishiga katta foyda keltirishi tabiiy.

Ta‘lim mazmuni o‘quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

V-bob. PEDAGOGIKANING DOLZARB YO‘NALISHLARI

Pedagogikaning dolzarb muommolari

Pedagogikaning asosiy muommolari inson tarbiyasi, uni tashkil etish prinsplari, yo‘llari usullari va formalarini o‘rganishdan iboratdir. Demak, pedagogika inson tarbiyasi bilan shug‘ullanar ekan, u falsafaning olam va odam orasidagi o‘zaro aloqadorlik qonuniyatlariga asoslanishi lozim. Har qanday pedagogik tadqiqot, izlanishlar, tarbiya sohasidagi g‘oyalar ana shu metodologiya asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yoki qisqa qilib aytganda pedagogikaning metodologik asosi falsafaning dialektik konsepsiyasidir.

Pedagogik muammolarni o‘rganishda shu ta‘limot, ishonchli metodologik asos vazifasini bajaradi. Xuddi shuning uchun ham, har qanday pedagogik muammoni o‘rganishda quyidagi dialektik prinsiplarga asoslanish zarur:

1. Yaxlitlik prinsipi. Pedagogika jarayonlarni o‘rganishda yaxlitlik prinspiga amal qilinganda inson tarbiyasi masalalarini to‘g‘ri tahlil qilishda muvafakiyatlarga erishish mumkin. Maslan: Ta‘lim jarayoni yaxlit pedagogik jarayon sifatida o‘rganishgina inson tarbiyasi muammosini to‘g‘ri berishi mumkin. Shuningdek, ta‘lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida insonni shakllantirish masalasi hal etiladi. Maktabgacha tarbiya, umumiy ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim – insonni tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi.Bular orasidagi aloqadorlikni yaxlit tassavvur qilish va o‘rganishgina ta‘lim tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta‘minlashi mumkin. Aks holda ta‘lim - tarbiya

bo‘g‘inlari har biri o‘zicha ish ko‘radigan bo‘lsa, ta‘lim - tarbiya tizimi komil insonni shakllantirish muammosini to‘g‘ri hal eta olmaydi.

2. Tizimlilik prinspi. Bu prinsip yordamida, eng avvalo ta‘lim va tarbiya jarayonini bir butun tizim deb qaraladi. O‘sha bir butun tizimni tashkil etgan asosiy elementlar, komponentlar alohida olib tahlil qilinadi.Har bir element yoki komponent bajaradigan funksiya aniqlab beriladi. Shuningdek, tizim ichida yana alohida tarkibiy qismlar, borligi inobatga olinadi. Xuddi shu asosida ta‘lim - tarbiya jarayonining quyidan tortib, yuqori pog‘onasigacha, har bir etapda bu prinspga amal qilinishi lozim.

3. Sababiyat prinspi. Bu prinsip tasodif yoki zaruriyat,imoniyat va voqelik kabi kategoriyalar orqali ochib beriladi. Har qanday ijtimoiy tuzum tarbiya sohasida o‘z manfaati yo‘lidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni zaruriyat qilib qo‘yadi. Ushbu zaruriyat esa ba‘zi imkoniyatlarni mavjud bo‘lishini talab qiladi. Imkoniyat-larni etarli yoki etarli emasligi tarbiyaning maqsad va vazifalarini ro‘yobga chiqarishni ta‘minlaydi. Imkoniyatlarni hisobga olmasdan qilingan har qanday harakat tarbiya sohasida katta xatolarning kelib chiqishiga olib keladi. (Masalan: maktablarni ixtisoslashtirish sohasidagi harakatlar, 6-yoshlilarni o‘qitishga yoppasiga o‘tish va hakozolar imkoniyatlarni hisobga olinmasligi oqibatida biror bir natija bermadi).

4. Tarixiylik prinsipi. Bu prinsip har qanday pedagogik tadqiqotlarda tarixiylikka asoslanishni taqozo qiladi.Tarixiy ma‘lumotlar xronologik izchillikka o‘rganilishi va bayon qilinishi ob'ektiv xulosalar chiqarish-ga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tadqiqotlarni amalda oshirishda falsafa fani va uning dialektik konsensiyasiga asoslanish zarur.

Har qanday fanning falsafa bilan bog‘liqligi bu bilan tugamaydi. Hozirgi zamon fanining ma‘lumotlari falsafaning rivojlanishi uchun baza bo‘lib xizmat qiladi: faktlar, qonunlar har qanday fanning nazariyasi - falsafaning asosiy dalilidir.

Biz shunday davrda yashayapmizki, bu davrda fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada rivojlanmokda va shular asosida qiziqarli ilmiy kashfiyotlar vujudga kelmokda.Shuning uchun bugungi kunda tarbiyani pedagoglar, filosoflar, psihologlar va sosiologlar, gigienistlar va boshqalar birgalikda o‘rganmoqlari lozim. Lekin bular orasida pedagogika hal qiluvchi o‘ringa ega. Pedagogka fani faqat pedagogik tadqiqotnigina emas, balki bolalarning rivojlanishi, shaxsning shakllanishini o‘rganuvchi boshqa fanlar uchun ham qimmatlidir. Tarbiya yosh avlodni jamiyat hayotiga tayyorlash vositasidir. Tarbiyaviy jarayon jamiyatning shaxsga qo‘yadigan talablari bilan amalga oshiriladi.Bularning hammasi muhim pedagogik qonunlarni belgilashga asos bo‘ladi: Jamiyatning rivojlanishining o‘zi ijtimoiy tarbiya va shaxsiy o‘z - o‘zini tarbiyalash bilan kelishadi, ya‘ni uni to’g’irlaydi. Shunday ekan ijtimoiy rivojlanish qonunlarini, ya‘ni yangi mustaqil respublikadagi hayotning o‘zgarishi, jamiyatning insonlarga qo‘ygan talablari va boshqalarni bilmasdan yosh avlodni tarbiyalashni to‘g‘ri tashkil qilish mumkin emas. Ijtimoiy rivojlanishni boshqarish uchun demak tarbiyaviy vazifalarni ham echish kerak. Albatta tarbiya jarayonining maqsadi sharoitlari, ob’ekti, shuningdek shaxs shakllanishining vositalari yo‘l va metodlarini jamiyat belgilaydi. Jamiyat haqidagi hamma fanlar kompleksini bilmasdan turib, pedagogika o‘z muammolarini hal eta olmaydi. Konkret pedagogik tadqi-qotlar uchun falsafiy qarashlar muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham falsafa faqat

pedagogikaning metodologik asosigina bulib kolmasdan, uning butun fanlar ma‘lumotlaridan foydalanishga imkoniyat yaratadi, uni xatoliklar va noto‘g‘ri ilmiy- tekshirishdan saklaydi.

Hozirgi davrda pedagogikaning dolzarb muammolari

1. Tarbiyaviy jarayonning mohiyati va qonuniyatlari:

2. Shaxs axloqiy irodaviy sifatlarini shakllantirishning yo‘llari, xususan ongli, mehnatga munosabat, vatanparvarlik, javobgarlik, burchni sevish, pok vijdon kabi milliy hamda umuminsoniy sifatlarni shakllantirish.

3. Shaxsni shakllantirishning umumiy asoslari ta‘limni mehnat amaliyoti bilan bog‘lash, aqliy, jismoniy va mehnat, estetika va mavkuraviy, ijtimoiy va individual sifatlarin shakllantirish.

4. Tarbiya va o‘z- o‘zini tarbiyalash, tarbiya va qayta tarbiyalash va xaqozo.

5. O‘quvchilarni tug‘ma qobilyat va mahoratlarini aniqlash va rivojlantirsh, ta‘limga individual yondashish.

6. Bolaning har - xil yoshdagi sifatlarini, motiv va qiziqishlarini aniqlash, ularning tarbiyachilarga ota - onalariga, tengdoshlariga, kattalarga munosabatlarini, o‘z - o‘zini tarbyalashlarini o‘rganish.

7. Tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishining samarali yo‘llarini izlash.

8.O‘qituvchi ta‘siri xulqidagi etika va estetika.

9. Bolalar jamoasini shakllantirishning samarali yo‘llari.

10. Bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish ularning aqliy faolligini rivojlantirish.

11. O‘quv ishining samarali yo‘l va usullarini izlash.

12. Bolani oilada va maktabda tarbiyalashning yagona tizimini yaratish va h.

Ilmiy tadqiqot uchun quyidagilar muhim.

1). Muhim ilmiy tushuncha va tasavvurlarni bilish.

2). Faktlar, hodisalarni aniq yozib borish.

3). Bir - biriga o‘xshash faktlarni ularning muhim belgilariga ko‘ra tanlash.

4) Faktlarni umumiy qoidalarga muvofiq belgilariga ko‘ra gruhlash.

5) Fakt va hodisalarni tahlil qilish, ularning umumiy, alohida, muhim va ikkinchi darajalarini ajratish.

6) Fakt va hodisalarni taqqoslash, ularning o‘xshashlik va farqlarini, tasodifiy yoki qonuniylarini topish.

7). Tushunchalarni aniq belgilash, chunki tushuncha ilmiy bilishning fanga erishilgan darajasini aniqlash pog‘onasi.

8). Isbot va rad qilishlarni ilmiy diskussiya va ma‘lum fandagi har xil tadqiqotlardagi qarashlar asosida ko‘rsatish.

9). Rivojlanish tendensiyasini ko‘ra bilish.

10). Ilmiy xulosa.

Ilmiy tadqiqotning eng muhim tarkibiy elementlari katoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. **Tadqiqot predmeti** (yoki ob’ekti), ya‘ni nima o‘rganiladi (sifatning shakllanishi: uning boshqa sifatlar bilan aloqasi, hodisa yoki jarayonning harakteristkasi, ma‘lum yoshdagi, ma‘lum muhitdagi bola tarbiyasining tashqi va ichki omillari, tendensiyasi, sharoit va mohiyatini aniqlash).

2. **Tadqiqotning maqsadi**, ya‘ni tadqiqotning predmeti nima uchun o‘rganiladi.(tarbiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, tadqiqot mavzusi yuzasidan yangi ilmiy informatsiyalarini topish, amaliy ishlar natijasini tahlil qilish,va boshqalar).

3. **Tadqiqotning vazifasi**, yangi o‘rganilayotgan ilmiy muammoni tekshirishning predmetga muvofiq maqsadini konkretlashtirish. Maqsad fanning umumiy holatiga ko‘ra pedagogik nazariyaning rivojlanishi zaruriyati belgi-lanadi.Tadqiqotning vazifasi faqat maqsaddan kelib chikibgina qolmay, maktabda tadqiqot ishlarini hisobga olish sharoitlari, tadqiqotning imkoniyatlari, amaliyot tajribalaridan kelib chikadi.

4. **Tadqiqotning dastlabki konsepsiyasi**, tadqiqotchi o‘z ishiga asos qilib oladigan nazariy qoida-lar.Tadqiqotchining tayanch pozisiyasi - fanning holatini chukur tahlil qilish natijasida, adabiyotlardagi eng muhim umumiy g‘oyalarini ko‘rsatish, qoida va tavsiyalar. Dastlabki konsepsiya fanda nima ma‘lum, hamma tomondan tan olingan, qaysi masalalar bo‘yicha alohida qarashlar yo‘q, nima (ma‘lum) kam o‘rganilgan, fanda qaysi savollarga javoblar yo‘q kabilarni aniqlashga yordam beradi..Bu esa tadqiqotning maqsadi va vazifalarini aniqlashga, gepotezalar ishlab chiqishga yordam beradi.

5. **Ilmiy gipoteza**, ya‘ni o‘rganilayotgan jarayon, hodisa qanday boradi, ma‘lum sifat shakllanishi bilan bolada qanday o‘zgarishlar bo‘ladi, jarayonning borishi nimaga bog‘liq bo‘ladi va hakozolarni taxmin qilinmoqda. Gipoteza ongda bajaraladigan o‘ziga xos tadqiqot. U tadqiqot boshlanmasdan oldin ilmiy xodim tomonidan ishlab chiqiladi.

6. **Tadqiqot metodikasi** - tadqiqot vazifalari bajarilishiga yordam beradigan, ilmiy gipotezalarni tekshirishga, ishonchli ilmiy faktlarni olishga yordam beradigan priyom, yo‘l va usullar ro‘yxati.

7. **Ishlab chiqarilgan tadqiqot metodlari** sohasida ilmiy faktlar olish va ularni analiz qilish - pedagogik tadqiqotning natijalarini oilada va maktabda olib borilgan tarbiya natijalaridan ajratish va tadqiqot

ishlarining mazmuni bilan bolalarning tarbiyalanganligini o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish.

8. **Ilmiy konsepsiyani ishlab chiqish**, ya‘ni tadqiqot natijasida olinganlarning muhimmlarini ajratish, pedagogik nazariya uchun g‘oya va xulosalar chiqarish.

9. **Tadqiqot natijalarini amaliyotda qo‘llash** - bu ishning yakuniy etapining muhim elementi. Unda konkret metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi, metodik qo‘llanmalar yaratiladi, tadqiqotchining pedagogik g‘oyalarini ommaviy qo‘llash uchun targ‘ibot qilinadi.

Har qanday pedagogik tadqiqot o‘z ichiga yuqoridagi izchillikni olishi va bu tarkibiy qismlar orasida uzviy bog‘liqlik bo‘lishi lozim.

Pedagogik tadqiqotlarda asosan quyidagi yo‘nalishlar bo‘lishi mumkin.

1. Tarbiya nazariyasi.
2. Didaktika.
3. Oliy maktab pedagogikasi.
4. Pedagogik psixologiya.
5. Oila pedagogikasi, kasbga yo‘llash, chet el pedagogikasi va boshqalar.

Tadqiqotning asosiy predmetlari qilib quyidagilarni olish mumkin.

1. O‘qituvchi (yoki ota- ona) faoliyati.
2. Pedagogik jamoa (yoki oila) faoliyati.
3. Bolalar jamoasi faoliyati.
4. Jamoatchilik ishlari (ishlab chiqarish, turar joylardagi maktabdan tashqari muassasalari, klublar, madaniyat uylari va hakozolar).
5. Bolalarning o‘z faoliyati.
6. Tarbiyaviy jarayon ob'ekti va sub'ektining o‘zaro ta‘siri.

Hozirgi kunda pedagogika fani faqat yosh avlodni shakllantirish uchungina muhim bo‘lib qolmay, balki uning roli jamiyatning hamma sohalarida muhim bo‘lmokda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda yoki halq xo‘jaligining biror - bir sohasida kompleks tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llamasdan turib biror bir natijaga erishish mumkin emas. Jamiyatda juda ko‘p umumiy, iqtisodiy va tashkiliy muammolar bir vaqtda u yoki bu jihatdan tarbiyaviy muammolar ham bo‘lib kolmokda. Insoniyat faoliyati orkali bo‘ladigan munosabatni 2 ga bo‘lish mumkin.

Hozirgi davrda pedagogikaning metodologik muammolari ayniksa o‘tkir tus oladi. O‘zbekiston Respublikasining istiqloli munosabati bilan istiqlol mafkurasi shakllandi. Juda boy ilmiy, ma‘naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklaniish ularni zamon ruhi talabi bilan uyg‘unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb yetilib qolmasdan umumjahon ma‘naviy, ijgimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilishini ta‘minlash bugungi pedagogikaning vazifasidir. Chunki jahonda hali xorijiy davlatchilik bozor iqtisodiyotiga o‘tish tajribalarida ma‘naviyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan uyg‘un holda rivojlantirilmayapti. Prezidentimiz ma‘naviyatni aql, axloq, ongli amaliy faoliyatda shakllaiib rivojlanishi haqida gapirib:" Ma‘naviyat - taqdirning ehsoni emas. Ma‘naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak”, degan edilar.

Xozirgi taraqqiyot tarbiyaning muhim masalalarini birinchi planga qo‘ymokda, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, ta‘limning mazmunini milliylashtirish, uni takomillashtirish, ta‘limning tashkiliy shakl va metodlarini takomillashtirish, nazariy va amaliy masalalarini hal qilishga yangicha yondashish, metologik muammolar ustida ko‘proq fikr yuritishni

talab qilmoqda. Umumiy ma‘lumot muammosi hozirgi davrdagi eng muhim muammolaridan biridir, bu uning hozirgi davr talabiga javob berishi milliyligi, umuminsoniy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilish, o‘quv materiallarini tashkil qilish va tanlash prinsplariga mos bo‘lishi kabilardir. Bular ilmiy bilimlarning ko‘payib borayotgan hajmi bilan maktabda ularga o‘rganish sharoitlari o‘rtasidagi ziddiyatni yo‘qotishga yordam beradi. Ta‘lim - tarbiya metodlari, tajribalarni tushinish va unga ijodiy yondoshish, ta‘limning tashkiliy shakllari, vositasita va usullarining nazariy asoslanish, uni boshqarish va mantiqiy to‘zilmasi ko‘pincha o‘qituvchining metodologik tayyorgarligiga bog‘liq.

Tushuncha deb, muayyan bir narsa yoki hodisaning eng umumiy va muhum hususiyatlarni, belgi va qirralarini ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasiga aytiladi.

Tushunchalar narsa va hodisalarni obyektiv hususiyatlari hamda ulardagi qonuniyatlarini to‘la aks ettirishi lozim. Ilmiy faoliyat, hali ma‘lum bo‘lmagan qonuniyatlarni,ya‘ni yangi bilimlarni aniqlab berish bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun, asosiy tushunchalar talqinini “bilim” degan tushunchaga ta‘rif berishdan boshladik.

Bilim bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog‘liqlikdir. Bu bog‘liqlik narsa va xodisaning tabiatan, ya‘ni tadrijidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o‘zi mavjud. Shuning uchun xam uni qonuniyat, deb yuritiladi.

Bilim - narsa yoki xodisaning xususiyati, ichki qonuniyatidan kelib chiqib, qoidalar umumiy ta‘rif, tushuncha va atamalar shaklida namoyon bo‘ladi.

Narsa va xodisalarning qandaydir xususiyati yoki ularni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi zaruriy bog‘liqlikni kishi tafakkuri orqali his qilishlik egallashlik – bilish deyiladi. Bilish jarayoni aqliy safarbarlik orqali tafakkur faoliyati natijasida sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma‘qullangan. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son, 11-BOB, 75- moda

Ushbu boblar:

1-bob. Umumiy qoidalar(1-5)

2-bob. Ta‘lim tizimi, turlari va shakllari (6-22)

3-bob. Ta‘lim tizimini boshqarish(23-28)

4-bob. Ta‘lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish(29-43)

5-bob. Ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi (44-46)

6-bob. Ta‘lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari(47-51)

7-bob. Ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish (52-56)

8-bob. Nodavlat ta‘lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta‘lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish. Xorijiy davlatda olingan ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatni tan olish, ta‘lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo‘yish (57- 61)

9-bob. Ta‘limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash (62-66)

10-bob. Ta‘lim sohasidagi xalqaro hamkorlik (67-69)

11-bob. Yakunlovchi qoidalar (70-75)

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

2-modda. Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

3-modda. Asosiy tushunchalar

4-modda. Ta‘lim sohasidagi asosiy prinsiplar

5-modda. Ta‘lim olish huquqi

2-bob. Ta‘lim tizimi, turlari va shakllari

6-modda. Ta‘lim tizimi

7-modda. Ta‘lim turlari

8-modda. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya

9-modda. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim

10-modda. Professional ta‘lim

11-modda. Oliy ta‘lim

12-modda. Oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim

13-modda. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

14-modda. Maktabdan tashqari ta‘lim

15-modda. Ta‘lim olish shakllari

16-modda. Masofaviy ta‘lim

17-modda. Dual ta‘lim

18-modda. Oilada ta‘lim olish va mustaqil ta‘lim olish

19-modda. Katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta‘lim berish

20-modda. Inklyuziv ta‘lim

21-modda. Eksternat tartibidagi ta‘lim
22-modda. Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash

3-bob. Ta‘lim tizimini boshqarish

23-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta‘lim sohasidagi vakolatlari
24-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta‘lim sohasidagi vakolatlari
25-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining ta‘lim sohasidagi vakolatlari
26-modda. Ta‘lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari
27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta‘lim sohasidagi vakolatlari
28-modda. Ta‘lim tashkilotini boshqarish

4-bob. Ta‘lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish

35-modda. Ta‘lim jarayoniga o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini joriy etish
36-modda. Ta‘lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat
37-modda. Ta‘lim tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi
38-modda. Ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish
39-modda. Davlat ta‘lim muassasalariga o‘qishga maqsadli qabul qilish
40-modda. Ta‘lim to‘g‘risidagi hujjat

41-modda. Ta‘lim tashkilotlarining reytingi
42-modda. Ta‘lim tizimidagi monitoring
43-modda. Ta‘lim sohasidagi davlat nazorati

5--bob. Ta‘lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi

44-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi
45-modda. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari
46-modda. Pedagog xodimlarning majburiyatlari

6-bob. Ta‘lim oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari

47-modda. Ta‘lim oluvchilarning huquqlari
48-modda. Ta‘lim oluvchilarning majburiyatlari
49-modda. Ta‘lim oluvchilarning kiyim-boshiga nisbatan qo‘yiladigan talablar
50-modda. Ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim oluvchilarni vaqtincha yashash joylari bilan ta‘minlash
51-modda. Voyaga yetmagan ta‘lim oluvchilar ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari

7-bob. Ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish

52-modda. Ta‘lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish
53-modda. Ta‘lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish

54-modda. Yetim bolalarni va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni o‘qitish va ularning to‘liq ta‘minoti
55-modda. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish hamda tarbiyalash
56-modda. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan bolalarni (shaxslarni) o‘qitish va tarbiyalash

8-bob. Nodavlat ta‘lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta‘lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish. Xorijiy davlatda olingan ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatni tan olish, ta‘lim sohasidagi hujjatlarga apostil qo‘yish

57-modda. Nodavlat ta‘lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash
58-modda. Ta‘lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish
59-modda. Ta‘lim tashkilotlarining faoliyatini ichki va tashqi baholashdan o‘tkazish
60-modda. Xorijiy davlatda olingan ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatni tan olish
61-modda. Ta‘lim sohasidagi rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish

9-bob. Ta‘limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

62-modda. Ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirish
63-modda. Ta‘limni rivojlantirish jamg‘armalari
64-modda. Ta‘lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik
65-modda. Ta‘lim sohasiga investitsiyalarni jalb etish

66-modda. Ta‘lim tashkilotlarining mol-mulki

10-bob. Ta‘lim sohasidagi xalqaro hamkorlik

67-modda. Ta‘lim tashkilotlarining xalqaro hamkorligi

68-modda. Ta‘lim sohasidagi xalqaro hamkorlik

69-modda. Xorijda ta‘lim olish

11-bob. Yakunlovchi qoidalar

70-modda. Nizolarni hal etish

71-modda. Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

72-modda. O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish

73-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta‘minlash

74-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

75-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ta’limning o‘z ichiga maktabgacha ta'lim, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi barpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta’limining bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va Doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha raqobatbardosh ta’lim muassasalari vujudga keltiriladi. Ta’lim muassasalarini hududiy yo‘nalishga o‘tkazish va tarkibiy tuzilmasini o‘zgartirish ishi amalga

oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash
monitoringi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta’minlanadi

Maktabgacha ta’lim, 6 -7 yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va boshqa ta’lim
muassasalarida olib boriladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim

Boshlang‘ich ta’lim (1-4 sinflar), umumiy o‘rta ta’lim (1-9 sinflar). Boshlang‘ich ta’lim O‘zbekistonda majburiy, bepul va barchaga taaluqli hisoblanadi. Umumiyo‘rta ta’lim kerakli bilim hajmi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tashkiliy mahorat va amaliy tajriba poydevorini qo‘yib, boshlang‘ich professional yo‘nalishni va ta’limning keyingi pog‘onasini tanlashda ko‘maklashadi.

Profisanal ta’lim

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi kunduzgi ko‘rinishda ikki yo‘nalishda akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda amalga oshiriladi.

Oliy ta‘lim

Universitetlar, akademiyalar, institutlar.

(Bakalavriat, magistratura)

Universitet	Akademiya	Institut
Oliy va undan keyingi ta’lim uchun ta’limni bir nechda yo‘nalishda beradi.	Ta’lim sohasida belgilangan oliy va oliy ta’limdan so‘nggi ta’lim.	Oliy va oliy ta’limdan keyin o‘quv dasturlarini bajarishni ta’lim va fanning ma’lum bir me’yorida amalga oshiradi.
Turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi.	Belgilangan tartibda mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi.	Mutaxassislarni ma’lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi.
Fanning turli yo‘nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi.	Fan, madaniyat, san’at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi.	Fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.
Ilm sohasiga bog‘liq metodik markaz hisoblanadi.	O‘z faoliyati doirasida yetakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.	

Oliy o‘quv yurtidan keyin ta‘lim

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti. Mustaqil izlanuvchilik. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni oliy o‘quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida olish mumkin. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi. Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko‘ra fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi hizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi;

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Uzliksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, faoliyat ko'rsatish muhitini o'z iciga oladi;

Fan –yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Ishlab chiqarish –kadrlarga bo'lgan ehtiyojini, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi

2.Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

 davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

 ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;

 ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxona, muassasa va tashkilotlar.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi yagona va yaxlitdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

 maktabgacha ta‘lim;
 umumiy o‘rta ta‘lim;
 maktabdan tashqari ta‘lim;
 o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi;
 oliy ta‘lim;
 oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim;
 malaka oshirish va kadrlarni qayta tayorlash.

Ta‘limni boshqarish organlari

Ta‘lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta‘lim muassasasi, Toshkent Islom Universiteti va xalqaro mashhur xorijiy OTMlari (MDU, Westminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI VAKOLATLARIGA QUYIDAGILAR KIRADI:

- ✓ta‘lim sohasida yagona davlat siyosatini olib borish;
- ✓davlat ta‘lim boshqaruv organlariga rahbarlik qilish;
- ✓ta‘limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ✓ta‘lim muassasalarini yaratish, qayta tashkil etish va bekor qilish tartiblarini belgilash;
- ✓ta‘lim muassasalari akkreditatsiyasi, pedagogik va ilmiy kadr lar attestatsiyasi tartiblarini belgilash;
- ✓boshqa davlatlar ta‘lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi hududida
- ✓ta‘lim ko‘rsatish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

- ✓ qonunchilikka mos ravishda xorijiy davlatlarning ta‘lim haqidagi hujjatlarini
- ✓ tan olish tartibini belgilash va teng-kuchli ekanligini o‘rnatish;
- ✓ davlat ta‘lim standartlarini belgilash;
- ✓ davlat namunasidagi ta‘lim hujjatlarini va ularning berilish tartibini belgilash;
- ✓ ta‘lim muassasalariga qabul tartibi va davlat grantlari miqdorini belgilash;
- ✓ davlat oliy ta‘lim muassasalari rektorlarini tayinlash;
- ✓ ta‘lim olayotganlarni bir akkreditatsiyalangan ta‘lim muassasasidan boshqasiga
- ✓ o‘tkazish tartibini belgilash;
- ✓ qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vakolatlar.

Ta‘lim tizimi va turlari

Davlatimiz fuqarolarining bilim olishlari O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. O‘zbekiston Respublikasi yoshlar tarbiyasida ta‘lim muxim ahamiyat kasb etadi. Vatan ostonadan boshlanganidek, bolalarimiz ta‘lim-tarbiyasi oiladan boshlanadi. Demak, kelajak avlodimiz har taraflama yetuk, sog‘lom, bilimli, o‘z vataniga sadoqatli bo‘lib yetishishi uchun har birimiz mas’ulmiz.

Umumiy ma'lumot. O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim tizimi quyidagilardan iborat:

 davlat ta‘lim standartlariga muvofiq ta‘lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta‘lim muassasalari;

 ta‘lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;

 ta‘lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxona, muassasa va tashkilotlar. O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tizimi yagona va yaxlitdir. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta‘lim;
- umumiy o‘rta ta‘lim;
- o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi;
- oliy ta‘lim;
-oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim;
- malaka oshirish va kadrlarni qayta tayorlash;
- maktabdan tashqari ta‘lim.

Ta‘limni boshqarish organlari. Ta‘lim tizimining umumiy boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi alohida oliy ta‘lim muassasasi, Toshkent Islom Universiteti, shuningdek xalqaro mashhur xorijiy OTMlar ***(MDU, Westminster Universiteti va hokazo) filiallarini bevosita boshqaradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kompetentsiyasiga quyidagilar taalluqli***

 ta‘lim sohasida yagona davlat siyosatini olib borish;

 davlat ta‘lim boshqaruv organlariga rahbarlik qilish;

 ta‘limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

 ta‘lim muassasalarini yaratish, qayta tashkil etish va bekor qilish tartiblarini belgilash;

 ta‘lim muassasalari akkreditatsiyasi, pedagogik va ilmiy kadrlar attestatsiyasi tartiblarini belgilash;

 boshqa davlatlar ta‘lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi hududida ta‘lim ko‘rsatish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

 qonunchilikka mos ravishda xorijiy davlatlarning ta‘lim haqidagi hujjatlarini tan olish tartibini belgilash va teng-kuchli kanligini o‘rnatish;

 davlat ta‘lim standartlarini belgilash;

 davlat namunasidagi ta‘lim hujjatlarini va ularning berilish tartibini belgilash;

 ta‘lim muassasalariga qabul tartibi va davlat grantlari miqdorini belgilash;

 davlat oliy ta‘lim muassasalari rektorlarini tayinlash;

 ta‘lim olayotganlarni bir akkreditatsiyalangan ta‘lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibini belgilash;

VI-bob. TA‘LIM METODLARI VA VOSITALARI

Ta‘lim metodlarida **«Metod»** so‘zining yunoncha tarjimasi «Tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo‘li» kabi ma‘nolarni anglatadi. Filofosiya lug‘atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «Maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Ayni vaqtda pedagogik manbalarda «ta‘lim metodi» tushunchasiga berilgan ta‘riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Shuningdek, ta‘lim metodlarining o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar ham mavjud.

Ta‘lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo‘ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatining o‘zaro tutashuvi, o‘qitish va o‘qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo‘lmaydi, buning boisi ta‘lim metodi o‘zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi».

1. Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to‘laqonli yorituvchi ta‘rifni aniqlashga bo‘lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta‘riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta‘lim metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o‘zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar «Ta‘lim metodlari o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari» degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta‘lim metodlari ta‘lim jarayonida qo‘llanilib, uning samarasini ta‘minlovchi usullar majmuidir.

Ta‘lim metodlari ta‘lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta‘lim mazmunini o‘zlashtirish yo‘llari ifoda etiladi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi. Metod, bir tomondan, ta‘lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o‘qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta‘lim metodlari doimo u yoki bu o‘qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o‘zaro shartlanganligini ta‘kidlash joiz.

Chizmadan anglanib turibdiki, ta‘lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta‘lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o‘qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta‘lim maqsadi o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta‘lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo‘naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta‘lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

Bu funktsiyalar ta‘lim metodini qo‘llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o‘zaro singib ketadi. Misol uchun, tashhisli funktsiya o‘qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

«Ta‘lim metodi» atamasi bilan birga ko‘p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo‘llaniladi. U ta‘lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta‘riflanadi. Har bir ta‘lim

metodi muayyan ta‘lim usullarini chog‘ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o‘qituvchi faoliyatida tez-tez qo‘llaniladigan usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Har bir metod ma‘lum ta‘limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo‘lishi mumkin. Universal ta‘lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta‘lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

Didaktik jarayon tuzilmasiga ko‘ra ta‘lim metodlari quyidagi uch guruhga ajratiladi:



Yuqorida ko‘rsatilgan metodlar quyidagi tarzda ham nomlanadi:

1. O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
2. O‘quv-bilish faoliyatini rag‘batlantirish va motivlash metodlari.
3. Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlari.

O‘quvchiga bilimlarni etkazish shakliga ko‘ra ta‘lim metodlari:

1. Og‘zaki bayon qilish metodlari.
2. Ko‘rgazmali metodlar.
3. Amaliy metodlar kabi turlarga ham ajratiladi.

Ta‘lim metodlari tizimida muhim o‘rin tutadigan **og‘zaki bayon qilish metodlari**ning o‘zi ham quyidagi turlarga ajratiladi:



Og‘zaki bayon qilish metodlari o‘quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Ugbu metodlar o‘quvchining nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya o’qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo’lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo’li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi

Metodning samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining nuqt mahorati, so‘zlarni o‘z o‘rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o‘quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog‘liq. Shu bois hikoya mazmuni o‘quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O‘qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg‘u berishga

e’tiborni qaratadi. Hikoya qisqa bo‘lishi hamda o‘quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg‘otishi kerak.

Suhbat savol va javob shaklidagi dialogik ta’lim metodi

Suhbat metodi fanga qadimdan ma‘lum, xatto undan o‘z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta‘lim jarayonida ko‘p funktsiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o‘quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o‘qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan o‘qituvchi uchun murakkab ta‘lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta‘minlash ko‘p vaqt talab etadi, uni tashkil etish da esa barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O‘qituvchi oddiy savollar berishi, o‘quvchilarga ular yuzasidan batafsil o‘ylash uchun vaqt ajratishi, o‘quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o‘rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo‘l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o‘quvchilarga oldindan ma‘lum bo‘lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o‘quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat ko‘proq o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi.

Suhbat turli ko‘rinishlarda, ya‘ni, **kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat** tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbati o‘quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etish dan ko‘zlangan maqsad hal etilishi zarur bo‘lgan ishlar mohiyatining o‘quvchilar tomonidan anglab etilganligini tekshirib ko‘rishdan iborat.

Yakuniy suhbat o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim darajasi va ularning yangi mavzuni o‘zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun dars avvalida yoki so‘nggida qo‘llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo‘naltiriladi. Savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, ular o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta‘minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga rag‘batlantirsin.

Tushuntirish o‘quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo‘llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o‘rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o‘quv materialining bir qadar qiyin o‘rinlariga alohida urg‘u berilib, mazmuni ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko‘p hollarda

o‘qituvchining ko‘rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’ruza yirik hajmdagi o’quv materialini og’zaki bayon qilish metodi sanalib, u qat’iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko’pligi, bilimlar bayonining tizimliligi kabi o’ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi

Ma‘ruza mazmuni murakab tizimlar, hodisalar, ob’ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog‘lanishlari, qonun va qoidalardan tashkil topadi va u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma‘ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi, bir vaqida o‘quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o‘rgata boradi.

Maktab ma‘ruzasining samaradorligini ta‘minlash **shartlari** quyidagilardan iborat**:** ma‘ruza rejasini tuzish; o‘quvchilarni ma‘ruza mavzusi, rejasi bilan tanishtirish; ma‘ruza bandlarini mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etish ; har bir bandini qisqacha xulosalash; ma‘ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o‘tishda mantiqiy aloqadorlikni ta‘minlash; ma‘ruzani muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunja nutq imkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; o‘quvchilarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish; ma‘ruzaning muhim jihatlarini ochib berish; o‘quvchilar ma‘ruzaning asosiy o‘rinlarini yozib borishlariga imkon yaratish; muhim o‘rinlarni ta‘kidlab ko‘rsatish; ma‘ruza mazmunini ko‘rgazmali tarzda (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalardan foydalangan holda) yoritish.

Ta‘lim sifatini oshirishda **ko‘rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega. Ko‘rgazmali metodning quyidagi tur

lari mavjud:



Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko‘rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko‘rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko‘rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta‘minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma‘lum bo‘ladiki, shaxs tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko‘rish retseptorlari yordamida o‘zlashtiriladi. Demak, o‘zbek xalqi tomonidan ko‘p bora qo‘llaniladigan “Yuz marta eshitgandan bir marta ko‘rgan yaxshi” maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o’rganilayotgan ob’ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo’l keladi va ayni chog’da predmetning tashqi ko’rinishi va ichki tuzilishi haqida to’laqonli ma’lumot berishda keng qo’llaniladi

Tabiiy ob’ektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko‘rinishi (shakli, iqdori, rangi, qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari) ga e’tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan ob’ektlarning sub’ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf

taxtasiga chizish yoki o‘qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko‘rsatib berishi hisobiga amalga oshadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko‘proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo‘lavermaydi. Shu bois o‘qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun’iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog‘ida, turli o‘simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun’iy ravishda yaratilgan ob’ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Metod yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil ravishda ob’ektlarni o‘rganish, zaruriy o‘lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o‘rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etish ga bir so‘z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo‘naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko‘p jihatdan o‘qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o‘quvchilarning yoshiga mos holda to‘g‘ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo‘naltirishiga bog‘liqdir.

Tasvirlash (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog‘liq bo‘lsada, didaktikada alohida o‘rganiladi.

Tasvirlash narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko’rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko’rsatishni taqozo etadi

Namoyish va tasvir metodlari o‘zaro bog‘liqlikda bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o‘quvchi yaxlit holda qabul

qilishi zarur bo‘lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Tasvirning samarasi ko‘pincha o‘qituvchi tomonidan ko‘rsatuv texnologiyasi qay darajada o‘zlashtirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o‘rganilayotgan ob’ekt mohiyatini to‘laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o‘rinlarda kerakli hajmda ko‘rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketish i o‘quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg‘itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob’ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

O‘rganilayotgan mavzuning mazmuniga bog‘liq bo‘lgan narsa, hodisa va voqealarni hamma vaqt sinf sharoitida namoyish qilish mumkin bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘tilayotgan mavzuning xarakteriga qarab, **ekskursiya** metodidan ham foydalaniladi. Mazkur metod sinf sharoitida – dars jarayonida qo‘llaniladigan ta‘lim metodlaridan iubdan farq qiladi.

Ekskursiya narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalari, fermer va jamoa xo’jaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, ko’rgazma zallari va hokazolar)da bevosita o’rganilishining tashkil etilishi

Ekskursiya bir vaqtning o‘zida mustaqil ta‘lim turi ham sanaladi.

Ko‘rgazmali metodlardan foydalanishda quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: ko‘rgazmalilikning o‘quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi; namoyish etilayotgan ob’ektlar barcha o‘quvchilarga yaxshi ko‘rinib turishi; namoyishda uning boshlang‘ich

bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi; tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko‘rsatish asosida tashkil etilishi; namoyish va illyustratsiya o‘quv materialining mazmuni bilan uyg‘un bo‘la olishi lozim.

Amaliy ishlar metodi o’zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo’naltirilgan jarayonda qo’llashni taqozo etadi, bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo’llash ko’nikmasi hosil qilinadi

Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o‘qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo‘riqnoma yoki maxsus ko‘rsatmani o‘quvchilar e’tiboriga havola etadi.

Amaliy ishlar metodi o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi: Qayd etilganidek, ushbu metodlar o‘quvchilarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo‘ladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Yozma mashqlar – ta‘limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida

qo‘llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlar jihatlariga ko‘ra yozma ishlarga o‘xshash bo‘lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (ya‘ni geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta‘lim)da keng ko‘lamda foydalaniladi.

Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo‘ladi: mashqlarni bajrishga nisbatan ongli yondashish; bajarish qoidasini bilish; vaqt bo‘yicha takrorlanishning to‘g‘ri taqsimlanishi.

Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat: o‘qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko‘rsatishi; o‘qituvchi nazorati ostida o‘quvchilar tomonidan o‘quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko‘nikma va malakalar shakllangunicha o‘quv harakatlarning ko‘p bora takrorlanishi.

Ayrim holatlarda o‘quvchilar ovoz chiqarib o‘quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo‘ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko‘nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari o‘quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o‘tkazish metodlari bo‘lib, ular ko‘proq tabiiy fanlar asoslarini o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu metod o‘quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko‘rish, o‘lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko‘nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek,

materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o‘lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.

Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o‘quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo‘naltirilgan faoliyatini tashkil etish ga xizmat qiladi. U o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko‘nikmalarini shakllantirish kabi funktsiyalarni bajaradi.

Ta‘lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida o‘qituvchilarning amaliy tajribasini o‘rganish va umumlashtirish asoida ta‘lim metodlarini tanlashga o‘quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog‘liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta‘lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning etakchi g‘oyalari, ta‘lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o‘rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o‘ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o‘ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo‘yiluvchi talablarning o‘zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o‘rganishga ajratilgan vaqt;
- o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;

-o‘quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta‘minlanganlik darajasi, jihozlar, ko‘rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;

-o‘qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;

-o‘quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o‘rnatilganligi.

O‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi.

O‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar

O‘qituvchi tomonidan qo‘llanilayotgan ta‘lim metodlari majmuasi boshlang‘ich sinflardan yuqori sinflarga o‘tish asosida o‘zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo‘llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo‘llashga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi. Ta‘lim metodlaridan foydalanish ko‘lami, holati o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog‘liq holda o‘zgaradi.

Didaktikada munozaralarga sabab bo‘layotgan yana bir muhim ob’ekt ta‘lim metodlarining tasnifidir. «Ta‘lim metodlari tasnifi ularning ma‘lum belgilari bo‘yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o‘nlab ta‘lim metodlari ma‘lum», - ekanligini ta‘kidlagan holda I.P.Podlaso‘y fikrini quyidagicha davom ettiradi, - «Biroq bugungi kunda etakchi sanaluvchi didaktik g‘oya yagona va o‘zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi.

O‘qitish – favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo‘shqin bo‘lishi, metodlarni qo‘llash amaliyotidagi doimiy o‘zgarishlarni hisobga olishi kerak».

Ta‘lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko‘p bo‘lsada, bu borada yagona to‘xtamgan kelinmagan. Ushbu o‘rinda ta‘lim amaliyotida qo‘llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to‘xtalib o‘tamiz.

Bilimlar manbai va materiali sifatida avval egallangan ijodiy ishlar tajribasi, mavjud bilimlar, kuzatuvlar, shaxsiy tajriba, o‘qilgan hikoya, ijtimoiy-foydali ishlarni boshqarish kabilar qayd etiladi.

*Reproduktiv ta‘lim metodlar*i yuqorida keltirilgan metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi: o‘qituvchining bilimlarni tushuntirishi, ularni o‘quvchilarning yodida saqlanishini ta‘minlashi va qayta ishlab chiqishi (reproduktsiya). O‘zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo‘lishiga ularni ko‘a marta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta‘limning barcha bosqichlari, asosan, boshlang‘ich sinflarda o‘qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Reproduktiv metoddan foydalanishda o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

Evristik ta‘lim metodini qo‘llashda o‘qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O‘qituvchi bilimlarning bir qismini o‘quvchilarga ma‘lum qiladi, qolganini esa o‘quvchilar bilish topshiriqlarini echish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o‘zlashtiradi, o‘zlari bilimlarni mustaqil egallashadi. O‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi,

ularni bajarishda o‘quvchilarning ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.

Muammoli metodning mohiyati mashg‘ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va echishdan iborat bo‘lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo‘li shu bilan birga o‘quv yo‘li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:

Muammoli ta‘lim kontseptsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko‘rinishi hisoblanib, o‘zida sub’ektning aniq yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishni taqozo etadi. Agar o‘quvchida qiyinchiliklarni yo‘qotish yo‘llarini izlab topish uchun boshlang‘ich ma‘lumotlar bo‘lmasa, shubhasiz, muammoli vaziyat echimini u qabul qilmaydi, ya‘ni, muammoning echimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib etilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko‘nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o‘zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo echimini topishga yordam beruvchi yo‘nalishlar ko‘rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda echimning qandaydir

parametrlari ko‘rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma‘lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta‘kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo‘la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo‘lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya‘ni, uning echimi uchun o‘zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma‘lum ko‘rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko‘rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo‘yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

Tadqiqotchilik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo‘lgan masalani aniqlab oladi, o‘quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib oladilar va uning echimi bo‘yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O‘rnatilgan masalani echish davomida o‘quvchilar ilmiy bilish metodlarini o‘zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko‘nikmasi, tajribasini egallaydilar.

Evristik va tadqiqotchilik metodlari o‘quvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishni taqozo etadi. Buning natijasida o‘quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma‘lum holatlarda qo‘llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang‘ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o‘qituvchilarning fikrlariga ko‘ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta‘lim tizimiga shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni faol joriy etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat

amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo‘nalishdagi loyihalarni tayyorlash o‘ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda ta‘lim muassasalarida quyidagi ta‘lim shakllaridan samarali foydalanib kelinmoqda: ma‘ruza, seminar, amaliy mushg‘ulot, uchrashuv, taqdimot, sayohat, o‘quv konferentsiyasi va boshqalar.

Ta‘lim jarayonida ta‘limning samaradorligini ta‘minlovchi muhim elementlardan biri sifatida ta‘lim vositalari e’tirof etiladi. Ta‘lim vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (dioproektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televidenie, kompyuter, audio hamda video magnitafonlar), laboratoriya jihozlari (kolbalar, probirkalar, kimyoviy reaktivlar, mikroskop), xarita, maketalar, diagrammalar, plakatlar, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalaniladi.

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta‘lim metodlari tizimi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi.

VII-bob. KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLAR

Korrektsion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo‘lgan o‘quvchilarni korrektsion o‘qitish va tarbiyalash bilan korrektsion pedagogika (defektologiya) shug‘ullanadi. Korrektsion (maxsus) pedagogika (defektologiya - yunoncha defectus – nuqson, kamchilik, logos – fan, ta‘limot) – rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini

rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korrektsion pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e’tirof etilganiga u qadar ko‘p vaqt bo‘lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo‘llanib kelingan.

Pedagogik lug‘atda «Korrektsiya» tushunchasi (yunoncha «correctiio» - tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to‘liq) sifatida tushunilishi ta‘kidlab o‘tiladi[1].

Ana shu lug‘atda «Korrektsion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga muhtoj bo‘lgan, sog‘lig‘i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korrektsion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni yo‘qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korrektsion-pedagogik faoliyat yaxlit ta‘lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korrektsion, korrektsion-rivojlantiruvchi, korrektsion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korrektsion-o‘qitish, psixokorrektsion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

[1] Новоторцева Н.В. Коррекционная педагогика и специальная психология. Словарь. – Москва, Педагогика, 1999.

Korrektsion-pedagogik faoliyat maxsus ta‘lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan yaxlit jarayon.

Korrektsion pedagogikaning asosiy vazifalari

Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korrektsion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o‘rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo‘lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korrektsion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;

2) differentsatsiyali o‘qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo‘qotish yoki kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

6) anomal bolalikning oldini olish bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korrektsion pedagogikaning kategoriyalari.

Korrektsion pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

1. Anomal bolalarni o‘qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni

shakllantirishga yo‘naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta‘lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko‘rish qobiliyatini yo‘qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko‘ra ko‘proq darajada o‘qitishga bog‘liq. Shuning uchun anomal bolalar o‘qitilmasa yoki o‘qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar etkaziladi, psixik funktsiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o‘ta jiddiy bo‘lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta‘limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o‘quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funktsiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash - korrektsion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo‘lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta‘lim muassasasi o‘rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko‘rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o‘ziga xizmat ko‘rsatish, mehnat ko‘nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o‘rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. Korrektsiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo‘qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. Korrektsion-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko‘ra umumiy pedagogik ta‘sir ko‘rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korrektsion–tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korrektsion –tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o‘qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta‘limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o‘z ishlarini rejalashtirish ko‘nikmalari, og‘zaki ko‘rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korrektsion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala,

artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo‘ladi.

5. Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» – o‘rnini to‘ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

6. Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» – layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korrektsion pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarini yo‘qotish va yumshatishga yo‘naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta‘lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funktsiyalarning o‘rni to‘ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o‘quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o‘quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

7. Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» - moslashish) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlari tizimiga mos kelishini ta‘minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy

adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

8. Oilaviy tarbiya reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko‘nikmalarni shakllantirishni ta‘minlaydi.

Anomal o‘quvchilar bilan olib boriladigan korrektsion ishlarning asosiy yo‘nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish – murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korrektsion ishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o‘rganish.

2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalar bilan korrektsion-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o‘rganish.

3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarga korrektsion-pedagogik ta‘sir ko‘rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo‘lgan bolalarning umumiy va maxsus ta‘limi mazmunini tahlil qilish.

6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

7. Anomal bolalar bilan korektsion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o‘qituvchilarni tayyorlashda zarur o‘quv-metodik bazasi yaratish.

Korrektsion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo‘qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korrektsion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo‘naltirilgan bo‘lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o‘zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korrektsion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o‘zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korrektsion-rivojlantiruvchi ta‘lim o‘qishda va maktabda anomal bolalarga o‘z vaqtida malakali yordam ko‘rsatishni ta‘minlovchi differentsial ta‘lim tizimi bo‘lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o‘qishidagi kamchiliklarni yo‘qotish, etarlicha shakllanmagan malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilarni korrektsion o‘qitish

Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Tadqiqotlar predmetlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya diafunktsiyalari ekaniligini ko‘rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan maktabga borayotgan bolalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Ular maktabda o‘qishga to‘la tayyor emaslar, ularda maktabda o‘qish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o‘zlashtirish uchun layoqati etarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o‘qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartIbni o‘rgana olmaydilar. Faoliyatlarni tashkil

etishda qiyinchilikni his etadilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini bajarmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko‘pincha boshlari og‘riydi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o‘ziga xos. Maktabda ular o‘zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o‘qishga nisbatan qiziqish yo‘q yoki juda past bo‘liB, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. O‘yin ular uchun asosiy faoliyat bo‘lib qoladi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korrektsion ishlar olib borishning xususiyatlari

O‘zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta‘lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tashkil etilgan korrektsion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o‘qitishlari mumkin.

Ta‘lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang‘ich umumiy o‘rta ta‘lim (ta‘lim muddati – 4-5 yil).

2. Asosiy umumiy o‘rta ta‘lim (ta‘lim muddati - 5 yil).

Bolalarni korrektsion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo‘yicha ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko‘ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o‘quvchidan iborat bo‘ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaf etilishiga ko‘ra ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim muassasalariga o‘tkazilishlari mumkin.

Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo‘lishi sabablari. Aqli zaiflikni o‘rganish bilan bog‘liq masalalar korrektsion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o‘rganish muammolari korrektsion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi - oligofrenopedagogika tomonidan o‘rganiladi. “Oligofreniya” (yunoncha olygos – kam va phren - aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo‘llanilgan.

Oligofreniya – bu natal (tug‘ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo‘lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infektsion kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug‘ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og‘rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is’temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ona qorinidaligi miyasi shikastlangan bolalar.

2. Tug‘ilishi paytida yoki tug‘ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar. Aqli zaiflik tuzatib bo‘lmaydigan hodisa sifatida e’tirof etilsa ham, uni korrektsiya qilib bo‘lmaydi degan ma‘noni anglatmaydi. Aksariyat tadqqiqotlarda maxsus (korrektsion) ta‘lim muassasalarida metodik jihatdan to‘g‘ri yo‘l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Maktab o‘quvchilarida nutqi buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo‘lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari.

Nutqiy buzilish, nutqiy buzilishning sabablari, mexanizmlari, simptomatikasi, borishi va tuzilishi uning oldini olish, maxsus (korrektsion) o‘qitish va tarbiya masalasi bilan logopediya shug‘ullanadi. “Logopediya ” termini yunonchadan tarjimasi “to‘g‘ri nutqni tarbiyalash” ma‘nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar - fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o‘rganiladi.

Nutqiy buzilishi bo‘lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funktsional yoki organik chetlanishlar ko‘zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg‘imchoqda ko‘p vaqt tebranish bolalarga yomon ta‘sir ko‘rsatadi, boshlari og‘riydi ko‘ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez charchab qoladilar, qattiq ta‘sirlanishlari, jahllari chiqish bilan ajralib turadilar. Ular emotsional barqaror emaslar, ularning kayfiyatlari tez o‘zgaradi, serjahl, agressiv, bezovta bo‘ladilar. Shuningdek, ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi.

Bunday bolalar tinch o‘tira olmaydilar, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo‘ladi. Juda tez xafa bo‘ladilar, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin esa darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo‘ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo‘shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

O‘quvchilar bilan logopedik puntkda korrektsion ishlar butun o‘quv yili davomida individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o‘ta jiddiy bo‘lsa o‘qitish maxsus ta‘lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o‘quvchi bilan davolash-sog‘lomlashtirish va psixologik-pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi.

Logopedik yordam ko‘rsatish sog‘liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta‘minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo‘lib, bu erda nutqida buzilishi bo‘lgan bolalarga logopedik yordami ko‘rsatiladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarni korrektsion o‘qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo‘lgan bolalar ko‘pchilikni tashkil etadilar. Eshitish – borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush ta‘sirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko‘p hollarda muddatli bo‘ladi. Masalan, o‘rta qulog‘ning tashkil topishi, shamollash, oltingugurt to‘siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o‘rta qulog‘ining anomal tuzilishi

(quloq suprasining bo‘lmasligi yoki etarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo‘llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy meditsina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va opErativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba‘zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og‘rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo‘lishi mumkin. Qulog‘i og‘irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko‘ra: nasliy, tug‘ma va kelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko‘rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og‘rishi (qizamiq, kor, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug‘ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug‘ilish, kichik vaznli tug‘ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug‘ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste’mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo‘lishi mumkin. Karlikning nasliy o‘tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
2) eshitish qobiliyati zararlanganda nutqiy rivojlanish darajasi;
3) eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti.

Yuqorida ko‘rsatilgan mezonlarga ko‘ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog‘i og‘irlik va karlik kabi guruhlarga ajratiladi.

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo‘qotilishi bo‘lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog‘iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba‘zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Qulog‘i og‘irlik – bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 detsibaldan kam) bo‘lib, eshitish qobiliyati qoldig‘i yordamida qulog‘i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshita oladi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi.

Karlar va qulog‘i og‘irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo‘yicha farq qiladilar. Karlar so‘z nutqini ko‘rib (suhbatdoshining lablari va yuziga qarab) va eshitib ko‘rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) qabul qiladilar.

Yomon eshitadiganlar atrofdagilar bilan tabiiy munosabatlar jarayonida baland ohangda so‘zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida korrektsion o‘qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug‘ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» – kar) - eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonini o‘rganuvchi korrektsion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma‘lumotlariga qaraganda

eshitish organi funktsiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi:

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko‘ra ularni o‘qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o‘rganish;

- eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta‘lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o‘qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;

- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha maxsus ta‘lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o‘qishi mumkin. O‘qituvchi bola tomonidan darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e’tibor berishi, buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo‘lsa o‘rta qatorga o‘tkazish kerak. Shuningdek, o‘qituvchi bola uning gaplarini to‘g‘ri tushuna olganligi, topshiriqni to‘g‘ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba‘zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o‘qiydilar.

O‘qituvchi eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola sinfga qabul qilinganda ularning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Ko‘rish qobiliyati buzilgan o‘quvchilarni korrektsion o‘qitish. Ko‘rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlari.

Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflopedagogika shug‘ullanadi (yunoncha «typhlos» – ko‘r) – korrektsion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko‘rish ko‘rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko‘rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma‘lumotlarni oladi.

Bolaning ko‘rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko‘rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo‘lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qorinida rivojlanayotganda ko‘rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og‘ir kasalliklar bilan og‘rishi va hokazo omillardan iborat bo‘lishi mumkin.

Ko‘rish qobiliyatining buzilishi tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi.

Tug‘ma ko‘r bo‘lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko‘rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasliylik ham ko‘zga tashlanadi.

Orttirilgan ko‘rlik odatda ko‘rish organlari – to‘r pardasi, shoh parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit, miya shishi, meningoentsifalit), organizmning umumiy kasallanishidan keyingi asoratlari (kor, gripp, skorlatina), shuningdek, miya yoki ko‘zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo‘lishi mumkin.

Ko‘rish qobiliyatining buzilgan bolalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Ko‘r tug‘ilganlar.
2. Erta ko‘r bo‘lib qolganlar.
3. Uch yoshidan keyingi ko‘r bo‘lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda ta‘lim olganda yomon ko‘ruvchi bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o‘ziga xos belgilarini bilib olishda ma‘lum qiyinchiliklariga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o‘qish texnikasi egallab olish, o‘qilganlarning mazmunini tushunishga halaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko‘ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko‘rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda yomon ko‘radigan bolalar tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa - yomon ko‘radigan bolani o‘z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta‘lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPKga yuborishdan iborat. Yomon ko‘radigan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korrektsion) maktablarda amalga oshiriladi.

Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida korrektsion o‘qitish va tarbiyalash.

Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalalari bilan tiflopedagogika (yunoncha «typhlos» – ko‘r) – korrektsion pedagogika (defektologiya)ning yana bir sohasi shug‘ullanadi.

Ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o‘qituvchi korrektsion ishlarning o‘ziga xos jihatlarini bilishi zarur.

Refraktsiyasi anomaliyali bolalar tuzatuvchi koʻzoynak taqishlari kerak. Lekin koʻzoynak taqishda bolalar pedagogning ularga diqqat bilan munosabatda boʻlishlariga muhtojlik sezadilar. Maktabda va uyda oʻquv ishlarini bajarishda sanitar-gigienik talablarga amal qilish lozim. Koʻrishida nuqsoni boʻlgan bola uchun ish oʻrni toʻgʻri va etarlicha yoritilgan boʻlishi kerak. Bunday bola dEraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga oʻtkazilishi kerak. Yaqinni koʻradigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partaga oʻtkazilishi zarur. Uzoqni koʻradigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa oxirgi partaga oʻtkazilishi talab etiladi.

Oʻqituvchi oʻquvchining doska, jadval va xaritadagi oʻquv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiyali bolalarda koʻzi charchashi koʻp kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga koʻrish ishlarini boshqa turdagi ishlar uygʻunlashtirib berishi zarur. Anomal refleksiyali bola 10-15 minut davomida intensiv koʻrish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki dErazaga) qarashi kerak, bu koʻrish charchogʻining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Koʻrish qobiliyati ancha ogʻir boʻlgan – koʻr va yomon koʻradigan bolalarni oʻqitish maxsus taʻlim muassasalarida amalga oshiriladi. Baʻzan koʻrish qobiliyati ogʻir buzilgan bolalar ommaviy umumiy oʻrta taʻlim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

Oʻz sinflarida ogʻir koʻrish qobiliyati buzilgan bola boʻlgan oʻqituvchilar bolaga differentsial yondashuv asosida munosabatda boʻlishlari zarur. Buning uchun sinfdagi oʻquvchilarning soni 15 nafardan

oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko‘rish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolaning ish o‘rni esa ko‘shimcha yoritilgan bo‘lishi kerak. O‘quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo‘lishi zarur. O‘qituvchi o‘zining har bir harakati mohiyatini so‘z yordamida sharhlab borishi,

Sinfida ko‘r yoki yomon ko‘radigan bola bo‘lgan o‘qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko‘radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch-harakat apparati buzilgan o‘quvchilarni korrektsion o‘qitish. Tayanch-harakat apparatlari buzilishining turlari va yuzaga kelish sabablari.

Tayanch-harakat apparatidagi turli buzilishlar bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funktsiyalarining buzilishi tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

1) nerv tizimining kasallanishi:

2) tayanch-harakat apparatining tug‘ma patologiyasi; sonning tug‘ma chiqqanligi; bo‘yin qiyshiqligi; qiyshiq oyoqlik va oyoqning boshqa nuqsonlari; umurtqa pog‘onasi rivojlanishidagi nuqsonlar (skolioz); qo‘l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuqsonlari; qo‘li barmoqlarining anomal rivojlanishi; artrogripoz (tug‘ma mayiblik);

3) orttirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo‘l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi;

poliatrit; skelet kasalliklari (tuberkulez, suyaklardagi shishlar, osteomielit), skelet tizimi kasalliklari (raxit, xondodistrofiya).

Tayanch-harakat apparati patologiyasi bo‘lgan bolalarda asosiy buzilish harakatlanishdagi nuqson hisoblanadi. Bunday nuqsonlarga ega bolalarning 89 % ini tserebral paralichli bolalar tashkil etadilar. Ularda harakat buzilishi psixik va nutqiy buzilishlar bilan birga namoyon bo‘ladi. Shu bois bu kabi bolalar nafaqat davolash va ijtimoiy yordamga, balki psixologik-pedagogik va logopedik korrektsiyaga ham muhtoj bo‘ladilar.

Harakatlanish buzilishlari o‘rtacha darajada bo‘lgan bolalar yurishni o‘rganib olsalarda, biroq, shonch bilan yura olmaydilar, ular uchun maxsus moslamalar zarur. Harakatlanish buzilishining engil shaklida bolalar uyda va ko‘chada mustaqil, qo‘rqmay yura oladilar, o‘zlariga to‘la xizmat ko‘rsatadilar.

VIII-bob. TA‘LIM MENEJMENTI

Ta‘lim muassasasini boshqarishning pedagogik- psixologik asoslari

Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo‘lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta‘lim tizimida ham boshqarishni to‘g‘ri tashkil etilishi juda muhim.

Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o‘ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik.
Boshqarish ma‘lum bir ob’ektga tashkiliy, rejali, tizimli ta‘sir ko‘rsatish demakdir.

Ta‘lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish ta‘lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko‘ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Bugungi kunda pedagogika faniga ta‘lim muassasalarini boshqarish bo‘yicha yangidan-yangi tushunchalar kirib kelyapti, ularning mohiyati avvalgilardan ham tEranroqdir. Masalan, «ta‘sir etish» tushunchasining o‘rniga «o‘zaro harakat», «hamkorlik», «refleksiv boshqarish» kabi tushunchalar qo‘llanilmoqda.

Ta‘lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta‘lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi.

Xo‘sh, menejment va menejer atamalarining asl mohiyati nimani anglatadi?

Biz ushbu tushunchalarning mohiyati, ta‘lim muassasida davlat-jamoa boshqaruvining pedagogik-psixologik asoslarini tushunishimizda ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan pedagog R.Ahliddinovning qarashlari alohida diqqatga sazovor.

«Menejment» va «Menejer» atamalari hozirgi talqinda korxona va muassasa egalari o‘z mulklari va xodimlarni o‘zlari boshqarganlaridan ko‘ra tanlangan yo‘nalish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassislarni jalb etish afzal ekanligini tushunib etganlaridan so‘ng paydo bo‘ldi. Bugungi kunda menejer rivojlangan demokratik mamlakatlarda nufuzli kasblardan biri hisoblanadi.

Menejment deganda, odatda rahbarlik lavozimiga rasman tayinlangan shaxslarning ishigina tushuniladi. Boshqarishga, shuningdek, murabbiylik ishi ham taalluqli hisoblanadi. Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta‘sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir. Ta‘lim muassasasi menejmenti haqida so‘z yuritilganda, O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 4.6-bandida so‘z yuritilayotgan jarayonning mohiyati haqida batafsil to‘xtalib o‘tilganligini alohida ta‘kidlash zarur. Ushbu hujjatda qayd etilicha, ta‘lim muassasasi menejmentida quyidagi holatlar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta‘lim tizimi va kadrlar tayyorlashning davlat va nodavlat ta‘lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va ularni izchil rivojlantirish davlat yo‘li bilan boshqarib borilishi;

- barcha darajadagi ta‘lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi;

- ta‘limning normativ-huquiy bazasi rivojlantiriladi;

- moliya-xo‘jalik faoliyatini olib borish hamda ta‘lim jarayonini tashkil etishda o‘quv yurtlarining huquqlari kengayadi va mustaqilligi ta‘minlanadi;

- ta‘lim muassasalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko‘ra ta‘lim sohasida faoliyat ko‘rsatish huquqi beriladi;

- muassis tashkilotlarning, mahalliy hokimiyat organlarining, savdo-sanoat doiralarining, jamoat tashkilotlarining, fondlarning va homiy vakillarni o‘z ichiga oluvchi vasiylik va kuzatish kengashlari tizimi orqali ta‘lim muassasalarining samarali, jamoat boshqaruvi tizimi joriy etiladi.

Bundan tashqari, olimlar ta‘lim menejmetining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta‘kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta‘lim menejmenti «maqsadga muvofiqlik» so‘zi bilan aniqlanadigan ma‘naviy o‘lchovga ega;

- ta‘lim menejmenti – bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi);

- menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro dialektik birligi;

- ta‘limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, endilikda ta‘lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdan davlat-jamoatchilik boshqaruviga o‘tiladi.

Davlat-jamoatchilik boshqaruvining maqsadi –ta‘lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o‘qituvchilar, o‘quvchilar hamda ota-onalarga ta‘lim dasturlarini, turlarini, ta‘lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirishdan iborat.

Maktabni boshqarish ishiga maktab inspektsiyasi, ya‘ni, vazirliklar va xalq ta‘limi bo‘limlarining maktab inspektorlari xizmati yordam beradi. Ular maktab faoliyatini o‘rganadi, ta‘lim-tarbiya jarayonining natijalarini tahlil qiladi, ilg‘or tajribalarini aniqlaydi va ularni ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilaydi, kamchiliklarni anihlab, ularni bartaraf etish yo‘llarini izlaydi, maktab direktori va o‘qituvchilarga metodik va moddiy yordam ko‘rsatadi.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga tashkiliy, o‘quv-uslubiy va ilmiy rahbarlik qilish, davlat ta‘lim standartini ishlab chiqish va joriy etish, o‘quv-ta‘lim va kasb-hunar dasturlarini birlashtirish, pedagog kadrlar bilan ta‘minlsh, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligi (O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi Markazi), uning hududiy boshqarmalari tomonidan tarmoq vazirliklari, idoralar va korxonalar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Ta‘lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan faoliyatidir.

Bir yilda bir marta o‘tkaziladigan maktab konferentsiyasi ham jamoatchilik boshqaruviga kiradi. Konferentsiyada maktab Kengashi, uning raisi saylanadi, maktabning Ustavi qabul qilinadi.

Davlat ta‘lim muassasalari bilan bir vaqtda nodavlat ta‘lim muassasalarining faoliyat ko‘rsatishi ham ta‘limni boshqarishning jamoatchilik xarakterini ifodalaydi.

Umumiy o‘rta ta‘lim mazmunini yoritish Nizomning asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lib, majburiy va qo‘shimcha komponentlar umumiy o‘rta ta‘lim mazmunining asosini tashkil etadi. Majburiy komponent davlat ta‘lim standarti bilan belgilanadi va o‘quvchilarni tayyorlashning o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi muassasalarida bilimlar asoslarini yanada puxta o‘rganish va kasb egallash uchun etarli bo‘lgan zarur darajasini belgilaydi.

Qo‘shimcha komponent o‘quvchining ehtiyojlari va qobiliyati, maktabning moddiy-texnika va kadrlar bilan ta‘minlanganlik darajasidan kelib chiqib belgilanadi. Qo‘shimcha o‘quv yuklanmalarining hajmi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi Vazirligining Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan normativlariga muvofiq belgilanadi. O‘quvchilar bilim sifati va ta‘lim natijalarining davlat ta‘lim standartiga muvofiqligini nazorat qilishni ta‘minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat bilan birga bosqichli nazorat o‘tkazish ham nazarda tutiladi.

Bosqichli nazorat o‘quv yili tamom bo‘lgandan keyin imtihonlar, test sinovlari, sinovlar shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida reyting aniqlandi va o‘quvchini navbatdagi sinfga o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi.

Maktabga bevosita rahbarlik boshqarishning yuqori organlar tomonidan tayinlanadigan direktor, davlatga qarashli bo‘lmagan ta‘lim muassasalarida esa mutaxasis tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik Kengash – ta‘lim muassasasining jamoatchilik boshqaruv organi.

Ta‘lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o‘stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik Kengash faoliyat ko‘rsatadi. Pedagogik Kengash ta‘lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Pedagogik Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

-ta‘lim muassasasi (umumiy o‘rta ta‘lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ning tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o‘tkaziladi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

-ta‘lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilaydi;

-ta‘lim muassasasida o‘quv, tarbiya jarayonini tashkil etish va ta‘lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

-ta‘lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqadi;

-pedagogik jamoaning ma‘lum yo‘nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

-ta‘lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o‘z vakolati doirasida me’yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik Kengash quyidagi huquqlarga ega:

- ta‘lim muassasasini rivojlantirish yo‘nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;

- ta‘lim muassasasi jamoasi oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;

- o‘quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;

- o‘quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;

- ta‘lim muassasasi ta‘lim jarayoniga oid barcha masalalarni o‘z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;

- pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo‘yicha o‘z takliflarini berish;

- o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo‘yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o‘tkazish shakli va vaqtini belgilash;

- ta‘lim oluvchilarni sinfdan-sinfga, kursdan-kursga ko‘chirish va bituvchilarni yakuniy attestatsiyaga qo‘yish bo‘yicha qaror qabul qilish;

- ta‘lim darayonini tashkil qilish hamda ta‘lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo‘yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

- ta‘lim maqsadiga muvofiq holda o‘quvchilarni rag‘batlantirish va jazolash bo‘yicha masalalarni hal etish;

- chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

- pedagogik Kengash a‘zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;

- ta‘lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko‘rsatgan ta‘lim muassasasi xodimlarini rag‘batlantirishga tavsiya qilish;

-yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan o‘quvchilarga o‘rnatilgan tartibda hujjatlar berish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

Pedagogik Kengash yig‘ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta‘lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi. Pedagogik Kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o‘z akini topadi:

Direktor va uning o‘rinbosarlari vazifalari.

Ta‘lim muassasasining o‘quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlikni ta‘lim muassasasi direktori olib boradi.

Ta‘lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat:

-davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta‘lim muassasasining manfaatlarini ifodalash;

-o‘quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta‘min etish;

-o‘quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta‘lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablarining rioya qilinishi, shuningdek, ta‘lim muassasasidan tashqarida ma‘naviyat ishlarini tashkil qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

-pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo‘yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va ustoxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo‘shatish;

-ta‘lim muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish;

-ta‘lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta‘lim-tarbiyaning ilg‘or shakl va usullarini qo‘llashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

-ta‘lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag‘lar, sarf-xarajat hisobini yuritish;

-ta‘lim muassasasi me’yoriy hujjatlarining to‘g‘ri yuritilishini ta‘minlash;

-ta‘lim muassasasi pedagogik Kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o‘z faoliyati to‘g‘risida hisob berib turish.

Ta‘lim muassasasi direktorining o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosarining vazifalari:

-o‘quv haftasi va o‘quv mashg‘ulotlarining davomiyligini ta‘minlash;

-dars jadvalini tuzib chiqish va shu jadvalga binoan darslarning o‘z vaqtida samarali o‘tkazilishini ta‘minlash;

-har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta‘lim muassasasi pedagogik Kengashi a‘zolariga o‘quv jarayonining borishi xususida va saqlanishiga javob berish;

-o‘quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish;

-o‘quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta‘minlash va nazorat qilish.

Ma‘naviyat va ma‘rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarining vazifalari:

-ta‘lim muassasasida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish, jamoat tashkilotlari va mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta‘minlash;

-ta‘lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o‘tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

-ta‘lim muassasasi o‘quvchilarining sinf, guruh yoki ta‘lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg‘ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish;

-ta‘lim muassasasidagi «Yosh etakchi»ning ishini nazorat qilish va unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish.

O‘QUV-TARBIYA ISHLAR BO‘YICHA DIREKTOR O‘RINBOSARINING

O‘qituvchilarni kutib olish va kunlik ish tartibiga aniqlik kiritish	**08:00-08:30**
Darsga kech qoluvchi o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan ishlash	**08:30-08:40**
O‘quvchilarning davomati va darslarning borishi haqida ma’lumot olish yoki aniqlash	**08:40-09:10**
O‘quvchilarni darslardan bo‘sh qolmasligini nazorat qilish, darsga qatnashmagan o‘quvchilar bilan ishlash	**09:10-10:25**
O‘z ustida ishlash va o‘qituvchilar darsini tahlil qilish	**10:25-12:00**
Tushlik	**12:00-12:30**
Tuman kengashidan tushgan topshiriqlar bilan shlash	**12:30 01:35**
2-smena davomatini aniqlash	**13:35 – 14:00**
To‘garaklar nazorati	**14:00 – 14:30**
“Yosh kitobxon” to’garagini tashkil etish	**14:30 – 15:30**
O‘qituvchilar va o‘quvchilar muammo va takliflari uchun “Qabul vaqti”	**15:30 – 16:00**
Davomati past bo‘lgan sinflarni aniqlash va tahlil qilish	**16:00 – 17:00**

HISOBOTLAR Kunlik, haftalik va oylik hisobotlar tayyorlash
HAFTALIK Haftada bir marta imkoniyati cheklangan o‘quvchidan xabar olish

Ta‘lim muassasasida metodik ishlar, pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni attestatsiyadan o‘tkazish, yosh o‘qituvchilar bilan ishlash.

Ta‘lim jarayonining sifati har jihatdan o‘qituvchilarning g‘oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahorati darajasiga bog‘liqdir. Ana shu maqsadda ta‘lim muassasasida metodik Kengash va fan metodik birlashmalari ish olib boradi. Metodik Kengash ta‘lim muassasasida ta‘lim jarayonining sifatini ta‘minlash, o‘qituvchilarning g‘oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir.

IX-bob. PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARI

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo’lga kiritgach, rivojlanish va taraqqiyot yo’li demokratik, insonparvar va huquqiy jamiyatni barpo etishdan iboratligi e’tirof etilib, «Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish» davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri deya belgilandi. Asosiy e’tibor yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi, yuqori

malakali kadrlarni tayyorlashga qaratildi. Respublikada ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun hamda yo’nalishlari mavjud turli sharoitda pedagogika fani barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tayyorlashga yo’naltirilgan ijtimoiy harakat istiqbollari, bu boradagi muammolar va ularni hal etish yo’llarini o’rganadi.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish, o‘qituvchi uchun ta‘lim-tarbiya samaradorligini ta‘minlovchi zamin bo‘libgina qolmasdan, ayni vaqtda uning jamiyatdagi obro-e‘tiborini ham oshiradi, o‘quvchilarga nisbatan hurmat yuzaga keladi. Pedagogik faoliyatda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holis bo‘lish, o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi. O‘z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa‘diy Sheroziy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Husaj Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy va boshqalar o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususida qimmatli ma‘lumotlami o‘z asarlarida qizg‘in qayd qilishgan.

Abu Ali Ibn Sino



Ulug‘mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning pedagogik qarashlari o’zining ilmiy teranligi, voqelikka xushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi.

Alisher Navoiy

Ijodida ham muallimlar ishi ularga munosabat masalalariga keng o’rin beriladi. U yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o’zlari ham bilimli va tarbiyali bo’lishi zarurligini o’qtiradi.

Amir Temur

O’z hukmronligi davrida ilm ahllari, muallim, mudarisslarga hurmat bilan qaraydi. Kishilarga mansab berishda ham ularning ilmlarini hisobga oladi. Jamiyatning rivojida ularning o’rnini muhim deb biladi. Ko’plab maktab, madrasalar ochadi, ularga muallim va mudarislar tayin etadi. O’zining ustozlarini ham juda qadrlaydi.

Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

O’qituvchilik kasbi o’z mohiyatiga ko’ra o’ta individualdir. Har bir o’qituvchining muhim hayotiy o’rni, uning o’z ishining ustasi bo’lishdir.

O’qituvchi mahorati uning faoliyatida ko’rinadi. O’qituvchi awalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan

bo’lishi lozim. Shu ma’noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo’ladi.

Mahorat — bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta bo’lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chog’idagina go’zaldir.

Pedagogik mahoratga etishish o’qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahorat haqida tushuncha

«Pedagogik mahorat» bir kategoriya sifatida o’zining ilmiy asoslariga ega. Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko’rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.

Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o’ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi:

pedagogik mahoratning asosiy yo’nalishlarini muayyan mantiqiy izchillikda belgilab berdilar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo’nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga: reproduktivlik (boshlang’ich),

ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari o’qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

• *reproduktiv (o’ta past);*

• *moslashuvchan (past);*

• *lokal (chegaralangan)- modellashtirish (o'rtacha qoniqarli).*

Bu daraja talabalar bilan boiadigan o'quv-tarbiya ishlarining ayrim yo'nalishlarida yuqori sifati bilan xarakterlanadi:

• *izfihil modellashtirish* (yuqori). Bu bosqichda, pedagog faoliyatining barcha turlarida yuqori sifatga erishiladi;

• *izchil modellashtirish* (oliy). Bunda, faoliyatning barcha turlarida ijodiy munosabat namoyon bo'ladi, o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari izlanadi.

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi.

Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

• *loyihalash;*

• *konstruktsiyalash;*

• *tashkilotchilik;*

• *muloqot;*

• *bilish va reflektivlik.*

Pedagogik mahorat va uning tarkibiy qismlari

Mahorat (arab. "mohirlik", "ustalik", "epchillik") – 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik; 2) bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish; 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san'atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui.

Pedagogik mahorat - o’qituvchining shaxsiy-kasbiy faoliyati natijasi umumlashmasi bo’lib,muayyan bilim, ko’nikma, malakalaryig’indisidan iborat.

Pedagogik mahorat - 1) kasbiyko’nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; 2) shaxsning kasbiy sifatlari,layokat kobiliyatlari majmui; 3) san’atdarajasidagi maxorat; 4) pedagogik mohirlik,san’at va bilimdonlikni ifodalovchiatama.*(Pedagogik entsiklopediya 2017 y. 3 jild.)*

Pedagogik mahorat kuyidagi muayyan shakllarning yo’nalishlariga ega:

1. *O’kuv pedagogik faoliyat yunalishi*. Bunda o’kituvchi o’zi dars berayotgan o’kuv predmeti, pedagogika, psixologiya, metodika fanlariniilmiy texnikaviy taraqqiyot va davr talablari darajasida bilishi zarurligini nazarda tutadi.
2. *Shaxsiy faoliyat yo’nalishi*. Bu yunalishda o’kituvchi o’zi, o’z ishi, xamkasblari, o’kuvchilari, ularning ota-onalariga bo’lgan munosabatini ifodalaydi. Bu o’kituvchining o’z mavkeini tushunishi, o’z-o’ziga baxo berishi, o’z-o’zini anglashi, mustakil bilim olishga intilishi,kasbiy rivojlanishi, o’z kasbiy faoliyatinirivojlaitirishi, bunyodkorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik layokati, yangilnkka muntazam intilishida namoyonbo’ladi.
3. *Ijtimoiy pedagogik faoliyat yunalishi*. U o’kituvchilarning ta’lim oluvchilar jamoasini xiseta olishi, ularning tuyg’ularini anglashi, qiziqish va extiyojlari, duch keladigan qiyinchiliklarini bilib olishi;

- har bir ta’lim oluvchining individual isixologik xususiyatlarini ilg’ay olishi;
- darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil kilish buyicha bilim, ko’nikma va malakalarning shakllanganligi;

- turli ijtimoiy foydali ishlarga o’kuvchilarni jalb eta olishi;
- fan. xayot, san’at, ijtimoiy foydali mexnatga qiziqish uyg’ota olishini ifodalaydi.

4. *Axborot-kommuiikativ faoliyat yunalishi*. Uo’kituvchining ma’lumotaxborotgaega ekanligi; voqelik, pedagogik jarayondagivoqeaxodisalar tug’risidagi ma’lumotlar bilan qurollaganligi, axborot va kommunikativ texnikadan ma’lumotlar olabilishi, ular ustida qayta fikrlashi,xamkasblari va o’kuvchilargaetkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko’rsatadi.

Qayd etib o’tilgan hamda tavsiflangan pedagogik mahoratni egallashning mazkuryunalishlari o’kituvchi faoliyatining asosini tashkil kiladi *(Pedagogik entsiklopediya 2017 y. 3 jild.)*

Pedagogik mahorat yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- pedagog shaxsining insonparvarlik yo’nalishiga ega bo’lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo’nalishlarining oliy maqsadga-barkamol avlod tarbiyalab etishtirishga yo’naltirilganligi;
- mutaxassislik fanlari, o’qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyadan professional bilimlarga ega bo’lishi;
- pedagogik qobiliyatga ega bo’lishi (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash);
- pedagogik texnikani egallashi, ya’ni o’z-o’zini boshqara olishi, o’zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalashi.

Pedagog shaxsining insonparvarlik yo’nalishga ega bo’lishi-ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, ayrim masalalarni o’zini ta’lim oluvchi

o’rnida sezib hal etishi, adolatli bo’lishi, pedagogik faoliyatni pirovard maqsadga – barkamol avlod tarbiyalashga yo’naltirishda ifodalanadi. Buyuk mutafakkirimiz Ibn Sino ham o’qituvchi shaxsida halollik, adolat, poklik, mehnatsevarlik, fidoiylik, odamgarchilik kabi xislatlarni qadrlagan.

Insonparvar bo’lish mahoratli pedagog faoliyatining bircha jihatlarini qamrab oladi va uning aniq vazifalarini ham belgilab beradi. Insonparvarlik deganimizda, ta’lim oluvchilarning dini, irqi, millati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar, ularning barchasiga bir xil munosabatda bo’lishni tushunamiz. Har bir ta’lim oluvchiga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondoshishimiz darkor. Bolalarni seva olish, ularga o’z ota-onalaridek mehribonlik ko’rsata bilish mohir pedagogning muhim insonparvarlik fazilatlaridan biridir. Pedagog har doim, hamma vaqt ta’lim oluvchilarga mehribonlik ko’rsata olishi lozim. O’z ta’lim oluvchisi to’g’risida shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaslik, ular haqida salbiy yoki ijobiy fikrga kelmaslik kerak. Ta’lim oluvchilar orasida uning “sevimli” yoki “yomon” ko’radigan tarbiyalanuvchilarni bo’lishi ta’lim oluvchida pedagogga bo’lgan hurmatni so’ndiradi. Har qanday bo’sh va past o’zlashtiradigan, “tarbiyasi qiyin”ta’lim oluvchi bilan ishlaganda pedagogning vazifasi shundan iboratki, ta’lim oluvchidagi ana shu bilinar bilinmas lekin eng muhim ijobiy fazilatni topa olish va shu fazilatga tayanib ta’lim oluvchi mulkidagi, o’tmishidagi salbiy xususiyatlarni tugatishga intilmog’i lozim. Pedagog shaxsiy fazilatlari tizimida pedagoglik faoliyatga bo’lgan ehtiyoj nomli muhim kasbiy yo’nalish mavjudki, u pedagogik mahoratni egallash uchun katta rol’ o’ynaydi. Bunday professional xususiyatlarni olimlarimiz

S.Baranov va boshqalar shunday izohlaydilar: pedagogik faoliyatga bo'lgan ehtiyoj professional mahoratdagi pedagog shaxsiy fazilatlarini belgilovchi qimmatli bahodir, u o'zida: "...bolalarga qiziqish va muhabbatni; pedagogni ishga havasni; psixologik-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanligini mujassamlashtiradi".

Pedagogning ta'lim oluvchilarga nisbatan mehribonligi, hayrixohligi bolalarni sevishi insoniy talabchanlik asosida ko'rilmog'i lozim, insonparvarlikka asoslangan talabchanlik ta'lim oluvchilarni intizomga chaqiradi, o'z hulq-atvori to'g'risida o'ylashni, o'ziga boshqalar ko'zi bilan qarashni, salbiy xususiyatlarini qayta tarbiyalashni, ijobiy fazilatlarini takomillashtirishni yo'lga qo'yishga da'vat etish muddaosiga erishadi. Buning uchun pedagog talabning me'yorini bilishi lozim. Talab istiqbolli bo'lib, bolaning kelajak hayoti, faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan, bolalarni quvonchga qiziqishlarini takomillashtiruvchi yo'naltirilgan bo'lsagina, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga,pedagogning o'zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e'tiqodi bo'la olishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash ta'lim oluvchilarda bobolar avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, pedagog shaxsiy fazilatining muhim omili o'tmish merosini mukammal bilish, qadriyatlar, urf-odatlar mazmunini anglash ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini tushunish orqali ilmiy dunyoqarashni o'zida tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Kasbiy bilimlar pedagogik mahoratning tub asosini tashqil qiladi. Pedagog bilimi, bir tomondan u dars berayotgan fan to'g'risidagi

bilimiga, ikkinchi tomondan esa, uni o’zlashtirayotgan ta’lim oluvchilarga qaratilgan bo’ladi. O’zi dars berayotgan fanni, o’ni o’qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlaridan puxta bilimga ega bo’lishi, pedagog professional bilimlari mazmunini tashqil etadi. Shu bilan birga, O’zbekistonning o’z taraqqiyot yo’li mohiyati, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o’z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilishi, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o’zbek xalqining an’analari, qadriyatlari, urf – odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma’naviyat, adabiyot va san’at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o’lkashunoslik, texnikaga oid ma’lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo’lish va hokazo.

Kasbiy bilimlar negizida pedagog hatti-harakati va xulqining asosini tashqil etuvchi pedagogik printsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu printsip va qoidalarni har bir pedagog o’z tajribasiga tayangan holda yaratadi. Bu bilimlar doimo takomillashib borishi zarur.

Pedagogik qobiliyat va pedagogik texnika.

Qobiliyat o’qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta’minlaydi.

Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Pedagogik qobiliyatlar, deb ataladigan qobiliyatlar ta’lim beruvchining aqliy, emotsional–irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligi, bilimdonligi va ularning bir-biriga bog’liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi. Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta’rif beriladi:

Qobiliyatlar - shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko’nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo’ladigan individiual- psixologik xususiyatdir.

Pedagogik psixologiyada ta’lim beruvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o’rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib boriladi.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta’kidlab o’tganidek, pedagogik jarayon ta’lim beruvchi- ta’lim beruvchining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning tarbiyalanuvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog’liq. Bola shaxsning rivojlanishida ta’lim beruvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta’lim va tarbiya jaroyoning tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda ta’lim beruvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo’yiladi, shuning uchun ijtimoiy- tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko’lamini ortishiga bevosita bog’liq.

70-80 yillarda ta’lim beruvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda ta’lim beruvchilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o’rganildi.

Tadqiqotchi A.I. Herbakov fikriga ko’ra, pedagogik faoliyat- bu ta’lim beruvchi oldiga jiddiy talablar qo’yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat ta’lim beruvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatiga, mustahkam xarakterga, yuksak ma’naviyatga ega bo’lishini taqazo qiladi. I.A.Herbakov ta’lim beruvchi shaxsi 6 ta kasbiy-tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
2. Yo’nalishning aniq ifodalanganligi.
3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi.
4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik.
5. Qat’iy va silliq xarakter.
6. Pedagogik qobiliyatlar.

Pedagogik qobiliyat turlari

1.Didaktik qobiliyat - bu oson yo’l bilan murakkab bilimlarni tarbiyalanuvchilarga tushuntira olishdir. Bunda ta’lim beruvchining o’quv materialini tarbiyalanuvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, tarbiyalanuvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg’ota olishi ko’zda tutiladi. Ta’lim beruvchi zarurat tug’ilgan hollarda o’quv materialini o’zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz narsani tushunarli qila oladi.

2.Akademik qobiliyat - barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan ta'lim beruvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o'z sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi. Tarbiyalanuvchilarda ma'lum fan bo'yicha bilim va ko'nikmalar shakllantirish jarayonida ma'lumotlarni boshqa fanlar (fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya va h.k) bilan bog'lay oladi.

3. Pertseptiv qobiliyat - qisqa daqiqalarda tarbiyalanuvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu tarbiyalanuvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, tarbiyalanuvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday ta'lim beruvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida tarbiyalanuvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Nutqiy qobiliyat- ixcham, ma'noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq. Shuningdek, ta'lim beruvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi. Qobiliyatli ta'lim beruvchining nutqi mashg'ulotda hamisha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim beruvchi yangi materialni tushuntirayotgan, tarbiyalanuvchining javobini tahlil qilayotgan, ma'qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi tarbiyalanuvchi uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi.

5. Tashkilotchilik qobiliyati- o'quv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste'dodi. Tashkilotchilik tarbiyalanuvchilarni xilmaxil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan tarbiyalanuvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa, ikkinchidan, o'z faoliyatini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati- o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega bo'lish ta'lim beruvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilliligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va h.k) shuningdek, tarbiyalanuvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish ma'suliyatini his etishga, bu ishonchni tarbiyalanuvchilarga ham etkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

7. Kommunikativ qobiliyat - muomala va muloqot o'rnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, tarbiyalanuvchilarga to'g'ri yondoshish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali o'zaro munosabatlar o'rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

8. Diqqatni taqsimlash qobiliyati- bir necha ob'ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. Ta'lim beruvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali ta'lim beruvchi o'z fikrini (yoki tarbiyalanuvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha tarbiyalanuvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini

hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e’tibordan qochirmaydi, nihoyat o’z shaxsiy xatti-haraktlarini (mimikasi, pantomimikasi, yurish- turishni) ham kuzatib boradi.

9. Kelajakni ko’ra bilish qobiliyati- insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o’z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko’rishda, tarbiyalanuvchining kelgusida qanday odam bo’lishi hakidagi tasavvur bilan bog’liq bo’lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarning taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bog’liq bo’ladi.

10.Konstruktiv qobiliyat - o’quv-tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat tarbiyalanuvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o’quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Shuningdek zamonaviy ta’lim beruvchi o’zida aqli donishlik qobiliyati, iymon- e’tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo’naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabi qobiliyatlari bo’lishi zarurligi ko’zda tutilmoqda.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o’rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg’usi va iroda sifatlarning namoyon bo’lishidan iborat ekanligini ko’rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog’langan. Uyushqoqlik, qat’iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasini orttirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko’ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi.

Pedagogik texnika. Har bir pedagog o’ziga xos individiual-psixologik xislatlarga ega bo’ladilar. Ulardan ba’zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq, ba’zilari talabchan, boshqalari yumshoqroq bo’ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo’lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundan “pedagogga his-tuyg’ular, emotsiyalar yot narsa bo’lishi kerak”, degan ma’no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishni ham, g’azablanishi ham, qayg’uga tushishi ham, xafa bo’lishi ham mumkin va lozim.

X-bob. PSIXOLOGIYANING METODOLOGIK ASOSLARI

Umumiy psixologiyaning predmeti va vazifalari

Psixologiya fanining predmeti. –Psixologiya so‘zi ikkita grek so‘zlaridan psixo–jon, ruh va –logos ta‘limot, ilm so‘zlaridan iborat bo‘lib, an‘anaviy ma‘noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o‘z-o‘zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi.

Psixologiyaning predmeti aniq bir shaxs, uning jamiyatdagi hulq-atvori va turli ichki kechinmalari, xulq-atvori va faoliyatlarining o‘ziga xos tarzda ong tomonidan aks ettirilishidir, deb ta‘riflash mumkin.

Psixologiyaning ob‘ekti bo‘lib nafaqat odamlar, insonlar balki oliy rivojlanishga ega hayvonlar ham xizmat qiladi, ularning psixik hayotini psixologiyaning tarmoqlaridan zoopsixologiya o‘rganadi. Biroq an‘anaviy ravishda psixologiyaning asosiy ob‘ekti insondir. Unda,

Psixologiyaning ob’ekti sifatida - bir inson yoki aniq bir shaxs emas balki turli ijtimoy guruhlar, omma va boshqa insonlarning uyushma shakllari xizmat qiladi (1-sxema).

Psixologiya–bu *insonlarning turli hayot va faoliyati bosqichlarida hamda har xil sharoitlarda ularning psixikasini namayon bo,,lishi, rivojlanishi, shakllanishi, faoliyat hamda yuzaga kelish qonuniyati to’g’risidagi fan*

Shu tariqa, ***inson psixologiyasining predmeti*** bo‘lib, insonlarning turli hayot va faoliyati bosqichlarida hamda har xil sharoitlarda individual va guruhiy psixikaning namoyon bo‘lishi, rivojlanishi, shakllanishi, faoliyat hamda yuzaga kelish qonuniyati, ayrim psixik fenomenlar va mexanizmlaridir.

Psixologiya bo‘yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, psixikadir, deb ta‘rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki,

u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli (ba‘zan ongsiz ham) tarzda aks ettirishimizni, ya‘ni bilishimiz, his qilishimiz, tasavvur qilib, anglashimizni ta‘minlaydi. An‘anaviy ta‘riflarda psixologiya fan sifatida ana shu ‒psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o‘rganadi‖, – deb ham bayon etilgan. Lekin bu qisqa ta‘riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto‘g‘ri bo‘ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba‘zan o‘z-o‘zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun

ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda roʻy berayotgan obektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega boʻlish bilan, balki hayotda munosib oʻrin egallash, oʻz ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar boʻlish, oʻziga va oʻzgalarga taʻsir koʻrsatishning usullarini bilish va ulardan oʻz oʻrnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador boʻlgan jarayonlarni, oʻzimizda, miyamiz, ongimizda roʻy berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, oʻrtoqlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu xatti-harakatlarini bevosita koʻrib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq koʻrishmay qolganimizda uni sogʻinayotganligimiz bilan bogʻliq hisni bevosita koʻrib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga oʻxshash holatlar psixologiya oʻrganadigan hodisalar va holatlarning oʻziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ularni boshqa turli hodisalardan farq qiladi.

Shunday qilib, psixologiya fani oʻrganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni oʻrganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni oʻrganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham.Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning oʻzimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular oʻzaro bir-birlari bilan bogʻliq va umumiy qonuniyatlar va printsiplarga boʻysunadi. Demak, qisqa qilib, psixologiyaning predmeti

konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli ichki kechinmalari, amallari va faoliyatlarining o‘ziga xos tarzda ongi tomonidan aks ettirilishidir, deb ta‘riflash mumkin.

Psixologiya fanining bugungi kundagi vazifalari, tabiiy, uning predmetiga biroz o‘zgarishlar kiritadi. Zero, inson ongi va qalbi uchun kurash muammosi butun dunyo miqyosida dolzarb turgan masala sifatida qaralishini inobatga olsak, jamiyatimizning har bir a‘zosi, mustaqil yurt fuqarolari ongining milliy- madaniy muhit ta‘sirida, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanishi, ular qalbida sof imon va sog‘lom dunyo qarashlar, mustaqil fikrlashning shakllanishi mexanizmlarini o‘rganish ham fanning muhim predmeti hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi yoshlarda aniq maqsad va maslakning bo‘lishi, milliy iftixor va g‘urur tuyg‘ularining to‘g‘ri tarbiyalanganligi yaxlit xalq va millat manfaatlari bilan uyg‘undir. Psixologiya fan sifatida aynan har bir shaxsda o‘ziga, yurtdoshlariga, turli faoliyat turlari hamda dunyoga nisbatan to‘g‘ri munosabatlarni shakllanishi yo‘llarini ham o‘rganishi kerak. Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan davrga sal kam ikki asr bo‘ldi. Shu davr ichida juda ko‘plab ilmiy tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo‘llanmalar yozildi. Lekin bu bilan fan o‘zining jamiyat oldidagi vazifalarini to‘laqonli bajara oldi, degan xulosa chiqarib bo‘lmadi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko‘rsatgan barcha olimlar ko‘proq diqqatlarini mavhum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita tasiri masalasi o‘ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi.

XX asrda erishilgan yutuqlardan eng muhimi shu bo‘ldiki, inson o‘z

aql- idroki, tafakkuri va ijodiy salhiyati bilan murakkab texnika, elektronika va boshqa shunga o‘xshash global texnologiyalarni kashf etdi. Lekin shu bilan birga ana shunday murakkab texnologiyalarni yaratgan inson va uning hayoti bilan bog‘liq muammolar kamaymadi. Vaqti kelganda, shunday dalillarga to‘g‘ri kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o‘ta aqilli inson o‘zi va o‘z atrofidagilarning ruhiy kechinmalarini to‘g‘ri baholay olmasligi sababli, o‘zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini xayot isbotladi.

XXI asr bo‘sag‘asida juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida munosib o‘rin olgan mustaqil O‘zbekisonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma‘naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o‘z o‘rnida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Fanda yangi yo‘nalishlar, yangicha yondashuvlar paydo bo‘ldi. Masalan, sinergetik yondashuv barcha fanlarda bo‘lgani kabi psixologiya, uning tarmoqlari hamda u bilan turdosh bo‘lgan fanlar misolida yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Eslatib o‘tamiz, –sinergetlar so‘zi grekcha –synergetes – xodimlar, sheriklar so‘zlaridan olingan o‘lib, sinergiya – synergia hamkorlikdagi, hamjihatlikdagi harakat ma‘nosini anglatadi. Ya‘ni, inson va uning psixologiyasini o‘rganish va unga ta‘sir ko‘rsatishda gumanitar fanlarning hamkorlikdagi rivojlanishi yoki boshqacha qilib aytganda, ushbu fanlar maqsadlarining mushtarak uyunlashuvi shaxs iqtidori va qobiliyatlarini rivojla,ntirishning ishonchli vositasi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, yangi davr fanlarini rivojlantirishga akmeologik yondashuv ham mavjudki, unga koʻra, har bir fanning inson uchun ahamiyati va oʻrni oʻsha fanlarning shaxs kamolotiga qoʻshajak hissaning salmogʻini belgilash va baholashni taqozo etadi. (Akmeologiya grekcha –akme – choʻqqi, yuqori pogʻona, gurkiratuvchi kuch maʻnolarini bildiradi va uning predmeti deganda insonning oʻzini-oʻzi rivojlantirish va oʻzligini anglashini yuqori darajalariga etishga oʻrgatuvchi fanlar majmui tushuniladi).

Inson psixologiyasini bilish, oʻz taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli oʻzgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni taʻminlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, roʻy berayotgan jarayonlarni obektiv va toʻgʻri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.Shunday qilib, yangi davr har bir insondan oʻz ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot oʻz davrida –Oʻz-oʻzingni bil! degan shiorni oʻrtaga tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga –Oʻz yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil‖, degan shiorni h ar qachongidan ham dolzarb qilib qoʻydi. Ayni shu muammoni echishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

Anʻanaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u oʻrganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shugʻullanadigan kimsalar oʻrganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish boʻlishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning oʻzgarishlarga boy hayoti endi

har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Psixologiya tabiiy va ijtimoiy ilmiy fan sifatida

Kishi psixikasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi eng murakkab muammolardan biri bo‘lib, tabiat qonunlarining mohiyatini tushunib etishga harakat qiladigan tadqiqotchilarni bu muammo hamma vaqt qiziqtirib kelgan.Materialistik yo‘nalishdagi olimlar psixikaning paydo bo‘lishini materiyaning uzoq davom etgan rivojlanishining natijasi deb izohlashadi. Ular materiyaning tabiatini tadqiq qilisharkan, harakat materiyaning hayot kechirish usuli, uning tarkiban o‘ziga xos ajralmas xususiyati ekanligi uchun ham materiya harakatining turli xil shaqllarini o‘rganadilar.

O‘tgan ajdodlarimiz psixologiya muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo‘nalishda, ma‘lum konsepsiya asosida o‘rgangan bo‘lsalar ham, albatta, o‘z asarlarida psixik holatlarning aks etishi, namoyon bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zgarishlari to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirishgan. Bular 4 xil manbada uchraydi:

1) xalq ijodiyotida-rivoyatlar, maqollar, matallar va masallar;

2) maxsus ijodkor kishilar o‘git-nasihat va hikoyatlarida;

3) qomusiy, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlarida;

4) turli davrlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilar ijodining mahsullarida, ya‘ni ilmiy-badiiy asarlarda.

Abu Nasr Forobiyning inson va uning psixikasi haqidagi qarashlari «Ideal shahar aholisining fikrlari», «Masalalar mohiyati», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Jism va aksidensiyalarning shaqllariga

qarab bo‘linishi»,
«Sharhlardan», «Hikmat ma‘nolari», «Aql ma‘nolari to‘g‘risida» kabi qator asarlarida bayon etilgan. Abu Rayxon Beruniy o‘zining «O‘tmish yodgorliklari» kitobida inson hayotiga doir xilma-xil ma‘lumotlarni keltiradi.

Ibn Sinoning 5 tomlik «Tib qonunlari» asarida organizmning tuzilishi, undagi nervlar va nerv yo‘llari, fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq psixik jarayonlar haqida ancha muhim ma‘lumotlar bor. Uning «Odob haqida» risolasi ham inson shaxsini shaqllantirish to‘g‘risidagi jiddiy asardir.Yusuf Xos XojIbning «Qutadg‘u bilig» asaridagi bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir.

Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xiradnomai Iskandariy», «Tuhfatul ahror», «Silsilatuz zaxob» va boshqa asarlarida ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, kasb- hunar o‘rganish, yaxshi xislatlar va odoblilik haqidagi fikrlar ifodalangan.

Devoniy o‘zining «Axloqi Jaloliy» nomli asarida insoniy fazilatlarni to‘rtga bo‘ladi va bular donolik, adolat, shijoat va iffatdir.

Alisher Navoiyning «Xazoinul Maoniy, «Maxbubul qulub» va boshqa asarlarida etuk, barkamol insonning axloqi, ma‘naviyati, odamlarga munosabati, iste‘dodi va qobiliyati to‘g‘risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik kategoriyalar ijtimoiy adolat qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta‘kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida shaxsning kamol topishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, insonlarning kamtarligi masalalari alohida o‘rin egallaydi.

Rossiyada psixologik qarashlar namunalari. Sharq va qarb madaniyati ta‘sirida inson ruhiyati bilan bog‘liq qator og‘zaki va yozma, amaliy va

ilmiy asarlarda paydo bo‘la boshladi. (Qarang: /oziev E. Psixologiya, T:»O‘qituvchi» 1994 y. 33-35 betlar).

Psixika haqidagi qarashlar ma‘lum vaqt (salkam 5 asr) kun tartibidan olib qo‘yildi va XIX asr oxiri va XX asr boshlarida /arbiy Ovrupo mamlakatlarida va AQSH da yana turli munozaralarga sabab bo‘la boshladi. (I.M.Pavlov, N.E.Ribakov, K.N. Kornilov, P.P. Blonskiy, A.S. Vigotskiy - Rossiya, U. Djems, S.Xoll - AQSH, va boshqalar).

Jonsiz, noorganik materiyadan tortib to eng oliy va murakkab materiya hisoblanmish kishi miyasiga qadar barcha materiya moddiy olamning yalpi xususiyati - in‘ikos etish xususiyatiga, ya‘ni ta‘sirotga javob qaytarish qobiliyatiga egadir.

Jonsiz tabiatda harakat jism va moddalarning mexanik, fizikaviy yoki kimyoviy ta‘siri tarzida yuz berishi mumkin. Noorganik tabiatdagi harakatning oddiy misollariga e‘tibor qiling: dengizdagi qoya suvning ta‘siriga muayyan qarshilik ko‘rsatadi - to‘lqinlar qoyaga urilib qaytadi, lekin qoyaning o‘zi ham sekin- asta emirila boshlaydi; quyosh nuri suv yuzasiga kelib urilgach, sinib qaytadi; elektr razryadlari natijasida ozon molekulalari hosil bo‘ladi.

Jonli materiyaga in‘ikosning biologik shaqllari xos bo‘lib, jonli materiyaning ma‘lum bir bosqichida esa in‘ikosning yangi shaqli sifatidagi psixika paydo bo‘ladi.

Materiya harakatining biologik shaqli-hayot-tabiat rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichidir. O‘lik materiyadan tirik materiyaga o‘tishni izohlaydigan qator gipotezalar mavjud. Ulardan biri A. I. Oparinga tegishli bo‘lib, unga ko‘ra organik moddalar - atomlari turli shaqllardagi azotning, kislorodning, vodorodning, fosfor va

oltingugurtning atomlari bilan bog‘langan modda uglerod negizida hosil bo‘lgan birikmalarning paydo bo‘lishi jonli materiya paydo bo‘lishining zarur sharti hisoblanadi.

Oparinning gipotezasiga ko‘ra taxminan 2 mlrd yil ilgari atmosferada erkin kislorod ajralib chiqib, organik moddalarda fotoximiyaviy reaksiyaning va fotosintezning yuz berishiga olib keladi. Organik birikmalarning rivojlanishi

arayonida uglerodning juda ham murakkab birikmalari - benihoya katta molekulalar paydo bo‘ladi. Bu molekulalar muhit bilan doimiy modda almashinuvi bo‘lib turishini taqozo qiladi. Bir-biri bilan ko‘shilib kattalashuvi, yoki maydalashib ko‘payib turishi mumkin deb taxmin qilinadi. Bu o‘ta katta molekulalar koatservatlar deb atala boshlangan. Jarayon yana takrorlanadi: o‘sish, parchalanish va hokazo.

Hozirgi tirik organizmning ehtimoldan uzoq bo‘lmagan prototiplari-koatservatlarda bo‘lgani kabi har qanday jonli materiyada in‘ikos jonsiz tabiatdagi in‘ikosga qaraganda sifat jihatidan yangi shaql kasb etadi. U faqat tashqi taa‘surotning kuchi va xarakteriga emas, balki organizmning ichki holatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Har qanday jonli organizm barcha tashqi qo‘zg‘atuvchilarga nisbatan tanlangan holda «Faol» munosabatda bo‘ladi va bu bilan jonli materiyaning sifat jihatidan yangi xususiyatini o‘z - o‘zini tartibga solish xususiyatini namoyon qiladi.

Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va prinsiplari

Hozirgi zamon psixologiyasi oldida mustaqilligimizni mustahkamlash bilan bog‘liq bo‘lgan ulkan va mas‘uliyatli vazifalar turadi. Psixologiyani jiddiy o‘rganishga har bir kishi o‘zini ham kuchli, ham zaif tomonlarini,

o‘z imkoniyatlarini, o‘zining ijobiy sifatlarini yanada yaxshilash, nuqsonlarini yo‘qota olish kabi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ya bilmog‘i lozim.

Bu esa psixologiya fanini o‘rganishning inson uchun qay darajada muhimligini ko‘rsatadi. Psixologiya fani oldida ham nazariy, ham amaliy vazifalar turadi.

Uning nazariy vazifalariga:

– psixik hodisalarning paydo bo‘lish xususiyatlarini o‘rganish;
– uning mexanizmlari va qonuniyatlarini ilmiy jihatdan yoritib berish;
– psixik jarayonlarni fiziologik jarayonlar bilan birga talqin qilish;
–psixik hodisalarni hayotda, amaliyotda, turli faoliyatlar jarayonida paydo bo‘lishi omillarini o‘rganish;
– intellekt (zehn, aql, idrok), abstrakt tafakkur qilish qobiliyatini shakllanishini tezlatish muammosini hal qilish;
– insonda «mudrab yotgan layoqatlarni qobiliyat darajasida shakllanishini ilmiy asoslab berish»;
– yangicha fikrlash, ya‘ni yangicha tafakkur qilishning psixologik masalalarini yoritib berish. Shuningdek, aqliy taraqqiyotga, kasb-hunar o‘rganishga, yosh va individual xususiyatlarni o‘rganish, ijodiy faoliyat, badiiy ijodiyot, mehnatda ijodning paydo bo‘lishi, axborot vositalari va pedagogik texnologiyaning bilim egallashga ta‘sirini o‘rganish, ta‘lim jarayonini takomillashtirish va uni hayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

Psixologiyaning amaliy vazifalari psixologik bilimlarni keng jamoatchilik ommasiga yetkazib berishdan iboratdir. Hozirgi sharoitda otaonalar, tarbiyachilar bola tarbiyasida psixolog-pedagoglarning psixologik bilimlariga muhtojdirlar. Turli yoshdagi bolalarning yoshlik va

individual farqlarini ajratish, ularga individual munosabatda bo‘lish, iqtidorli bolalar bilan ishlash, yakka bola tarbiyasi, tarbiyasi qiyin bolalarga o‘zaro munosabat, turli yot oqimlarga kirib ketuvchilar bilan ishlash, sust o‘zlashtiruvchi bolalar bilan ishlash, psixik ivojlanishida orqada qolgan, psixik taraqqiyoti tutilib qolgan yoki rivojlanishida kamchiligi bo‘lgan bolalar bilan ishlash kabi masalalarda ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan keng jamoatchilikni, ota-onalar, mahalla faollarini bahramand qilishdan iboratdir.

Jamoatchilikni psixologik bilimlardan xabardor qilish, (ro‘znoma va oynoma) gazeta va jurnallarda maqolalar chop etish, radio va teleko‘rsatuvlarda turli eshittirishlar tashkil qilish, ota-onalar bilan suhbatlashish, shahar va viloyatlarda ota-onalar universitetlarini uyushtirish va uning ishini faollashtirish, mahallalarda bola tarbiyasi haqida ma‘ruza, davra suhbatlarini uyushtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jamiyatimiz taraqqiyotida, komil insonni shakllantirishda, sog‘lom turmush tarzini barpo qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Determinizm prinsipi, ong va faoliyat birligi prinsipi, ongning faoliyatda rivojlanish prinsipi

XX asrning 30-yillarning o‘rtalariga kelib psixologiya fanining asosiy printsiplari: determinizm printsipi, ong va faoliyatning birligi printsipi, psixikaning faoliyatda taraqqiy etish printsiplari aniq ifodalab berildi.

Determinizm tamoyili. Bu tamoyilga binoan psixika yashash sharoiti bilan belgilanadi. Yashash sharoitining o‘zgarishi bilan psixika ham o‘zgaradi. Inson tug‘ilgandan keyin qanday sharoitda yashasa, unga yashash muhiti qanday ta‘sir qilsa, qanday ta‘lim-tarbiya olsa u shu

sharoit, muhitda shakllanadi, uning ongi ham shu muhit ta‘sirida rivojlanadi. Chunki, inson ongining paydo bo‘lishi, shakllari va taraqqiyoti hayot uchun zarur bo‘lgan moddiy narsalar ishlab chiqarish usullari taraqqiyotining qonunlari bilan belgilanadi. Shuningdek, ijtimoiy tarixiy xarakterga ega ekanligini tushunish inson ongining ijtimoiy turmushga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Insonning yashagan muhiti uning ongini qanday rivojlanishiga ta‘sir qiladi. U shu muhitda shakllanadi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili. Bu tamoyilga binoan ong va faoliyat bir- biriga qarama-qarshi ham emas, aynan bir narsa ham emas, ular bir butunlikni tashkil qiladi. Inson faoliyat ko‘rsatar ekan uning mazmunini, motivlarini, qanday bajarish kerakligini ongida rejalashtiradi va ular yordamida tevarak-atrofni qurshab olgan muhit bilan munosabatga kirishadi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili psixologlarning faoliyatni o‘rganish orqali xatti-harakatlardan ko‘zlangan maqsadga muvaffaqiyatli erishishini ta‘minlovchi ichki psixologik mexanizmlarni, ya‘ni psixikaning obyektiv qonuniyatlarini ochishlariga imkon beradi.

Psixika va ongning faoliyatda taraqqiy etishi tamoyili. Bu tamoyilga binoan psixika va ong faoliyatda rivojlanadi va u faoliyat natijasidir. Insonning psixik taraqqiyoti o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyati bilan bog‘liqdir. Bu faoliyatlarsiz psixik taraqqiyotni tasavvur qilish mumkin emas. Masalan: bola o‘yin orqali o‘zaro munosabatlarga kirishadi, nutqni egallaydi, narsa va hodisalarni idrok qiladi, xotirasida saqlaydi, tasavvur qiladi, fikr yuritadi, xayol qiladi. O‘yinda xarakter shakllanadi. O‘z-o‘zini anglaydi. Faoliyat jarayonida ota-bobolarining ijtimoiy tajribalarini o‘rganadi. Bu esa taraqqiyotning faqat insongagina xos bo‘lgan maxsus

shakli sifatida yuz beradi. Bola ta‘lim jarayonida psixik taraqqiyotning yakka shakllarini mustaqil, faol fikr yuritish, mavhum fikrlash kabilarni egallaydi. Bu esa uning ongini yana ham rivojlanishiga olib keladi. Demak, ong faoliyatda namoyon bo‘lib, faoliyatda tarkib topadi. Psixika va ong taraqqiyot mahsuli va faoliyat natijasi ekanligini hamma otaonalar, tarbiyachi va o‘qituvchilar bilishlari lozim.

Psixikaning faoliyatda rivojlanishi tamoyili uni klassifikatsiya qilish imkonini eradi. Shu nuqtayi nazardan psixologiya sohalarining mazmuni va vazifasiga qarab uni klassifikatsiya qilish va tuzilishini aniqlash mumkin.

Hozirgi zamon psixologiyasi quyidagicha klassifikatsiya va tuzilishga ega:

I. Aniq faoliyatning psixologik tomoni.

II. Taraqqiyotning psixologik tomoni.

III. Insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatining psixologik tomoni.

I. Psixologiyaning aniq turdagi inson faoliyati psixik muammolarni o‘rganuvchi bir qator sohalarni o‘z ichiga oladi.

1. Mehnat psixologiyasi (mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, uni ilmiy tashkil qilishning psixologik tomonini o‘rganadi).

2. Muhandislik psixologiyasi(mashina bilan inson o‘rtasidagi vazifalarni taqsimlash, muvofiqlashtirish, avtomatlashtirish jarayonini o‘rganadi).

3. Pedagogik psixologiya (ta‘lim, tarbiya, o‘qituvchi psixologiyasi muammolarini o‘rganadi).

4. Tibbiyot (meditsina) psixologiyasi (bemorning xulq-atvori va

shifokorning faoliyatini o‘rganadi).

Shuningdek, psixik hodisalar bilan miyadagi fiziologik tuzilmalarni o‘rganadigan neyropsixologiya, psixik faoliyatga ta‘sir qiluvchi dorivor moddalarni o‘rganadigan psixoformakologiya, davolashga ta‘sir etuvchi vositalarni o‘rganuvchi psixoterapiya, inson sog‘lig‘ini ta‘minlash uchun turli tadbirlarni ishlab chiquvchi psixoprofilaktika psixologiyasi ham shular jumlasidandir.

5. Yuridik psixologiya: sud ishi psixologiyasi (jinoyatni ochish), criminal psixologiya (jinoyat motivlarini aniqlash), penitensiar yoki axloq tuzatish mehnati psixologiyasi kabilar kiradi.

6. Harbiy psixologiya (jangovor harakatlarni o‘rganuvchi psixologiya).

7. Sport psixologiyasi (sportchilar shaxsini o‘rganadi).

8. Savdo psixologiyasi (sotuvchi va xaridorlarning o‘zaro munosabatlari psixikasini o‘rganadi).

9. Ilmiy ijodning psixologiyasi (ijod qiluvchi shaxsning faoliyatini o‘rganadi). Inson faoliyati turli-tumandir. Hozirgi kunda har bir faoliyatning psixologiyasini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Taraqqiyotning psixologik tomoni. Taraqqiyotning ususiyatlarini asos qilib olib, uni o‘rganadigan psixologiya turlari ajratiladi.Bular:

1. *Bolalar psixologiyasi.*
2. *Yoshlar psixologiyasi.*
3. *O‘smirlar psixologiyasi.*
4. *O‘spirin yoshlar psixologiyasi.*
5. *Katta yoshli kishilar psixologiyasi.*
6. *Geranto psixologiya (qariyalar psixologiyasi).*

7. Maxsus (anomal taraqqiyot) psixologiya. Shuningdek, bunga patopsixologiya (psixik taraqqiyoti normadan oqqan) oligofreno (miyaning tug‘ma kamchiliklari bilan bog‘liqligini o‘rganadi), Surdopsixologiya (karlar), tiflopsixologiya (ko‘r yoki xira ko‘radigan kishilar psixologiyasi) kabilar kiradi.

8. Qiyosiy (psixik hayotning nasliy shakllarini tekshiradi) psixologiya.

Bunga zoopsixologiya (tur, jins, oilaga mansub hayvonlar psixikasini o‘rganadigan fan), etologiya (hayvonlar xatti-harakatining tug‘ma mexanizmini o‘rganadigan fan) kabilar kiradi.

II. Insonni jamiyatga bo‘lgan munosabatining psixologik tomoniga mansub bo‘lgan psixologiyalar faoliyat va taraqqiyotda yuz beruvchi psixik hodisalarni o‘z ichiga oladi. Bunga:

1. Jamoada odamlarni o‘zaro munosabatlarini va unda yuzaga keladigan psixik hodisalarni o‘rganadigan ijtimoiy psixologiya, din psixologiyasi ham (diniy tasavvurlar, hissiyotlarning kelib chiqishi, diniy jazava (zikr)larni o‘rganish bu psixologiyaning ajralmas qismidir.

2. Inson shaxsining individual psixologik yoki differensial (farq) xususiyatlarini o‘rganadigan shaxs (yoki differensial) psixologiyasi.

3. Shaxsning kasbga bog‘liq qobiliyatlarini, kasbga yaroqli ekanini aniqlovchi xarakterologiya, individual psixologik ayirmalar tipologiyasi, professiografiya.

4. Umumiy psixologiya. Bu psixologiya psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini, tadqiqot usullarini, psixologiya fani asoslab bergan tamoyillarni, psixologiya faniga kirib kelgan asosiy ilmiy tushunchalarni xarakterlab beradi. U psixik jarayonlar (bilish jarayoni,

iroda, hissiyot, psixologik holatlar) va xususiyatlarni shaxs ongi faoliyatida rivojlanadi degan tamoyil asosida o‘rganadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining tadqiqot metodlari

Psixologiya, boshqa fanlar qatori o‘zining o‘rganish va tekshirish usullariga (metodlariga) egadir. Psixologiyada o‘rganishning to‘rt guruh metodi akslantiriladi.

Guruh metodlariga ***tashkiliy metodlar*** kiradi: taqqoslovchi, longityud, kompleksli metodlar kiradi.

Taqqoslovchi metod- hozirgi vaqtda umumiy psixologiyada, ijtimoiy psixologiyada, patopsixologiyada va defektologiyada keng qo‘llaniladi.

Logityud metodida - bir shaxs bir necha marotaba uzoq vaqt davomida tekshiriladi.

Kompleks metodida- hozirgi sharoitda tadqiqotda har xil fanlarning nomzodlari ishtirok etadi. Bunda bitta ob‘ektni har xil vositalar yordamida o‘rganiladi. Bunday o‘rganish usuli har xil xodisalarning bir-biriga bog‘likligi va aloqasi o‘rganiladi. Masalan: shaxsning fiziologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishidagi aloqasi.

Emperik metodlar. Bunga ko‘zatish va o‘z-o‘zini ko‘zatish; eksperiment (laboratoriya, tabiiy, shaqllanuvchi); psixologik metodlar (test, anketa, suhbat, sotsiometriya, intervyu); samarali faoliyatni tahlil qilish; biografik metodlar kiradi.

Olingan ma‟lumotlarni qayta o‟rganish. Bunga sonli (statistik) va sifatli (guruhlarga qarab) materiallarni ajratish, tahlil qilish metodi kiradi.

Korrektsion metod. Bunga autotrening, guruhli trening, psixoterapik ta‘sir usullari, ta‘lim kiradi.Hamma psixologik tadqiqotlar umumiy

bosqichlardan iborat bo‘ladi.

1- bosqich - tayyorgarlik bosqichi. Bunda har xil vositalar yordamida material o‘rganiladi, dastlabki ma‘lumot to‘planadi.

2- bosqich-xususan eksperimental bosqich bo‘lib, tadqiqotning konkret uslubietiga amal qilinadi, va uz navbatida bu bosqich birin-ketin qo‘llaniladigan qator-bo‘g‘inlarga - eksperiment seriyalariga bo‘linadi.

Tadqiqotning 3-bosqichi - tadqiqot ma‘lumotlarini sifat jixatidan qayta ishlashdir. O‘tkazilgan tadqiqot bo‘yicha sonli va sifatli tahlil qilinadi, bu esa mavjud aloqa va qonunlarni ochishga imkon beradi.

Tadqiqotning 4-bosqichi - olingan ma‘lumotlarni izohlab berish, ularni psixologik nazariya asosida talqin qilish, gipotezaning to‘g‘ri va noto‘g‘ri ekanligini uzil-kesil aniqlashdan iboratdir.

Psixologiyaning asosiy metodlariga ko‘zatish va eksperiment metodlari kiradi.

Kuzatish metodi. Turmushdagi kuzatuvdan farqli o‘laroq, xulq-atvor va faoliyatning kuzatilayotgan faktini tasvirlashdan uning ichki psixologik mohiyatini tushuntirib berishga muqarrar o‘tilishini taqozo etadi. Kuzatuv jarayonida hosil bo‘lgan gipoteza ana shu o‘tishning shakli hisoblanadi. Uni tekshirish yoki rad etish esa keyingi kuzatuvlarda hal bo‘ladi. Psixologik kuzatuvlarning jiddiy muhim talablaridan biri aniq rejaning bo‘lishi va olingan natijalarni maxsus kundalikka qayd etilishidan iborat. Kuzatishning psixolgiyada ikkita asosiy shakli mavjud. Bu o‘z-o‘zini kuzatish yoki introspektsiya va ob‘ektiv kuzatish.

Eksperiment metodi. Kuzatishdan farqli o‘laroq, psixologik eksperiment tadqiqotchining faoliyatiga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, tadqiqotchi psixologik fakt aniq namoyon

bo‘lishiga, uning tadqiqotchi xohlagan yo‘nalishi bo‘yicha o‘zgartirilishiga, har jixatdan tadqiq qilish uchun bir necha martalab takrorlanishiga imkon beradigan shart-sharoitni yaratadi.

Eksperimental metodni birinchi marta fiziolog Veber (1795–1878) va fizik Fexner (1801–1887), sezgilarni tekshirishda qo‘llanilgan eksperimental tadqiqot usullarini Vilgelm Vundt (1832–1920) mukammal ishlab chiqqan. 1879-yilda V.Vundt Leypsig universiteti huzurida eksperimental psixologiya bo‘yicha birinchi laboratoriyani ochgan. XIX asrning oxirida Rossiyada eksperimental psixologiya bo‘yicha bir qancha laboratoriyalar vujudga keltirildi. Tokarskiy – Moskvada, Bexterev – Qozonda, N. N. Lange – Odessada shunday laboratoriya ochishgan.

1911-yilda Moskva universiteti huzurida professor Chelpanov rahbarligi ostida eksperimental psixologiya instituti ochildi. Maxsus qurilgan binoga joylashtirilgan va yaxshi jihozlangan bu institut hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasi Pedagogika fanlari akademiyasi sistemasiga kiradi. Toshkentda birinchi laboratoriya P.I.Ivanov rahbarligida TDPU da tashkil etildi. Eksperiment metodining ikkita asosiy turi farqlanadi: laboratoriya va tabiiy eksperiment.

Laboratoriya eksperimenti - laboratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob uskunalar yordamida o‘tkazishda va sinaluvchining xatti-harakatlari ko‘rsatmaga binoan sodir bo‘lishi bilangina emas, balki sinaliyotganligini biladigan sinaluvchi kishining munosabati bilan ham belgilanadi. Laboratoriya eksperimenti orqali diqqatning xossalarini, idrok, xotira va boshqalarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin.

Tabiiy eksperiment (birinchi marta 1910 yilda A.F. Lazurskiy taqlif etgan), mo‘ljallanishiga ko‘ra sinaluvchida hosil bo‘ladigan zo‘riqishga yo‘l qo‘yilmasligi va tadqiqotni odatdagi, tabiiy sharoitlarga (dars, suhbat, o‘yin,) ko‘chirish lozim.

***Psixologik testlar*.** Psixologik metodlar faqat tadqiqot maqsadlari uchun emas, balki sinov maqsadlari uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

Test - bu qisqa muddatli topshiriq bo‘lib, uning bajarilishi ba‘zan bir psixik xodisaning mukammaligining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Testlar yordamida ayrim qobiliyatlarning, ko‘nikmalarning, malakalarning bor yo yo‘qligini aniqlashga, u yoki bu kasb sohasida ishlash uchun layoqatlilik darajasini va hakozolarni bilishga harakat qilinadi.

Suhbat metodi - yordamchi metod bo‘lib, o‘rganilayotgan muammoni qo‘shimcha o‘rganishga imkon beradi. Suhbat doimo o‘rganilayotgan vazifaning maqsadlariga mos kelishi va rejali ravishda tashkil etilishi lozim. Tekshirishning qanday borishiga va tekshiriluvchining individual xususiyatlariga qarab, suhbat vaqtida savollarni o‘zgartirish, to‘ldirish, boshqacha qilib berish mumkin.

Psixologiyada odam faoliyatining maxsullarini o‘rganish metodidan ham foydalanish mumkin. Masalan: yozgan asarlari, chizgan rasmlari, yozib qoldirgan kundaliklari, xatlari o‘rganiladi. Ayrim kishilarning, ma‘lum bir davr kishilarning psixikasini ularning faoliyat samarasiga qarab bilsa bo‘ladi.

XI-bob. SHAXS VA UNING MOHIYATI

Shaxs haqida tushuncha

Shaxs tushunchasi keng va ko‘p qirralidir. Mehnat qila olish ko‘nikmasining mavjudligi, insonlar bilan birgalikda faoliyat munosabatni amalga oshirayotgan kishi asta – sekin shaxsga aylanib boradi. Bevosita moddiy dunyoni, jamiyatni va xususan o‘zini o‘rganish va faol tarzda qayta o‘zgartirish jarayonining sub‘ektga aylanmoqda. Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi, ya‘ni shaxs, individ, individuallik tushunchasining o‘zaro bog‘liqlik jihatlari mavjudmi? Buning uchun mazkur tushunchalarning mazmunini tahlil qilish samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham dastlab individ tushunchasining mazmuniga to‘xtalish lozim. A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan –Umumiy psixologiya‖ darsligida –Individ‖ tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaif ovsarni ham, yovvoiylik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash lozim. Individ tushunchasi professor E.G‘oziyevning –Umumiy psixologiya darsligida tavsiflanishicha, individ lotincha ajralmas, alohida zot ma‘nolarini anglatib, inson zotiga xoslik masalasini belgilab beradi. Shuningdek, katta yoshdagi ruhiy sog‘lom odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo‘q, oddiy malakalarni o‘zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi.

M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan –Psixologiyadan qisqacha izohli lug‘atda individ bo‘linmas, ayrim jins, shaxs ma‘nolarini anglatib, biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Keltirilgan ta‘riflardan shuni xulosa qilish mumkinki **shaxs** deb muayyan jamiyatda yashovchi faoliyatning biror turi bilan shug‘ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Individ va individuallik

Individ sifatida dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta‘sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Dunyoga kelayotgan chaqaloqning gavda tuzilishi unda tik yurish uchun imkoniyatining mavjudligini taqozo etsa, miyasining tuzilishi aql-hushining rivojlanishi uchun imkoniyat tug‘diradi, qo‘llarining shakli shamoyili mehnat qurollaridan foydalanish istiqbollarining mavjud-ligini ko‘rsatadi. Yuqorida aytilganlarning barchasida chaqaloqning inson zotiga mansubligini ta‘kidlanadi va bu fakt individ tushunchasida qayd etiladi. Buni quyidagi sxema asosida tushuntirish lozim.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri–bu uning individualligidir. **Individuallik** deganda insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig‘indisi, iroda, faoliyat motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Individuallik individning boshqalardan farqlaydigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o‘ziga xosligi hamda uning qaytarilmasligidir. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‘zida

mujassamlashtirgan odam yo‘q, inson shaxsi o‘z individualligi jihatidan betakrordir.

Shaxsning ijtimoiylashuvi

Odamning ijtimoyligi uning biologik holati bilan ajratilgan emas. Shaxsning individligi boshidayoq kiritilgan va shaxsiy sifati keyinchalik yuzaga keladi. Kelgusida u yuqori shaxsiy darajasi bilan namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro bog‘likligi haqida E.A.Klimov quyidagi misolni keltiradi, odamning –biologikligi yoki–ijtimoiyligi to‘g‘risidagi tortishuv shunchalik to‘g‘ri va mantiqiydirki, u xuddi kitobning kog‘ozi yoki kitob kog‘ozi haqidagi tortishuvga o‘xshaydi.

Odam tug‘ilgan onidan boshlab shaxslar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi. CHunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o‘ziga o‘xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko‘rinishlarining faol ob‘ekti va sub‘ektiga aylanadi. Odam bolasining jamiyatga qo‘shilib yashashining psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayon psixologiyada **ijtimoiylashuv** yoki **sotsializatsiya** deb yuritiladi. Ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash, hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, bunda har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta‘sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko‘rsatishi va kerak bo‘lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o‘z navbatida o‘zgalarga ta‘sirini o‘tkaza olishi jarayoni tushuniladi. Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonidir.

G‘arbiy Evropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri bu rollar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o‘zining har bir a‘zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo‘lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatlarida o‘zgalar bilan munosabat muloqot o‘rnatishda sezilarli iz qoldiradi.

AQSHda keng tarqalgan nazariyalardan yana biri bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o‘zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko‘pincha ko‘nikmalarni egallash, bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘lib, uning samarasi qo‘zg‘atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Bu nazariyaning tarafdorlari E.Torndayk va B.Skinnerlar hisoblanadi.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo‘lib, u biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvni uchta mustaqil yo‘nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o‘z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o‘zaro tafovutlanadi.

Psixologiyaning irrasional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo‘lishi emosiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o‘ziga xos betakror xususiyatga egaligini ta‘kidlaydi.

Kognitiv yo‘nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, J.Kelli va

boshqalarni kiritish mumkin.

J.Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo‘lib, u intellekt funksiyalari va intellekt davrlari ta‘limotini o‘z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptasiya (moslashish, ko‘nikish) dan iborat bo‘lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, L.I.Bojovich singari yirik psixologlarning asarlarida o‘z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu masala bilan shug‘ullanuvchilar safi kengayib bordi. Xuddi shu boisdan shaxsning tuzilishi, ilmiy manbai, rivojlanishning o‘ziga xosligi bo‘yicha yondashuvda muayyan darajada tafovutga ega. Hozirgi davrda shaxsning rivojlanishi yuzasidan mulohaza yuritilganda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va undan so‘ng ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiq. Ontogenezda shaxs taraqqiyotini bir necha bosqichlarga ajratish va ularning har biriga alohida ilmiy psixologik ta‘rif berish nuqtai-nazaridan yondashishni quyidagi nazariya va yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish mumkin. Jumladan, rivojlanishdagi inqirozga binoan (L.S.Vigotskiy); motivatsion yondashish (L.I.Bojovich); faoliyatga ko‘ra munosabat (D.B.Elkonin); shaxsning ijtimoiylashuv xususiyatiga e‘tiboran (A.V.Petrovskiy); shaxsning tutgan pozitsiyasini hisobga olib (D.I.Feldshteyn) va hokazo.

Shunday qilib, jahon va hamdo‘stlik mamlakatlari psixologlari tomonidan bir qator puxta ilmiy-metodologik asosga ega bo‘lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati

ontogenezda shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo‘lib, xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni echishda keng ko‘lamda qo‘llaniladi.

Shaxs va uning faolligi: Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Faollik (lotincha
–actus - harakat, –activus - faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o‘sha oddiy qo‘limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog‘liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

A. Tashqi faollik - bu tashqaridan va o‘z ichki istak-xohishlarimiz ta‘sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orhali namoyon bo‘ladigan faollik.

B. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) hamda ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya‘ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq

ayriliqdan so‘ng ona o‘z farzandi visoliga etdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini silashi, ko‘zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko‘rsak, ichki faollik - o‘sha ko‘z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog‘inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta‘siri), ko‘rib idrok qilgandagi o‘zaro bir- birlariga intilishni ta‘minlovchi ichki, bir qarashda ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo‘ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo‘lsak ham, uni ifodalagan rasmni ko‘rsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, shaxsning jamiyat bilan bo‘ladigan murakkab va o‘zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Shaxsning o‘z-ozini anglashi

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta‘rif berilgan va uning tuzilishini o‘ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. quyida mualliflarning ayrimlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob‘ekti, ham sub‘ektidir. A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta‘rif beradi: shaxs - bu faoliyat sub‘ektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o‘z rolini

anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a‘zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta‘rificha, shaxs - bu tashqi ta‘sirlar yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo‘lmagan tushunchalar qo‘llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Odam: sut emizuvchilar sinfiga dahldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o‘ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo‘llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o‘zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

1. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala) ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

2. Individuallik. Har qaysi inson betakror o‘ziga xos xususiyatlarga ega. SHaxsning o‘ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo‘ladi.

1. Yo‟nalganlik-ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e‟tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. Bilimlar, ko‟nikmalar, malakalar-hayot va faoliyat jarayonida

egallanadi.

3. Individual tipologik xususiyatlar temprament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi. K.K.Platonov ta‘limotiga ko‘ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. Yo‟nalganlik- shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko‘lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba- Ta‘lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko‘nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

III. Psixologik aks ettirish shakllari - Ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

IV. Biologik shartlangan

Miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog‘liq bo‘lgan patologik o‘zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo‟nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o‘zaro ta‘sir etuvchi har xil xususiyatli g‘oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

Ustuvor yo‘nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar-faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta‘minlovchi tizim. O‘zaro ta‘sir etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo‘ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma‘naviy sifatlar ajratiladi.

4. Mashqlar tizimi. Hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarishni ta‘minlaydi.

Shaxsning psixologik tuzilishi modellari tahlili

Psixologiya fanida sistemali yondashuvga oid tadqiqotlarning ko‘rsatishiga qaraganda, har qaysi tizimning tavsifi sifatida uning tuzilishi qabul qilinadi. Odatda, ya‘ni struktura-bu ob‘ektning bir qator tarkiblari o‘rtasidagi uning yaxlitligi, o‘ziga o‘zining ayniyatlashuvini ta‘minlovchi barqaror ichki aloqalar majmuasidir.

Biz shaxs strukturasi, ya‘ni tuzilishi muammosini bayon, talqin qilishda tayanch va jabha, komponent tushuncha tariqasida yaxlit tuzilishning nisbiy mustaqil qismidan, tahlilning birligi sifatida element tushunchasidan (atamasidan), har qanday kontekstlardan yaxlitlik xususiyatini aks ettirmasa ham ulardan foydalanamiz. Bunday tafovut (farq) shaxs xususiyatlarini yaxlit holda mukammal ochish uchun tarkibiy tizimli va elementli tizimli darajalarini namoyon etish uchun mutlaqo zarur.

Shaxsning tuzilishi to‘g‘risidagi muammo o‘zining dolzarbligi bilan fanning tadqiqot doirasidan, predmetidan tashqari chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyatini qirralarini ochish imkoniyatiga egadir. Xuddi shu boisdan psixologiyaga falsafa, pedagogika, tibbiyot singari fanlarning namoyandalari tomonidan uni muhokama qilish namoyon bo‘layotganligi tufayli unga qiziqishning yuksakligidan dalolat bermoqda.

Psixologiya fani shaxs strukturasining modelini yaratishga boshqa

fanlardan izchilroq kirishadi, uning tabiatini aks ettirish imkoniyatiga erishadi, natijada u psixologiya muammolari majmuasida markaziy o‘rin egalladi. Psixologiya olimlari tomonidan tadqiqot qilinayotgan dolzarb muammolar bilan shaxs tuzilishiga oid masala u yoki bu jabhasi orqali uzviy bog‘likka ega. Bu kontekstda xulq motivatsiyasi, shaxsning tipologiyasini ishlab chiqish, shaxsga ta‘sir o‘tkazishning samarali yo‘l-yo‘riqlarini qidirishni eslatib o‘tishning o‘zi kifoya.

Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo‘yicha eng salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo‘lib, xilma-xil shaxs strukturasining modeli yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu borada B.G.Ananevning fikricha, psixologik hodisalarni aql (intellekt), hissiyot (emotsiya) va irodaga ajratilish... inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasining dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, uning haqchilligi ko‘pgina psixologlar tomonidan tan olinishidir. B.G.Ananev strukturaviy yondashishning boshqa variantlari tariqasida turlicha psixik hodisalar bilan qarama-qarshi aloqalarning e‘tirof etilishi - psixik aktlarning psixik funksiyalar, ongning ongsizlik, tendensiyalarning potensiyalar bilan uyg‘unligini ta‘kidlaydi. L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko‘ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, madaniy, quyi, tabiiy turlarga ajratishni kiritish mumkin, chunki ularning negizida ta‘lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar sistemasi o‘zaro ta‘sirining ifodalanishi yotadi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida psixologik hodisalarni psixik jarayonlarga, holatlarga, shaxsning xususiyatlariga ajratish qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvning mavjudligi B.G.Ananev tomonidan strukturaviy konsepsiyaning bir tajribasi sifatida

qaraladi. Bu voqe–hodisalarni bir qator jabhalari bilan to‘ldirishga intilish psixofiziologik xususiyat kasb etib, psixik jarayonlar uchun dastlabki materiallarni to‘plash imkoniyatini (idrok, tafakkur, emotsiya, iroda) beradi‖. Uning fikricha, dastlabki materiallar, bir tomondan, psixik funksiyalar (sensor, mnemik), xulqning, ikkinchi tomondan, elementar, motivlari (ehtiyoj, ustanovka) hisoblanadi. Olimning mulohazasicha, bu qo‘shimchalar –genetik ma‘no kasb etib, fiziologiyadan miya mexanizmlarini umumpsixologik va neyrogumoral regulyatorlarini qamrab olish psixologiyaga o‘tishga imkon beradi. Lekin ushbu strukturaviy yondashuvning maxsus psixologik deb qarashdan qat‘i nazar, hozirgi zamon sintetik insonshunosligi uchun umumiy ahamiyatli jihatni yuksaklikka ko‘tarishga qodir emas.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan psixik hodisalarning turli ko‘rinishlarini fenomenlarga ajratishning qonuniyligi bo‘yicha bahs yuritmasdan turib, jumladan jarayonlarga, holatlarga, xususiyatlarga bo‘linishdan ko‘z yumib, ushbu kategoriyalar, ularning turlicha talqini shaxs strukturasining tarkibiy qismlariga tenglashtirish mumkin emasligini qayd etish zarur. Chunki ular sof psixologik asnoda vaqt va fazo o‘lchami bo‘yicha aniqlikka ega emasdirlar. Shuning uchun B.G.Ananev tomonidan kiritilgan ilmiy qo‘shimchalar umumpsixologik vaziyatni keskin o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lmasa-da, uning ayrim tomonlarni to‘ldirishga ega.

Shaxs tuzilishining modelini ishlab chiqishdagi muhim qiyinchiliklarning eng asosiy sababi har xil nuqtai nazarlar mavjudligida yorqin namoyon bo‘ladi, ular–shaxsning tuzilishiga ko‘ra, substansional va ideal, irsiy va egallaganlik, ijtimoiy va psixologik, somatik va

psixologik tomonlariga ega‖ (V.M.Banshikov). Mulohazadan ko‘rinib turibdiki, bunda shaxsning –substansional tomoni‖ ni irsiy, turmushda egallaganlik, somatik jabhalar bilan taqqoslaganda mustaqil strukturaviy tarkib sifatida alohida reallikka ega emas. Bunday talqin biron bir psixologik hodisani turlicha nuqtai nazardan izohlash bilan bog‘liq bo‘lib, yakkahol, ya‘ni individual voqelik (reallik) ustida gap borayotganligini bildiradi.

Psixologiya fanida qo‘llanilib kelinayotgan va nisbatan barqarorlashgan shaxsni yo‘nalganlikka, temperamentga, xarakter va qobiliyatlarga bo‘lish etarli darajada keskin e‘tirozlarga sabab bo‘layotgani yo‘q. Shuning uchun ko‘pgina psixologlar umumiy tizimning majmuasini tashkil qiluvchi murakkab xususiyatlarning tuzilishi sifatida qaraydilar va shaxsning yaxlit tavsifini ifodalaydi, deb tushunadilar. A.G.Kovalevning fikricha, temperament tabiiy (irsiy) xususiyatlarning tizimini bildirib keladi, yo‘nalganlik - ehtiyoj, qiziqish, ideallar tizimi, qobiliyatlar- intellektual, irodaviy va emotsional xislatlar ansambli, xarakter - xulq-atvor usullarining va munosabatlarining sintezidir.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, shaxsning murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ko‘p qirrali xususiyatlari, fazilatlari, xislatlari o‘zaro bir-birlarining ichiga singib ketganligi natijasida tabiiy, emotsional, ehtiyojlar, munosabatlar, xulq-atvor usullari to‘g‘risidagi mulohazalar umumlashmalar umumlashmasidir. Chunki qiziqishlar va ideallarni intellektual, emotsional, irodaviy xususiyatlarisiz tasavvur qilish mumkin bo‘lmaganiday, munosabatlar va xulq-atvor usullari ham alohida hukm surishi g‘ayritabiiy holatdir.

K.K. Platonovning kontseptsiyasiga ko'ra, shaxs tuzilishining 4 darajasi (biologik va ijtimoiy) mavjud.

1. Shaxsning eng quyi darajasi biologik jihatdan aniqlangan quyi tuzilma bo'lib, o'z ichiga oladi yosh, psixikaning jinsiy xususiyatlari, nerv sistemasi va temperament tipining tug'ma xususiyatlari.

2. Keyingi quyi tuzilma insonning aqliy jarayonlarining individual xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ya'ni. xotira, idrok, hislar, fikrlash, qobiliyatlarning individual namoyon bo'lishi, ham tug'ma omillarga, ham bu fazilatlarni tayyorlash, rivojlantirish, takomillashtirishga bog'liq.

3. Shaxsning keyingi darajasi o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, qobiliyat va odatlarni o'z ichiga olgan individual ijtimoiy tajriba. Bu quyi tuzilma asosan o'quv jarayonida shakllanadi va ijtimoiy xususiyatga ega.

4. Shaxsning eng yuqori darajasi - u diqqat, shu jumladan, intilishlar, istaklar, qiziqishlar, mayllar, ideallar, qarashlar, insonning e'tiqodlari, uning dunyoqarashi, xarakter xususiyatlari, o'zini o'zi qadrlash. Shaxs yo'nalishining quyi tuzilmasi eng ijtimoiy shartli bo'lib, jamiyatdagi ta'lim ta'sirida shakllanadi, shaxs kiritilgan jamoa mafkurasini to'liq aks ettiradi.

Odamlar o'rtasidagi farq sezilarli: har bir quyi tuzilmada e'tiqod va qiziqishlar, tajriba va bilimlar, qobiliyat va ko'nikmalar, temperament va xarakterdagi farqlar mavjud. Shuning uchun boshqa odamni tushunish oson emas, boshqa odamlar bilan nomuvofiqlik, qarama-qarshilik, hatto ziddiyatlardan qochish oson emas. O'zingizni va boshqalarni chuqurroq tushunish uchun sizga kuzatish bilan birlashtirilgan ma'lum psixologik bilim kerak.

Taniqli rus psixologi S. L. Rubinshteyn shaxsdagi yo'nalish, qobiliyat, temperament, xarakter va o'zini o'zi anglashni ajratib ko'rsatdi.

A.N.Leont'ev shaxsiyatni shaxsning ijtimoiy mohiyatidir, shuning uchun insonning temperamenti, xarakteri, qobiliyatlari va bilimlari uning quyi tuzilmalari sifatida shaxsiyat tarkibiga kirmaydi, ular faqat ushbu shakllanishning shakllanishi uchun shart-sharoitdir, ijtimoiy yilda. uning mohiyati. Yo'nalish va iroda shaxsga tegishli, chunki ixtiyoriy harakatni motivlar ierarxiyasidan tashqarida ko'rib chiqish mumkin emas, yo'nalish esa motivatsion tuzilmalarning bevosita ifodasi, ya'ni shaxsning o'zagidir.

Shaxsiyat yo'nalishi shaxsni muayyan xulq-atvor va faoliyatga, nisbatan murakkab hayotiy maqsadlarga erishishga yo'naltiruvchi barqaror motivlar, qarashlar, e'tiqodlar, ehtiyojlar va intilishlar yig'indisidir.

Orientatsiya har doim ijtimoiy jihatdan shartlangan bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida ontogenezda shakllanadi, dunyoqarashda, kasbiy yo'nalishda, shaxsiy sevimli mashg'ulotlari bilan bog'liq faoliyatda, asosiy faoliyatdan bo'sh vaqtlarida biror narsa qilishda namoyon bo'ladigan shaxsiy xususiyat sifatida ishlaydi (masalan, tasviriy ijod, jismoniy mashqlar, baliq ovlash, sport va boshqalar).

Diqqat- bular shaxsiy xususiyatga aylangan munosabatlardir.

Yo'nalish bir nechta tegishli shakllarni o'z ichiga oladi, biz ularni qisqacha ta'riflaymiz:

diqqatga sazovor joy- orientatsiyaning eng ibtidoiy biologik shakli;

tilak- aniq bir narsaga ongli ehtiyoj va jalb qilish;

ta'qib qilish- ixtiyoriy komponent istak tarkibiga kirganda yuzaga keladi;

qiziqish- ob'ektlarga diqqatni jamlashning kognitiv shakli;

moyillik- ixtiyoriy komponent manfaat tarkibiga kiritilganda vujudga keladi;

ideal- tasvir yoki tasvirda konkretlashtirilgan maylning ob'ektiv maqsadi mavjud;

dunyoqarash- atrofdagi olamga nisbatan axloqiy, estetik, falsafiy, tabiatshunoslik va boshqa qarashlar tizimi;

e'tiqod- yo'naltirishning eng yuqori shakli - uni o'z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashiga muvofiq harakat qilishga undaydigan shaxs motivlari tizimi.

O'rnatish- shaxsning hozirgi sharoitda aktuallashtirilgan muayyan faoliyatga tayyorligi. U shaxsning ma'lum bir idroki, tushunchasi va xatti-harakatlariga barqaror moyillikda namoyon bo'ladi. Munosabat insonning pozitsiyasini, uning qarashlarini, kundalik hayotning turli faktlariga nisbatan qadriyat yo'nalishlarini ifodalaydi; jamoat hayoti va kasbiy faoliyat. Bu ijobiy, salbiy yoki neytral bo'lishi mumkin. Ijobiy munosabat bilan hodisalar, hodisalar va ob'ektlarning xususiyatlari xayrixohlik bilan va ishonch bilan qabul qilinadi. Agar salbiy bo'lsa, xuddi shu belgilar buzilgan, ishonchsizlik yoki begona, zararli va ma'lum bir shaxs uchun qabul qilinishi mumkin emas deb qabul qilinadi.

Munosabat tashqi ta'sirlarning ta'sirida vositachilik qiladi va shaxsni atrof-muhit bilan muvozanatlashtiradi va uning ushbu ta'sirlarning mazmunini bilishi ma'lum darajadagi ishonchlilik bilan tegishli vaziyatlarda xatti-harakatni bashorat qilish imkonini beradi;

P**pozitsiya** - barqaror tizim shaxsning voqelikning muayyan tomonlariga munosabati, tegishli xulq-atvorda namoyon bo'ladi. U shaxs o'z harakatlarida boshqaradigan motivlar, ehtiyojlar, qarashlar va munosabatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shaxsning o'ziga xos mavqeini belgilovchi omillar tizimi, shuningdek, uning rollarning ijtimoiy va kasbiy

ierarxiyasidagi ma'lum bir pozitsiyaga da'volarini va ushbu munosabatlar tizimida uning qanoatlanish darajasini o'z ichiga oladi;

Maqsad- shaxs yoki odamlar guruhining muayyan faoliyatining istalgan va taqdim etilgan natijasi. Bu yaqin, vaziyatli yoki uzoq, ijtimoiy qimmatli yoki zararli, altruistik yoki xudbin bo'lishi mumkin. Shaxs yoki bir guruh odamlar o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va unga erishish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'z oldiga maqsad qo'yadi.

Maqsadni belgilashda masalaning holati, fikrlash jarayonlari, hissiy holat va mo'ljallangan faoliyat motivlari to'g'risidagi ma'lumotlar muhim rol o'ynaydi. Maqsadni bajarish kutilgan natijaga erishishga qaratilgan harakatlar tizimidan iborat. Orientatsiya ontogenezda, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida, ularni hayotga, kasbiy va ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlash, Vatanga xizmat qilishda shakllanadi. Yosh avlodning shaxsiy va oilaviy farovonligi, faoliyatning turli sohalarida erishgan yutuqlari, ijtimoiy mavqei o‘z xalqi va o‘zi yashayotgan davlatga xizmat qilishga tayyorligi bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishi muhim. Shaxsiy yo'nalishning uchta asosiy turi mavjud: shaxsiy, kollektivistik va biznes.

Shaxsiy e'tibor- o'z farovonligi, shaxsiy ustunlik, obro'-e'tiborga intilish motivlarining ustunligi bilan yaratilgan. Bunday odam ko'pincha sodir bo'ladi, o'zi, his-tuyg'ulari va tajribalari bilan band va atrofidagi odamlarning ehtiyojlariga unchalik munosabat bildirmaydi: u xodimlarning manfaatlarini yoki o'zi bajarishi kerak bo'lgan ishni e'tiborsiz qoldiradi. Ishda u, birinchi navbatda, boshqa xodimlarning manfaatlaridan qat'i nazar, o'z da'volarini qondirish imkoniyatini ko'radi.

O'zaro harakatlarga e'tibor qarating- insonning xatti-harakatlari muloqotga bo'lgan ehtiyoj, hamkasblar bilan yaxshi munosabatda bo'lish istagi, o'qish bilan belgilanadigan paytda sodir bo'ladi. Bunday odam qo'shma faoliyatga qiziqish bildiradi, garchi u vazifani muvaffaqiyatli bajarishga hissa qo'shmasa ham, ko'pincha uning harakatlari hatto guruh vazifasini bajarishni qiyinlashtiradi va uning haqiqiy yordami minimal bo'lishi mumkin.

Biznesga e'tibor- faoliyatning o'zi tomonidan yaratilgan motivlarning ustunligini, faoliyat jarayoniga ishtiyoqni, bilimga qiziqishsiz intilishni, yangi ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirishni aks ettiradi. Odatda, bunday kishi hamkorlikka intiladi va guruhning eng katta mahsuldorligiga erishadi va shuning uchun vazifani bajarish uchun foydali deb hisoblagan nuqtai nazarni isbotlashga harakat qiladi.

O'z-o'ziga e'tibor qaratadigan odamlar quyidagi xarakter xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi:

- o'zlari va his-tuyg'ulari, muammolari bilan ko'proq band
- boshqa odamlar haqida asossiz va shoshilinch xulosalar va taxminlar qilish, munozaralarda ham o'zini tutish
- guruhga o'z irodasini yuklashga urinish
- ularning huzurida boshqalar o'zlarini erkin his qilishmaydi o'zaro munosabatlarga e'tibor qaratadigan odamlar:
- muammoni bevosita hal qilishdan qoching:
- guruh bosimiga berilish:
- original g'oyalarni ifodalamang va bunday odam nimani ifodalamoqchi ekanligini tushunish oson emas:
- vazifalarni tanlashda etakchilik qilmang.

Ishbilarmonlar:

- alohida guruh a'zolariga o'z fikrlarini aytishga yordam berish:
- belgilangan maqsadga erishish uchun guruhni qo'llab-quvvatlash:
- o'z fikr va mulohazalarini oson va oson ifodalash:
- vazifa tanlashda yetakchilik qiling:
- muammoni to'g'ridan-to'g'ri hal qilishdan tortinmang.

Insonning qobiliyatlari uning turli faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

IMKONIYATLAR- bir shaxsni boshqasidan ajratib turadigan, bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga kamaytirilmaydigan faoliyat yoki bir qator faoliyatning muvaffaqiyatini belgilovchi, balki faoliyatning yangi usullari va usullarini o'rganishning qulayligi va tezligini belgilovchi individual psixologik xususiyatlar.

Yaratishlar- inson tug'ilgan va uning rivojlanish jarayonida etuk bo'lgan birlamchi, tabiiy (biologik) xususiyatlar. Bular, asosan, tana tuzilishining konjenital anatomik va fiziologik xususiyatlari, harakat tizimi, sezgi organlari, miyaning neyrodinamik xususiyatlari, funktsional assimetriya xususiyatlari. Bu tabiiy moyillik sifatida harakat qiladigan individual xususiyatlarning o'ziga xosligi. Moyilliklar qobiliyatlarni o'z ichiga olmaydi va ularning rivojlanishini kafolatlamaydi. Ular insonning tarbiyasi va faoliyatiga qarab qobiliyatga aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin. To'g'ri ta'lim va faoliyat bo'lmasa, hatto katta moyilliklar ham qobiliyatga aylanmaydi va tegishli ta'lim va faollik bilan, hatto kichik moyillik ham etarlicha yuqori darajadagi qobiliyatlarni rivojlantirishi mumkin.

Asab jarayonlarining kuchi. Nerv hujayralarining kuchli hayajonga va uzoq muddatli inhibisyonga dosh berish qobiliyati, ya'ni. asab

hujayralarining chidamliligi va ishlashi. Asab jarayonining kuchi kuchli qo'zg'atuvchilarga mos keladigan reaktsiyada ifodalanadi: kuchli tirnash xususiyati kuchli asab tizimida kuchli qo'zg'alish jarayonlarini, zaif asab tizimida esa zaif qo'zg'alish va inhibisyon jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Shaxsiyat nazariyasi. Bu shaxsiyat rivojlanishining tabiati va mexanizmlari haqidagi farazlar yoki taxminlar to'plamidir. Shaxsiyat nazariyasi nafaqat tushuntirishga, balki inson xatti-harakatlarini bashorat qilishga ham harakat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qarashlarning rang-barangligi muammo yechimining har xil variantlari, invariantlari, modifikatsiyalari, modullari va modellari bir davrning o‘zida hukm surishini ta‘minlaydi hamda sistemali yondashuv majmuasi yuzaga kelishi uchun puxta negiz, mexanizm va barqaror manba hozirlaydi

XII9-bob. PSIXIK JARAYONLAR

Psixik jarayonlar funktsiyasiyalari

Psixik jarayon, ma'lumki o‘ziga emas balki, miyaning mohiyati, uning tegishli bo‘lmalari funktsiyasi sifatida olam haqidagi axborotlarning qayoqqa ketishi, qaerda saqlanishi va qayta ishlanishini ko‘rsatuvchi javob reaktsiyasining boshqaruvchisidir. Psixik jarayonlar o‘z navbatida bilish jarayonlari, emotsional jarayonlar, shaxsning irodaviy xolatlari va shaxsning individual xususiyatlari deb nomlangan qismlarga bo‘lib o‘rganiladi**.**

Psixik xodisalar–bu faoliyatning hozir ta'sir etayotgan (sezgi, idrok) yoki qachonlardir, ya'ni turmush tajribada (xotira) yuz bergan

qo‘zg‘oluvchiga javob tarzida ro‘y beradigan ana shu ta'sirni umumlashtiradigan, ular pirovard natijada olib keladigan natijalarni (tafakkur, xayol) oldindan ko‘ra olishga yordam beradigan, bir xil ta'sirlar natijasida faoliyatni (xis–tuyg‘u, iroda) kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirib yuboradigan va boshqa xildagi ta'sirlar oqibatida uni tormozlaydigan, odamlar xulq–atvoridagi (temperament, xarakter va b.) tafovutlarni aniqlaydigan doimiy boshqaruvchilaridir.

Tashqi olamni aks ettirishda rol o‘ynaydigan jarayonlar deganda sezgi, idrok, tafakkur, xayolni tushunamiz. Biroq boshqa psixik jarayonlar ham ta'sir ko‘rsatadi.

Psixik jarayonlarda I signallar tizimi bilan bir qatorda odam uchun xos bo‘lgan II signallar tizimi ham ahamiyatlidir.

Xoxlagan psixik jarayonning sodir bo‘lishi va davom etishi shunday bir ruhiy xodisaga bog‘liqki u barcha jarayonlarda ishtirok etadi.

DIQQAT. Diqqat ongning bir nuqtaga qaratilishi bo‘lib, shaxsning aktivligini hamda uning ob'ektiv borliqdagi narsa va xodisalarga tanlovchi munosabatini xarakterlaydi. Diqqat bo‘lmasa, aniq maqsadga qaratilgan faoliyat ham bo‘lmaydi. Diqqatning uch turi bor: ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan so‘nggi diqqat turi. Diqqatning quyidagi xususiyatlari bor: diqqat ko‘lami, davomiyligi, taqsimlanishi, chalg‘ishi, ko‘chishi, mazmuni va diqqat barcha kasb egalari uchun ham birday zarurdir. Ilm olish, kasb egallash, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, el–yurt xurmatiga sazovor bo‘lish uchun ongni bir nuqtaga to‘plab faoliyat ko‘rsatish zarur.

SEZGILAR tevarak atrofdagi olamning boyligi haqida, tovushlar va ranglar, xidlar va xarorat, miqdor va boshqa ko‘plab narsalar to‘g‘risida biz sezgi a'zolari vositachiligida axborotlarga ega bo‘lamiz.

Sezgi deb-sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa yoki xodisalarning ayrim sifat va xodisalarning ayrim sifat xossalarining ongimizga aks ettirilishiga aytamiz. Biz turli ranglarni, ta'mlarni, og‘ir–engilni, issiq–sovuqni, tovushlarni sezamiz. Sezgi a'zolari axborotni qabul qilib oladi, saralaydi, jamlaydi va miyaga etkazib beradi.Sezgi a'zolari tashqi olamning kishi ongiga kirib keladigan yagona yo‘lidir. Sezgi a'zolari kishiga tevarak atrofdagi olamda mo‘ljal olish imkonini beradi.

Sezgilar hosil bo‘lishi uchun quyidagi shartlar bo‘lishi kerak:

Birinchidan, sezgi a'zolarimizdan birontasiga ta'sir etadigan narsa yoki xodisa bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, sezuvchi apparat soz bo‘lishi kerak. Bu apparat quyidagilardan iborat:

1.Sezuvchi organ (retseptor).

2.O‘tkazuvchi yo‘l (afferent nerv).

3.Bosh miya pustlog‘idagi markaz

4.Miyadan javob impulslarini uzatuvchi yo‘l (efferent nerv).

Bitta sezgi apparatini tashkil qiladigan qismlarni I. P. Pavlov analizatorlar deb atagan. Sezgi mohiyatiga ko‘ra ob'ektiv olamning sub'ektiv siymosidir. Lekin sezgilarning hosil bo‘lishi uchun organizm moddiy kuzg‘atuvchining tegishli ta'siriga berilishi kifoya qilmaydi, balki organizmning o‘zi ham qandaydir ish bajarishi darkor. Sezgilar muayyan davr mobaynida retseptorga ta'sir o‘tkazayotgan qo‘zg‘otuvchining o‘ziga xos quvvatini nerv jarayonlari quvvatiga aylanish natijasida hosil bo‘ladi.

Sezgilarning hosil bo‘lishida kuchli ta'sir qiladigan jarayonlarning ishtirokini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab va ko‘p qirrali tadqiqotlar olib borilgan.

Sezgi a'zolari faqat moslashuvchanlik, ijro qilish funktsiyalarini bajaribgina qolmasdan, balki axborot olish jarayonlarini bevosita ishtirok etadigan harakat organlari bilan mustahkam bog‘langandir.

Analizator. Sezgi nerv sistemasining u yoki bu qo‘zg‘atuvchidan ta'sirlanuvchi reaktsiyalari tarzida hosil bo‘ladi va har qanday psixik xodisalar kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Qo‘zg‘atuvchining aynan o‘ziga o‘xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo‘ladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi hisoblanadi.

Analizator uch qismdan tarkib topadi:

1) Tashqi kuvvatni nerv jarayoniga aylantiradigan maxsus transformator hisoblangan periferik bo‘lim (retseptor).

2) Analizatorning periferik bo‘limini markaziy analizator bilan bog‘laydigan yo‘llarini ochadigan afferen nerv (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar.

3) Analizatorning periferik bo‘limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo‘ladigan qobiq osti va qobiq (miyaning o‘zi bilan tugaydigan) bo‘limlar.

Analizator periferik bo‘limlarining muayyan xujayralari miya qobig‘idagi xujayralarning ayrim qismlariga mos bo‘ladi. Jumladan, ko‘z to‘r pardasining turli nuqtalarida hosil bo‘ladigan tasvir miya qobig‘ida ham xar xil nuqtalarda shuni aks ettiradi; eshitishda ham xuddi shu jarayonni kuzatishimiz mumkin: nog‘ora parda va miyadagi aks sado. Sezgining hosil bo‘lishi uchun hamma analizatorlar yaxlit bir narsa

sifatida ishlashi darkor. Qo‘zg‘atuvchining retseptorga ta'siri qo‘zg‘alishning yuz berishiga olib keladi. Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo‘li manbai va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan, ta'sirni miyaga olib boruvchi afferent nerv yo‘llari va efferent nervlardan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarining o‘zaro munosabati murakkab organizmning tevarak atrofdagi olamda to‘g‘ri mo‘ljal olishining, organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzdagi faoliyatning negizini ta'minlaydi.

Sezgilarning umumiy qonuniyatlari. Sezgilar aynan bir xil qo‘zg‘aluvchilarning aks ettirish shakllaridan iboratdir. Jumladan, elektro magnit nurlanishi ko‘rish sezgisining qo‘zg‘atuvchisi hisoblanadi. Bu nurlanish to‘lqini uzunligi 380 dan 770 millimikron doirasida bo‘ladi va ko‘rish analizatorida nerv jarayoniga aylanadi. Eshitish sezgilari– retseptorlarga tebranish tezligi (chastotasi) 16 dan 20 ming gertsgacha bo‘lgan tovush to‘lqinlari ta'sirining aks etish natijasidir. Ta'sir kuchi shundan past bo‘lsa ham, baland bo‘lsa ham sezgi paydo bo‘lmaydi. Taktil sezgilar mexaniq qo‘zg‘atuvchining teri yuzasiga ta'siri natijasida hosil bo‘ladi. Sezgilarning sifat, jadalligi, davomiyligi, joylarda yuz berish kabi xususiyatlari bor.

Sifat–mazkur sezgining asosiy xususiyati bo‘lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o‘zgartirib turadi. Jumladan eshitish sezgisi past–balandligi, mayinligi, zo‘rligi bilan, ko‘rish sezgisi boyligi, ranglarning tusi bilan farq qiladi va xokazo. **Sezgining jadalligi**–uning miqdorini ifoda etadigan xususiyati bo‘lib, ta'sir qilayotgan qo‘zg‘atuvchining kuchi retseptorning funktsional xolati bilan belgilanadi. Kurish sezgisi bir muncha sust bo‘lib, uni qo‘zg‘algan

qo‘zg‘atuvchi ta'sir qilishni to‘xtatishi bilanoq darxol yo‘qolib ketmaydi.(Kinematograf shunga asoslangan). Nihoyat, sezgilar qo‘zg‘atuvchining muayyan joylarda yuz berishi xususiyatiga egadir. Distant retseptorlar tomonidan amalga oshiriladigan fazoviy tahlil qo‘zg‘atuvchining muayyan joyda yuz berishi haqida axborot beradi. Taktil sezgilar tananing qo‘zg‘atuvchi ta'sir qiladigan qismi bilan munosabatga kirishadi.

Sezuvchanlik va uning o‘lchovi. Sezgi a'zolarining sezuvchanligi muayyan sharoitlarda sezgini hosil qilishga layoqatli bo‘lgan eng kuchsiz qo‘zg‘atuvchi yordamida aniqlanadi. Bilinar bilinmas sezgi hosil qiladigan qo‘zg‘atuvchining eng kam kuchi sezuvchanlikning quyi absolyut chegarasi deb ataladi. Eng kam kuchga ega bo‘lgan va kuyi chegaradagi qo‘zg‘atuvchilar sezgi hosil qilmaydi va ular haqidagi signallarni bosh miya qobig‘iga o‘tkazmaydi.

Sezgilarning quyi chegarasi mutlaq sezuvchanligi darajasini belgilaydi. Mutlaq (absolyut) sezuvchanlik bilan quyi chegara o‘lchami o‘rtasida teskari bog‘lanish mavjud: quyi chegara o‘lchami qanchalik kichik bo‘lsa, muayyan analizatorning sezuvchanligi shunchalik yuqori bo‘ladi.; E– sezuvchanlik, P– qo‘zg‘atuvchining ta'sir chegarasi me'yori. Bizning analizatorlarimiz har xil sezuvchanlikka egadir. Kishining birgina xid bilish xujayrasining chegarasi tegishli xid tarqatuvchi moddalar uchun 8 molekuladan oshmaydi. Ta'm sezgisini hosil qilish uchun xid bilish sezgisini hosil qilishga sarflanadiganiga qaraganda kamida 25 ming marta ko‘p molekula talab qilinadi.

Ko‘rish va eshitish analizatorlarining sezuvchanligi juda yuksakdir. S. I. Vavilov (1891–1951) ning tajribalari ko‘rsatganidek, kishining ko‘zlari

to‘rpardaga bor–yo‘g‘i 2–8 kvant atrofida nur tushgan taqdirda ham yorug‘likni seza oladi. Buning ma'nosi shuki, biz tim qorong‘uda 27 km masofada yonib turgan shamni ko‘rish qobiliyatiga egamiz. Ayni paytda biz badanimizga biror narsa tekkanini sezishimiz uchun ko‘rish va eshitish sezgilari hosil bo‘lishiga sarflanadiganiga nisbatan 100–xatto 10 mln baravar ziyod quvvat talab qiladi.

Sezgilar o‘rtasida bilinar bilinmas farqni hosil qiluvchi 2 ta qo‘zg‘atuvchi o‘rtasida mavjud bo‘lgan minimal farq–farq ajratish chegarasi deb ataladi. Ajratish chegara sezuvchanligi yoxud farq ajratish sezuvchanligi ham farqlanish chegarasining o‘lchamiga nisbatan teskari bog‘lanishda bo‘ladi: farqlanish chegarasi qanchalik katta bo‘lsa, ayirma sezuvchanlik shunchalik kam bo‘ladi. (Yuk 100 gr bo‘lganda farq 3,4 gr, 1000 gr bo‘lganda 33,3 gr bo‘ladi).

Adaptatsiya. Sezgi chegarasining absolyut me'yori bilan belgilanadigan analizatorlarning sezgirligi barqaror bo‘lmasdan qator fiziologik va psixologik shart–sharoitlar ta'siri ostida o‘zgarib turadi. Ushbu shart-sharoitlar orasida adaptatsiya (moslashish) xodisasi alohida rol o‘ynaydi.

Adaptatsiya yoxud moslashuv–sezgi organlari sezgirligining qo‘zg‘atuvchi ta'siri ostida o‘zgarishi demakdir. Adaptatsiya xodisasining 3 turini alohida ko‘rsatish mumkin:

1.Qo‘zg‘atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo‘qolib qolishiga o‘xshaydigan turi. Masalan, terining ustiga qo‘yilgan engilgina yuk tezdayoq sezilmay qoladi. Xid bilish sezgilari atrof muhitga yoqimsiz xid yoyilganidan ko‘p o‘tmay

batamom yo‘qolib qolishi ham oddiy bir xodisadir (qorong‘udan yorug‘likka va aksincha).

2.Adaptatsiya deb shuningdek, yuqorida bayon etilgan xodisalarga yaqinroq bo‘lgan kuchli qo‘zg‘atuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishiga ifodalanadigan yana bitta xodisaga ham aytiladi. Masalan, sovuq qo‘zg‘atuvchi hosil qiladigan sezgining jadalligi qo‘lni sovuq suvga solganda susayadi. Biz yarim qorong‘u xonadan yorqin yoritilgan joyga chiqqanimizda oldiniga ko‘zlarimiz qamashadi va tevarak atrofdagi biror narsaning farqiga eta olmaydigan bo‘lib qolamiz. Adaptatsiya–bu analizatorning sezuvchanligi susayib ketishi hamdir.

3.Nihoyat kuchsiz qo‘zg‘atuvchining ta'siri ostida sezgirlikning ortishi ham adaptatsiya deb aytiladi. Ayrim sezgi turlariga xos bo‘lgan adaptatsiyaning bu turini pozitiv adaptatsiya deb ta'riflash mumkin. Masalan, qorong‘ulikda uzoq vaqt bo‘lganlik ta'siri ostida ko‘zning sezuvchanlik ta'siri ortadi. Eshitish ko‘nikmasining shunga o‘xshaydigan shakli sokinlik adaptatsiyasi hisoblanadi. Masalan, shovqin sexda ishlaydiganlar bir birlari bilan bemalol gaplashaveradilar.

Sezgilarning o‘zaro munosabati. Sezgilarning jadalligi faqat qo‘zg‘atuvchining kuchi va retseptorning adaptatsiyalanish darajasiga emas, balki muayyan paytda boshqa sezgi a'zolariga ta'sir ko‘rsatadigan ko‘zg‘alishlarga ham bog‘liq bo‘ladi. Analizator sezuvchanligining boshqa sezgi a'zolarining qo‘zg‘alishi ta'siri ostida o‘zgarishi sezgilarning o‘zaro munosabati deb ataladi. Buning ta'sirida uning sezuvchanligi o‘zgaradi. Jumladan kurish analizatorining sezuvchanligi eshitish kuzatuvchisining ta'sirida o‘zgaradi. S. V. Kravkov (1893–1951) bu o‘zgarishni eshitish qo‘zg‘atuvchilarining balandligiga bog‘liq ekanligini

ko‘rsatib bergan edi. Yoki ko‘rish sezuvchanligi xid qo‘zg‘atuvchilari ta'sirida ham oshadi.

Sensibilizatsiya. Analizatorlarning o‘zaro munosabati va mashq qilish natijasida sezuvchanlikning ortishi sensibilizatsiya deb ataladi. Ko‘zg‘alish jarayonining tarqalishi (irriradiatsiyalashuvi) natijasida boshqa analizatorning sezuvchanligi oshadi. Kuchli qo‘zg‘atuvchi ta'sir qilganda qo‘zg‘alishning aksincha to‘planish xususiyatiga ega bo‘lgan jarayoni yuzaga keladi. O‘zaro induktsiya qonuniga binoan bu markaziy bo‘lmalarda boshqa analizatorning tormozlanishiga va ular sezuvchanligining susayib qolishiga olib keladi.

Analizatorlarning sezuvchanligi ikkinchi sezgilarga mansub qo‘zg‘atuvchilar ta'siri ostida ham o‘zgarishi mumkin. Jumladan sinaluvchilarga eshittirib «limon kabi nordon» degan so‘zlarga javoban kuzlarning elektr sezuvchanligini o‘zgartirib yuborgani kuzatiladi.

Sezgi a'zolari sezuvchanligining o‘zgarishi qonuniyatlarini bilgan xolda maxsus tanlangan qo‘shimcha qo‘zg‘atuvchilarni qo‘llanish yo‘li bilan u yoki bu retseptorni sensibillashtirish, ya'ni uning sezuvchanligini oshirish mumkin.

Sensibillashtirishga mashq qilish natijasida ham erishish mumkin. Masalan, Musiqa bilan shug‘ullanadigan bolalarga past baland oxanglarni eshitish qobiliyati qanday rivojlana borishini bilamiz.

Sinesteziya. Sezgilarning o‘zaro munosabati sinesteziya deb ataladigan yana bir xodisada namoyon bo‘ladi. Sinesteziya–bir analizatorning qo‘zg‘alishi ta'siri ostida boshqa analizatorga xos sezgini hosil bo‘lishidir. Sinesteziya sezgilarning har xil turlarida kuzatiladi. Tovush qo‘zg‘atuvchilari ta'sir qilganda sub'ektda ko‘rish obrazlari paydo

bo‘lganida ko‘pincha ko‘rish-eshitish sinesteziyasi uchraydi. N. A. Rimskiy–Korsakov, A.N. Skryabin va boshqalar «Rangni eshitish qobiliyatiga ega edilar».

Keyingi paytlarda tovush obrazini rang obraziga aylantiradigan rang–musiqaviy (tsvetomuzika) sozlarining yaratilayotganligi va rang–musiqaning jadal tadqiq qilinayotganligi sinesteziya xodisasiga asoslangandir. Sinesteziya xodisalari kishi organizmidagi analizator sistemalarga o‘zaro doimiy bog‘langanligidan, ob'ektiv olamni xissiy aks ettirishning yaxlitligidan yana bir dalolatdir.

Sezuvchanlik. Sezgi a'zolari birgina qo‘shimcha qo‘zg‘atuvchilarni qo‘llanish yo‘li bilangina emas, balki mashqlar qilish yo‘li bilan ham sensibillashuvi mumkin. Sezgi a'zolari sezuvchanligining oshishiga olib boradigan 2 sohani ajratib ko‘rsatish mumkin: 1)sensor nuqsonlar (ko‘rlik, qarlik)ning o‘rnini to‘ldirish zaruratidan stixiyali tarzda kelib chiqadigan sensibilizatsiya; 2) sub'ekt faoliyati tufayli kasbiga xos talablardan kelib chiqadigan sensibilizatsiya (tokar sezgirligi, sinovchi–degustator sezgirligi va xokazo).

Ko‘rish va eshitish sezgisining yo‘qotilishi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to‘ldiriladi. (Ko‘rlarda tuyish sezgisi rivojlanishi, barmoqlari bilan o‘qishi, pulni ajrata olishi, xaykaltaroshlikka moyilligi; karlar xavo tebranishidan ma'no anglay olishlari; Olga Skoroxodova (ko‘r va qar) qo‘lini hamsuhbati tomog‘iga yaqin keltirib, gapni «Eshitishi» va xokazo).

IDROK. Idrokning ta'rifi va uning xususiyatlari. Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va xodisalarning kishi ongida butunligicha

aks etishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan xolda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir. Idrokning muhim xususiyatlari uning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, doimiyligi (konstantligi) va anglashilganligidir. **Idrokning predmetliligi ob'ektivlashtirish xodisasi deb atalgan xodisada, ya'ni tashqi olamdan olinadigan axborotlarning o‘sha narsaga mansubligida ifoda qilinadi.**

Predmetlilik idrokning belgisi sifatida hatti-harakatni boshqarishda alohida rol o‘ynaydi. Biz narsalarga ularning ko‘rinishiga qarab emas balki ularni amaliyotda qay tarzda ishlatishimizga muvofiq xolda, yoki ularning asosiy xususiyatlariga qarab ham baholaymiz. Predmetlilik pertsevtiv jarayonlarning o‘zini ya'ni idrok jarayonlarning bundan keyingi shakllanishida ham rol o‘ynaydi.

Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitliligidadir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli ularoq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. Yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitligi uning strukturaligi bilan bog‘langandir. Idrok ma'lum darajada bizning bir laxzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiy yig‘indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavhumlashgan va bir muncha vaqt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz. Agar kishi biror ko‘yni tinglayotgan bo‘lsa, oldinroq eshitgan oxangi yangisi eshittirila boshlagandan keyin ham uning kulog‘iga chalinayotganday tuyulaveradi.

Idrokning yaxlitligi va strukturaliligi manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan ob'ektlarning o‘ziga xos xususiyat–laridir, va ikkinchi tomondan insonning konkret faoliyatida gavdalanadi, ya'ni analizatorlarning reflektor faoliyati natijasidir.

Idroknnig doimiyligi, konstantligi narsani idrok qilish sharoitlari o‘zgarishiga qaramay, narsaga xos bo‘lgan kattalik, shakl, rang va boshqa xususiyatlarning idrokimizga nisbatan bir xilda aks etishidir. Masalan, yoritish darajsi o‘zgarishiga qaramay, ko‘mirni qora narsa sifatida idrok qilaveramiz. Narsalarning shakli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok qilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantliligina tevarak atrofdagi narsalarni aslida qanday bo‘lsa shundayligicha ob'ektiv ravishda bilishga imkon beradi.

Pertsevtiv sistemaning faol ta'sir ko‘rsatishi idrok konstantliligining haqiqiy manbaidir. Bir narsaning bir necha ko‘rinishda bo‘lishi uning invarianliligi deb, ya'ni obraz invarianliligi, xilma xilligi deb aytiladi. Idrok yaxlitligi va konstantligi kishining o‘tmish tajribasiga bog‘liq bo‘lib, bu xususiyat appertseptsiya deyiladi.

Demak, idrok faqat narsa emas, idrok etayotgan sub'ektning o‘ziga ham bog‘liqdir. Idrokda hamisha idrok etuvchi kishi shaxsining xislatlari, uning idrok etilayotgan narsalarga munosabati, kishining ehtiyojlari, qiziqishlari, intilishlari, istaklari va xis-tuyg‘ulari u yoki bu tarzda aks etadi (qandaydir shakllarni «uchburchak», «Aylana», «krujka» deb idrok qilish).

Shunday qilib, idrokning yaxlitligi va konstantligi uning teskari aloqa mexanizmi mavjud bo‘lgan va idrok etilayotgan ob'ektning

xususiyatlariga hamda uning hayot sharoitlariga moslashadigan, o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi o‘ziga xos xodisa ekanligi bilan ham izohlanadi.

Idrokning anglangan bo‘lishi. Garchand idrok qo‘zg‘atuvchisining retseptorlarga bevosita ta'siri natijasida hosil bo‘lsa ham, pertseptiv obrazlar hamisha muayyan ma'noli ahamiyatga ega bo‘ladi. Kishining idroki uning tafakkuri bilan, narsaning mohiyatini tushunib etishi bilan, uning ko‘plab xossalarini bilish bilan ham bog‘liqdir. Narsani anglab idrok etish-unga fikran nom berish, ya'ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruhiga, sinfiga kiritish, uni so‘z vositasida umumlashtirish demakdir. Shu nuqtai nazaridan olganda goh shakl, goh fon navbatma navbat idrok etish, «Ikki mazmunli» deb ataladigan rasmlar diqqatga sazovordir (kubiklar nechta?, vaza yoki bir biriga qarab turgan odamlarmi? va xokazo rasmlar.)

Shunday qilib, idrok sub'ektning bundan oldingi tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Kishining tajribasi qanchalik boy bo‘lsa, uning bilimlari qanchalik boy bo‘lsa, uning idroki shunchalik to‘liq bo‘ladi, buyumda u shunchalik ko‘p narsalarni ko‘ra oladi. Idrokning mazmuni kishi oldiga qo‘yilgan vazifa bilan ham uning faoliyati sabablari bilan ham belgilanadi. Sub'ektning ustanovkasi (yo‘l–yo‘rig‘i) ham, xis– xayajonlari ham idrok mazmuniga ta'sir etadi.

Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayondir. Shartli reflekslar, miya pustlog‘idagi muvaqqat bog‘lanishlar idrokning fiziologik asosini tashkil etadi. Bosh miya pustida eng kuchli, dominant qo‘zg‘alish uchastkalarining yuzaga kelishi shaxsning xususiyatlari yoki xolati bilan bog‘liq bo‘lgan idrok yo‘nalishining fiziologik asosini tashkil etadi. Idrokning fiziologik asosi nerv bog‘lanishlarining ikkita turidan-bitta

analizator doirasida hosil bo‘ladigan bog‘lanishlardan va analizatorlar aro bog‘lanishlardan tarkib topadi. (Bitta retseptor va bir necha retseptor bilan idrok qilish). Idrokni klassifikatsiya qilinishida ham sezgilardagi kabi idrok etishda ishtirok etuvchi analizatorlardagi mavjud farqlarga asoslanadi. Idrok etishda qaysi analizator ustunroq kelganiga muvofiq ko‘rish-eshitish, paypaslab ko‘rish, kinestezik, xidlash va ta'm bilish yo‘li bilan idrok qilinishi farqlanadi. Idrok qilish jarayoni odatda o‘zaro birgalikda bir qancha analizatorlar vositasida sodir bo‘ladi. Harakat sezgilari u yoki bu darajada idrokning barcha turlarida ishtirok etadi. Idrok-pretseptiv harakatlar sistemasi bo‘lib uni egallash maxsus o‘rgatishni va tajribani talab qiladi. Ixtiyoriy idrok etishning muhim shakli kuzatish bo‘lib, u narsalarni yoki tevarak atrofdagi xodisalarni ko‘ra bilish, bila olish va rejali idrok etishdir. Kuzatishning muvaffaqqiyati ko‘p jihatdan vazifaning aniqligiga, kuzatuvchining tajribasiga va bilimiga bog‘liqdir.

FAZONI IDROK qilinishi kishining o‘zini kurshab turgan muhitni chamalashining muqarrar shartlaridan bo‘lib, uning ushbu muhit bilan o‘zaro birgalikdagi harakatida katta rol o‘ynaydi. Fazoni idrok qilish ob'ektlarning shakli, xajmi va o‘zaro birgalikda joylashuvi, ularning satxi, olisligi va yo‘nalishlarining idrok etilishini o‘z ichiga oladi.

Fazoni chamalashda harakat analizatori alohida rol o‘ynaydi. Fazoni chamalashning maxsus qurollari qatoriga analizatorlar faoliyatida har ikkala yarim sharlar o‘rtasidagi nerv bog‘lanishlarini: binokulyar ko‘rishni, binoural eshitishni, terining bimanual to‘yishini, dirinik xid bilishni va shu kabilarni kiritish lozim.

Ko‘zlarning turli olislikdagi narsalarini aniq ravshan ko‘rishga moslashuvi 2 ta mexanizm-akkomodatsiya va konvergentsiya yordamida yuz beradi.

Akkomidatsiya-ko‘z gavharining egriligini o‘zgartirish yo‘li bilan uning aksini sindirib qaytarish qobiliyatini o‘zgartirish demakdir. Akkomodatsiya, odatda konvergentsiya bilan ya'ni ko‘rish o‘qlarini qayd qilinayotgan narsaga yo‘naltirilishi bilan bog‘liqdir. Konvergentsiya burchagi bevosita masofa indikatori ya'ni o‘ziga xos masofa o‘lchagich (dalnomer) sifatida foydalaniladi.

Ikkita qo‘zg‘atuvchi-narsaning ko‘z to‘rpardasidagi tasviri akkomodatsiya hamda konvergentsiya natijasida ko‘zdagi mushaklarning zo‘riqishi o‘lchamlari bir biriga moslangan xolda birga qo‘shilishi idrok etilayotgan narsaning hajmi haqidagi shartli refleks tarzidagi signal hisoblanadi

Ko‘rish illyuziyalari:

1)kamon o‘qi ilyuziyasi;

2) temir yo‘l yuzlari ko‘rinishi;

3) tik chiziqlarning boshqacha ko‘rinishi ilyuziyasi (tsilindr qalpoq);

4) elpig‘ich ilyuziyasi;

5) kesishish ilyuziyasi;

6) umumiy markazli doiralar ilyuziyasi v.b.

Odamlar illyuziyadan maxsus maqsadga muvofiq foydalanishlarining eng ko‘p tarqalgan turi maskirovka qilishdir. Og‘irlikni idrok qilishda ham ilyuziya xodisasi bo‘lishi mumkin. Bunda xissiyot va xayol ta'sir etgan bo‘lishi mumkin.

Vaqt va harakatni idrok etish. Vaqtning idrok qilinishi voqelik xodisalarning ob'ektiv ravishda doimiyligini, tezligi va izchilligini aks

ettirish demakdir. Vaqtni idrok qilish kishiga muhitdan mo‘ljal olish imkonini beradi.

Odamda vaqt chamalash miya qobig‘i bo‘lmalarida ro‘y beradi. Miya qobig‘ining ma'lum bir joyida vaqt chamalash ro‘y beradi, vaqtni sarhisob qilishning maxsus markazi mavjud degan taxmin asossizdir. Vaqtni idrok etilishi negizini qo‘zg‘alish va tormozlanishning ritmik tarzda almashinuvi, markaziy nerv sistemasida, bosh miya yarimsharlarida qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarinig susayishi oqibatidir. Vaqt doimiyligini idrok etish ko‘p jihatdan ichki kechinmalarga, xissiyotga ham bog‘liq. Qiziqarli va chuqur asoslangan faoliyat bilan band bo‘lishdagi vaqt juda qisqa, zerikarli va mazmunsiz faoliyatda vaqt o‘tishi qiyin, uzoq deb idrok qilinishi mumkin.

Harakatni idrok qilinishi – ob’ektlarnig fazoda egallagan xolati o‘zgarishining aks ettirilishdir. Harakatning idrok etilishi hayotiy muhim ahamiyatga ega.

Hayvonlar uchun harakat qiluvchi ob'ektlar xavf xatar yoki oziqlanish imkoniyati paydo bo‘lishi haqida signal vazifasini o‘taydi va shunga javob berishga undaydi. Harakatni idrok etishda ko‘rish va eshitish, kinestezik analizatorlar asosiy rol o‘ynaydi. Tezlik, tezlanish, harakat yo‘nalishi harakatdagi ob'ektning perimetri hisoblanadi.

Kishi ob'ektning fazoda u yoqdan bu yoqqa kuchishiga oid ma'lumotlarni 2 ta har xil yo‘l bilan, ya'ni ko‘chish xodisasining o‘zini bevosita idrok etish va bir muncha vaqt mobaynida boshqa joyda turgan ob'ektning harakati haqida xulosa chiqarish asosida olish mumkin.

Harakatlanayotgan ob'ektning harakatsizligi, agar u muayyan vaqt vaziyat birligini ko‘z bilan idrok qilish mumkin bo‘lmasa, harakatni o‘tgan vaqt

birligida idrok qilamiz lekin bu harakat natijasini idrok etish bo‘ladi. (Soat millari siljishini bevosita kuzatib idrok qila olmasak ham bir necha vaqtdan keyin uning siljiganligini vaqt birligida idrok qilamiz.)

Ko‘rish orqali ob'ektlar harakati haqidagi axborotni 2 yo‘l bilan: qayd etilgan nigox va ko‘zlarning kuzatuvchi harakati bilan olishimiz mumkin. Ko‘zni uzmay kuzatish, ko‘zni, gavdani burib kuzatish. Masalan, biz o‘tirgan vagon harakatlanmasada, yonimizda turgan vagonga qarab bizning vagon yura boshladi deb idrok qilamiz yoki aksincha, biz o‘rnimizda turibmizu, temir yo‘l chetidagi stolbalar, daraxtlar yurmoqda deb idrok qilishimiz mumkin.

Xissiy tuyish–stroboskopik to‘yish harakatni idrok qilishga ham taaluklidir. Stroboskopik harakat tuyulma harakatga misol bo‘ladi. Kinemotograf ana shunday tuyushga asoslanadi. Ko‘rish sezgisi qo‘zg‘atgich tasir qila boshlashi bilan darxol hosil bo‘lmaydi va qo‘zg‘atgich ta'siri to‘xtagandan keyin birmuncha vaqt o‘tgach yo‘qoladi.

Harakat eshitish analizatorlari yordamida ham idrok etilishi mumkin. Poezdning yaqinlashib kelayotganligini yoki uzoqlashayot-ganligini, odam tovushining pastlashib yoki balandlashib borayotganiga qarab, uning harakat yo‘nalishini idrok qilish mumkin. Harakatni idrok qilishda harakat tasavvurlarini vujudga keltiruvchi yordamchi belgilar, masalan, gavdaning tegishli xolatlari–oyoq ko‘tarilishi, quloch yoyilishi, gavdaning biror yoqqa bir muncha egilgan xolatda bo‘lishi va xokazolar katta rol o‘ynaydi.

Ta'lim jarayonida o‘quvchilar idrok «texnikasini» egallaydilar: narsani sinchiklab ko‘zdan kechirishga, tinglashga, narsaning asosiy va muhim xususiyatlarini ajrata olishga o‘rganadilar, idrok maqsadga

yo‘nalgan, boshqariladigan, ongli jarayonga aylana boradi. O‘smirlar o‘zlariga yoqadigan narsalarni qunt va sabot bilan idrok qiladilar. O‘smirlar bir narsaning o‘zini ko‘p marta idrok qilishni uncha yoqtirmaydilar - bu xol ham o‘smirlar idrokiga xos bo‘lgan xususiyatlardan hisoblanadi. Ammo maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar yoqtirgan narsalarini qayta–qayta eshitib yoki ko‘rib roxatlanaveradilar. O‘smirga narsa va xodisalarning yangi tomonlarini mustaqil ochish juda yoqib tushadi. O‘smirlar hamisha narsa va xodislarning aql va xayolni maftun etuvchi qandaydir yangi, g‘alati tomonlarini izlaydilar. Bu yoshdagi bolalarni qaxramonlar jasorati, buyuk voqealar, o‘lkan kashfityolar haqidagi va shu kabi Hikoyalarni zo‘r e'tibor bilan tignlashlariga qaxramonona ishlar, sarguzashtlar haqidagi hamda ilmiy–fantastik adabiyotlarni sevib o‘qishlariga sabab ham shundadir.

TAFAKKUR

O‘smirlar amalda ishlatib ko‘rish mumkin bo‘lgan narsalarni zo‘r qiziqish bilan idrok qiladilar. Shu sababli ular tajribalar ko‘rsatilishini juda yoktiradilar. Yuqori sinf o‘quvchilarining idroki maqsadga ko‘proq yo‘nalgan bo‘ladi va ular idroklarini o‘zlari idora qila biladilar.

Tafakkur. Sezgi, idrok orqali narsa va xodisalarning sezgi organlari orqaligina bilish mumkin bo‘lgan xususiyatlari aks etsa, bu bilan bilish doirasi cheklandi degani emas. Narsa va xodisalar bevosita bilib bo‘lmaydigan xususiyatlarga, o‘zaro aloqaga, rivojlanish qonuniyatiga ega. Masalan, er bilan quyoshgacha, yulduz va oygacha bo‘lgan masofani bevosita aniqlash mumkin emas; elektr tokining simdan o‘tishini, atom tuzilishini, yorug‘lik tezligini, uzoq tarixiy jarayonlar rivojlanishini va shunga o‘xshashlarini bevosita kurish mumkin emas. Shunga qaramay,

inson o‘lchaydi, aniqlaydi, bilib oladi. Shunday qilib, vositali aks ettirish tafakkur jarayonining xususiyalaridan biridir. Tafakkurning yana bir xususiyati–bu voqelikni umumlashtirilgan xolda aks ettirilishidir.

Tafakkur voqelikni umumlashtirilgan xolda, qonuniy bog‘lanishlarni so‘z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va xodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Odam tafakkuri til bilan chambarchas bog‘liqdir. Tafakkur, barcha psixik jarayonlardek, miya faoliyatining natijasidir. Odam fikr yuritayotganda miyada murakkab jarayonlar sodir bo‘ladi, miya pustlogida markazlar o‘rtasida bog‘lanishlar yuzaga keladi.

TAFAKKUR TURLARI.

Konkret–amaliy tafakkur narsalar bilan ish bajarish jarayonida ularni bevosita idrok etishga suyanuvchi tafakkur. Masalan, bola o‘yinchoq ichini kurib, usta priyomnikning uyoq–buyog‘ini bo‘rab kurib so‘ng fikrlaydi. Konkret obrazli tafakkur tasavvurga tayanadi. Tafakkurning bu turi kichik maktab yoshidagi bolalar uchun xosdir. Lekin katta yoshdagilarda ham uchrab turadi. Masalan, o‘qituvchi darsga tayyorlanishda o‘z o‘quvchilarini ko‘z oldiga keltirib, materialni qanday qabul qilishlarini, dars jarayonida qanday shaklni, qachon chizib ko‘rsatishni, qaysi ko‘rgazmali quroldan qachon, qanday foydalanishni o‘ylaydi.

Fikrlash operatsiyalari. Tafakkur faoliyati analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktsiyalash va konkretlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Analiz–masalani fikran qismlarga ajratish, masala shartini tasavvur qilishdir.

Sintez–buning aksi, qismlarni birlashtirish.

Taqqoslash–o‘xshash va farqlarini aniqlash. Masalan, biror texnikani dvigatel kuchiga, yonilg‘i turiga, bajaradigan ishiga qarab taqqoslash, afzalligini aniqlash mumkin.

Umumlashtirish–umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirish.

Abstraktsiyalash–mazkur vaziyatdagi eng muhim bo‘magan xususiyatlarini e'tiborga olmay, eng asosiy vazifani nazarda tutib fikr yuritish.

Konkretlashtirish–faqat aynan shu narsa va xodisaga taalluqli sifatlarni topa olish, yuqoridagi operatsiya turlarini yakuniy qismi, ko‘rinishi va boshqalarni oydinlashtirish. Bulardan tashqari odam fikr yuritishi tushunish, izohlay olish, muhimini ajrata olish singari mantiqiy operatsiyalarga ham suyanadi.

Xukm – umumiy, juz'iy, yakka bo‘ladi.

Muxokama yuritish natijasida bir necha xukmdan yangi xukmni keltirib chiqarish xulosa chiqarish deyiladi. Bu ikki usulda **induktiv** va **deduktiv** xulosa chiqarish shakliga ega. Insonning bilish jarayonlarida xayol yoki fantaziya katta ahamiyatga ega. Xayol sezgi, idrok, tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, borliqni yangi buyoqlarda, o‘z xoxishi, istagi, tasavvuri shaklida aks ettirishidir. Ko‘rgan, eshitgan, qisqasi o‘z tajribasidan o‘tkazgan narsa xodisalarni ko‘z oldiga keltirish – qayta tiklovchi, o‘z istagi xoxishi asosida yangi obrazlar yaratib tasavvur qilish – ijodiy xayol shaklida bo‘ladi.

Tafakkur deb narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Tafakkur bilish jarayonining eng yuksak shaklidir. U shaxsning obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni, ularning muhim xususiyatlarini, bog‘lanish hamda munosabatlarini bevosita umumlashgan holda aks ettirishdan iborat bo‘lgan aqliy jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishdan boshlanadi va hissiy bilish chegarasidan tashqariga chiqadi. Dunyoni bilish faoliyati ikki yo‘ldan borishi mumkin. Bevosita yo‘l bilan narsa va hodisalarning ayrim xossalarni sezgilar yordamida, idrok orqali narsa va hodisalarni yaxlitligicha, shuningdek, ilgari sezib idrok qilgan narsalarni ko‘z oldimizda yaqqol tasavvur qilib bilib olamiz. Bu bevosita hissiy bilishdir.

Dunyoda shunday narsa va hodisalar borki, biz ularni sezish, idrok qilish, tasavvurlar orqali bila olmaymiz. Bunday vaqtda dunyoni hissiy (bevosita) bilishdan tasavvur orqali tafakkurga (bavosita) o‘tiladi. Dunyodagi narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabat, bog‘lanish hamda qonuniyatlarni biz hissiy yo‘l bilan bila olmay, faqat bavosita yo‘l bilan tafakkur orqali to‘liq va chuqur bilib olamiz. Tasavvur qilishimiz mumkin bo‘lmagan hodisalar fikr yuritish orqali hal qilinadi. Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq va to‘laroq aks etadi.

Biz sezgi, idrok va tasavvur vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan narsa yoki hodisalarni, bu narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog‘lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Masalan, bizga ma‘lumki, agar yorug‘lik nuri shisha prizma orqali o‘tkazilsa, bu nur spektrning yetti rangiga ajralib ketadi, bu

ranglarni biz idrok qilamiz (koʻzimiz bilan koʻramiz), lekin fizikadan bizga shu narsa maʻlumki, bu nurlardan boʻlak, yana boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar, infraqizil va ultrabinafsha nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz koʻrmaymiz, idrok qilmaymiz. Bunday nurlarning borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan.

Tafakkur – voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Biz ayrimayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz va tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul toʻgʻrisida, umuman mebel va umuman narsa toʻgʻrisida esa fikrlashimiz mumkin.

Umumiylash natijasida bir hukmning oʻzida ayni vaqtda yakka bir narsa toʻgʻrisidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi toʻgʻrisida ham fikr yuritish mumkin. Masalan, «Oʻzbekistonning fuqarolari teng huquqlidirlar» degan hukmda ayrim bir kishi haqida fikr yuritmasdan, balki Oʻzbekistonning hamma fuqarolari haqida fikr yuritiladi.

Tafakkur qilish jarayoni biror psixik elementlarning shunchaki birbiri bilan almashinishi tarzida voqe boʻlmasdan, balki alohida aqliy operatsiyalar – biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar (obyektlar) ustida, biz umumiylashgan va abstrakt tushunchalarga ega boʻlgan obyektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe boʻladi.

Tafakkur qilish – operativ jarayondir. Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir.

Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil boʻladi, real olamdagi narsalar va hodisalar toʻgʻrisidagi tushunchalar vujudga keladi.

HISSIYOT VA IRODA

Hissiyot deb tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarimizning va bu munosabatlarimizdan hosil bo‘ladigan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Hissiyotlar, odatda, juft-juft bo‘lib uchraydi. Masalan, yoqimli-yoqimsiz, xush-noxush, xursand-xafa, shodlik- g‘azab, muhabbat-nafrat kabi.

Hissiyotning nerv-fiziologik asoslari.

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po‘sti qismining faoliyati bilan bog‘liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa psixik jarayonlardan farq qila o‘laroq bosh miya po‘stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a‘zolari faoliyati bilan ham bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, hissiyotlar vegetativ nerv sistemasining faoliyati bilan bog‘liqdir. Hissiyot vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladigan ichki a‘zolarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa ham bari bir bosh miya po‘sti orqali idora qilinadi.

Hissiy holatlar va ularning turlari

Odamda har turli hissiy holatlar bo‘lishi mumkin. Bunga sabab hissiyotlarning turlicha tezlik bilan yuzaga kelishi va ma‘lum muddat davomida saqlanib turishidir. Ana shu jihatdan olganda odamda bir necha hissiy holatlarni farqlash mumkin. Hissiyotlarnint tezligi, ko‘chi, barqaror yoki bekarorligi va chuqurligi nuktai nazaridan emotsional xolatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Kayfiyot, Affekt, Ehtiros, Ruhlanish

Kayfiyot uzoq muddatli, o‘rtacha kuchga ega bo‘lgan ruxny holatdir. Odamdagi hursandlik yoki gamginlik kayfiyati ma‘lum sabablar asosida

vujudga keladi. Shaxsning o‘z faoliyatida yutuqlarga erishishi unda yaxshi, tetik kayfiyatni yuzaga keltiradi. Muvaffaqiyatsizligi esa ma‘yuslik ruhiy tushkunlik g‘amginlik kayfiyatini tug‘diradi. Odam o‘zining, ruxiy tushkunligi gamginlik kayfiyatini tug‘diradi. Odam o‘zining barcha psixik holatlarini idora qilish imkoniyatiga ega. Kuchli iroda egasi bo‘lgan odamlar o‘z kayfiyatlarini boshqara oladilar. Hamma vaqt ularning ruhi tetik dimog‘i choq bo‘lib yuradi. Ular o‘z kayfiyatlarining quli bo‘lib qolmaydilar. Irodasi mustahkam bo‘lmagan shaxslarda kayfiyat tez buziladi. Ular kayfiyatning ko‘rinishlarini azob va qiynoq bilan o‘tkazadilar.

Odam **affekt** xolatida o‘zini bilmay qoladi, hatti - harakatlarini nazorat qila olmaydi. To‘satdan yuz beradigan kuchli tarzdagi qurquvga, g‘azab, achchiqlanish, quvonch kabilar affekt holatidir. Bu holat odamda to‘satdan paydo bo‘lib, ba‘zan hatto bir necha minut davom etadi. Odamdagi 6o‘ xolat baqirish - chaqirish, xayqirish tarzida namoyon bo‘ladi. Bu paytda tafakkur faoliyati susayadi. Nutq keskin ravishda buziladi. Ba‘zi hollarda affekt holati natijasida organizmda kuchli fiziologik jarayonlar yuz beradi. Organizm bo‘shashadi. odam o‘zini tuta olmaydi. Mustahkam irodali odamlar affekt xolatida ham o‘zlarini tuta biladilar. Kuchli xafalik va quvonch xolatlarini osonlik bilan o‘tkazadilar. Ular affekt xolatiga kam beriluvchi bo‘ladilar. Qizg‘in temperamentli odamlar ayniqsa affekt xolatiga beriluvchan bo‘ladilar. Ehtiroslar ijobiy va salbiy mohiyatga ega bo‘ladilar. Aniq narsaga yoki voqeaga qaratilgan ehtiroslar ijobiy ehtiroslardir. Bilimga, san’atga, hunarga, mehnatga bo‘lgan ehtiroslar ijobiy ehtiroslar jumlasiga kiradi. Ichilikbozlikka, qimorga, k:artabozlikka, molparastlik va pulparastlikka bo‘lgan extiroslar salbiy ehtiroslardir. Salbiy ehtiroslar jamiyatga zarar keltiradi shaxsni beburd va pastkash kimsaga aylantiradi. Faqat ijobiy moxiyatga ega bo‘lgan, aniq

maqsadga katta kuch va istak bilan intilishdan iborat emotsional holat ruxlanishdir. Odam faoliyatining muvaffaqiyatli mahsuli uni ruhlantiradi. Mehnatga berilgan baho, uni rag‘batlantirish ham odamning ruhini ko‘tarali, tetiklashtiradi. Odamning hayotida kayfiyatning roli juda ham kattadir. Chunki kayfiyati amisha tetik, normal bo‘lgan odamlarning ishlari ham unumli, barakali bo‘ladi. Affekt to‘satdan paydo bo‘lib, tez orada o‘tib ketadigan nihoyatda kuchli hissiy holatdir. Affekt holati yuz bergan paytda odamning ongi xiralashib, fikr qilish qobiliyati susayadi.. Affekt holatidagi harakatlar birdaniga boshlanib ketadi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, affekt paytida ham odam ongini yo‘qotib qo‘ymasligi, o‘z harakatlarini ongli idora qilishi kerak.

Ehtiros uzoq davom etadigan, anchagina kuchli hissiy holatdir. Ehtiros ba‘zan bir umrga davom etishi mumkin. Ehtirosning ko‘tarinki kayfiyatdan farqi shuki, ehtiros hamisha biror ob’yektga, ya‘ni ilm egallashga, san’atning ma‘lum bir turiga, sportga va shu kabilarga qaratilgan bo‘ladi.

Ehtiros odamni ijodiy faoliyatga undovchi kuchdir. Ilm-fan, san’at, muzika, sport sohasida kuchli ehtirosga ega bo‘lgan odam albatta katta muvafaqiyatlarga erishadi. Ehtiros bilan ishlaganda odam vaqtning ham o‘tganini va charchaganini ham mutlaqo sezmaydi. Shuning uchun ham ehtirosning inson hayotidagi roli g‘oyat kattadir.

Biroq ehtirosning salbiy, ya‘ni jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan turlari ham bo‘ladi. Masalan, ichishga eg‘tiros qo‘yish, qimorga ehtiros qo‘yish, xususiy mulk orttirishga ehtiros qo‘yish kabilar. Ana shunday salbiy ehtiroslarga qarshi kurash olib borish va tushuntirish yo‘li bilan odamlarni halokatdan saqlab qolish kerak. Haqiqiy ehtiros bolaning maktab yoshidan boshlab ko‘rina boshlaydi.

Axloqiy, intellektual va estetik hissiyotlar

Har bir jamiyatning esa shu jamiyat a‘zolari tomonidan qabul qilingan axloqiy normalari, axloqiy qoidalari bo‘ladi.

Odam, ya‘ni har bir jamiyat a‘zosi shu jamiyat axloqiy normalarini to‘la-to‘kis bajarishi yoki mutlaqo bajarmay, aksincha buzishi natijasida ma‘lum hissiyotlarni, ichki kechinmalarni bshidan kechiradi. Ana shunday paytda odamda ma‘naviy hissiyotlar ezaga keladi. Axloqiy hissiyotlar jumlasiga burch hissi, do‘stlik va o‘rtoqlik hissi, soflik hamda to‘g‘rilik hislari ham kiradi.

Odamning hayotida axloqiy hissiyotlarning roli g‘oyat kattadir. Axloq normalariga doimo rioya qiladigan odamning hamisha kayfiyati chog‘, o‘zidan mamnun va ishlari yaxshi bo‘ladi.

Intellektual hissiyotlar ham o‘z mohiyati jihatidan axloqiy hissiyotlarga yaqin bo‘lgan hisiyotlardir. Intellektual hissiyotlar odamning bilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar bo‘lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. Intellektual hissiyotlarimiz tufayli biz har byuir narsaning sababini bilishga intilamiz.

Estetik hissiyotlar ham yuksak axloqiy hissiyotlardan hisoblanadi. Estetik hissiyot deganda biz go‘zallikni idrok qilish, go‘zallikdan zavqlanish va go‘zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo‘lgan hissiyotdir.

